



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



№23

25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 10**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 250 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Abdullayeva Saida Sadullayevna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	12
2. Ahrorova Nodira Qurbanovna BOSHLANG'ICH SINFDA DARS JARAYONINI TASHKIL QILISHNING SAMARALI USULLARI.....	14
3. Alibayeva Firuza Adivaliyevna «MEHR-MURUVVAT DUNYO USTUNI!»	16
4. Alimova Shohida BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA LOKAL DARAJADAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	17
5. Barotova Dilorom Amriyevna O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	19
6. Hayitova Mohigul Toshpulotovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HUSNIXAT MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH	21
7. Isroilova Malikaxon Muhammadovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILI KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI.....	23
8. Jo'raqulova Gulbaxor Sattorovna, Toshboeva Saida Xurramovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TA'LIM JARAYONIDA MUSTAQILLIK VA FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY - NAZARIY JIXATLARI	25
9. Jo'rayeva Yoqutxon Rasulovna BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	27
10. Jumaniyozova Momojon TIL O'RGANISH METODLARI	29
11. Jumaniyozova Shakhnoza ФРАНЦУЗ ВА УЗБЕК ТИЛЛАРИ УНЛИЛАРИНИНГ КИЎСИЙ ТАХЛИЛИ	31
12. Karimova Sojida Sanoqulovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARINING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL QILISH	33
13. Madaminova Lobar SINONIMIYA VA VARIANTDOSHLIKNING TUG'UN IBORALAR SHAKILLANISHIDA TUTGAN O'RNI	35
14. Maxsutova Nargiza Sanginboyevna XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'RGATISHDA "KETMA-KET" METODIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	37
15. Mirzabayev Quadrat TA'LIM JARAYONIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	39
16. Muzaffarova Shohida Kenjayevna YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TARBIYA" FANINING AHAMIYATI	41
17. Nasrullayeva Adolat Anvarovna ONA TILI DARSLARIDA INTERAKTIV VA NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH	43
18. Qosimova Dilrabo Qosimovna PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA SOHALARIDAGI INNOVATSIYALAR: TEXNOLOGIYA DARSLARINI O'TISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVNING O'RNI	45
19. Qutliyeva Dilafruz To'yboyevna BOSHLANG'ICH SINIF O'QICHILARIDA FAN TO'GARAKLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	47

20. Rakhimova Nargiza FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z MA‘NOSINI KUCHAYTIRISHNING FONETIK USULLARI	49
21. Sadullayeva Zulxumor TARJIMADAGI TRANSFORMATSIYALAR	51
22. Sharipova Vasila Jumayevna, G‘ulomova Shahnoza MAKTAB FIZIKA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	53
23. Sharipova Zilola Xolmurodovna BOSHLANG‘ICH SINFLARDA POZITSION VA NOPOZITSION SANOQ SISTEMALARI HAQIDA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH	55
24. Sodiqova Shahnoza Yuldashaliyevna BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KELAJAGIMIZ POYDEVORI	57
25. Valixodjayeva Muxtaram BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH	59
26. Ashurova Nodira Rafiqovna, Pyosov Komron student THE IMPORTANCE OF INTEGRATION SKILLS IN ESP CLASSES	61
27. Ашурова Мохира Бахтиёровна ИНСОН АДАПТАЦИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР	63
28. Babakulova Guljamol BENEFITS OF EXTRA CURRICULAR ACTIVITIES IN EFL CLASSES	65
29. Kazakbayev Xolmat TEKNOLOGIYA DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR	66
30. Abdashimov Abdurauf TA‘LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRADIGAN INTERFAOL METODLAR VA ULARNING TASNIFI	68
31. Abdullayeva Sanobar Atanazarovna, Masharibova Dinora Komilovna TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI	70
32. Abdullayeva Maloxatxon Muxtarovna BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILAN AXBOROT KOMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	72
33. Alimova Guliandom Bahodirovna IJTIMOIY FAOL O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY IJODINI O‘RGANISHGA INNOVATSION YONDASHUV	74
34. Artiqova Shirin KONSTITUTSIYAMIZ HUQUQIY KAFOLATIMIZDIR	77
35. Berikbayeva Gulmira GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN DIDAKTIK O‘YINLAR VA ULARNING AHAMIYATI	79
36. Bolg‘aboyeva Nurgul BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING UMUMIY MASALALARI	81
37. Boymatova Muqaddas Mahamadaliyevna BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISH PREDMETI	82
38. Aminova Dilshoda Shavkatovna BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA ARIFMETIK AMALLAR BAJARISH TARTIBINI TUSHUNTIRISH USULLARI	84
39. Djuraqulova Adolat BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI	85
40. Fayzanova Umida Xusenovna UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINI KASB-HUNARGA VA BITIRUVCHILARNI OLIY TA‘LIMGGA YO‘NALTIRISH	86
41. Gulnoraxon Sayfuddinova BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARINING TA‘LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI VA VAZIFALARI	87
42. Hakimova Hurmat Alimovna BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITUVCHINING O‘QUVCHILAR BILAN O‘ZARO HAMKORLIGI	88

43. Ismoilova Shohista Zayniddinovna MASALALARNING O'QUVCHILAR BILIM OLISHIDAGI AHAMIYATI	89
44. Jambulova Muborakxon, Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI YOZUVGA VA XATOLARNI BARTARAF ETISHGA O'RGATISH	90
45. Jumaniyazova Mexrinisa Madrimovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI	92
46. Mamadaliyeva Dilshoda Ravshanboy qizi, Kamolova Shaydaxon Abdugappor qizi ONA TILI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH VA NUTQ O'STIRISH	94
47. Kirgizboyeva Muslima Bo'riboevna OILADA BOLA TARBIYASI UCHUN OTA-ONANING O'RNI VA AHAMIYATI	96
48. Matamirova Barno Muhitdinovna, Tojiboyeva Ra'no Shaxobiddinova TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O'RNI VA AHAMIYATI	98
49. Matkarimova Shahnoza Shonazarovna, Madaminova Qlara Duramovna TA'LIM JARAYONIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI	99
50. Matnazarova Gulpashsha Ismailovna ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH	101
51. Mirdadayeva Shoxista MAKTABDA KIMYO DARSLARIDA RAQAMLI LABARATORIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI DARS SIFATINI OSHIRISH METODLARI	103
52. Муйдинова Шахнозахон Пайзуллаевна TARIX FANINI O'QITISHDA CHET EL TAJRIBALARINI O'RGANISH VA FOYDALANISH... 105	
53. Musayeva Lolajon Atabayevna, Qalandarova Sayyora Samandarovna PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY KOMPETENSIYASI	107
54. Nafasov Doniyor Shernafasovich TALABALARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK JIHAHLARI	109
55. Najimova Aysara Dyusenbayevna ZAMONAVIY O'QITISH USULBLARI. PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALAR	112
56. Najimova Aysara Dyusenbayevna DARS JARAYONLARINI FAOLLASHTIRISH VA JADALLASHTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	114
57. Намозова Мафтуна Шокир кизи ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING KONSTITUTSIYASI VA ISLOM HUQUQI: KISKACHA QIESIY TAHLIL	116
58. Nurmatova Laylo Nuraliyevna 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MATNLI MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH	118
59. Ochilova Nasiba Baxriddin qizi O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARNI INGLIZ TILIDAN NUTQINI O'STIRISH TURLARI... 119	
60. Ollamova Shaxnoza Shonazar qizi, Yuldashova Nazokat Maxsudovna TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM YONDASHUVLARINI QO'LLASH	121
61. Oxunova Shahodat Jo'rayevna RUS TILI DARSLARIDA TILLARNI O'RGANISHDAGI INTEGRATSIYA	123
62. Po'latova Lobar Hojiqurbon qizi INGLIZ TILI METOKASINI DARSLARDA QO'LLASH BOSQICHLARI	125
63. Qadirov Bekzod Ko'palbay o'g'li INFORMATIKA FANING MAQSAD VA VAZIFALARI. TA'LIMIY TARBIYAVIY AHAMIYATI. KOMPYUTER GRAFIKASI MISOLIDA	127
64. Qambarova Mahfuza Obidovna O'QUVCHILARNI TABIAT BURCHAGIDAGI O'SIMLIK LARNI SAQLASH VA PARVIRISHLASH QOIDALARIGA O'RGATISH	129
65. Qosimova Shaxnoza Kosimovna O'QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA NUTQ MAHORATI	131

66. Qo'ziyeva Gulsara Jo'raqulovna LE SYSTÈME ÉDUCATIF EN FRANCE.....	133
67. Qurtova Nilufar BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	135
68. Quryazova Muqaddam Muxtarovna, Radjabova Ug'iljon Davlatovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	137
69. Raimov Baxtiyor MAKTABDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....	139
70. Rajabova Surayyo Madaminovna VATAN RAVNAQI G'OYASINI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH VAZIFALARI.....	140
71. Raxmonova Farida Umataliyevna MAKTABDA TARIX DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	142
72. Ro'zmetova Farida Shuxratovna, Ro'zmetov Farxod Madirimovich O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI.....	144
73. Rozzokova Rayxonoy Matyakubovna, Sa'dullayeva Go'zal Amankeldiyevna STEAM – YONDASHUVINING O'ZIGA XOSLIGI.....	146
74. Safarova Mexribon Ibraximovna, Nazarova Zumrad Kadamovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN NAZORAT TOPSHIRIQ TURLARI	148
75. Davronova Zebiniso Baxtiyorovna MAKTABLARDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	150
76. Sayfudinova Gulbahor MAKTAB PSIXOLOGLARINI SAMARALI ISHLASHLARI UCHUN ULARGA NIMALAR XALAL BERMOQDA.....	152
77. Shamsiyeva Mavjuda Shavqiddinovna, Hosilova Dildora Begmurodovna INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	153
78. Sobirova Dilorom Haydaraliyevna USING EDUCATIONAL INFORMATION RESOURCES TO DEVELOP STUDENTS' LISTENING SKILLS.....	154
79. Солиева Василахон Махамдалиевна O'QUVCHILAR NUTQIGA QO'YILADIGAN TALABLAR	156
80. Tilavova Firuza Xayrullayevna, Imomova Umida Iskandarovna XALQ OG'ZAKI IJODINI O'RGANISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI.....	158
81. Shahnozaxon To'xtasinova MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH	160
82. Турсунова Одина Махмуджановна NUTQ VA UNI O'STIRISH TUSHUNCHASI.....	161
83. Umarov Ravshan G'afurovich RAQAMLI IQTISODIYOT VA ILMIY TADQIQOT	163
84. Valiyeva Eleonora Nailevna, Radjapova Raziyaon Marimovna INNOVATSION FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH USULLARI.....	165
85. Хамдамова Шохидахон Гуломжоновна O'ZBEKISTONNING UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYASINING RIVOJLANISHI	167
86. Xasanova Feruza O'SIMLIK DUNYOSIDAN FOYDALANISH VA ULARNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH	169
87. Ra'no Xonboyeva Hasanovna, Sodiqova Nodira Abdusalomovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI.....	171
88. Xudoyberdiyeva Malika Raximovna O'SMIR BOLA TARBIYASIDAGI ENG MUHIM JIHLAR.....	173

89. Berdiyeva Shahloxon Yandoshovna ADABIY SAVODXONLIK MUAMMOLARI HAQIDA	175
90. Yoqubova Gavxarjon Ro'ziboyevna, Kurdosheva Jumagul Kenjaboy qizi BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	177
91. Yuldasheva Feruza Allaberganovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY AXLOQ- TARBIYASIDA SHAKLLANTIRISH	179
92. Азизова Маърифат EKSKURSIYA – BIOLOGIYANI O'QITISHNING MUHIM SHAKLI	180
93. Бозорова Хилола Турмухаммедовна ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В 5 КЛАССЕ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ОБУЧЕНИЯ	181
94. Гапурова Нилуфар Махамадовна МАТЕМАТИКА O'QITISHDAGI ILMIY IZLANISH METODLARI	183
95. Жўраева Нигора Эсановна, Бозорова Гулноз Раджабовна, Хушматов Шунқор Садуллаевич МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИНТЕРФАОЛ ЎҚИТИШ УСЛУБЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	184
96. А.С.Исмайлов ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАР ВА УРФ- ОДАТЛАРНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ.....	186
97. Рўзиева Назира Ёдгоровна МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИ ЎҚИШГА БЎЛГАН ҚИЗИҚИШНИ ШАКИЛЛАНТИРИШДА КЎРГАЗМАЛИЛИК МЕТОДИДАН ФЙДАЛАНИШ	188
98. Собирова Муножат Жалолитдиновна ВО'G'IN USTIDA ISHLASH	190
99. Тургунов Мусохон Гофурович РАЗВИТИЕ СВЯЗНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ.....	191
100. Турсунова Гулбахор Дедашбоевна МАКТАБ GRAMMATIKASI VA ILMIY GRAMMATIKA. GRAMMATIK TA'RIF VA TERMINOLOGIYA.....	193
101. Турсунова Зулфия Исраилжановна ONA TILI O'QITISH METODLARI.....	195
102. Ахмедова Нилуфар Яхияевна ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКОВОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ КУРСАНТОВ ТАМОЖЕННОГО ИНСТИТУТА.....	197
103. Jo'rayeva Hidoyat BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI FANIDAN SON-SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA INTER- AKTIV USULLARDAN FOYDALANISH USULLARI.....	199
104. Kenjayeva Rizqiniso Komilovna O'QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUV TEXNIKASIGA O'RGATISH	201
105. Najimova Furuza Sa'dullayevna CHET TILLARNI ONLAYN (MOBIL) O'RGANISH BO'YICHA ZAMONAVIY YONDOSHUV	203
106. Oltinova Gavkhar Bakhtiyorovna TEACHING WRITING FOR STUDENTS.....	205
107. Tosheva Maftuna Nurullo qizi INGLIZ TILI DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI.	207
108. Berdiyeva Sohiba Boboqulovna O'QUVCHILARNING LUG'AT BOYVLIGINI OSHIRISHDA OG'ZAKI NUTQNING TUTGAN O'RNI.....	210
109. Jumayeva Dilfuza Sharofiddinovna INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'QUVCHILAR TOMONIDAN ENG KO'P UCHRAYDIGAN XATOLAR	212
110. Kenjayeva Hamida BOSHLANG'ICH SINFLARDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH.....	214

111. Qo'shshiyeva Kumush Hazratovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH	216
112. Samadova Hilola OILADA MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING VAZIFALARI	218
113. Siddiqova Gullola MATEMATIKA DARSLARINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH	220
114. Aminov Elbek INGLIZ TILINING HAYOTIMIZDAGI O'RNI	222
115. Eshonqulova Xolida BOSHLANG'ICH MAKTABDA INTEGRATIV TA'LIM JARAYONINING USLUBIY JIHOZLANISHI	224
116. Eshova Sanobar Raxmonovna, Xojiyeva Dilshoda Furqatovna TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	226
117. Haydarova Dilafruz Burkhanovna HOW TO ENCOURAGE YOUNG LEARNERS TO BE CREATIVE	228
118. Jo'rayeva Gulzira Qo'ldoshevna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA OT MAVZUSINI O'RGATISH DAVOMIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH	230
119. Kholikova Madina Salimovna, Abdulloeva Rushana Eshpulotovna "THE LIGHTER SIDES OF TEACHING ENGLISH AS SECOND FOREIGN LANGUAGE FOR ELEMENTARY AND PRE-INTERMEDIATE LEVELS"	232
120. Qodirova Mahfuza O'ktamovna INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	234
121. Rajabova Nasiba BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	236
122. Tog'ayeva Gulnoza BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	238
123. Turayeva Dilfuza Qobil qizi INGLIZ TILIDAGI KO'P MA'NOLI SIFAT VA RAVISHLARNI TARJIMA QILISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR	240
124. Umedqulova Nasiba TA'LIMNI YANGI SIFAT BOSQICHIGA KO'TARISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	242
125. Маматова Махбуба Абдурахимовна UMUMLASHTIRISH METODI	244
126. Норматова Муаззамхон Махмуджоновна O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING BOSHQA O'QUV PREDMETLARI BILAN BOG'LIQLIGI	245
127. Раджабов Р.Ф. ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МАМАЛАКАТНИНГ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИ ВА ЁШЛАРНИНГ ТАЪЛИМ –ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ	247



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Saida Sadullayevna
Urganch shahridagi 18-maktab
Telefon: +998886005955
sabdullayeva1987@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yangiliklarni kiritishdir.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, pedagogik jarayon, o‘qitish uslubi, ijodiy fikrlash, axborot texnologiya, texnik vositalar, individual rivojlanish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy o‘qish darslarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilar shunday bir davrdalarki, bu vaqtda ularda nafaqat jamiyatda yashash qobiliyati, balki ijodiy fikrlash ham shakllantiriladi.

Ayrim boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolani o‘qishga o‘rgatish asosiy vazifa deb bilishadi. Albatta, o‘quvchilarni birma-bir o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘qituvchidan katta mahorat va mas’uliyat talab etadi. Biroq, yuzaga chiqmagan bolalar iste’dodi muammosi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bu masalani hal qilishda ya’ni o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradigan vositalardan biri badiiy o‘qish darsidir. Odatda, badiiy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yo‘nalishi hisoblanadi. Bunga tasviriy san’at, texnologiya va musiqa darslari yordam beradi. Ammo, o‘qish va ona tili, matematika va tabiatshunoslik kabi fanlar ham o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun juda ko‘p imkoniyatlarga ega.

Aslida, ijodiy qobiliyat qobiliyatlarning standart tushunchasidan tashqariga chiqish qobiliyatini anglatadi. Badiiy o‘qish darslarida o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga bog‘liq ravishda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishning innovatsion usuli sifatida turli xil o‘yinlardan foydalaniladi. Shuni esda tutish kerakki, boshlang‘ich sinf bolasi hali ham bunday o‘yinlarga moyil bo‘ladi. O‘quvchilarining ichki imkoniyatlarini ochishda o‘z isbotini topgan metodlarni berib o‘tamiz.

O‘qish darsining boshida soddalashtirilgan “Aqliy hujum” dan foydalanish. Bu esa o‘quvchilar bilimlarini takrorlagan holda, o‘tilgan materiallarni eslab qolishga, yangi bilimlar olishga tayyorgarlik ko‘rishda yordam beradi.

“Men o‘zimni namoyon qilaman”. Yangi adabiy tushunchalar bilan tanishishdan oldin, o‘quvchilar o‘zlarini eng yaxshi tomondan ko‘rsatish taklif qilinadi. Ushbu uslub ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan tashqari, notiqlik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Yaxshi rivojlangan monologga ega bo‘lgan o‘quvchi mantiqiy, izchil va oqilona ravishda o‘z fikrlarini ifoda eta oladi, o‘quv dasturidagi murakkab savollarga batafsil javob bera oladi, darsliklar, badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodi matni ustida mustaqil ishlay oladi.

“So‘zlarni taqqoslash”. Bunda o‘quvchilarga har xil ma’noga ega bo‘lgan ikkita so‘zni (qazilma va ko‘pyoq) taqqoslash taklif qilinadi. O‘quvchilarning vazifasi ushbu so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligiga imkon qadar ko‘proq misollar keltirishdir.



“Nostandart vaziyatlarni taklif qilish”. Bu matn bilan ishlashda o‘quvchilarni kutilmagan savollarga javob berish so‘raladi:

- Odamlar boshlarida yurishni boshlasalar nima bo‘ladi?
- Agar sut jo‘mrakdan oqib chiqsa nima bo‘ladi? va hakoza.

Matn bilan ishlashda savollarni tanlash ham nostandart bo‘lishi kerak. Asosiysi, bola savolda qanday xarakter qayd etilganligi haqida tasavvurga ega. Bu jarayonda mantiqiy bog‘liq bo‘lgan, kompozitsion va grammatik jihatdan ishlab chiqilgan, kengaytirilgan va to‘liq, hissiy va semantik bayon qilingan izchil nutq rivojlanadi.

“Sinonimini top”. Atamashunoslikka murojaat qilmasdan, o‘quvchilarni o‘xshash ma’noli so‘zlarni topish taklif qilinadi. Buni ommaviy ish shaklida, balki juftlikda ham amalga oshirish mumkin.

“She’rni davom ettir”. Bunda o‘quvchilarga she’rdagi yo‘qolgan satrlarni davom ettirish so‘raladi: Qudrat Hikmatning “Bahor” she’ri misolida.[1, 105 b.]

Bedapoya yam-yashil o‘tloq,
Chinorlarda qushlar chug‘urlar.
Ko‘klam ko‘rkin ko‘rdingmi, o‘rtoq,

“Taqlid”. Bu metodni o‘tkazishda mavzu o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi va bolalar topshiriqni bajarish jarayonida asar qahramoniga mos harakatlar qilishi talab qilinadi. O‘quvchi obrazga kirishi bilan nutq va harakatlar hamohang bo‘lishi kerak.

“Yozuvchi”. Ushbu yoshdagi bolalar xayol qilishni yaxshi ko‘radilar, uni har jihatdan rag‘batlantirish kerak. Dastlab, o‘quvchilar o‘qilgan matn uchun boshqa sarlavha taklif qilishadi. Barcha aytilgan variantlar ijobiy baholanib, ularning ichidan eng yaxshi g‘oyalar saralanadi. O‘qituvchi asar yakunini ochiq qoldiradi va o‘quvchilardan matnning oxirini “yozib tugatish” so‘raladi. Bu bolaga asar qahramonlarining tarixiga chuqur kirib borish uchun imkoniyat bo‘ladi. Asarni yangi talqinda ixtiro qilish juda yaxshi uslubdir.

“Teatr tomoshalari”. Badiiy o‘qish darsining bir qismi sifatida, o‘quvchilar uchun kichkina “yulduzlar” va kelajakdagi haqiqiy iste’dodlarni topish mumkin. O‘quvchi asar qahramonni tasvirlashda o‘qituvchining samimiy maqtoviga sazovor bo‘lishi, ilgari “noma’lum” bo‘lgan o‘quvchining sinfdoshlari orasida obro‘sini oshiradi. Metodning muvaffaqiyati o‘quvchilarning kichik sahnalarda eng yaxshi tomonlarini ko‘rsatishga harakat qilishidir.

Darsdagi dam olish daqiqalari ham bolaning ijodiy fikrlashiga ta’sir qiladi, olingan ma’lumotdan tanaffus olish imkoniyatini beradi. “Ijodiy yengillik mashqlari bolaning tanasiga ortiqcha kuchlanishdan xalos bo‘lishga, psixologik muvozanatni tiklashga va shu bilan ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi” [2, 512 b].

Xulosa qilganda, zamonaviy ta’lim barcha o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini namoyish etish va barcha ijodiy qobiliyatlarini istisnosiz namoyish etish imkoniyatini beradi. Bugungi jamiyat quti tashqarisida o‘ylaydigan, muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini topa oladigan, nostandart qarorlar chiqaradigan va ijodiy fikrlay oladigan shaxslarga muhtoj. Buning uchun, boshlang‘ich sinflardan boshlab bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Matchonov S. va boshqalar. O‘qish kitobi 4-sinf. – Toshkent.: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2020. 105-bet.
2. Vigotskiy L. S. Bola rivojlanishining psixologiyasi. – Moskva.: “Eksmo”, 2010. 512 b.



BOSHLANG‘ICH SINFDА DARS JARAYONINI TASHKIL QILISHNING SAMARALI USULLARI

Ahrorova Nodira Qurbanovna
Samarqand viloyati Jomboy tumani
23-umumta’lim maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998973907309

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dars jarayonini tashkil qilishda interfaol usullar va texnologiyalardan samarali foydalanish to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlari: boshlang‘ich ta’lim, innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar

Bugungi kunda o‘quv tarbiya jarayonini zamonaviy o‘qitish usullaridan, pedagogika fanining ilg‘or yutuqlaridan foydalanib, shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang‘ich ta’lim nazariyasini yaratish kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri – *ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishdan* iborat. Jamiyat va davlatning kelajagi asosan yoshlarning qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Sababi, yoshlar uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonida jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlarda faollashadi. Mazkur jarayonda uzluksiz ta’lim tizimining o‘rni katta. Uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki poydevori sifatida esa boshlang‘ich ta’lim muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonidagi ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O‘quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi, o‘quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko‘p qirrali samara keltiradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas’uliyatlari cheksizdir. Bugungi yangilanish, ma’naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bunday mas’uliyatli va sharafli vazifalarni hal etishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘rni va xizmati kattadir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi dars jarayonida o‘quvchilarning bir qolipga tushib qolmasligi uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bilan birga, multimediali ishlanmalardan samarali foydalangan holda o‘qitishning o‘yinli shakllari va mediatexnologiyalarini qo‘llash imkonini egallagani bilan o‘zining kompetentligini namoyon qila oladi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmunini, tuzilishini, usullarini qayta ko‘rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan modul tizimi, reyting asosida baholash, pedagogik texnologiyalar, test sinovlari shular jumlasidandir.

Pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tatbiq eta olishi, ta’limning yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida o‘z o‘quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtayi nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo‘ladi. Buning uchun esa u yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining barcha komponentlari; ta’lim qonun-qoidalari, mazmuni, metodlari, vositalar va shakllarining o‘quvchi va o‘qituvchi aqliy salohiyatini kuchaytirishga yo‘naltirilgan aniq maqsadlar qo‘yilishi hamda ularning to‘la bajarilishiga kafolat beradigan, o‘ta mukammal ishlab chiqilgan texnologik tizimdir. Innovatsion texnologiyalarning afzallik jihatlaridan biri interfaol metodlar hisoblanadi.

Hozirgi davr o‘quvchisi dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi voqelikka to‘g‘ri baho bera oluvchi, o‘tkir zehni, mustahkam irodali qisqa qilib aytganda, yuksak intellektual



kuchga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa ta'lim tizimiga innovatsiyalarni ta'sis etish zarur. O'z o'rnida u innovatsiyalar dars jarayonida turli ijtimoiy-psixologik to'siqlarni yengish uchun shart-sharoit yaratib boradi. Innovatsiyalarni tatbiq etish jarayonida o'quvchining dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy sifatleri ham ma'lum darajada shakllanib boradi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Bunday metodlarni qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar aqliy kamolotini rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, yangiliklarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashini, malakasini tinmasdan oshirib borishini, ongini yanada boyitishini, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishini talab qiladi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, zamonaviy pedagogik –psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi, desak xato bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tilganda, guruhda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar qolmaydi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. O'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: 2008-yil
2. Matnazarova K. O'qitishning faol metodlari// Boshlang'ich ta'lim, 2009, 5-son



«МЕHR-MURUVVAT DUNYO USTUNI!»

Alibayeva Firusa Adivaliyevna
Angren shahar 34-maktab internati musiqa
madaniyati fani o'qituvchisi
Tel: +99893 616 03 73

Anatatsiya: Ushbu maqolada mehr-muruvvat, oqibat negizida insonning qadriga yetish, hol so' rash, xayr-saxovat ko'rsatish, yetim-yesirlarga saxiy bo'lish kabi fazilatlar tushinchalar haqida so'z yuritilgan.

Kalit soz: BMT, bosh assambleya, vatanparvarlik, insonparvarlik, el-yurt.

Ma'lumki qadriyat tushunchasi keng tushuncha bo'lib, unda barcha insoniy fazilatlar mujassamlashadi. Ulardan inson – oliy qadriyat bo'lib, insonning jamiyat bilan uzviyligi masalasi hamisha dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Insonlarni qadrlash esa ularga bo'lgan mehr-muruvvat tuyg'ularining eng ustuvor tuyg'u ekanligida o'z ifodasini topadi. Ma'lumotlarga qaraganda sayyoramizda 1 milliard nafarga yaqin nogironligi bor shaxslar hayot kechiradilar. 2019-yil ma'lumotiga ko'ra yurtimizda 710 mingga yaqin nogiron fuqarolarning 100 ming nafari 16 yoshgacha bo'lgan bolajonlar hisoblanadi, shundan 80 ming nafari maktab yoshidagi o'quvchilardir.

«O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonun, Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 1992-yil 14-oktyabrdagi 47/3 sonli qaroriga asosan har yili «3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni» sifatida Respublikamizda keng nishonlanishi hukumati, biz tomonidan olib borilayotgan kuchli va manzilli ijtimoiy himoya siyosatining yaqqol isbotidir. Ushbu kuni nishonlashdan asosiy maqsadlardan biri butun dunyoda amalga oshiriladigan dastur va loyihalarda nogironlar boshqa nogironligi bo'lmagan kishilar bilan teng huquqlilik asosida ishtirok etishini, nogironlarning manfaatlari, huquqlari inobotga olishini, barcha mamlakatlarda nogironlarni qadr-qimmatini himoyalovchi qonunlar va tartib tamoyillarning joriy etilishini ta'minlab, barcha uchun ochiq va do'stona bo'lgan jamiyat qurishdan iboratdir.

Respublika bo'yicha 86 ta jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari mavjud va ularda 21 ming 153 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Bundan tashqari, 21 ta sanatoriy tipidagi maktab-internatida 6 131 nafar o'quvchi o'qiydi. Uzoq muddat davolanishga ehtiyoji bo'lgan, nogironligi bor uyda yakka tartibda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni 13 272 nafarni tashkil etadi. Yana 13 mingdan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar umumta'lim maktablaridan inklyuziv tarzda ta'lim olishyapti.

Insonda mehr-muhabbat avvalo tug'ilgan makonini naqadar sevishi, Vataniga bo'lgan muhabbati va sadoqatida namoyon bo'ladi. Mehr forscha so'z bo'lib, birinchi quyosh, oftob, ikkinchi sevgi, muhabbat ishq degan ma'nolarda ishlatiladi. Quyoshning hikmati shundaki u barchaga barovar. Yaxshiga ham yomonga ham birdek nur sochaveradi. Mehrli inson ham shunday. U hamisha yordamga shay turadi, birovlarining hojatini chiqaradi, o'zgalarning mehnatini qadrlaydi.

Xalqimiz azal-azaldan mehr-oqibatli xalqdir. O'zbek millati uchun bu fazilat o'ta milliy qadriyat. Hech bir millat farzandi ota-onasiga o'zbek bolasidek mehr-muruvvatli, oqibatli bo'la olmaydi.

Mehr-muruvvat, oqibat negizida insonning qadriga yetish, hol so' rash, xayr-saxovat ko'rsatish, yetim-yesirlarga saxiy bo'lish kabi fazilatlar mujassamdir. Insonlarga yaxshilik qilish muruvvat va oqibatning asosidir.

3 dekabr - nogironlarni himoya qilish kuni deb nishonlanishi asrlar osha sayqallanib, mazmunan boyib va kengayib kelgan mehr va muruvvat tushunchalarining kelajak avlod ongida yanada mustahkam o'rin olishida muhim ahamiyatga ega.

Biz tinch osmon ostida, osoyishta zaminda yashamoqdamiz. Bu yurt odamlarining yuragida mehr-muhabbat jo'sh uradi. Ular kimgadir yaxshiliklar qiladi, muruvvatlar ko'rsatadi.

Aziz yoshlar! Sizlar azaliy qadriyatlarni asrlar osha asrab kelayotgan elning avlodisiz! Sizlar undan faxrlanishingiz va shu ulug' yurtga munosib farzand bo'lishlaringiz kerak!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" Toshkent: O'zbekiston, 1992, 6b-bet. 56

2. Internet ma'lumotlari. Ziyonet.



БIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA LOKAL DARAJADAGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Alimova Shohida
Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanidagi
16-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta‘lim muassasalarda biologiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Klaster, ko‘nikma, malaka, mavzu, keys, venn diagrammasi, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, atamalar zanjiri, atamalar varag‘i.

Biologiyani o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o‘quvchilarning o‘tgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o‘rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Biologiyani o‘qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan “Keys”, “Insert”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varag‘i”, tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlarining turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Biologiya fanini o‘qitishda muammoli masalalarni o‘qitishda “Keys”dan foydalanish yuqori samara beradi.

“Keys” – case studies ingliz tilidan olingan bo‘lib, jarayon yoki vaziyat degan ma‘noni anglatadi.

Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlarni o‘qitishda foydalanilgan bo‘lib, hozirgi paytda o‘qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlarning tashqi va ichki, ob‘ektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ularni hal etish uchun o‘quv munozaralari tashkil etiladi.

Biologiyani o‘qitishda dastur mazmunidagi evalutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali “o‘simliklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi”, “hayvonot olamining paydo bo‘lishi va rivojlanishi” kabi mavzularni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Ta‘lim – tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o‘qituvchi:

1. Fan doirasidagi muammoli mavzularni aniqlashi, shu mavzularni o‘qitish uchun muammoli savol – topshiriqlar tuzishi;

2. Dars davomida muammoli savol – topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga ko‘ra yakka tartibda yoki o‘quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlarni tashkil etilishini aniqlash;

3. O‘quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o‘quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo‘llarini rejalashtirishi;

4. Muammoli savol- topshiriqlar asosida tashkil etilgan o‘quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi mumkin.

Darsning mazmunidagi faqat faktik materiallarni o‘rganish nazarda tutilgan mavzularda insertdan foydalanish tavsiya etiladi.

Insert - lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi.

O‘quvchilarni insert yordamida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O‘quvchilar har bir jumlaning o‘rganib chiqib, maxsus jadvalga, muayyan belgilar asosida belgilash tavsiya etiladi.

Agar jumlada berilgan ma‘lumot shu kungacha o‘zlashtirilgan bilimlariga mos kelsa, “Bilaman” – V, agar ma‘lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda “Maqullayman”+, agar ma‘lumotlar o‘quvchilarga o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda “O‘rganish lozim”-, o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda “Tushunmadim” ? belgisini qo‘yadi.

Insertda foydalaniladigan maxsus jadval



T/R	“Bilaman” V	“Ma’qullayman” +	“O’rganish lozim” -	“Tushunmadim” ?
1				
2				
3				
4				

Ta’lim – tarbiya jarayonida insertdan foydalanish quyidagi talablarga amal qilinishi:

1. O’quvchilar kichik guruhlariga ajratilishi, lekin insert vositasida dastlab har bir o’quvchi yakka tartibda ishlashi va jadvalni to’ldirishi, guruh a’zolari belgilangan muddatda ishlashni yakunlaganlaridan so’ng, fikrlarni taqqoslashi;

2. O’quv bahsi orqali kichik guruh a’zolarining jadvaldagi belgilarining bir xil bo’lishini ta’minlashi, ya’ni jadvaldagi keyingi ikki ustun bo’yicha bir xillikka erishishi;

3. O’qituvchi o’quv materialini asosida tuzilgan savol – topshiriqlari va kichik guruh a’zolarining jadvaldagi belgilari asosida o’quv bahsini tashkil etishi lozim.

Biologiyani o’qitishda o’quvchilarning o’zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish, mustahkamligini ta’minlash maqsadida klasterdan foydalanish muhim o’rin tutadi.

Klaster – inglizcha cluster so’zidan olingan bo’lib, shajara degan ma’noni anglatadi. Ushbu lokal texnologiya o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan va o’zlashtiradigan g’oya, nazariya, qonuniyat hamda tushunchalar o’rtasidagi bog’lanishini anglash, bir – biriga uzviyligini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Klasterni tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Biologiya faniga oid muayyan g’oya doska yoki qog’oz o’rtasiga yoziladi;

2. Ushbu g’oya bilan bog’liq qonuniyatlar, tushunchalar bir – biriga bog’liq holati ko’rsatgich bilan belgilanadi, so’ngra mazkur qonuniyat va tushunchalarning faktik ma’lumotlari grafik tarzda yoziladi va tarmoq hosil qilinadi;

3. Avval o’rganilgan mavzu va o’rganiladigan mavzu o’rtasidagi bog’lanishlar haqida xulosa chiqariladi.

Klasterdan foydalaniladigan darslarda o’quvchilar teng sonli kichik guruhlariga ajratilib, ularga o’quv topshirig’ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirilganidan so’ng, ular belgilangan vaqt ichida fikrlarini jamlab, o’zlari tuzgan klasterni himoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratilib, eng yaxshi va asosli tuzilgan klaster aniqlanadi, g’oliblar rag’batlantiriladi. Klasterni bitta mavzu yoki bob bo’yicha yaxlit holda tuzish o’quvchilarning tizimli fikr yuritishiga zamin yaratadi.

Videotopishmoq metodi – bu metodda o’quvchilar e’tiboriga o’rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yorituvchi izohlarsiz bir necha videolavha namoyish etiladi. O’quvchilar har bir lavhani izohlaydilar, jarayonlarning mohiyatini daftarga qayd etadilar, o’qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

Yuqorida ko’rib o’tgan lokal darajadagi pedagogik texnologiyalar darsning muayyan qismida o’quvchilarning bilish faoliyatini faolashtirib, ta’lim samaradorligini o’rttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. J.O.Tolipova. Biologiyani o’qitishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011.

2. J.G’.Yo’ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent. O’qituvchi, 2004.



О‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Barotova Dilorom Amriyevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 15-maktab
ona tili va adabiyot fani oily toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishning dolzarbligi va bu yo‘lda foydalanish mumkin bo‘lgan texnologiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, topshiriqli diktant.

Til millat ma‘naviyati va madaniyatining ko‘zgasidir. Yosh avlodga ona tilining bepoyon sarhadlarini zabt etish sirlarini o‘rgatish barcha pedagog kadrlarning mas‘uliyatli burchidir. Yoshlarga ta‘lim-tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, iste‘dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo‘llashi, o‘quvchilarni o‘zaro faollikka olib kelishiga bogliqdir. Har bir pedagog dars o‘quv-tarbiya jarayoning asosiy shakli ekanligini yaxshi biladi. Dars jarayonida har tomonlamarivojlangan shaxsni tarbiyalashga e‘tibor qaratiladi.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davr biz pedagoglarning oldigabirqancha mas‘uliyatli vazifalarini qo‘ydi. Zamon bilan hamnafas pedagogik texnologiyalar, AKT, interfaol metodlardan foydalanish kundalik hayotiy ehtiyojimizga aylandi. Pedagogik texnologiyalar asosida o‘tkazilgan mashgulotlar o‘quvchilarni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Interfaol usul har bir o‘quvchining faolligiga, erkin mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi hamda o‘quvchilar o‘qituvchi yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lishadi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish asosiy masala hisoblanadi. Men o‘z ish tajribamda o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish maqsadida quyidagi interfaol usullardan foydalanib kelmoqdaman.

“Charogon quyosh”. Bu usulda sinfdagi o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Doskaga quyoshning dumaloq shakli chizilgan ikkita plakat osib qoyiladi. Quyosh nurlari aks etgan tarqatmalarga savollaryozib stol ustiga terib qo‘yiladi. Savollarga to‘g‘ri javob bergan har bir guruh a‘zosining tarqatmalari o‘zlarining quyoshiga yopishtirib qo‘yiladi va guruh quyoshining charog‘on nur sochishiga yordam beradilar. Bu usulni qo‘llash orqali:

O‘quvchilar erkin va mustaqil fikrlashga o‘rganadi;

O‘g‘zaki nutq ko‘nikmalari rivojlanadi;

Guruh ichida hamkorlikda ishlashga o‘rganishadi;

O‘tilgan mavzular bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

“Topshiriqli diktant” usuli o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish bilan birga o‘tilgan mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklarini o‘rganishga ham qaratilgan. Bu usul o‘quvchilarni individual ishlashga, o‘tilgan mavzular yuzasidan mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Masalan, “Gap bo‘laklari mavzusi bo‘yicha topshiriqli diktant.

Gap bo‘laklariga _____ kiradi.

Bitta shakllangan kesimga ega bo‘lgan gap _____ deyiladi.

Sodda gaplarda to‘liq shakllangan kesim _____ bo‘ladi.

Ega bilan hol _____ bog‘lanadi.

Aniqlovchilar _____, to‘ldiruvchi esa _____ bog‘lanadi.

8-sinflarda Matn ustida ishlash darslarida o‘quvchilarni zeriktirmaslik va mavzuni to‘la qonli egallashlari uchun “Zakovat barabani” metodidan foydalanish mumkin. Tahlil uchun berilgan matn electron doskada ko‘rsatiladi. Baraban ustida raqamlar yozilgan bo‘ladi. 1-guruh o‘quvchisi chiqib barabanni aylantiradi, shu raqamdagi gapni 2-guruh oquvchisi tahlil qiladi. 2-guruh oquvchisi aylantirganda bu gapni 3-guruh oquvchisi tahlil qiladi. Shu tariqa golib guruh aniqlanadi.

“So‘zlar xazinasi”. Bu usulni ko‘proq 5-6-sinflarda so‘z turkumlarini mustahkamlash darslarida qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda savatchaga har xil so‘z turkumiga oid so‘zlar yozilgan qog‘oz parchalari joylanadi. Har bir guruhdan o‘quvchilar navbat bilan chiqib qogoz parchasiga yozilgan



soʻzni qaysi soʻz turkumiga oid ekanligini aytadilar. Qolgan oʻquvchilar javoblarni toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini tasdiqlab turishadi. Shu tariqa golib guruh aniqlanadi.

“*Bosqichli matn*”. Hozirgi kunda oʻquvchilarning bayon, insho yozishga qiynalishlari ogʻriqli nuqtalarimizdan biridir. Shunga koʻra oʻquvchilarning mustaqil tarzda matn tuzish koʻnikmasini rivojlantirishimiz kerak. “Bosqichli matn” usulida har bir guruhga bittadan soʻz beriladi. Ular shu soʻzdan soʻz birikmasi, soʻz birikmasidan gap, gapdan esa matn tuzishlari kerak boʻladi. Masalan: Bino baland bino Yurtimizda baland binolar koʻp. Vatanimiz mustaqillika erishganidan soʻng juda koʻp ishlar amalga oshirildi. Shahrimizda osmonoʻpar imoratlar, baland binolar qad rostladi.

Oʻquvchilarni oʻz fikrini, his-tuygularini mustaqil tarzda bayon etishga oʻrgatish, yozma va ogʻzaki savodxonligini oshirish, xatosiz va chiroyli yozadigan, taʼsirchan va maʼnoli soʻzlay oladigan-chinakam savodxon oʻquvchini tarbiyalashga eʼtiborni qaratish kerak. Bu maqsadga erishish uchun oʻqituvchi oʻz ustida izlanib, yuqorida zikr etilganidek axborot texnologiyalartidan, zamonaviy metodlardan, interfaol usullardan tashkil topgan mashgʻulotlarni koʻpaytirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik Toshkent-2019
2. Ona tili. Umumiy orta taʼlim maktabarining 8-sinfi uchun darslik. Toshkent-2019
3. R.H. Shernazarova. Ona tili va adabiyot taʼlimida pedagogik texnologiyalar. Guliston-2013



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HUSNIXAT MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

*Hayitova Mohigul Toshpulotovna
Buxoro viloyat, Peshko' tumani,
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998(99)124-60-82*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozuv ko'nikma va malakalarini shakllantirish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan. O'quvchilar husnixatini shakllantirish yuzasidan bir nechta ta'limiy va texnik shartlar yoritib berilgan. Harflarning qiyaligi va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: qiyalik, balandlik, kenglik, gradus, masofa, husnixat, grafika, orfografika, yozuv qurollari, didaktik qoidalar, takroriylik, onglilik, ko'rgazmalilik.

Har bir o'quvchining daftari – o'qituvchining yuzi. Daftar chiziqlarida saf tortib turgan harflar pedagogning qanday ishlayotganidan nishona. Husnixat bilan imlo qoidalariga asosan yozilgan so'zlar-u raqamlar ko'zlarni quvnatib, dillarni yashnatadi. Palapartish, noto'g'ri yozilgan xat esa ko'ngilni xira torttiradi. Yozma nutqi ravon o'quvchining og'zaki nutqi ham ravon, suhbat shirin bo'ladi. Bu ilk maktab yoshidan boshlanadi. Bu esa murakkab jarayon bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'quvchilarni yozuvga o'rgatishning muvaffaqiyatli natijasi bir qancha vositalarga bog'liq bo'lib, ularni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin.

1. Texnik shartlar.
2. Ta'limiy shartlar

Texnik shartlarga quyidagilar kiradi:

1. Sinf jihozlarining o'quvchilar bo'y bastiga mos bo'lishi.
2. Sinf xonasining normal yoritilishi.
3. Partada o'quvchining to'g'ri o'tirishi.
4. Ruchkani to'g'ri ushlashi.
5. Daftarni 65 gradus qiyalikda tutish.
6. Daftar chiziqlarining aniq va ko'zga tashlanib turishi;
7. Ruchka siyohining ko'k rangda bo'lishi;
8. Ruchka uchining silliq bo'lishi;
9. Harf unsurlari va harflarni to'g'ri bog'lab yozish;
10. Yozuvni 75 gradus qiyalikda yozish;
11. Har bir qatordagi harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish;
12. Harf unsurlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash;
13. Ko'z bilan daftar orasidagi masofaning 30-35 sm ga teng bo'lishi;
14. Ruchka uchi bilan barmoqlar orasidagi masofaning 10-12 mm bo'lishi;
15. Ruchka yo'g'onligining o'quvchilar qo'l barmoqlariga mos bo'lishi va uzunligi 130 mm dan oshmasligi;

Talimiy shartlar o'qituvchining faoliyati bilan bog'liq. Ularga yozuv darsi jarayonida amalga oshiriladigan metodik xarakterdagi ishlar kiradi.

Xatolar ustida ishlash chiroyli yozuvga o'rgatishning eng foydali usuli bo'lib, individual yondashishni taqozo etadi. Chiroyli yozuvga – husnixatga o'rgatish grafik va orfografik xatolarning oldini oluvchi bir vosita bo'lganidek xatolar ustida ishlash ham husnixatga o'rgatishning bir vositasidir.

Daftarda bolalar yo'l qo'ygan xatolarning xarakteriga qarab quyidagicha topshiriq va ko'rsatmalar bilan individual yordam berib borish mumkin.

- Yozuvda qiynaladigan o'quvchiga nuqtalar ustidan yozib chiqish.
- Harflarni qalam bilan yozib berish, o'quvchiga uning ustidan ruchka yurgizib yozdirish;
- Harflar oralig'ini chamalashda qiynaladigan o'quvchilar uchun harflarning o'rnini nuqtalar bilan belgilab qo'yish;
- o'ta yotqizib yoki tik qilib yozadigan o'quvchilar uchun qiya yordamchi chiziqlarni zich qilib, harf elementining joylashishini hisobga olgan holda qora qalam bilan chizib berish yoki chiziqlar bilan qiyaligini ko'rsatish;
- O'quvchilarning qo'lini ushlab yozdirish ham yozuvga o'rgatishning eng samarali usulidir. Sinfda nechta o'quvchi bo'lsa iloji boricha hammasining qo'lidan ushlab yozdirishga harakat qilish kerak (ayniqsa birinchi haftalarda)

Lekin shuni unutmaslik kerakki, o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarni mustaqil



faoliyatga o'rgatish, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch bilan qarab kabi zarur fazilatlarini tarbiyalash, tarkib toptirish kabilar turishi kerak.

Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, bo'r qalam) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishga qarab qo'l harakatlari shunga moslashtiriladi.

Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun birinchi navbatda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish;
2. Parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish;
3. Yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish;
4. O'z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rgatish;
5. Tovushni bosma harfga, bosma harfni esa yozma shaklga aylantirishga o'rgatish;
6. Harflarning shaklini idrok etish (qayerdan boshlash, qayerda to'xtash, o'ngga, chapga burilish, boshlash va h.k.)
7. Harflarni bir-biriga bog'lab yozishga o'rgatish;
8. Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o'rgatish;
9. Daftari chizig'idagi qatorlarni to'g'ri to'ldirish, sarlavha, oy, va kunlarni to'g'ri yozish;
10. Harflarning qiyaligini to'g'ri saqlash;

Yozuvning sifatini shakllantirish deganda, uning aniq va toza, bir qiyalikda va balandlikda, bir tekis silliq yozilishini tushunamiz.

Orfografik ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallash grafik malakalarning qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Ehtiyotsizlik va befarqlik bilan yozilgan, chiroyli yozuv talablariga javob bermaydigan yozuv o'quvchilarning orfografiyasini yana ham pasayishiga olib keladi. Yozuvi xunuk, yozishni yaxshi bilmaydigan bola yozma ishini beparvo, o'ylamasdan yozadi, o'z xatolarini ham sezmaydi. Grafik malakalarni egallamagan o'quvchilarning yozma ishlarida grafik malakalarni yaxshi egallagan o'quvchilarning ishlariga nisbatan imlo xatolar ko'p uchraydi.

Buning sababi grafik malakalari shakllanmagan o'quvchilar yozuv jarayonida tovushni harfga aylantirish, harfni yozish, ularni bir-biriga ulashga keragidan ortiq vaqt sarflaydilar. So'ng o'quvchilar oldida turgan umumiy muammo – to'g'ri yozish muammosini hal qilish uchun ulgurmaydilar. Bularning hammasi o'quvchida borgan sari o'zida ishonchsizlik kayfiyatini tug'diradi, yozuvni uning uchun mashaqqatli ishga aylantiradi. Oquvchi grafik malakalarni qanchalik tez egallab olsa, to'g'ri yozuv mashqlarini shunchalik muvaffaqiyatli bajaradi.

Grafik malakalarsiz to'g'ri yozuvning bo'lishi mumkin emas. Bola qanchalik chiroyli yozsa, undagi yangi narsalarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi, o'z ishiga sinchkovlik va diqqat bilan qaraydi, yozuvini kuzatib boradi. Yozuvini dastlabki paytlarda grafik jihatdangina kuzatsa, keyinchalik orfografik jihatdan ham kuzata boshlaydi. O'qituvchi bunga erishish uchun xat savod o'rgatish davri yozuv darslariga alohida mas'uliyat hissi bilan yondashuvi, har bir o'quvchining qobiliyati, ruhiyatini yaxshi bilishi lozim.

Yozuv o'quvchining xarakteri, temperamenti, genetik imkoniyati, hatto kayfiyatiga ham bog'liq bo'ladi. O'qituvchi yozuv darslarida doimiy izlanishda bo'lishi, ta'limning samarali usullaridan foydalanishi, imkoniyatidan kelib chiqib yozuvga o'rgatishning qulay usullarini qo'llashi lozim.

Chiroyli yozuvga o'rgatish nafaqat yozuv va ona tili darslarida, balki matematika darslarida ham e'tiborga olib borilishi shart. Hisob darslarida raqam va sonlarning daftar kataklariga mos holda yozilishi ham ahamiyatga ega. Bu mashqlar ayniqsa, to'g'ri chiziq, kesma, to'rtburchak, kvadrat, uchburchak kabi geometrik shakllarni chizish jarayonida namoyon bo'ladi. Husnixati chiroyli bo'lgan o'quvchilar bu kabi vazifalarni hech bir qiyinchiliksiz, tezda uddalashadi. Aksincha bo'lgan o'quvchilarda yana qiyinchiliklar kuzatiladi. Shuning uchun o'quvchilar yozuvi ustida doimiy nazorat o'rnatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "1-sinfda savod darslari". (T.G'afforova, X.G'ulomova, G.Eshturdiyeva). Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti. 1996 yil.
2. "Savod o'rgatish darslari" (R.Safarova, M.G'ulomov, M.Inoyatova). "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent-2012.
3. "Boshlang'ich ta'lim jurnali". 12-son, 2014- yil –dekabr.
4. "Husnixat va uni o'qitish usuliyoti". (Yunus Azimov). Buxoro-2008-yil.



**МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILI KOMPETENTLIGINI
OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI
(RUS TILI MISOLIDA)**

Isroilova Malikaxon Muhammadovna
Bo'ston tumani 28-MTT katta guruh tarbiyachisi
Tel: +998901442577
E-mail: 1998i.xuol1998@gmail.com

"Bolaga ta'lim berish uchun o'zingiz ham go'dak bo'ling!"
Vladimir Odoyevskiy

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tizimi har qachonlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qolaversa hozir butun dunyoda globalizatsiya jarayoni kechayotgan bir vaqtda bolalarga chet tillarini o'rgatish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola aynan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida chet (rus) tili kompetentligini oshirishga qaratilgan zamonaviy va samarali pedagogik usullarni tahlil qilishga bag'ishlanga.

Kalit so'zlar: "Ilk qadam" davlat dasturi, maktabgacha yoshdagi bola, kompetensiya, chet tili, talaffuz, nutq, MDH, maktabgacha ta'lim tashkiloti, rivojlanish.

Uzluksiz ta'lim tizimi hozirgi kunda o'zining samaradorligi bilan butun dunyo hamjamiyatida ijobiy qiziqish uyg'otdi. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. [1] Yurtimizda ham bu sohani rivojlantirish, takomillashtirish va mutlaqo yangi darajaga olib chiqish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Buning yaqqol tasdig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli qarori va 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" O'RQ-595-sonli qonunini va ko'plab qonun hujjatlarini keltirish mumkin.

"Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturida keltirilganidek **kompetensiya** bu – bolaning mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Bunga ko'ra, bolaning kompetensiyalari quyidagilar bilan belgilanadi:

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

Bilish jarayonining rivojlanishi;

Ijodiy rivojlanish. [3]

Ko'rinib turibdiki, bolaning kommunikativ (nutqiy faoliyati) kompetensiyasi maktabgacha bo'lgan davrda dolzarb ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Bolalarga chet tillarini (rus, ingliz, koreys tillari) o'rgatish ham aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan (keying o'rinlarda MTT) boshlab yo'lga qo'yish ham tegishli vazirlikning qaror va farmonlarida keltirib o'tilgan. [2]

Bilamizki, MDH davlatlari o'rtasida rus tili turli darajadagi muloqot o'rnatishda asosiy ko'prik vazifasini bajaruvchi vosita hisoblanadi. Ulg'ayib kelayotgan kelajak avlodga rus tilini chet tili sifatida o'rgatish ham so'nggi yillarda dolzarb va davr talabi ekanligi sezilib bormoqda. Shunday ekan, bolalarimiz rus tilida ravon, tiniq va fonetik jihatdan to'g'ri so'zlashishlari uchun ushbu tilga bo'lgan e'tiborni ilk yoshdagi maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilaridan boshlashimiz muhim, deb hisoblayman.

Bunda, bolaga o'z ona tilida tilga kirishi bilan ikkinchi (rus) tilni chuqurlashtirgan holda o'rgatib borilsa, tez, oson va (talaffuzdagi) muammolarsiz shu tilni o'rganadi. Yana yordamga MTTlarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-tarbiyachilar ko'makka keladi. O'z vaqtida ota-onalar ham farzandini ushbu tilni yaxshi va mukammal o'rganishi uchun MTT tarbiyachilariga ko'makdosh bo'lishlari lozimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitish hech qaysi davrda oson ish bo'lmagan. Bunga sabab qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

Tilning muhimligini tushunmasligi;

Chet tildagi so'zlarning bola uchun mutlaqo begonaligi;

Tilni o'rganish jarayonida ota-onaning befarqligi;



О'qituvchi-tarbiyachining iqtidorsizligi;

Muhitning yo'qligi.

Ushbu (rus) tilini o'rgatishda avvalo tarbiyachidan chuqur bilim va malaka, qobiliyat va ulkan sabr talab etiladi. Avvalo tilni o'rgatayotgan tarbiyachining nutqida xatolar bo'lmisligi, u ushbu tilda ravon va bexato gapirishi lozim, negaki uning tarbiyasi ostidagi murg'ak qalb egalari, ustozlari nimani o'rgatsa va buni qanday amalga oshirsa shundayligicha o'rganib, yodlab oladilar. Buning sababi esa yuqorida aytilgan lisoniy hodisalarni bir-biridan ajrata olmasligi va to'liq tushunib yetmasligidadir.

Chet tillarini o'qitishda yosh bolalarga qandaydir majburiy ish kabi emas, ularning psixologik rivojlanish bosqichida ekanliklarini inobatga olgan holda dars o'tish zarur. Chunki bu davrda olingan har qanday bilim inson ongida butun umr qoladigan narsa hisoblanadi. Kelajak uchun dastlabki poydevor bu maktabgacha ta'lim muassasalarida olgan bilimlari hisoblanadi. Bevosita rus tilini o'qitish jarayoniga keladigan bo'lsak, unda quyidagi zamonaviy usullarga alohida to'xtalishimiz kerak:

1. Rus tili darslarida AKT va multimedia vositalaridan keng foydalanish. Hozirgi kunimizni turli xil gadjetlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi albatta. Bilamizki, kichik yoshdagilar ma'lumotlarni kattalarga nisbatan boshqacharoq qabul qilishadi. Hattoki ba'zi ota-onalar "*Men bolamga buni o'rgatmaganman, o'zi bu o'yinni qidirib topibdi!*", deb ta'kidlashadi. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning roli beqiyosligini inobatga olib, bizlar o'z dars mashg'ulotlarimizda bunday vositalardan (*planshet, projektr, mini-kompyuter, televizor*) keng foydalanmog'imiz kerak.

2. Rus tili darslarida o'yinlardan keng foydalanish. Biz xohlaymizmi, yo'q-mi, bola hali yosh va o'yinqaroq xilqat. Axir u endigina o'z uyidagi atmosfera bilan ta'lim va tarbiya olayotgan bog'chasining shart-sharoitlarini bog'lashni o'rganyapti. Bu davrda uning nutqiy rivojlanishida chet tili darslari davomida turli o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi. O'yinlardan misol tariqasida "*Rasmni top!*", "*Zoopark!*", "*Yulduz qirralari*", "*Men kimman?*", "*So'z qo'sh*" kabilarni keltirish mumkin. O'yin orqali bola jamoani tushunadi. O'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. Qolaversa bu turdagi o'yinlar tilning ijtimoiy munosabatlarini mashq qildirish uchun juda qulaydir.

3. Rus tili darslarida turli xil video (vizual) va tarqatma materiallardan keng foydalanish. Bolalarning idrok qilish qobiliyati katta yoshdagilarnikidan tubdan farq qiladi. Bolalarning vizual qabul qilish ko'nikmasi biznikiga nisbatan kuchli rivojlangan bo'ladi, lekin bu bola nimani ko'rsa uni butunlay tushunadi degani emas. Shunday ekan, biz bolalarga ularning yoshi va aqliy rivojlanish bosqichidan kelib chiqib tarqatma materiallari va video materiallar tanlashimiz lozim. Bu masalada bizga rivojlantiruvchi multfilmlar qo'l kelishi mumkin, chunki multfilmlar yangi so'zlarni o'rganishda yaxshi samara beradi. Agar bolada multfilm qahramonlari ijobiy qiziqish uyg'otsa bu a'lo natija beradi. Bunday multfilmlarga misol qilib "*Мама и медведь*", "*Три богатыря*", "*Смешарики*", "*Кунг-фу панда*", "*Юный следопыт*" multfilmlarini keltirishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish bizning burchimizdir. Zero beg'ubor bolajonlar vaqtini, umrini befoyda, ma'nosiz o'tkazishga hech kimning haqqi yo'q. Axir, bir bola bir kunda **3-5**ta yangi so'z o'rgansa, haftaning **5** kunida kamida **15-25** so'z, bir oyning **20-21** kunida taxminan **60-105**ta so'z, bir yilda esa taxminan **700-1200**ta so'z ularning aktiv lug'at boyligidan o'rin egallaydi degani. Shularni bilgan, tushungan holda MTT tarbiyachisi "*Bugungi kun o'tdi-da*", deb emas, balki "*Bugun guruhimdagi bolajonlarimga ...larni o'rgatdim*", deb yorug' yuz bilan uyiga qaytishlarini juda-juda xohlar edim!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5198-sonli farmoni. Toshkent, 2017-yil 30-sentabr.

2. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida". O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining buyrug'i. Toshkent – 2018 yil 18 iyun 1-mh-son.

3. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent – 2018 yil., 70b.



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TA'LIM JARAYONIDA
MUSTAQILLIK VA FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIIY - NAZARIY
JIXATLARI**

*Jo'raqulova Gulbaxor Sattorovna
Surxondaryo viloyati Termuz shahar
16 - umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
Telefon:+99893-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru*

*Toshboeva Saida Xurramovna
Surxondaryo viloyati Termuz shahar
16 - umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
Telefon:+99893-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada ta'limning barcha bosqichlarida, mustaqil ishlarni tashkil etish, bolalarga fan sohasida qo'llanadigan metodlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolarning faolligi, shart-sharoit,, hatti-harakati, o'quv-tarbiya.

Ta'lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o'taydi. Faollik esa, o'z navbatida, bolalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi. Bu tamoyillar bir-birini to'ldiradigan hodisalar ularning mohiyatini tashqaridan ichkariga va ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayonlar sifatida tasavvur qilingandagina anglash mumkin.

Mustaqillik va faollik o'zaro sabab va natija shaklida bog'langan didaktik hodisalardir. Haqiqiy mustaqillikka erishmagan mamlakatda fuqarolarning faolligi, tashabbuskorligi haqida gapirish mumkin bo'lmaganidek, ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlamasdan turib, ularning faolligiga erishib bo'lmaydi. Ta'limda o'quvchilarning faolligi mustaqillik orqali belgilanadi, mustaqillik tufayli o'quvchi ta'limning faol sub'yektiga aylanadi.

Mustaqillik tashqaridan ichkariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etilganda, ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlash ma'nosini, ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etganda, bolada shakllangan, tarbiyalangan shaxsiy sifat-mustaqillik ma'nosini anglaymiz.

Birinchi holatda tashqaridan berilgan mustaqillik, ikkinchi holatda, bolaning o'z intilishlari, harakatlari evaziga unda shakllangan shaxsiy sifat-mustaqillik ko'zda tutiladi.

Mustaqillik shaxsiy sifat belgilaridan biri shaklida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishi yo'li bilan shakllanadi. Kishining mustaqillik aqliy faoliyat ko'rsatish, mustaqil o'rganish orqaligini fan asoslarini puxta egallashi hech kimga sir emas. O'quvchilarda kitob ustida ishlay olish malakalari, dastavval, boshlang'ich sinflarda hosil qilinadi. Bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi.

Darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o'quvchilarda mustaqillikni rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisiga matematikadan peremetrlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yuzi bilan kvadrat yuzlarini taqqoslab, qaysi figura yuzi katta? nima uchun? Berilgan tekis figura yuzini qanday topish mumkin? kabi savollarga o'quvchilar mustaqil fikr yuritib javob beradilar.

Bunday mustaqil ishlar bolalarni o'ylashga, dalillarni taqqoslashga undaydi. Bolaning mustaqilligi mustaqil ishlarning, mustaqil aqliy faoliyatining natijasi sifatida shakllanadi. Faollik tashqaridan ichkariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etilsa, unda bolalarda mustaqillikni shaxsiy sifat shaklida tarbiyalashni anglaymiz. Zero, mustaqillik kishining o'z intilishi, hatti-harakati natijasi sifatida tarkib topadi.

Agar faollik ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayon sifatida qaralsa, unda insonning ichki intilishlari, emotsiyalari, qiziqishlari mustaqillikni shakllantirish vositasi ekanligini tan olishga to'g'ri keladi. Hayot harakatga bog'liq bo'lganidek, mustaqillik faollikka aloqadordir.

Har qanday faollik zaminida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Faollik to'g'risida gapirganda, o'qituvchi hikoyasi, suhbat, tushuntirishi, leksiyasini diqqat bilan tinglash, turli xil yo'llar:



ko'rgazma qurol, mustaqil ish, muammolar, texnik vositalar yordamida o'quvchilarning faolligini oshirish; ijtimoiy va ma'naviy hayotda faol ishtirok etish; moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda, ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi xoh o'quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot to'g'risida bo'lmasin, insonning ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. O'quvchilarning ta'lim jarayonida mustaqilligi va faolligi quyidagi qoidalarga rioya qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

Har bir o'quv materialini o'rganishga kirishishdan oldin o'quvchilarga uning maqsadi, hayot uchun zarurligini tushuntirish kerak. Maqsad oldindan anglangan natija bo'lib, bolaning barcha hatti-harakatini, intilishlarini yagona yo'lga soladi. Maqsadni anglash ta'limning istiqbolligini ta'minlaydi. O'rganilayotgan o'quv mavzularining mazmuni, bolalarning individual xususiyatlari, real bilish imkoniyatlarini hisobga olib muammolar, muammoli savollarni o'rgata tashlash.

Qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib ta'limni tashkil etish va boshqarish bolalarda mustaqillik, faollikni tarbiyalaydi. O'quv materiallarini o'rgatish jarayonida bolalarga analiz va sintez qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o'rgatish muhim hisoblanadi. Bola aqliy faoliyat usullarini o'rgana borgan sari, o'z oldiga qo'yilgan muammolarni ham tezlik bilan bajarish sirlarini egallaydi. Bu o'z navbatida, bolada o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatlarini o'stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi.- Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan).



BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

*Jo'rayeva Yoqutxon Rasulovna
Andijon viloyati Baliqchi tumani
7-umumta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+998941072869*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv axborotlarni o'quvchilarga qiziqarli tarzda yetkazib berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, kompetentlik, innovatsiya

Bugungi kun ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich ta'limda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali o'qitish sifatini tubdan yaxshilash va yanada rivojlantirish ko'zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadiga erishish, ya'ni bolada o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, o'qish savodxonligini tarkib toptirish, bolalarni turli ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatish, asosiy matematik amallarni puxta bilishlariga va kundalik hayotda qo'llay olishlariga erishish, ularda mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, ularni yozma va og'zaki muloqot me'yorlarini egallashga hamda o'z-o'zini boshqarish va tuta bilishga o'rgatish uchun boshlang'ich sinflarda sifatli ta'limiy faoliyatni tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur ko'nikmalarni shakllantirish, sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Barcha umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rgatish, o'quvchilarni katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash muammosi yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslarning vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish



mushkul. Buning uchun o‘qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo‘lmog‘i darkor. Bunday holda, ayniqsa, darsni o‘yinlar asosida ko‘rish tizimiga asoslanib o‘tish sezilarli samara beradi.

Boshlang‘ich ta‘limning asosiy maqsadi: bolaning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo‘lgan o‘qish savodxonligi, turli ma‘lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo‘llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zini tuta bilish, yozma va og‘zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta‘limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Hozirda mamlakatimizda 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida kadrlar tayyorlash borasida quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratish taklif etiladi:

– jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat‘iy hayotiy nuqtayi nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash;

– boshlang‘ich ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta‘lim xizmatlari samaradorligini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

– boshlang‘ich ta‘lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida o‘quv rejalari va dasturlari mazmunini qayta ko‘rib chiqish, ilg‘or xorijiy tajribadan foydalangan holda, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalar tuzish.

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini tizimli tashkil etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini oshirishga, yuqori malakali, mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mavlonova R., O‘To‘raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika.-T.:”O‘qituvchi”, 2002
2. O‘zbekisto Respublikasi ning “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T., 1997-yil



TIL O'RGANISH METODLARI

Jumaniyozova Momojon
Xorazm viloyati Hazorasp tumani,
52 – son maktab o'qituvchisi.
Telefon +99894 112 44 96.

Annotatsiya: Bugun hayotni chet tillarisiz tassavur qilib bo'lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgan sari chet tilini o'rganish zamon talabi bo'lib boryapti. Chet tilini o'rganish bu biz o'ylaganchalik qiyin emas.

Kalit so'zlar: shart-sharoit, grammatika, zamonaviy, navqiron, avlod.

Muhtaram yurtboshimiz Islom Karimov rahnamoligida navqiron avlodni sog'lom va barkamol insonlar etib tarbiyalash, yoshlarimiz zamonaviy bilim va kasb- hunarlarni chuqur o'rganishi barobarida chet tillarini puxta o'zlashtirishi uchun zarur shart-sharoit yaratish masalasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Bugun hayotni chet tillarisiz tassavur qilib bo'lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgan sari chet tilini o'rganish zamon talabi bo'lib boryapti. Chet tilini o'rganish bu biz o'ylaganchalik qiyin emas. Buning uchun muhimi chet tilini o'rganishda eng oson yo'lni tanlab bilishdir. Har kunlik mashg'ulot to'g'ri ko'plab til kurslari haftada bir yoki ikki kun ikki soatdan dars tashkillashtiradi va kundalik hayot ishlari bilan band bo'lgan til o'rganuvchi kishi boshqa kunlarda tilga vaqt ajratolmaydi va odatda keyingi darsgacha oldingi darsdagi mavzularni esdan chiqaradi va bu tilni o'rganish jarayonini ancha sekinlashtiradi. Shuning uchun ham xoxlagan bir chet tilini o'rganayotganda, uni har kuni o'rganish kerak va shunda har kuni takrorlanish natijasida tilni o'rganish jarayoni ancha tezlashadi. Shuning uchun ham biror tilni yaxshi o'zlashtirmoqchi bo'lsangiz, o'zingizga har kunlik majburiyat yuklang; "Men har kuni, har qanday vaziyatda ham ingliz tilini o'rganishga ikki yoki uch soat vaqt ajrataman". Shundagina tilni eslab qolish imkoniyatingiz keskin oshib boradi. Qobiliyatlar turini Tilshunos olimlar tilni o'rganishni to'rtta katta yo'nalishga bo'lishgan: - O'qish - bu chet tilida o'qilgan matnni tushinish qobiliyati - Eshitish -bu chet tilida eshitilgan matnni tushinish - Yozish - chet tilida yozish qobiliyati - Gapirish - o'z fikringizda chet tilida ifoda eta olish qobiliyati. Ushbu to'rt narsaga yetishish uchun uchta eng kerakli narsani o'zlashtirish muhimdir: grammatika, lug'at boyligi va talaffuz. Demak, ushbu uch narsani o'zlashtirmasdan turib chet tilini o'rganish ancha qiyinlashadi. Endi, ushbu uch narsani qaysi vositalar asosida tez o'rganish yo'llarini taxlil qilamiz:

1. Grammatika - tilni o'rganishda eng murakkab qismi aynan grammatikadadir. Shu uchun ham grammatikani o'rganish juda muhimdir. buni ham juda oson tarzda o'rganish mumkin. grammatika darsida o'tilayotgan har bir mavzuni chuquroq o'rganib uni o'zimizning ona tilimizga solishtirish, darsda berilgan mashaqlardan tashqari o'zimiz mustaqil mashaqlar bajarish orqali o'rganishimiz mumkin. Agarda biz grammatikani yaxshi bilib olsak ingliz tilida gapirganimizda xato qilmasdan bemalol gapiramiz. Ingliz tilida avval ega. kesm keyin ikkinchi darajali be'laklar kelsa misol uchun: "I worked in the garden". O'zbek tilida esa ega, ikkinchi darajali bo'laklar keyin, kesim keiadi. Misol uchun: "Men kecha kutibxonaga bordim."

2. Lug'at so'z yodlashning eng oson yo'li o'rganilayotgan chet tilida ko'proq o'qishdir. O'qigan har bir matindagi o'zimizga notanish bo'lgan so'zlarni yozib borib ulami kichik varaqalarga yozib kun davomida ko'zimiz tushadigan joylarga ilib qoyishimiz va har safar ko'zimiz tushganda takrorlab olsak bu bizning xotiramizdan chiqmaydigan bo'lib muhirlanib qoladi. Misol uchun: siz "My family" mavzusini o'rganayotgan bo'lsangiz "sibling, sacred, mother" yoki "About my friend" mavzusi bo'yicha "loving, devoted friend.schoolmate" so'zlar sizga notanish bo'lishi mumkin.

3. Talaffuz. Har bir til o'zining talffuziga ega. Odatda tilni o'qishni o'rgangandan so'ng, talaffuzni yaxshilashning eng oson uslubi bu chet tilida iloji boricha ko'proq tinglashdir. Shu tilda kino ko'rish kerak, qo'shiq va har xil radio matnlarni eshitish kerak. Iloji boricha o'rganilayotgan chet tilidagi materiallarni ko'proq ishlatishga harakat qilsak, asta-sekinlik bilan til darajamiz yaxshilanib boradi.

Til o'rganayotgan paytda turli hildagi o'yinlar o'ynash orqali ham mustahkamlash mumkin, misol uchun bir birigizdan notog'ri fe'llarni va tajimasini so'rash misol uchun "bear bore bom"



“drink drank drunk” yoki “choose chose chosen” oxirgi harfidan boshqa birov davom etirishi, yoki turli hildagi rasmlarni olib unga ingliz tilida tarif berish orqali ham o‘rgangan so‘zlarni mustahkamlab borish mumkin. Chet tilini o‘rganishda takrorlashning ahamiyatini ham esdan chiqarmaslik kerak. Takrorlash bilimning onasi deganlaridek, har hafta o‘rgangan grammatik mavzuningizni ikki hafta o‘tib bir kuni takrorlash uni yanada mustahkamlashga, xotirada yanaham yaxshi saqlashga xizmat qilishi mumkin. O‘rgangan har bir narsalarni hayotda qo‘llab borishimiz kerak. Bu borada biz xato qilishdan qo‘rqmasligimiz lozim. O‘rganishning eng oson yo‘li bu xato qilishda ekanligini psixologlar bir necha marotaba isbot qilishgan. Shu uchun ham xato qilishdan qo‘rqmasdan, chet tilida gapirishga harakat qilish kerak va shu orqaligini xato qilish natijasida o‘z kamchiliklaringizni tushinib borasiz va maqsadni keyin aynan shu kamchiliklarni to‘g‘rilashga qaratasiz. Mamlakatimizda biz yoshlar uchun yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlarning barchasi yosh avlodni dunyoda hech kimdan kam bo‘magan inson va o‘zi tanlagan soha bo‘yicha malakali mutaxassislar bo‘lib yetishishga xizmat qilmoqda shunday ekan biz II bu yaratilayotgan shart sharoitlardan unumli foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati:

1. O‘.Hoshimov . I.Yoqubov . Ingliz tilini o‘qitish metodikasi —T.,2013
2. Til. adabiyot. ta’lim/Ilmly —uslubiy, adabiy-badiiy jumaI.-S.,2004
3. O‘tkir Yusupov. Ingliz tili grammatikasidan universal qo‘llanma.-T.,2013
4. Muloqot .uz/blogs/145472/105035/-
5. [Http://maslahat.uz/uz/ chet- tilini-samarali -o‘rganish-usuli](http://maslahat.uz/uz/chet-tilini-samarali-o'rganish-usuli)



ФРАНЦУЗ ВА УЗБЕК ТИЛЛАРИ УНЛИЛАРИНИНГ КИЁСИЙ ТАХЛИЛИ

Jumaniyozova Shakhnoza
Xorazm viloyati Hazorasp tumani,
32 – son maktab o‘qituvchisi.
Telefon +99893 2865920.

Аннотация: Она тили талаффузидан чет тили талаффузига утиш мураккаб психологик ва физиологик жараён дир. Бунда нутк; органларининг янгича ишлаши, янги артикуляцион база яратиш учун бошқа харакатларга куникиш лозим булади.

Калит сузлар: талаффуз, акустик, психологик, интерференция, норма, талаффуз,

Нутк товушларининг умумийлигига карамасдан ҳеч бир тилда бошқа бир тилдаги ухшаш товушга артикуляцион ва акустик жихатдан тулик мос келувчи битта дам товуш мавжуд эмас.

Она тили талаффузидан чет тили талаффузига утиш мураккаб психологик ва физиологик жараён дир. Бунда нутк; органларининг янгича ишлаши, янги артикуляцион база яратиш учун бошқа харакатларга куникиш лозим булади. Бу эса уз навбатда артикуляция органларининг чарчашига ва натижада уларнинг ноаниқ харакат килишига олиб келиши мумкин.

Янги талаффуз нормаларини узлаштиришда интерференция ходисаси билан боглик катор кийинчиликлар учрайди, яъни она тили талаффуз нормалари беихтиёр чет тили талаффуз нормаларига кучади. Интерференция механизмларини аниқлаш чет тили укитишда муҳим аҳамият касб этади. Интерференция хусусиятлари яхши билувчи укутувчи артикуляцион ухшаш товушларни ургатаётганда хатоларни олдиндан куриш, уларнинг олдини олувчи машқлар тизимини ишлаб чиқиш, она тилидан ижобий кучириш имкониятларидан самарали фойдаланиши мумкин. Шу мақсадда француз ва узбек унлилар тизими киёсий тахлил килиди ва куйидаги хулосаларга келинди.

1. Француз тилидаги 15 та унли фонемадан 10 тасининг узбек тилида муқобил эквивалента мавжуд. Лекин бунда француз тили унлилари артикуляцияси нутк муқулларининг ута таранглилигига ва аниқ талаффузи билан фаркланади.

Француз тили унлилари

1. Ёпик : [i, у,и]
2. Ярим ёпик : [e,0, э]
3. Ярим очик : [e, e, ое,ое,о, б]
4. Очик : [a, a, a]

Узбек тилида эса унлиларнинг учта очиқлик даражаси фарқланади :

1. Очик тор унлилар : [и, у]
2. Урта кенг унлилар : [э (е), у]
3. Очик кенг унлилар : [а, о]

2. Лабларининг харакат ва холатига кура француз ва узбек тилларида лабланган ва лабланмаган унлилар фаркланади. Француз тилида 8 та лабланган, 7 та лабланмаган унли бор булса, узбек тилида 3та лабланган, 3та лабланмаган унлилар мавжуд.

3. Француз унлилари тилча харакат ва холатига кура ҳам тасниф килинади. Юмшок танглай, яъни тилчанинг пастга тушиши ва натижада хаво окимининг бурун булиги оркали ҳам утиши туфайли бурун товушлари хосил булади. Узбек тилида эса унлилар талаффузида юмшок танглай ва бурун бушлиги иштирок этмайди. Узбек тилида бурун товушларининг йукдиги сабабли [ё, а, ое, б] каби француз фонемаларининг эквивалента йук. Талабалар баъзан уларнинг уряига узбекча [e, у, у, а] унлиларга [нг] бурун ундош товушини кушиб ҳам талаффуз киладилар.

4. Француз ва узбек тили унлилари талаффузининг узига хос хусусиятлари куйидагилар: а) француз унлилари узбек тилидагига нисбатан бирмунча тиник, аниқ ва равон талаффуз килинади. б) француз тили учун дифтонглашув ходисаси хос эмас. Бу ходиса узбек тили учун хос дир. в) француз унлилари талаффуз жараёнида редуцияга учрамайди. Француз унлилари ургули ва ургусиз холатларда нисбатан бир хил талаффуз килинади. Узбек тили унлилари эса редуцияга учрайди. г) француз унлилари тарихий ва ритмик



чузиклик хусусиятига эга. Бундай ходиса узбек тилида учрамайди. д) француз тили фонетикаси учун хос булган унлилар гармонияси узбек тилида мавжуд эмас.

[œ]	beurre	ў	Ўрик, ўткинчи
[ø]	deux	ў	Ўрик, ўткинчи
[ɔ]	donne	о	Соат, итоат
[ɑ]	pas, bas	а	Қарши, ғариб, ғарк
[u]	doute	у	Сут, унут
[y]	sur	ю	Юлдуз

5. Француз тилида очик ва ёпик тил олди ва тил орка каби дифференциал белгилар билан фаркланувчи унлилар жуфтлиги мавжуд [e- e; oe- o; a- a;]. Узбек тилида бундай унлилар йук.

6. Тилнинг горизонтал харакатига кура француз ва узбек тилларда тил олди ва тил орка унлилар фаркланади. Француз тилида 9 та тил олди ва 6 та тил орка унлилари, узбек тилида эса 3 та тил олди ва 3 та тил орка унли фонемаси мавжуд.

	Француз тили	Узбек тили	Тилнинг горизонтал ҳолати
Тил олди	[i, y, e, e, a, oe, o, ë, ce]	[и, э(е), а]	Тил олдинги тишларга тиралган
Тил орка	[и, э, о, а, а, б]	[о, у, у]	Тил олдинги тишлардан тортилган

7. Тилнинг вертикал харакати, яъни огизиинг очикдик даражасига кура француз унлилари 4 та очикдик даражасига эга булади.

Юкоридаги икки тил унлиларнинг киёсий тахлили натижасида фонемаларнинг алломорф ва изоморф хусусиятлари аниқлаш, узбек талабларига француз тили талаффузини уР^{га}тишда артикуляция хатоларини олдиндан кура билиш ва уларнинг олдини олиш ёки тугрилашга ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. И.А. Бодуен де Куртенэ. Избранные труды по языкознанию. М., 1963
2. Barletta Anne-Flore. De l'origine de l'accent a l'enseignement de la phonetique en FLE. P., 2012



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARINING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL QILISH

Karimova Sojida Sanoqulovna
Toshkent viloyati Angren shahar
24-umumta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+998944152987

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda darsdan tashqari mashg'ulotlarning kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilishga doir fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlari: boshlang'ich ta'lim, darsdan tashqari mashg'ulotlar, kompetensiya.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq maktab ta'limini rivojlantirishga, farzandlarimizning har tomonlama bilimli, salohiyatli bo'lib kamol topishlarini ta'minlashga yo'naltirilgan qonunlar, farmon qarorlarda ham o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, sinfdan va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasi o'laroq yurtimizdagi mavjud barcha umumta'lim maktablarida sinfdan va darsdan tashqari fan to'garaklari, sport seksiyalari faoliyat ko'rsatayapti.

Har bir ta'lim muassasasida fanlar bo'yicha darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar jadvali ishlab chiqilgan bo'lib, shu asosda mashg'ulotlar muntazamligi ta'minlanmoqda. Bu borada, albatta, ta'limning poydevori sanalgan boshlang'ich ta'lim rivojiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Darsdan tashqari mashg'ulotning asosiy maqsadi – o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Shuning uchun, darsdan tashqari ishlarning turli shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarni matematika, ona tili, chet tili yoki rus tili fanlari to'garaklari, musiqa va sport to'garaklari, turli uchrashuvlar, qiziqarli mavzular yoki mashhur olimlarning ijodi va faoliyatiga bag'ishlab turli tadbirlar tarzida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bular bilan bir qatorda o'qituvchi dars vaqtida jamiyatda mavjud bo'lgan tushunchalarning fanlarga kiritilishi, ularning rivojlanib borishi va bu sohadagi qomusiy olimlarning hissalarini tushuntirishi mumkin.

O'quvchilarning faol ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida aytaylik matematika faniga iqtidori bor bolalarni tanlab olish oson kechadi. Eng asosiysi o'qituvchi matematika fanini o'rgatishda sinfdagi va darsdan tashqari mashg'ulotlarni bog'lab olib borishi kerak. Bunda sinfdagi mashg'ulotlarni mantiqiy davom ettiradigan darsdan tashqari mashg'ulotlarning shakl va uslublaridan foydalanish, birinchi navbatda o'quvchilar tomonidan matematika faniga oid nostandartmasalalar tuzilishi va yechilishiga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tavsiya qilinayotgan tadbirlar mavzusining asosiy maqsadi, mazmuni asosan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, imlo va ifodali o'qish yuzasidan o'quvchilar egallagan bilim va malakalarini takomillashtirish masalalariga qaratiladi. Ayni maqsadda quyidagi taxminiy mavzularni tavsiya qilamiz:

- “Kimning nutqi ifodali?” mavzusida eng yaxshi talaffuz uchun sinflar va yaqin maktablar o'rtasida tanlovlar tashkil qilish;
- tanish va notanish matndan ifodali o'qish mashg'ulotlarini tashkil etish;
- “Savodxonlikning siri nimada?” ruknida o'zbek-rus yoki o'zbek-ingliz tillarida “Unli tovushlar bahslashadi”, “Undosh tovushlar bahslashadi”, “Qo'shimchalar bahslashadi” kabi mavzularda muloqot, munozara kechalari o'tkazish;
- she'rxonlik – mushoira kechalarini tashkil etish;
- biror mavzu (masalan, do'stlik)da maqollar aytish. Bunda sinf guruhlariga bo'linib, do'stlik



haqida maqollar aytishadi;

– diktant kechalarini tashkil etish va h.k..

Shuningdek, ta’lim muassasalarida darsdan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilarni qiziqtirayotgani ingliz tili to’garagi bo’lib qolmoqda. Boshlang’ich sinf o’quvchilari ingliz tilida mushoira, tanlov va viktorinalar tashkil qilib, o’z bilimlarini yanada boyitib bormoqda.

Umumiy o’rta ta’lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturlari joriy qilingach, o’quvchilarning nafaqat o’quv jarayonida, balki darsdan tashqari mashg’ulotlarda egallaydigan bilim, ko’nikma va malakalarini o’z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo’llay olish xususiyatlari namoyon bo’ldi.

Bundan ko’rinadiki, pedagoglar darsdan tashqari mashg’ulotlarni yangi takomillashgan standart asosida tashkil etish uchun avvalo, yangidan nashr etilgan darslik va qo’shimcha adabiyotlar bilan tanishishi, taqdim etilgan o’quv dasturi asosida darsdan tashqari mashg’ulotlarning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ishlanmalarini tuzishi yoki tegishli o’zgartirishlar qilishi lozim. Jumladan, darsdan tashqari mashg’ulotning maqsadi, jihozlari, o’qitish texnologiyasi va h.k.lar o’zgarishi bilan birgalikda o’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar aniq holda belgilab olinadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, darsdan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilarda vatanga muhabbat, yaqinlariga nisbatan hurmat-izzat har bir narsadan oqilona foydalanish, eng muhimi, ularning ko’nikma va malakalarini oshirishga, barcha fanlarga nisbatan qiziqish va e’tiborini oshirish imkoniga ega bo’lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. – T.: 2004.

2. Mo’minov Z., Hamroqulov H. Matematika fani bo’yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. (metodik ko’rsatma). – Farg’ona.: 2015.

3. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. 2019.



SINONOMIYA VA VARIANTDOSHLIKNING TUG‘UN IBORALAR SHAKILLANISHIDA TUTGAN O‘RNI.

Madaminova Lobar.
Xorazm viloyati Hazorasp tumani,
41 – son maktab o‘qituvchisi.
Telefon ++99893 708 56 69.

Annotatsiya: Iboralar odatda bittadan ortiq so‘zdan tuzilib, ulaming ma‘nosi odatda tasviriy usul bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, iboralaming o‘sha tilga hamda ma‘nosiga xos bo‘lgan sinonim va variantdosh iboralarni ham uchratishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Frazeologiya, omonimiya, polisemiya, frazeologizmlar, mikrosistema.

Har qanday tilning lug‘at boyligi faqat yangi so‘zlar yasalishigagina emas, balki iboralar, turg‘un so‘z birikmalari xisobiga ham son jihatdan, ham sifat jihatdan boyib boradi. Tildagi ana shunday turg‘un birikmalar dunyosi bilan shug‘ullanuvchi fan “Frazeologiya” sohasi xisoblanadi. Fanning asosi vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o‘rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonamiyasi polisemiya, va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo‘llanuvchi so‘zlar va ularga xos ma‘nolaming o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlaming so‘z turkumlari bilan o‘zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida so‘zlaming yangi ma‘nolari hosil bo‘lishini o‘rganish.

Iboralar odatda bittadan ortiq so‘zdan tuzilib, ulaming ma‘nosi odatda tasviriy usul bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, iboralaming o‘sha tilga hamda ma‘nosiga xos bo‘lgan sinonim va variantdosh iboralarni ham uchratishimiz mumkin. Vaholanki, o‘zbek hamda ingliz tilida ham aynan mana shunday iboralar mavjud.

Sinonomiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma‘noni anglatishi shart. Busiz sinonomiya haqida gapirib bo‘lmaydi. Ayni bir ma‘nolilikni teng ma‘nolilik deb tushinish yaramaydi. Xar bir sinonim, shu sinonomiya uyasi uchun umumiy ma‘no o‘zanidan tashqari, o‘ziga xos ma‘no qirrasiga ega bo‘ladi.

Odatda sinonomiya bittadan ortiq, ya‘ni ikki, uch, to‘rt va ko‘p til birligining o‘zaro ma‘no munosabati asosida tug‘iladi. Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so‘z-komponentlariga e‘tibor qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so‘z-komponent qatnashmaydigan iboralaming sinonim ekani shubha tug‘dirmaydi. Masalan, “*butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha*” ma‘nosini anglatadigan “*ipidan ignasigacha*”, “*miridan sirigacha*”, “*qilidan quyrug‘igacha*” iboralari o‘zaro sinonim bo‘lib, ular tarkibida umumiy so‘z komponent yo‘q.

Yuqorida, o‘zbek hamda ingliz tilida ham aynan mana shunday iboralar mavjud deya ta‘kidlab o‘tganimizdek, quyida bir nechta ingliz tilidagi sinonomik iboralarni gapimizning isboti sifatida keltirib o‘tamiz:

1) “*When the cows come home*” bu ibora og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, o‘zbeklardagi “*Tuyaning dum i yerga tekkanda*” ya‘ni “*Hech qachon*” degan ma‘noni anglatadi. Bundan tashqari uning sinonim qatori: “*When the pigs fly*” bu iborani o‘zbekchaga tarjima qiladigan bo‘lsak “*cho‘chqalar uchganda*” degan ma‘no kelib chiqadi. Bunday olib qaraydigan bo‘lsak cho‘chqalaming uchmasligi hammamizga ayon va bu ibora ham “*Hech qachon*” degan ma‘noni anglatyapti.

2) “*A month of Sundays*” bu ibora ham og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, o‘zbek tilidagi “*Qizil qor yoqqanda*” ya‘ni “*Hech qachon*” degan ma‘noni anglatadi. Boshqa iboralarga nisbatan umumiy ma‘noni bildiradi. Bu iboraning sinonimi “*Dokey’s years*” bu ibora ham “*juda uzoq vaqt, bir umr, noma‘lum uzoq vaqt*” degan ma‘noni bildiradi. Variantdoshlik frazeoformaning derivatsion yangilanishi sifatida turli xil frazeologik variantlarni (leksik, leksik-grammatik, orfografik, kvantitativ va boshqalar). Variantlanish barcha til birliklariga (fonemaga ham), shu jumladan, frazeologik birlikka ham mansub bo‘lgan xodisa. Variantlanish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, lug‘aviy ma‘no birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yahlitlikning o‘zi doirasida, shu yahlitlik yo‘l qo‘ygan darajada voqe bo‘ladi. Aks holda yo ibora yo‘qqa chiqadi, yoki boshqa bir ibora barpo etiladi. Frazeologik variantlarda



leksik variantlar va Grammatik variantlar farqlanadi. Iboralar tarkibida mustaqil turkum soʻzi bilan ifodalangan komponentni oʻzgartirib hosil qilingan variantga leksik variant deyiladi. Bunda soʻz-komponent: 1) almashtiriladi, 2) qoshiladi, 3) tashlanadi. Bulardan eng murakkabi - leksik almashtirish asosidagi variantlanish.

Leksik almashtirishda bu soʻzlar oʻzaro : a) sinonim boʻladi: toʻrt taraf(i) qibla va toʻrt tomon(i) qibla; oʻyga choʻmmoq va oʻyga botmoq kabi; b) yaqin maʼnoli soʻzlar boʻladi: ogʻz(i) ga tolqon solmoq va ogʻziga soʻk solmoq kabi. Sinonimlar almashganda variantlar asosan nutqiy, stilistik belgida farqlanadi, shunga koʻra stilistik variantlar yuzaga keladi. Yaqin maʼnoli soʻzlar almashganda esa maʼno variantlari tugʻiladi. Leksik variantlarning maʼlum bir qismi ibora ibora tarkibidagi soʻz-komponentni tashlash bilan hosil boʻladi: daryodan bir tomchi va daryodan tomchi; yoʻl yoʻriq koʻrsatmoq va yoʻl koʻrsatmoq kabi iboralarni misol qilishimiz mumkin.

Leksik variantlarning eng oz uchraydigan turi soʻz-komponent qoʻshish bilan paydo boʻladi: es(i)ni tanimoq va es xush(i)ni tanimoq; toʻrt ogʻiz va uch-toʻrt ogʻiz; jon demoq va jon-jon demoq kabi misollarni keltirib oʻtishimiz mumkin.

Ibora tarkibini Grammatik oʻzgartirish bilan hosil boʻladigan variantga Grammatik variant deyiladi. Iboraning tashqi Grammatik qurilishiga (iborani kontekstga singdirish bilan) bogʻliq Grammatik oʻzgarishlar variantlanish deb qaralmaydi.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir tildagi turgʻun soʻz birikmalari, hozirga kunda har xil tillarda turli xil nuqtai nazardan oʻrganilgan kelinmoqda. Tilda mavjud boʻlgan turgʻun soʻz birikmalari shu xalqning butun tarixi xayot yoʻlini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Loloeva. G. Ingliz va oʻzbek frazeologik birliklarining yasallishida zoonomik komponentlarning roli. 2013
2. Rahmatullaev. Sh. "Oʻzbek frazeologiyasining baʼzi masalalari. T.1966"
3. Rahmatullaev. Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati- "OʻQITUVCHI" nashriyoti. Toshkent-1978. 6-13-14-15 bet.



XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI O‘RGATISHDA “KETMA-KET” METODIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

*Maxsutova Nargiza Sanginboyevna
Sirdaryo viloyati Shirin shahar
1-umumta’lim maktabi ona tili va
adabiyoti fani o‘qituvchisi
+99890 252 14 18*

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rgatish yo‘nalishlari va ibora va maqollarni o‘rgatishda “Ketma-ket” usulidan foydalanish imkoniyatlari misollarda ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, maqol, ibora. “Ketma-ket” metodi.

Xalq og‘zaki ijodi asrlar davonida ta’lim va tarbiya berish asosi bo‘lib kelmoqda. Xalq og‘zaki ijodi asosida bolalarda avvalo o‘z millati tarixi va uning boshqallarga o‘xshamagan xususiyatlarini anglashga yordam ko‘rsatadi. Xalq og‘zaki ijodi asosida berilgan bilimlar va tarbiya yo‘nalishi hayot va bola ta’lim-tarbiyasidagi yo‘nalishlarga yaqin bo‘lganligi uchun tez singadi.

Jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga mislsiz hissa qo‘shgan bobokalonlarimizning ma’naviy merosini mustaqil O‘zbekistonning erishgan kuni bo‘lmish o‘quvchi-yoshlarga singdirish davr taqozasidir.

Xalq og‘zaki ijodi asosida tarbiyalashning ta’limiy maqsadi:

- Berilayotgan janr haqida ma’lumot olish,
- Og‘zaki nutqni o‘stirish
- Yozma nutq malakalarini shakllantirish,
- Sinf dan tashqari o‘qishni tashkil etish,
- Rolli o‘yin asosida qayta ko‘rsatish,
- Qayta hikoya qilish va tez yodlash,.....

Xalq og‘zaki ijodi asosida tarbiyalashning tarbiyaviy ahamiyati:

- Tarbiyani barcha turlarini singdirish imkoniyati,
- Qissadan hissa chiqarish yo‘llari,
- Fantaziya va dunyoqarashni kengayishi,
- O‘zaro do‘stlik va ahillikni shakllantirish imkoniyatlari vujudga keladi.

Xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda avvalo quyidagi savollarga javob topish muhimdir.

1. Maktabda xalq og‘zaki ijodining qanday namunalari o‘rganiladi (nechanchi sinfda qaysi mavzu)?

2. Maqollarni o‘rganishda qaysi usullardan foydalangan ma’qul?

3. Ertaklarni tahlil qilishda qanday metodlardan foydalanish ko‘proq samara beradi?

4. Xalq dostonlarini tahlil qilishda darslikdan tashqari yana qanday qo‘shimcha ma’lumotlarni berasiz?

5. Xalq qo‘shiqlaridan birini aytib, tahlil qilib bering.

6. Badiiy adabiyotda qaysi asarlar xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yaratilgan?

7. Folklorshunos olimlardan kimlarni bilasiz? Yozing.

8. Xalq og‘zaki ijodi janrlarini sanang.

9. O‘quvchilarga rivoyat va afsonaning o‘zaro farqli jihatlarini qanday tushuntirasiz?

10. Toponimik rivoyat yoki afsonaga bitta misol keltiring.

11. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini qardosh va jahon xalqlari folklori bilan bog‘lab o‘rganish mumkinmi? Misollar keltiring.

Mashg‘ulot davomida xalq og‘zaki ijodi namunalari (alla, yor-yor va kelinsalomlar, qo‘shiqlar, baxshilar ijrosidagi dostonlar va hokazo) namoyish etilgan videotasvirlar, ertaklar asosida ishlangan multfilm hamda dostonlar asosida yaratilgan badiiy filmlardan parchalar namoyish etish mumkin. Quyida “Ketma-ket” metodini ko‘rib chiqamiz. “Ketma-ket” usulni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish, sof o‘zbek adabiy tilida so‘zlashishni o‘rgatishdir. Usul o‘quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishiga imkoniyat yaratadi va o‘quvchilarning nutq malakalarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Usuldan quyidagi maqsadlar uchun foydalanish mumkin:



- iboralar tuzishda;
- maqollar yozishda;
- gaplar tuzishda;
- matn yaratishda;
- lugʻat ustida ishlashda foydalanish mumkin.

Masalan, ekranda ketma-ket ravishda joʻja va kuz fasliga oid rasm chiqadi.



Topshiriq: Tasvirdagi joʻja va kuz faslidan ibora hosil qiling.

Joʻjani kuzda sanaymiz.

Topshiriq: Tasvirda berilgan rasmlardan foydalanib maqolni toping.



Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidagi maqol, topishmoq janrlarini oʻrganishda “Ketma-ket” usulidan foydalanish ijobiy samara beradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Masharipova Z. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. – T.: 2008.
2. Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. – T.: Musiqa, 2010.
3. Murodova M. Folklor va etnografiya. – T.: 2008.
4. Jumaboyev M. Oʻzbek bolalar adabiyoti. –T.: Oʻzbekiston, 2002.



ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA О'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mirzabayev Qudrat
Toshkent shahar Mirobod tumanidagi
213-sonli umumta'lim maktabining
texnologiya fani o'qituvchisi
Telefon: +99893-379-35-01

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini oshirishga xizmat qiladigan didaktik o'yinlar va ularning tasnifi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiyaviy, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, zamonaviy bilim, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim.

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, pedagogik va axborot texnologiyalar usullarini biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalari usullari bilan qurollantirish va egallagan bilimlarini o'quv – tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim.

Har bir o'qituvchi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hamda didaktik o'yinlarni qo'llagan holda o'quvchilarni darsga qiziqitira bilishlari zarur. Chunki didaktik o'yinlar texnologiyasi o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy), harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq – odob o'rganish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yin texnologiyasi – bu ta'lim jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida, usul va metodlar majmuasi, o'quvchilarga o'yin yordamida ta'limni tashkil etishga qaratilgan.

Didaktik o'yin jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy roiya qilishga o'rganadilar, inoqlik his – tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ayniqsa, o'yin jarayonida ularning idroki, zehni, xotirasi, bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlana boshlaydi.

Didaktik o'yin texnologiyasi, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'limda, oliy ta'limda ta'lim – tarbiya samaradorligini oshirish va aniq bir maqsadga erishish uchun didaktik o'yin texnologiyasini qo'llash metodlari, shakl va usullarini tatbiq etish maqsadiga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, bolalarning dunyoqarashini kengaytiradigan, mantiqiy fikrlashini jadallashtiradigan bir nechta didaktik o'yinlarni ko'rib chiqamiz va ularni tasniflaymiz.

“O'yla, top” o'yini – bu o'yin boshlang'ich sinf va undan yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Mazkur o'yinda ma'lum bir kasbga oid so'zlar olinib, boshlovchi biror kasb egasiga taqlid qilib harakat qiladi. O'yin ishtirokchilari bu harakat qaysi kasb egasiga oid so'zni ifodalanishini topishlari kerak. Berkutilgan so'z kartochkaga yozilgan bo'lib, so'zni to'g'ri topgan o'quvchiga ko'rsatiladi. Albatta, to'g'ri javob topgan o'quvchilar g'olib bo'ladi.

“Kim ko'p so'z biladi” o'yini – ushbu o'yin ham o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishga katta yordam beradi. Buning uchun sinf 2 guruhga bo'linadi va har bir guruh uchun alohida topshiriq beriladi. 1-guruh o'quvchilariga ikki tomoni bir xil unli bilan yoziladigan, 2-guruhga esa ikki tomoni bir xil undosh harflar bilan yoziladigan so'zlarni doskaga yozish topshiriladi. Masalan, 1-guruhga ikki, alla kabi. 2-guruhga qiziq, katak kabi so'zlar. Har bir guruh o'quvchilari birma – bir chiqib, so'zlarni yozadilar. So'z topolmay to'xtagan guruh yutqazgan hisoblanadi.



“**Kim nima qiladi?**” o‘yini – o‘quvchilar 2 guruhga bo‘linib, doska yonida har bir guruhdan bittadan o‘quvchi taklif etiladi. Doskaga 1 - guruh ishtirokchisi “kim?” so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni yozsa, 2 – guruh ishtirokchisi “nima qiladi?” so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni yozadi. Natijada yig‘iq gaplar vujudga keladi.

1 – guruh shifokor, davolovchi, vrach, o‘qituvchi, qishloq, shamol, gullar, paxta, quyosh, yomg‘ir.

2-guruh – davolaydi, shifo beradi, o‘qitadi, o‘quvchilar, sayraydi, esadi, o‘sadi, ochiladi, isitadi, yog‘adi.

Qolgan ishtirokchilar esa gaplarni daftarlariga ko‘chirib oladilar. Bunda o‘quvchilarning yozma savodxonligi ham hisobga olinadi. Qaysi guruh a‘zosi topshiriqni bexato bajarsa, shu guruhga rag‘bat kartochkasi beriladi. Iqtidorli ilg‘or o‘quvchilarga ushbu ish turini ijodiy davom ettirish, ya‘ni so‘zlarning sinonimlari vositasida boyitishga yordam beradi.

“**Kim tezroq**” o‘yini – har bir guruh a‘zosiga yig‘iq gaplar beriladi. O‘quvchilar esa ushbu gaplarni yoyiq gaplarga aylantirib, daftarlariga yozishlari lozim. Bahor. Daraxtlar gullaydi. Gullar ochiladi. Qushlar sayray boshlaydi. Navro‘zi olam kirib keladi. Doshqozonlar qaynaydi. Sumalaklar pishadi. Mashqni hammadan tez, to‘g‘ri va bexato bajargan o‘quvchi yuqori baho qo‘yib rag‘batlantiriladi.

“**Maslahat zanjiri**” o‘yini – bunda o‘quvchilar bo‘sh vaqtni o‘tkazish uchun taklif kiritishlari, ya‘ni ularning har biri bugun kechqurun, ertaga tushdan keyin yoki dam olish kunlari nima bilan shug‘ullanishlarini aytishlari kerak.

Masalan:

1-o‘quvchi kechqurun men musiqa bilan shug‘ullanaman;

2-o‘quvchi men esa bobom bilan shaxmat o‘ynayman;

3-o‘quvchi

Kim o‘z taklifini to‘g‘ri ayta olmasa yoki aytilgan gapni takrorlasa o‘yindan chiqadi. O‘yin oxirisida qolgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

Umumta‘lim maktablarida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilar aqlini charxlaydi, so‘z boyligining oshishi, og‘zaki nutqining rivojlanishida, mukammal inson bo‘lib kamol topishida g‘oyat katta tarbiyaviy ta‘sir kuchiga ega.

Mazkur didaktik o‘yinlar o‘quvchi – yoshlarning ma‘naviy jihatdan yuksalishiga, mantiqiy va tanqidiy fikrlash tafakkurining rivojlanishiga katta yordam beradi. Har bir pedagog ta‘lim tizimining qaysi bo‘g‘inida ishlamasin, yuqoridagi kabi didaktik o‘yinlarni, yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llay bilishi lozim. Shundagina ta‘lim tizimida yuksalishlar amalga oshib, jamiyat rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shadigan yetuk va malakali kadrlar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Azixxodjayeva N.N. pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T: TDPU, 2003.

2. Yo‘doshev J.G‘, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.

3. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.

4. Rajabova N.B. BMI. Buxoro, 2014.



YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA “TARBIYA” FANINING AHAMIYATI

*Muzaffarova Shohida Kenjayevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-maktab tarbiya fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola tarbiya fanining o‘rni va ahamiyati, hamda yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yosh avlod, bo‘sh vaqt, kitobxon, oila muhiti, kitobxonlik madaniyati.

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha H arakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shu jumladan, bugungi kunda “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichmabosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorini tasdiqlanishi xalq ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha Komissiya tuzish to‘g‘risida” gi farmoyishi bu ezgu ishlarni amalga oshirishga dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek xalqi azaldan kitobxon sanalgan. O‘zbek oilalarida kitobga e‘tibor, kitobni avaylab asrash va kitobxonlik qadimiy an‘analardan biri hisoblanadi. Kitobxonlik madaniyati haqida biroz to‘xtalib o‘tsak. Kitobxonlik madaniyati juda keng va murakkab tushuncha bo‘lib, uning juda ko‘p qirralarini aytib o‘tishimiz mumkin.

Bular – inson o‘zining kasbini, mutaxassisligini chuqur o‘rganishi va egallashi, badiiy-ma‘naviy dunyosini, qolaversa bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi

uchun kitobni to‘g‘ri tanlay olishi; kitobni mustaqil o‘qib, o‘zi uchun kitobning mazmunini talqin qila olishi, mutolaa ko‘nikmasini o‘ziga muntazam ravishda odat qilib olishi; kitobni shoshilmasdan, tushunib, o‘zlashtirib o‘qishi; kitobni o‘qigan paytda undan to‘g‘ri foydalanish kerakligini tushuntirish lozim. O‘zi o‘qigan kitob mazmunini boshqalarga hikoya qilib berish, qiziqtirish va o‘qishni tavsiya qilish esa alohida e‘tiborga molik jihatdir.

Aytish mumkinki, bu xislatlar kitobxonlikning bosh sharti bo‘lib sanaladi. O‘qigan kitobni ma‘lum vaqt o‘tgandan keyin qayta o‘qish esa kishiga o‘zgacha zavq beradi.

O‘quvchi yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda “Tarbiya” va “O‘qish” darslari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “Tarbiya” fanida “Kitob – buyuk donishmand”, “Maktab – eng ulug‘ dargoh” kabi mavzular o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan muhabbatni, maktab eng muqaddas dargoh, ta‘lim tarbiya o‘chog‘i ekanligini hamda har qanday bilimni kitob o‘qish bilan yanada boyitish mumkinligini o‘rgatadi. SH u jumladan, kitob o‘qish uchun berilgan tavsiyalar

o‘quvchi yoshlarda kitob mutoala qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi:

- Maza qilib dam olmoqchi bo‘lganlar bizni o‘qiydilar,
- Bir boshdan varaqlaganlar juda ko‘plab sirlarni bilib oladilar,
- Belgilangan tartib – qoidalarga amal qilmaganlarning sog‘lig‘iga ziyon yetkazib qo‘yamiz, yoki sahifalarimiz yirtilsa, sirlarimizniyo‘qotib qo‘yishimiz mumkin.

Ayniqsa, “Oilaviy kitobxonlik – muvaffaqiyat poydevori” mavzusi yoshlarda kitobga bo‘lgan muhabbatni yanada oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, “Dunyoda inson uchun eng aziz ikki ne‘mat bor. Biri – non, Ikkinchisi kitobdir! Non rizk-ro‘z, tiriklik dasturxon ko‘rki sanalsa, kitob kecha nima bo‘lgani, bugun nima bo‘layotgani va ertaga nima bo‘lishini hikoya qiladi. Poklik, imon butligi, ma‘naviy etuklik, ham uning sharofatidandir” ekanligini o‘quvchi yoshlar ongiga singdirish juda katta samara beradi. Ularda kitobga bo‘lgan muhabbatni oshiradi va kelajakni ko‘ra olishga yordam beradi.



Yoshlikda olingan bilim, toshga o‘yilgan naqsh kabi bo‘lishini donishmand xalqimiz bejizga aytmagan. O‘quvchi yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ularga ko‘prok bilim berish bilan birga, hayotiy saboq olishlariga ham yordam berishini xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son.
2. «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 14 sentyabrdagi 184 (6878)-soni.
3. “Tarbiya” umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik – Toshkent., “O‘zbekiston” – 2020 yil.



ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA INTERAKTIV VA NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Nasrullayeva Adolat Anvarovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi
15-maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi metodlarning qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, interaktiv, interfaol, metod.

Ma'lumki, yangi pedagogik texnologiyalar umumta'lim maktablari o'quvchilarning aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu – interaktiv metodlardir.

Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi.

O'quvchilarga rasmi topshiriqlarni topshirtirib, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqni o'stirib, lug'at boyligini oshiradi. O'quvchilarning topqiriligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o'stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi:

Kungoboqar metodi - kungoboqar rasmi o'rtasida unli harflar, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo'shib, bir necha so'zlar tuzishadi. O'yin davomida o'rtadagi unliharflarni almashtirish ham mumkin. Bu jarayonda hamma o'quvchilar baravar ishtirok etadilar. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag'batlantirib, baholab boradi. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o'quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga xizmat qiladi.

Sinkveyn metodi – sinkveyn so'zining ma'nosi "beshlik" bo'lib, "Qofiyalanmagan besh qatorlik she'r" degan ma'noni anglatadi. O'quvchilar "Sinkveyn" metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she'r yozadilar. Bunga ko'ra birinchi qator bitta so'zdan iborat bo'lishi va bu ot so'z turkumiga oid so'z bo'lishi, ikkinchi qator ikkita so'zdan iborat bo'lishi va bu sifat so'z turkumiga oid so'z bo'lishi, uchinchi qator uchta so'zdan iborat bo'lishi va bu fe'l turkumiga oid so'zlar bo'lishi, to'rtinchi qatorda to'liq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi so'zga sinonim bo'lgan bir so'z qo'yilishi mumkin.

Ushbu metoddan o'quvchilar so'z turkumlari haqida tushunchalarga ega bo'lganlaridan so'ng foydalanishi mumkin. O'qituvchi o'quvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, o'quvchilarni ham bir-birlarining so'zlariga e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. E'tiroz yoki qo'shimchalar ham "hurmatli", "Sizlarning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o'z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Ma'lumki, ona tili darsida ham lug'at ishlarini o'tkazish o'quvchilarda o'zi uchun notanish bo'lgan so'zni izohi haqida qiziqish paydo bo'ladi. Bu so'zlarning izohini topishda o'quvchining o'zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda yuqoridagi metod o'quvchilarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug'at bilan ishlashga ham o'rgatadi.

Kundalik metodi – o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh jadvalning birinchi qismiga tayanch so'zlardan namunalar yozadi. Ikkinchi guruh esa shu so'zlarning ma'nosini izohlaydi. Masalan, sayyohlar - sayohat qiluvchilar.

Birinchi guruh tayanch so'zlarni imlo va husnixat qoidalari asosida yozganiga qarab baholansa, ikkinchi guruh shu tayanch so'zga bergan izohiga qarab baholanadi. Bu metod orqali o'quvchilar to'g'ri va chiroyli yozishga, har bir so'zga befarq bo'lmaslikka, so'zning ma'nosi, imlosi,



shuningdek, husnixat bilan yozish malakasining shakllanishiga olib keladi.

Darsda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hisoblanadi. O‘quvchilarning sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi hamda uni amaliyotda o‘rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. M.Rahimova. “Xalq ta’limi” ilmiy metodik jurnali rasmiy veb sayti. 2015.07.02
2. М.Ниёзова. Д.Рустамова Молодой ученый. 2020. Номер 4. С. 480-481
3. Uzedu.uz sayti



**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA SOHALARIDAGI INNOVATSIYALAR:
TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-
HUNARGA YO'NALTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVNING
O'RNI**

Qosimova Dilrabo Qosimovna
Buxoro viloyati Kogon shahar 1-umumiy
o'rta ta'lim maktab texnologiya fani o'qituvchisi.
Tel: +998(94)324 50 55 qosimovadilrabo77@gmail.com

Annotatsiya: o'quvchilarni kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasidagi olib borilayotgan ishlar va ularni amaliy hayotga tadbiiq etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o'rgatish jamiyatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sezib-anglash, psixomotor, emotsional idrok, diqqat, xotira, taffakkur, applikatsiya, tadbirkorlik,

*“Amaliy fazilatlar va amaliy san’at kasb-hunarlar va
ularni bajarishga odatlantirish masalasi”
Abu Nasr Forobiy.*

Kasb-hunar egalari qadimdan e'zozlanib kelingan. Sharq mutafakkirlari ta'limotida o'g'il va qizlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham o'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi. O'quvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash va unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy musbatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egalashga qiziqishini shakllantirishdan ibortadir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga boshlang'ich sinflardan boshlab mehnatning yaxshi tomonlarini singidirishdir. Bolalarni mehnatga qobiliyati har bir kishi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini anglashlari juda muhimdir. Ularni kasb-hunarga ruxiy tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib-anglash, psixomotor, emotsional idrok, diqqat, xotira, taffakkur kasb-hunar egallashning psixologik komponentlaridir. Har bir o'quvchining harakteri ostida kasb-hunarga bo'lgan qobiliyati yotadi. Mana shu qobiliyatni yuzaga chiqishi uchun o'qituvchi o'quvchiga pedagogik-psixologik yondashuv asosida ta'lim-tarbiya berish va kasb-hunarga yo'naltira olishi kerak. Ammo inson ruhiyatida mehnatsevarlik hissiyoti bo'lsagina o'z kasbining yetuk, mohir egasi bo'la oladi. Sharq mutaffakiri Ibn Sino bu borada shunday deydi: “Har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'yimg'i lozim, deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat ahloqiy hislatlar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o'spirinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.”. Boshlang'ich sinflardan boshlab texnologiya darslarida o'quvchilar qog'ozlarni buklash, qirqish, yelimlash, geometrik figuralarni yasash, applikatsiya ishlarini yasash bilan shug'ullanadilar. Undan tashqari qo'l mehnatiga o'rgatishda “Tikish va bi-chish”, “Pazandachilik”, “Plastilin bilan ishlash”, “Qog'oz va karton bilan ishlash”, “Applikatsiya va mozayka ishlari” turlari bilan bosqichma-bosqich tanishib boradilar. Har bitta bo'lim o'quvchilarni hayotga mustaqil qilib tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi. Yaratilgan mehnat natijalari o'ziga va yon atrofdagilariga foydasi tegishini ko'rgan o'quvchi mehnatni asrab-avaylashga va mehnat

kishilarining mehnat natijalarini ham hurmat-izzat qilishga va eng asosiysi ma'lum bir hunarga bo'lgan qiziqishini namoyon qila boshlaydi. Boshlang'ich sinflarda oddiy usullar yordamida o'quvchining kasb-hunarga bo'lgan qobiliyati shakllantirilsa, yuqori sinflarga kelib esa



o‘quvchilar bilan qo‘l mehnatiga oid texnologik bilim va ko‘nikmalar sirlarini egallash yuzasidan suhbatlar olib borilayotganda ularning e‘tiborini mazkur muammoning quyidagi psixologik aspektlariga qaratiladi.

1. Ish ob‘yektining - maqsadga muvofiqligi.
2. Texnologik jarayonni o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Buyum sifatini ta‘minlash imkoniyatlari.
4. Maxsulotni baholash
5. Texnologik jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin

bo‘lgan o‘quvchi xususiyatlari va qobiliyatlari. Mana shu jarayonlarni o‘quvchida shakllantira olsak, ular o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent: O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002. 12 b.
2. Nugmanov D.L. Kasb tanlashga yo‘llash fanidan o‘quv-uslubiy majmua. NamDU, Namangan, 2008yil

Internet sahifasi

1. <https://hozir.org/maruza1-mavzu-kasbiy-psixologiya-faniga-kirish-fanning-pr.html?page=33>
“Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash muammosi”



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QICHILARIDA FAN TO‘GARAKLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

*Qutliyeva Dilafruz To‘yboevna
Zarafshon shahar 2-umum ta‘lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolaning mazmuni o‘quvchilarni to‘garaklarga jalb etish ularda dunyoqarashini kehgaytirishga qaratilgan. Unda o‘quvchilarda nutq madaniyati chiroyli yozish malakalarini matematik savodxonligini oshirish. O‘quvchilarda vatanga bo‘lgan mehrini oshirish madaniyatli va ma‘naviyatli iqlib tarbiyalash. Tabiatni ardoqlash unga mehr qo‘yish undagi go‘zalliklarni ardoqlashga o‘rgatish. O‘quvchilarimizni to‘garaklarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish buning kunda yoshlarni bilimli komil inson qilish asosiy vazifalardan biri. To‘garaklari olib borishda maqsad vatanni sevish undagi bor narsalarni ardoqlashga o‘rgatish. To‘garaklarda o‘quvchilar bilan birgalikda turli interfaol o‘yinlardan foydalanish zakovat o‘yinlarini tashkil etish o‘yla izla top o‘yinlarini tashkil etish o‘quvchilarni bilim darajasini kengaytirishga yordam beradi. Bugungi kun yoshlari bizdanda kuchli bilimli bo‘lishi bilan birgalikda yuqori cho‘qqilarni zabt etishinai o‘z oldimizga maqsad qilib olganmiz.

Kalit so‘zlar. didaktik o‘yinlar, interfaol o‘yin, zakovat, so‘z o‘yini, charxpalak, so‘zni top topqirlik, zukkolik.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘garaklarga jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun to‘garaklar tashkil etilgan. 1-4 sinflar uchun alohida fan to‘garaklari mavjud. 1-2—sinf o‘quvchilari “Kimning xati chiroyli”. 3-sinf “Yosh tabiatshunoslar”, 4- sinflar uchun “Yosh matematiklar” to‘garaklari tashkil etilgan. Jumladan maktabimizda sport va badiiy gimnastika to‘garaklari faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda yoshlarni bo‘sh vaqtini bekor o‘tkazmaslik uchun to‘garaklarning o‘rni alohida e‘tiborga olingan. To‘garakka asosan 20 nafar o‘quvchi tashkil etiladi. O‘quvchilarni darsdan keyin to‘garaklarga qiziqtirish va ularni o‘z kasbini sevishga va kelajakda o‘z kasbini puxta egallashga qaratilgan. To‘garak mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar turli o‘yinlar dam olish daqiqasi o‘tkazish odatiy xolga aylabib qolgan.

4-sinf o‘quvchilari uchun “Yosh matematik” nomi to‘garaklar tashkil etilgan. To‘garakka qatnashuvchi o‘quvchilar darsdan so‘ng albatta o‘zlari bilan turli bahs-munozara test, savol – javob o‘yinlarida foydalana oladi. Maktabimizda o‘quvchilarni barkamol shaxs yetuk komil insonlar bo‘lish uchun sport to‘garaklari tashkil etilgan. Matematika o‘qitish samaradorligini oshirish o‘quvchining ta‘lim markazida bo‘lishi va ularning mustaqil bilim olishlarini ta‘minlash uchun ta‘lim muassasalarida yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan ularda o‘qish va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchi kerak. Matematika fanini o‘rgatishda o‘quvchilarning ijodiy faolligi, tashabbuskorligini oshirishni hisobga olgan holda muammoni hal etish, mustaqil ishlashga yo‘naltirish asosiy maqsad qilib qo‘yish lozimdir. Matematika fanini o‘qitishda kichik guruhlarda ishlash usuli ancha samara beradi. Maktabimizda turli tadbirlar, zakovat o‘yla izla top kabi turli tanlovlar tashkil etilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘garaklarga jalb qilishdan sabab o‘quvchilarni ongini tafakkurini nutq madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi deb o‘ylayman. O‘quvchi chiroyli yozishni o‘rganadi, Vatanga bo‘lgan mehri muhabattini his qiladi, atrofdagilarga samimiy munosabatda bo‘ladi, bir –birini hurmat qilishni o‘rganadi. Boshlang‘ich sinfdan o‘quvchilarni mustahkam bilim olishga o‘rgatish poydevorni mustahkam qo‘yish har bir bir pedogogning asosiy vazifalaridan biri deb o‘ylayman.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mashg‘ulot davrida qiziqarli o‘tkazish ularni qiziqishlarini so‘ndirmaslik mashg‘ulotlarni asosa o‘yinlardan turli musobaqalar orqali o‘tish reja asosida ishlab chiqilgan. Asosan to‘garaklarimiz o‘yin asosida yuqori sinf o‘quvchilari bilan birgalikda “Zakovat”, “O‘yla izla top, Men quruvchi, o‘rnini top” va hokazo ...o‘yinlar orqali to‘garak mashg‘ulotlarni o‘tishni reja qilganmiz. Tabiatga qiziqtirish uni sevish asrab- avaylashni o‘quvchiga o‘rgatish maqsadida o‘quvchilarni shahrimiz muzeylariga sayohat uyushtirdik. Zarafshon shahrimiz muzeyiga sayohatda ota-bobolarimizning Vatan uchun qilgan ishlari ula qoldirgan



taixiy yodgorliklar haqida “Tarixni bilish kelajakni bilish demakdir deganlaridek o‘quvchilar katta taassurot bilan qaytdi. Bugungu kunda o‘quvchilarda juda katta imkoniyatlar bor. Ta’lim sohasiga juda katta ahamiyat berilmoqda.. Yoshlarimiz kuchli bilimli bo‘lishlari dunyolarni zabt etmog‘i lozimdir. Matematika to‘garaklariga alohida to‘xtaladigan bo‘lsak matematika har sohada kerak. Matematika aql charxidir. Kundalik hayotda hamisha bu fanni qo‘llaymiz. Matematika to‘garaklari uchun ham tadbirlar “Zakovat” o‘yini “Men bilimdon” kabi turli tadbirlar tashkil etilib kelmoqda.

Tog‘araklarini tashkil etishdan maqsad o‘quvchilarni kasbga bo‘lgan qiziqishini oshirish .O‘quvchilarni mustaqil fikrashga o‘rgatish dunyoqarashini kengaytirish madaniyatli va ma’naviyatli qilish. Ta’lim jarayonida pedagogic hamkorlikka erishish lozim, ya’ni to‘garak jarayonida barcha o‘quvchilarni jalb qilish, savol- topishmoqlarni navbat bilan o‘rtaga tashlab javoblarini o‘quvchilarning o‘zoro munosabatini nazorat qilish o‘quvchilarning asosiy mavzudan chalg‘ib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Hozirgi kunda o‘qitishning interfaol usullarini doimiy takomillashtirish ularga yangicha yondoshib, noan’anaviy usullardan ham foydalanish samara beradi. Chunki hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarning mazmuni pedagogik jarayonning takomillashuvi butunlay yangilashdan iborat. Shu bilan birga an’anaviy o‘qitish usullaridan mohirona foydalangan holda innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish shart.

Foydalangan adabiyot lar ro‘yxati.

1. Matematika o‘qitish metodikasi.
2. Boshlang‘ch ta’lim jurnali.
3. Ona tili o‘qitish metodikasi.



FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z MA‘NOSINI KUCHAYTIRISHNING FONETIK USULLARI

Rakhimova Nargiza
Xorazm viloyati Hazorasp tumani,
51 – son maktab o‘qituvchisi.
Telefon +99893 750 87 67.

Annotatsiya: Hozirgi davr tilshunosligida jahon tillarining o‘xshash va farqli alomatlarini o‘rganish “tillar tipologiyasi” nomi bilan atalib, bu sohaning fonetikaga doir bo‘limi qiyosiy tipologik fonetika yoki qiyosiy tipologik fonologiya deb ataladi.

Kalit so‘zlar: olijanob, zotan, tilshunoslig, alomatlari, tipologik, fonologiya.

Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich: “Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro jamiyat tan olayotgani - bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz”, - deganlarida to‘la haq edilar.

Zotan, tinch, osoyishta osmon ostida, xotirjam ko‘ngil bilan yashayotgan insonlardangina yurt manfaatini ko‘zlovchi bunyodkor g‘oyalar chiqadi.

Dono xalqimiz “Til - qulfi dil” deya bejizga aytmagan. Buyuk bobokalonimiz Hazrat Mir Alisher Navoiy ham “Til bilgan - el bilur” deganlarida naqadar haq edilar. Vaholanki bugungi har tomonlama jadallik talab etiladigan bir davrda til bilmaslik mamlakatni qoloqlikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin.

Talaffuzda bir yoki bir necha bo‘g‘inlarni ajratib aytish urg‘u deyiladi. Bizga ma‘lumki, urg‘uning so‘z urg‘usi, gap urg‘usi, emfatik urg‘u, mantiqiy urg‘u kabi turlari mavjud. So‘z ma‘nosini kuchaytirishda bularning har biri o‘z o‘rniga ega.

Hozirgi davr tilshunosligida jahon tillarining o‘xshash va farqli alomatlarini o‘rganish “tillar tipologiyasi” nomi bilan atalib, bu sohaning fonetikaga doir bo‘limi qiyosiy tipologik fonetika yoki qiyosiy tipologik fonologiya deb ataladi.

Urg‘u bu so‘zning muhim belgisidir. Odatda muhim so‘z o‘zining ixtiyoriy shaklida bir urg‘uga ega bo‘ladi, yordamchi so‘zlar esa asosan urg‘uga ega bo‘lmaydi va muhim so‘zlar bilan birga qo‘llanib fonetik so‘z hosil qiladi.

Urg‘uning bu turi so‘zning yo‘q hissiy tomonini oshiradi va kuchaytiradi yoki so‘zlovchining u yoki bu so‘zga affective munosabatini bildiradi. Mantiqiy va emfatik urg‘uning farqini qisqacha quyidagi ko‘rinishda formulalashtirish mumkin: mantiqiy urg‘u e‘tiborni muayyan bir so‘zga jalb qiladi, emfatik urg‘u esa so‘zni hissiyotga boy qiladi.

Talaffuzda bir yoki bir necha bo‘g‘inlarni ajratib aytish urg‘u deyiladi. Urg‘uning so‘z urg‘usi va gap urg‘usi kabi turlari mavjud. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda bir yoki undan ortiq bo‘g‘inlarni ajratib aytish so‘z urg‘usi deyiladi.

Ko‘pgina tilshunoslarning fikricha, turkiy tillarda bir yo‘la dinamik va tonik urg‘u borligi aytiladi. O‘zbek tilida so‘z urg‘usi dinamik ekanligi eksperimental tadqiq qilingan. O‘zbek tilida so‘z urg‘usining fonologik funksiyasi ancha chegaralangan. Chunki iurg‘uning o‘miga ko‘ra juda kam so‘zlarni farqlash mumkin: olma “yabloka”-olma “ne beri”, to‘xta “imya sobstvennoe”-to‘xta “ostanovis”, bosma “promakashka” -bosma “ne toptay” kabi.

O‘zbek tilida urg‘uning so‘zning tashkil etish funksiyasi, ayniqsa, kuchlidir. O‘zbek tilida sovet-intematsional so‘zlarni ham hisoblaganda, urg‘uning o‘mi har xil - erkindir: partiya, prograrruna, akademik, sekretar kabi. Turkiy tillarda asosiy urg‘u ko‘pincha so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. O‘zbek tilida ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘un iasosiy va ikkinchi darajali urg‘uga ajratish (A.A.Klimenko), 1-, 2-, 3- darajali va kuchsiz urg‘uni (A.F.Seberg) farqlash kabi qarashlar mavjud. Biroq bu qarashlar eksperimental jihatdan tasdiqlanmagan. O‘zbek tilida bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli, ko‘p bo‘g‘inli va qo‘shma so‘zlardagi urg‘uning tabiati. uning kuchi va qo‘llanish ikabi masalalarni aksentologik metod ortjali tadqiq qilish foydadan holi emas. Chunki so‘zlarning aksentstrukturasi har xil va murakkabdir. Keyingi davrda singlarmonizm ham fonologik hodisa sifatida qaralmoqda. Chunki isingarmonizm so‘zga tegishli bo‘lib, undagi



unlilar belgilari (“qator, lablanganlik”) super segmentvosita deb qarashni taqozo qiladi.

Fransuz tili ham xuddi rus fiili kabi fraza urg‘usidan tashqar imantiqiy urg‘uga ham ega. Mantiqiy urg‘u ba - gap dagi qolgan so‘zlardan ko‘ra ma‘no jihatdan kuchliroq biror bir so‘zni ajratib ko‘rsatish. Mantiqiy urg‘udan bir so‘zni boshqa biriga qarama-qarshi qo‘yishda yoki so‘z ma‘nosini oshirish maqsadida foydalaniladi:

Tajribalar shuni ko‘rsatadikL har bir gap talaffuzida gap nechta so‘zdan iborat bo‘lsa, shuncha mantiqiy urg‘u qo‘yish variantlari mavjud. So‘zlovchining qaysi so‘zni ajratib ko‘rsatishi o‘z navbatida iboraning maqsadiga va muloqot vaziyatiga bog‘liq.

Mantiqiy urg‘u, muayyan so‘zyoki iborani ajratishni nazarda tutgani bois, ayrim tajribasiz ma‘ruzachilar, ularga urg‘u qo‘yishda oshirib yuborishlari mumkin. Buni musiqiy asbobda dhalishni endi o‘rganishni boshlagan yosh shogird bilan solishtirsa bo‘ladi. Lekin u mashq qilgani sayin, alohida notalar uyg‘un tarzda bir-biriga tutashib, his-tuyg‘u ila ijro etilgan go‘zal kuyga aylanadi.

Mantiqiy urg‘uni qo‘llashmi yuzaki bilib olishning o‘zi kifoya emas. Notiqlik mahoratining usfebu tomonini o‘rganib olish uchun, o‘z ustingizdan ishlashn davom ettirfng. Shunda nutqingizdagi urg‘ular tabiiye shiriladi. Xulosa o‘mida shuni aytish lozimki:

Muhtaram yurtboshimizning xorijiy tillami o‘qitishni mukammallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari esa biz uchun yana bir imkoniyat eshigini ochib berdi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Адабиётлар:

1. И.А.Каримов “Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch”, Toshkent, 2008
2. А.А.Абдуазизов. “Tilshunoslik nazariyasiga kirish” Toshkent, “Sharq” 2010.
3. А. Махмудов. Словесное ударение в узбекском языке. Ташкент, 1960.
4. В.А.Виноградов. Типология сингармонических тенденций в языках Африки и Евразии. Сбор. “Проблемы африканского языкознания”. М., 1972.



TARJIMADAGI TRANSFORMATSIYALAR

Sadullayeva Zulxumor
Xorazm viloyati Hazorasp tumani,
41 – son maktab o‘qituvchisi.
Telefon ++99894 233 40 54.

Annotatsiya: Tarjimaning asosi va uning paydo bo‘lishi qadimiy Rim bilan bog‘liq. Bundan 2000 yil oldin bugungi kunda asliyatdan tarjima qilish muammosi dolzarb masala bo‘lganligini ta’kidlash lozim.

Kalit so‘zlar: sintaktik, xususiyat, ilmiy- texnik matnlar, leksik- stilistik.

Tarjima birinchidan bir tilda sodir bo‘ladigan asami ikkinchi tilga faqat tarjima qilish yo‘li bilan yetkazib berish jarayonidir. Ikkinchidan, tarjima bu jarayonning natijasi deb tushuniladi ya’ni tarjima tilida yangi yaratilayotgan asardir. Tarjimaning asosi va uning paydo bo‘lishi qadimiy Rim bilan bog‘liq. Bundan 2000 yil oldin bugungi kunda asliyatdan tarjima qilish muammosi dolzarb masala bo‘lganligini ta’kidlash lozim. Tarjimada doim hamma janrni bir xilda puxta biladigan, bu janrlardagi asarlarni professional darajada tarjima qiladigan tarjimon yo‘q. Chunki har qaysi janming o‘ziga xos xususiyatlari bor. Qolaversa, hatto tarjimaning umumiy nazariyasini ham yaratish mumkin emas. Yaxshi tarjima avvalambor asar muallifi o‘z oldiga qanday maqsad va vazifa qo‘ygan bo‘lsa, tarjimon shu maqsad bilan bog‘liq asl ma’noni o‘quvchiga to‘la-to‘kis yetkazib bera olsa, buni yaxshi tarjima deymiz ya’ni muayyan janrga xos bo‘lgan matn tarjima jarayoniga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Masalan, ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy-texnik matnlarni olsak, ingliz tilida kesimlar ko‘proq passiv nisbatda ishlatiladi. Bu xususiyat o‘zbek tiliga xos emas. Demak, bir xil janrga xos bo‘lgan ikki tildagi matn bir-biridan ko‘p jihatdan lisoniy nuqtai nazardan farqlanishi mumkin. [2. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati 2007] Ilmiy — texnik matnlar tarjimasida tarjimon shu sohaga oid istilohlarni mukammal bilishi lozim. Ijtimoiy - siyosiy matnlar tarjimasida esa, ilmiy- texnik matnlar tarjimasidan ayrim jihatlarga ko‘ra farqlanadi. Bunday matnlar tarjimasida tarjimondan muayyan so‘zning muqobilini - tarjima qilinayotgan tildagi sinonimik qatordan har jihatdan mos so‘zni topish talab etiladi. Badiiy matn tarjimasida aytib o‘tilgan har ikkala matn turlaridan tubdan farq qiladi. Badiiy asar tarjimoni turli vositalardan, xususan, leksik- stilistik transformatsiyalardan badiiy matn asosidagi ma’no, mazmun, g‘oya va adabiy uslublarni saqlab qolgan holda yetkaziladi. Ma’lumki tarjima tillararo transformatsiyalar (o‘zgartirishlar, almashtirishlar) majmuasi bo‘lib, bunday transformatsiya turlariga quyidagilar kiradi: 1) o‘rin almashtirish, 2) ma’no

almashtirishlar, 3) qo‘shishlar, 4) tushurib qoldirishlar shular jumlasidandir. Tarjimadagi faqat sintaktik almashtirishlarning asosan qo‘shma gap miqyosida almashtirish va o‘zgartirishlarning keltirib chiqaruvchi omillarni bir nechtasini keltirib o‘tamiz.

1. Qo‘shma gapni sodda gap bilan sintaktik almashtirish; (Bunday almashtirishlar asl nusxa tilidagi qo‘shma gapning tarjima tilida sodda gap bilan berilishida ko‘zga tashlanadi):

- He came to the city in order that he might find some useful job. (qo‘shma gap)

-U shaharga bir foydali ish topish uchun keldi si>dda gap)

-The guests left for their homes earlier, because they worried about their children . (qo‘shma gap)

-Mehmonlar uylarida bolalarini qoldirib kelganiyklari uchun ertaroq tarqalishdi. (sodda yoyiq gap)

Ushbu almashtirishni taqozo qiluvchi bir omil bor, u ham bo‘lsa asl nusxa tilidagi qo‘shma gapning qismlaridagi grammatik egalarining bir shaxsni ifodalashidir, shu tufayli ularni bir egalik sodda yoyiq gapga aylantirish oson, shu bilan birga tillarda bir xil egalari bor qo‘shma gaplar juda ham kam qo‘llaniladi.

2. Teng bog‘langan qo‘shma gapni o‘ziga o‘xshash qo‘shma gap bilan sintaktik almashtirish:

-Her father works at a bank, and her mother at hospital.(teng bog‘lovchili qo‘shma gap)

-Uning dadasi bankda ishlaydi, onasi esa kasalxonada ishlaydi.

3. Teng bog‘langan qo‘shma gapni ergash gapli qo‘shma gap bilan sintaktik almashtirish:

-I was reading magazines, when he was watching TV.

-U televizor ko‘rayotgan bo‘lsa men jurnallar o‘qiyotgan bo‘lardim.



4. Ergash gapli qo‘shma gapni teng bog‘langan qo‘shma gap bilan sintaktik almashtirish (bunday almashtirish ham ergashish va teng bog‘lanish o‘rtasida sinonimlanish hodisasi mavjudligidan dalolat beradi):

-The old man could not even sit up in his bed, because he was seriously ill.

-Choi krovatida hatto o‘tira olmasdi, uning xastaligi jiddiy edi.

Vaholanki, yuqoridagi gaplami analogik tarjima orqali amaiga oshirsak ham bo‘laveradi:

- Keksa kishi hatto krovatida ham o‘tira olmasdi, chunki u jiddiy kasal edi (uning xastaligi jiddiy edi). (sabab ergash gapli qo‘shma gap)

5. Ergash gapli qo‘shma gapni teng bog‘langan qo‘shma gap orqali almashtirish (ag‘darish):

-They could not visit their friends at Christmas, because they were too much busy with the new business, (ergash gapli qo‘shma gap)

- Ular o‘rtoqlarinikiga yangi yil kechasi bora olmadilar, yangi biznes ishlari bilan juda band edilar . (teng bog‘langan qo‘shma gap)

6. Ergash gapni bosh gap bilan almashtirish:

-When we were out, she was in.

-U ichkarida turgan paytda, biz tashqarida edik.

Xulosa qilib aytganda, sintaktik transformatsiyalar (ma’no almashtirishlar, o‘zgartirishlar) tajimada keng qo‘llaniladi, utami tegishli o‘rinda qo‘llash tarjimaning puxta, ravon, kerak bo‘lsa jozibali va eng muhimi to‘laqonli chiqishiga bevosita yordam beradi. Shunday qilib tarjima xalq madaniyatining ajralmas bir qismidir. ‘ Tarjima ijodkor uchun adabiy tahlil, mahorat maktabidir’. Bu maktabning darsxoitr.l juda ham kengdir. Tarjima jarayoni tarjimonning o‘zi uchun ijodiy saboq bo‘lsa, asur nashr etilgach, yangi adabiy fakt sifatida, yana bir necha avlod adiblari uchun ijodiy arsenal, ta’sirlanish manbaiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tarjima nazaryasi va amaliyoti. Toshkent- 2005
2. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati ” gazetasi. 2007



МАКТАБ ФИЗИКА ДАРSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Sharipova Vasila Jumayevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-maktab fizika fani 1-toifali o'qituvchisi

G'ulomova Shahnoza
Navoiy viloyati Navbahor tumani
19- maktab fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Fizika fanini o'qitishda yuqori samaradorlikni taminlashning ustuvor g'oyalari ishlab chiqish, hamda uni targ'ib qilish.

Kalit so'zlar: o'quvchilarni qiziqtirish, fizikaviy tajribalar, tarixiy fizika, fizika fani yutuqlari.

O'quvchilarni fan asoslarini chuqur mustaqil ravishda o'rganadigan bilimlar bilan qurollantirish, ularda bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish albatta mustaqil fikrlashga o'rgatish hamda o'z fikrlarini amalda qo'llash, shuningdek o'quvchilarni faol mehnat faoliyatiga, ongli kasb tanlashga va fizika faniga qiziqishi muhim o'rin tutadi.

Atrofga qarasangiz, yog'ayotgan qor yoki yomg'irni, suzib yurgan bulutlarni, ariq yoki daryolardan oqayotgan suvni ko'rasiz. Bularning barchasi tabiat hodisalaridir. Bizni o'rab turgan tabiatdagi o'zgarishlar hayotimizga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tabiatda borayotgan jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganish ulardan unumliroq foydalanish imkonini beradi. Qonuniyatlarini o'rganish borasida inson o'z mehnatini yengillashtiradigan mashinalarni o'ylab topgan.

Kundalik turmushimizni elektrsiz, yoqilg'isiz va toza suvsiz tasavvur qila olmaymiz. Elektr energiyasini hosil qiladigan mashinalar, elektrdan va yoqilg'idan foydalanib ishlaydigan qurilmalar fizika faniga asoslanib yaratiladi. Mashina va mexanizmlarni boshqarishda, sozlash ishlarini bajarishda, uy-ro'zg'or texnikasidan unumli foydala nishda ham fizikadan olgan bilimlarimiz asqotadi.

Tabiatda ro'y berayotgan turli hodisalarni alomatlariga ko'ra mexanik, issiqlik, elektr, yorug'lik va tovush hodisalariga ajratish mumkin. Bularning barchasi fizika fani yutuqlari hamda o'rganish peridmetlaridir. Agar maktab davridan o'quvchi yoshlarni fizika faniga qiziqtirib, ularga to'g'ri yo'nalish berilsa, ular kelajakda bemalol tabiat qonunlarini tahlil qila oladilar. Statistik malumotlarga qaraganda maktab davrida fizika faniga qiziqqan yoshlar kelajakda qariyb 95 % dan ko'prog'i pisixik jihatdan yuqori saviyaga ega bo'lishadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, biz kabi o'qituvchilar maktab yoshidagi o'quvchilarni bilim samaradorligini oshirib, ularni turli inavatsion g'oyalar, hayotiy jarayonlarni misollar yordamida yanada chuqurroq o'rgatishga chorlaydi.

Bunda bizdan talab qilinadigan asosiy jarayonlar bilan tanishsak:

- Asosiysi o'quvchilarni qiziqtirish: bunda ularga turli qiziqarli va hayotda uchraydigan savollar berish; Nima sababdan Quyoshdan yorug'lik chiqadi? Nega suv bug' yoki muz ko'rinishida bo'la oladi? Qanday sababga ko'ra xona temperaturasida simob suyuqlik hoida bo'ladi-yu, temirni suyultirish uchun juda yuqori temperaturagacha qizdirish kerak? yana shunga o'xshash savollar.

- Turli xil fizikaviy tajribalar o'tkazish: Yassi ko'zgu yordamida yorug'likning qaytishini o'rganish, kuch qarshiliklarini o'quvchilar bilan o'lchash, spektrda nurlarning joylashish tartibini kuzatish va ularni o'zlariga bu tajribalarni o'tkazishga yordamlashish.

- Tarixiy fizikaga oid olam shumul voqelarni har darsda berib borish: Buyuk ingliz olimi I. Nyuton fizikaning rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shgan. Quyosh va sayyoralar harakati sabablari, kuch va uning jism harakatiga ta'siri, yorug'likning rangi haqidagi ilmiy ixtirolar uning qalamiga mansub, Umar Xayyom o'sha davr uchun ancha mukammal lashgan taqvim(kalendar)ni ishlagan bo'lsa, Umar Chag'miniy Yer o'qining og'maligi tufayli fasllar almashinib turishini qayd qilgan.

Bunday buyuk tadqiqotlarni ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy hayoti bilan bog'lash. Shu tariqa ularni qonida qanday bobolarining qoni oqayotganini ham ong-ongiga singdirib boramiz.

Yuqoridagi ko'nikmalar esa o'quvchi yoshlarni har tomonlama yuksalishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni takidlash joizki, har qanday maktab darsliklarini samaradorligini oshirish



uchun, faqat bir yo‘nalishda ishlamasdan, turli inavatsion g‘oyalarni ishlab chiqish, ular ustida izlanish yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda tilsim kaliti bo‘lib hizmat qiladi. O‘qituvchi o‘quv bir bo‘limi bo‘yicha mavzuli rejalarni tuzishda rejalashtirish kerak.

Shunday qilib, o‘quvchilarning fizikani bilishga qiziqishlarini qo‘llash va rivojlantirish uchun o‘quv mashg‘ulotlari ketma-ketligida o‘quvchilarni doimiy ijodiy aqliy ishga, faqat yangi bilimlarni olishlaridagina emas, shu bilan birga bilishga oid mahoratlarini takomillashtirish, ilmiy tekshirish metodlarini: kuzatishni, eksperimentni, hayoliy modellashtirish metodlarini, gipotezalar va boshqalarni egallashda darslarda oldinga siljishiga undaydigan sharoitni yaratishimiz zarur.

Shu munosabat bilan o‘quvchilarda umumlashgan bilish mahoratlarini shakllantirishga qisman bo‘lsa ham ega bo‘lamiz deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktab darsliklari.
2. N.M.Shahmayev, V.F.Shilov// O‘rta maktabda fizikadan eksperiment//Toshkent-“O‘qituvchi”//1997.
3. T.Usmonov// Fizika tarixidan metodik qo‘llanma//Toshkent-2003.
4. Валиев У.К,Турсунметов К.А. // Методика решения задач по физике полупроводников//Современное Образование -2017.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA POZITSION VA NOPOZITSION SANOQ SISTEMALARI HAQIDA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

*Sharipova Zilola Xolmurodovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman
XTB ga qarashli 21-umumta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zarur pozitsion va nopozitsion kabilar tushunchalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Pozitsion, nopozitsion, sanoq sistemasi, raqamlar, Bobil .

Raqamlarning yozuvdagi joylashuviga, ya'ni pozitsiyasiga bog'liq sanoq sistema pozitsion sanoq sistema deb ataladi. Pozitsion sanoq sistemasida berilgan sonning qiymati sonni tasvirlovchi raqamlarning egallagan o'rniga bog'liq bo'ladi. Barcha mavjud tillar kabi sonlar tili ham mavjud bo'lib, u ham o'z alifbosiga ega. Mazkur alifbo hozir jahonda qo'llanilayotgan 0 dan 9 gacha bo'lgan o'nta arab raqamlaridir, ya'ni: 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9. Bu tilda o'nta belgi (raqam) bo'lganligi uchun ham, bu til o'nlik sanoq sistemasi deb ataladi.

Bizning kundalik hayotimizda qo'llanilayotgan o'nlik sanoq sistemasi hozirgidek yuqori ko'rsatkichni tez egallamagan. Turli davrlarda turli xalqlar bir-biridan keskin farqlanuvchan sanoq sistemalaridan foydalanganlar.

Qadimgi Bobilda ancha murakkab bo'lgan sanoq sistemasi – 60lik sanoq sistemasi qo'llanilgan. Bu sanoq sistemasining qoldiqlari hozir ham bor. Masalan:

1 soat = 60 minut

1 minut = 60 sekund

XVI – XVII asrlargacha Amerika qit'asining katta qismini egallagan atstek va mayyalarda 20 lik sanoq sistemasi qo'llanilgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Biz asosan o'nlik sanoq sistemasidan foydalanamiz. Lekin, o'nlik sanoq sistemasidan kichik sanoq sistemalarida sonlarni belgilash uchun arab raqami belgilaridan foydalaniladi. Masalan, beshlik sanoq sistemasida 0, 1, 2, 3, 4 raqamlari, yettilik sanoq sistemasida esa 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6 raqamlaridan foydalaniladi.

Hisoblash texnikasida va dasturlashda asosi 2, 8 va 16 ga teng bo'lgan sanoq sistemalari qo'llaniladi.

O'n ikkilik, o'n oltilik sanoq sistemalarida qanday belgilardan foydalaniladi? - degan savolga javob aniq: raqamlardan keyin lotin alifbosidagi bosh harflardan foydalaniladi.

Shunday qilib, o'n ikkilik sanoq sistemasida raqamlar 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, B kabi; o'n oltilik sanoq sistemasida esa 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, B, C, D, E, F kabi yoziladi.

Kompyuterlarda boshqa sanoq sistemalaridan quyidagi imkoniyatlari bilan farqlanuvchi ikkilik sanoq sistemasidan foydalaniladi:

uni ishlashini tashkil etish uchun ikki turg'un holatli qurilmalar zarur (tok bor – tok yo'q, magnitlangan yoki magnitlanmagan);

axborotni ikki holat orqali tasvirlash ishonchli va ta'sirlarga chidamli;

ikkilikdagi arifmetika boshqalaridan sodda.

Ikkilik sanoq sistemasining asosiy kamchiligi – sonlardagi xona(razryad)larning juda tez ortib ketishidir. O'nlik sanoq sistemasidan ikkilikka va teskari o'tkazishlarni kompyuterning o'zi bajaradi. Lekin kompyuterning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish uchun uning tilini tushunish zarur bo'ladi. Shular sababli sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalari ishlab chiqilgan.

Bu sistemalardagi sonlar o'nlik sanoq sistemasi kabi oson o'qiladi, lekin ikkilik sanoq sistemasidagi sondan 3 (sakkizlikda) va 4 (o'n oltilikda) marta kam razryad talab qiladi, chunki $8 = 2^3$ va $16 = 2^4$.

Ma'lumki, sanoq sistemasidagi raqamlar tartiblangan bo'ladi. Raqamni surish deganda uni sonlar alifbosida o'zidan keyin kelgan raqamga almashtirish tushuniladi. Masalan, 1ni surishda 2ga, 2ni surishda 3ga, va hokazo, almashtiriladi. Eng katta raqamni surih (masalan, o'nlik sanoq sistemasidagi 9ni) deganda 0ga almashtirish tushuniladi. Ikkilik sanoq sistemasida 0ni surishda 1ga, 1ni surishda 0ga almashtiriladi.

Pozitsiyali sanoq sistemasida butun sonlarni quyidagi qonuniyat asosida hosil qilinadi: keyingi



son oldingi sonning o'ngdagi oxirgi raqamini surish orqali hosil qilinadi; agar surishda biror raqam 0ga aylansa, u holda bu raqamdan chapda turgan raqam suriladi.

Shu qonuniyatdan foydalanib, birinchi 10 ta butun sonni hosil qilamiz:

Ikkilik sanoq sistemasida : 0, 1, 10, 11, 100, 101, 110, 111, 1000, 1001;

Uchlik sanoq sistemasida : 0, 1, 2, 10, 11, 12, 20, 21, 22, 100;

Beshlik sanoq sistemasida : 0, 1, 2, 3, 4, 10, 11, 12, 13, 14;

Sakkizlik sanoq sistemasida : 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11.

Pozitsion sanoq sistemasi o'zining qulayligi bilan hayotda keng qo'llanilmoqda.

Boshqa usulda tuziladigan sanoq sistemalari ham mavjud. Ular pozitsiyaga bog'liq bo'lmagan sanoq sistemalari deyiladi. Masalan rim raqamlari. Mazkur sistemada maxsus belgilar to'plami kiritilgan bo'lib, ixtiyoriy son shu belgilar ketma-ketligidan iborat bo'ladi.

Rim sanoq sistemasida

Bir (1)	–	I belgi bilan;
Besh (5)	–	V belgi bilan;
O'n (10)	–	X belgi bilan;
Ellik (50)	–	L belgi bilan;
Yuz (100)	–	C belgi bilan;
Besh yuz (500)	–	D belgi bilan;
Ming (1000)	–	M bilan belgilanadi.

Bu belgilar va ularning kombinatsiyasi yordamida turli sonlarni hosil qilinadi. Masalan, 1 dan 3 gacha - I, II, III kabi, to'rt (4) – IV, 5 – V tarzida ifodalanadi. Bu yerda 4 sonini yozish uchun 5 sonidan 1 sonini ayirib yoziladi, ya'ni I belgi V dan oldinga qo'yilsa ayirish ma'nosini, agar keyinga qo'yilsa qo'shishni anglatadi. Umumiy holda: 6 – VI, 7 – VII, 400 – CD, 600 – DC ko'rinishda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 3-sinf matematika darslik S. BURXONOV, O'. XUDOYOROV, Q. NORQULOVA, N. RUZIKULOVA, L. GOIBOVA
2. <http://reja.tdpu.uz/> sayti



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KELAJAGIMIZ POYDEVORI

Sodiqova Shahnoza Yuldashaliyevna
Namangan viloyati XTB boshqarmasi
Pop tuman XTB tasarrufidagi 52-umumta‘lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada mamalakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirishda boshlang‘ich ta‘limning ahamiyati to‘g‘risida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlari: ta‘lim tizimi, boshlang‘ich ta‘lim, ijodkorlik, zamonaviy ta‘lim.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta‘lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta‘limning uzviyligini ta‘minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtboshimizning *“Yangi O‘zbekistonni maktab ostonasidan boshlaymiz”* degan so‘zlariga mening ham fikrlarim go‘yoki, hamohangdek.

Boshlang‘ich ta‘limda pedagogning asosiy vazifasi o‘quvchining ijodiy tasavvurini boyitish hisoblanadi. Bolalarning qobiliyati-idroki, bilish jarayoni natijasida paydo bo‘ladi. Bu esa ta‘lim samaradorligini vujudga keltiruvchi ilg‘or uslublarga tayanishni taqazo etadi.

Ta‘lim tarbiya hamisha rivojlanib, taraqqiy etib boradigan jarayondir. Bu jarayon zamon talablari darajasidan kelib chiqib har bir pedagog oldiga katta ma‘suliyat yuklashi tabiiy.

Inson dunyoga kelibdiki dastlabki yillarda uning hayoti ota-onasi qaramog‘ida va tarbiyasi ostida kechadi, oilada u yashash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallaydi. Keyinchalik maktabgacha muassasalari va umumta‘lim maktablarida ta‘lim bilan birgalikda uzviy xolda tarbiyani ham davom ettiradi. Ta‘lim sifatini oshirish yosh avlod uchun juda muhim omildir.

Pedagog faoliyati, avvalo ijodkorlikdir. Shunday ekan, muallim bolajonlarga sidqidildan ta‘lim tarbiya berish, ularning kelgusida har tomonlama barkamol avlod bo‘lib yetishishlari uchun bor bilimni, kuch g‘ayratini safarbar etish, sohada hech kim qilmagan yangiliklarni amalga oshirish istagi bilan yashaydi.

Boshlang‘ich sinf hayotga tayyorgarlik, bilim berish, qolaversa odob-ahloq poydevori hisoblanadi va biz pedagoglar zimmasiga katta ma‘suliyat yuklaydi. Maktabga ilk qadam qo‘ygan bolani maktab muhitiga moslashtirib olgach, uni o‘qishga, o‘qiganlarini qayta hikoya qilishga, hisoblash, she‘rni ifodali aytish, mustaqil fikrlash va chiroyli yozishga o‘rgata boshlaymiz.

Birinchi sinfda yozuv malakalarini o‘zlashtirayotgan o‘quvchi to‘rtinchi sinfda ancha tez va xatosiz yozishga o‘rganadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asosan ikkinchi va uchinchi sinflarda yozuvga qo‘llari ancha kelishib, imlo qoidalarini o‘zlashtirib oladi.

O‘quvchilarning qobiliyat va istedodining asosiy sharti ularning faolligidir. O‘qituvchi qay darajada mahoratli bo‘lmasin o‘quvchilarning o‘zlari faollik ko‘rsatmasa xech qanday natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki o‘qituvchi o‘qitish jarayonida bolalarni boshqarib boradi. O‘quvchilar esa o‘zlariga ahamiyatli va qiziqarli bo‘lgan, o‘ziga jalb eta oladigan faoliyat bilan shug‘ullanishni istaydi. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari, dars tartib intizomiga rioya qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayrim hollarda o‘quvchilarda o‘qishni istamaslik, mavzuni eshitmay o‘tirishlari, darslarni qoldirishlarini kuzatishimiz ham mumkin. Odatda bunday o‘quvchilarni sinfdagi a‘lochi o‘quvchilarga qiyoslab ularni turli chiroyli so‘zlar bilan maqtashimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi va dars jarayonini o‘quvchilar ongiga singdirishda ijobiy samara beradi. Pedagoglar uchun eng yaxshi dars albatta o‘quvchilar tomonidan samarali o‘zlashtirilgan dars faoliyatidir. Bunday natijaga erishish o‘yinqaroqligi hali uzoqlashmagan, fikri tarqoq, bilim egallashni igna bilan quduq qazishdek mashaqqatlarga yelka tutgisi kelmaydigan, bolalarni zeriktirmay, dars jarayonida toliqtirmay ilm egallashlariga ishtiyoqini oshirish biz pedagoglarning mahoratimizga bog‘liqdir. Bugungi darsni kechagisidan qiziqarli va maroqli qilib o‘tishga harakat qilish kerak. Ayniqsa o‘quvchilarni baholash mezonlariga alohida e‘tibor qaratish, o‘quvchilar o‘rtasida faollikka intilish, raqobat muhitini yuzaga keltiradi. Bu albatta sinfda bilimlilar sonini oshishiga olib keladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni dars davomida „Barakalla“, „Ofarin“, „Rahmat“ so‘zlari bilan maqtab borishi o‘quvchilarning uy vazifalarini qoldirmay bajarishga, daftar-kitoblarini ozoda tutishga undab turuvchi kuch desak ham yanglishmaymiz.



Albatta bunday boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z ishiga qiziqishi, o‘quvchilarni sevishi, ularning extiyojlarini bilishi, zarur vaziyatlarda o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashi, ular bilan do‘stona muloqotda bo‘lishi talab etiladi.

Shunday ekan ustoz-o‘quvchilarning ijodiy va erkin fikrlashi, mantiqiy tafakkurini o‘stirishga, iqtidorli shaxs sifatida kamol topishiga ma’suldir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mavlonova R., O‘To‘raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika.-T.:”O‘qituvchi”, 2002
2. O‘zbekisto Respublikasi ning “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T., 1997-yil



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Valixodjayeva Muxtaram
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
298-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar va ularning tasnifi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, didaktik o'yin, matematika, o'quvchi, tinch o'yinlar, harakatli o'yinlar, aralash turdagi o'yinlar.

Ma'lumki 1-sinfqa qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatiga o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti – o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O'yin – bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof – muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

Matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehni o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his – tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar 2 xil tasnifga egadir.

1. Mazmuniga ko'ra:

- a) Tinch o'yinlar;
- b) Harakatli o'yinlar;
- s) Aralash turdagi o'yinlar.

2. Amalga oshirish shakliga ko'ra:

- a) Musobaqali o'yinlar;
- b) Sahnali o'yinlar.

Didaktik o'yinlarni xilma – xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi: 1. O'yinning vazifasi. 2. O'yinning harakati. 3. O'yinning qoidasi. 4. O'yinning yakuni.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Masalan, ishoralar o'yini. O'yinning maqsadi: Bir amalli masalalarni og'zaki yechish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yinning jihozi: "+", "-" belgilari.

O'yinning borishi: O'qituvchi masalani o'qiydi, o'quvchilar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa, o'sha ishorani ko'rsatadilar.

1. Begalining 3 ta qora va 5 ta qizil qalami bor. Hammasi bo'lib nechta qalam borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz?

2. Matematik Farruhda 5 ta daftar bor edi. 3 tasini akasi rassom Abduqodirga berdi. Farruhda nechta daftar qoldi?

Mustahkamlash: O'qituvchi "+", "-" qo'shish, ayirish belgilari qachon qo'shilishini so'rab, ularning bilimini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan so'ng, boshlang'ich sinflarda matematika darslarida o'tkaziladigan ayrim didaktik o'yinlardan namunalarni ko'rib chiqamiz.

Jim o'yini. O'yinning maqsadi – o'quvchilar o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va



malakalarini oshirish hamda sinash. O‘yin guruhlarda o‘ynaladi. Raqamlar yozilgan tarqatmalar, misollar va jadvallardan o‘yin jihozi sifatida foydalaniladi.

O‘yinning borishi: O‘yin ovoz chiqarmagan holda o‘tkaziladi. O‘qituvchi ko‘rsatgich bilan 7 va 5 ni ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘ylab 2 yozilgan tarqatmani ko‘rsatadilar.

“Bilmasvoyning xatolari” o‘yini. O‘yinning maqsadi – o‘quvchilar o‘n ichida “+”, “-” ishoralari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, bilim va ko‘nikmalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish hisoblanadi.

O‘yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o‘quvchi doskaga chiqadi va xatolarni tuzatadi.

$$10-7=4 \quad 10-3=6 \quad 7-3=5$$

$$3+2=6 \quad 4+3=8 \quad 4+1=6$$

“Kim epchil” o‘yini. O‘yinning maqsadi – hozirjavoblik, topqirlik, malakalarini oshirish hisoblanadi. O‘yin jihozi esa 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar. 12-6, 2+8, 7+5, 4+8, 10-3 va hakoza.

Stol ustida “olmalar” yozib qo‘yiladi. Doskaga 2 o‘quvchi chiqadi. Stol ustidagi “olmalar”dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to‘g‘ri topmagan o‘quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o‘quvchi savatga ko‘p “olma” tergan bo‘lsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib chiqadi.

“Zukkolar” o‘yini. O‘yinning maqsadi – ko‘paytirish va bo‘lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash hisoblanadi. O‘yin jihozi esa 3 ta bayroqcha. O‘yinning borishi: Qatorlararo o‘tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o‘quvchilar soniga teng bo‘linadi. O‘qituvchi har bir qatorning oxirida o‘tirgan o‘quvchiga bayroqchani beradi. O‘qituvchi son aytadi. Masalan, 1-qatorda 6 soni, 2-qatorda 4 soni, 3 qatorga 5 soni.

Bayroqchani olgan o‘quvchi $6*1=6$ deb bayroqchani oldingi partadagi o‘quvchiga uzatadi. $12*2=24$, $24:3=8$, $8*5=40$, $40:4=10$.

O‘quvchilar natija qaysi son bilan tugasa, shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo‘ladi. Bayroqcha 1-partaga kelganda oxirgi o‘quvchi 6 soni hosil bo‘ladigan ifoda bilan o‘yinni yakunlashi kerak bo‘ladi. Qaysi qatorning bayroqchasi birinchi partaga tez yetib kelsa, o‘sha qator g‘olib bo‘ladi. G‘olib qatorning nomi yozilgan joyda bayroqchalar yozib qo‘yiladi.

“Olma terish” o‘yini. Jihozlar: Magnit taxta, yozuv taxtasi, olma daraxtining rasmi, qalin qog‘ozdan yasalgan olma mevasining shakllari va savatchalar, olma mevalarining soni sinfdagi o‘quvchilar soniga savatchalar esa qatorlar yoki guruhlar soniga teng bo‘ladi.

Magnit taxtasiga qistirish uchun olma rasmi chizilgan plakat yoki olma mevalarining orqa tomoniga magnit plastinkasi yelimlanadi. Shuningdek, olma mevalarining orqa tomoniga oddiy qalam bilan misollar o‘chirib, keyingi darslarda yangisini yozish mumkin. O‘yinda 3 ta guruh bo‘ladi. Har bir guruhga bitta savatcha berishadi. Har bir guruhdan 1 tadan o‘quvchi chiqib misollarni yechadi. Kim ko‘p misol yechsa shu guruh g‘olib bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan didaktik o‘yinlarni boshlang‘ich sinf matematika darslarida qo‘llasak, o‘quvchilarning dunyoqarshi kengayadi va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Qurbonov. Didaktik o‘yinlar. Xorazm viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. Urganch, 2011.

2. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2005.

3. Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: 2008.



THE IMPORTANCE OF INTEGRATION SKILLS IN ESP CLASSES

Ashurova Nodira Rafiqovna senior teacher (ASU)
Ilyosov Komron student (ASU) IInd course of faculty of Sport
Telefon: 99899-089-08-37
dilquv@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada biz tinglab tushinish, gapirish, o'qish va yozuvni integratsiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida mulohaza yuritdik. Bu o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta til ko'nikmalaridan samarali foydalanish turli tipdagi o'quvchilar imkoniyatlarini rivojlantirishda muhimligini yana bir bor ta'kidlab o'tdik.

Kalit so'zlar: integratsiya, o'ziga xos xususiyat, samarali, qabul qiluvchi, talqin qilish, muloqot.

Аннотация: в данной статье мы обсудили важность интеграции навыков как аудирования, говорения, чтения и письма в образовательном процессе. Мы ещё раз подчеркнули, что эффективное использование интегрирования четырёх навыков развивает способности различных типов учащихся. **Ключевые слова:** интеграция, специфическая особенность, эффективность, рецептивная, интерпретация, коммуникация.

Abstract: In this article, we have discussed the integration of skills such as: listening, speaking, reading, and writing. This underscores the importance of creating learning opportunities for different types of learners, that include the use of four interrelated language processes.

Keywords: integration, specific features, effective, receptive, interpretation, communication.

What does it mean to integrate listening, speaking, reading, and writing? In natural, day-to-day experience, oral and written language uses are not kept separate and isolated from one another. Instead, they often occur together, integrated in specific communication events. For example, when you are reading the Sunday newspaper, you may comment on an article to your roommate or spoke, engendering a discussion about it. Such discussion may lead you to reread parts of the article to clarify questions that emerged in the discussion. In that case we'll try to describe English Specific purposes.

Therefore, "English for specific purposes is a term that refers to teaching or studying English for a particular career (like law, medicine) or for sport in general"[1.3]. There is a specific reason for which English is learned. Pauline C. Robinson (1989) describes ESP as a type of ELT (English Language Teaching) and defines it as: "Goal oriented language learning. " [2.p.398] that means student has a specific goal that is going to be attained.


As future professionals' students need to be aware of the vocabulary and communication patterns that are characteristic of their field of study. In this view, one of the main ESP characteristics is its ability to be both an approach to organizing instruction and the end product of education as the sum total of language units and communication strategies. ESP course development combines needs analysis, learning theories analysis, methodology development, and content selection. The content of ESP courses depends on the needs of the students and not on the framework of a particular academic discipline or professional role. Since the course is aimed at students, instructors should bear in mind that learners often do not clearly perceive their future professional roles. Content selection and methodology largely depend on instructor but they should reflect the learners' or professionals' requirements or industry needs for the English language usage. ESP does not aim at improving students' English proficiency indiscriminately. Instead, students are acknowledged as important stakeholders who have decided to study this language for particular reasons. After these reasons are mapped, we, as teachers, can help them reach their goals. The gold standard in ESP is to allow students to use English to fulfil their needs (e.g., read a manual, write a dissertation, listen to a lecture, present a sales pitch). For example, there is little point in teaching writing to sport students in an ESP course. For these professionals, the skills of listening and speaking are probably the most important ones since they will have to interact with rivals (e.g., agreement the game time), colleagues (e.g., negotiate their schedule), and police officers (e.g., ask for directions if they come across road diversions). [3.p.2].

Listening, speaking, reading, and writing are used together in learning events in high school at all levels, even though traditionally they were taught separately. As we knew, in primary grades, for example, the teacher may read a picture book aloud, taking time along the way to let students orally predict what will happen next or to discuss the characters or plot. Learners

may perform a play from written script, engaging in lengthy discussion over the fine points of interpretation, with the result being a dramatic oral performance of the play. When students write stories, they read what they write, ask others to read and comment on their writing, and perhaps read their writing aloud to celebrate its completion. In all these situations, a written text has been the subject of oral discussion and interpretation, demonstrating how oral and written languages become naturally interwoven during a particular communication event. In school, you enrich each school day when you give children opportunities to interweave oral and written language for functional, meaningful learning purposes.

Figure one illustrates the interrelationships among listening, reading, speaking, and writing more specifically, listening and reading are receptive uses of language: messages are received by ear or by eye, and meaning is reconstructed based partly on prior knowledge. Listening and reading are not passive process, however. Listeners and readers must actively take the speakers words and recreate the message to comprehend it. Thus, when you assist students with listening comprehension, you are assisting them with reading comprehension. Conversely, speaking and writing are productive uses of language: the speaker or writer must create the message for an audience. When you assist students with spoken composition, therefore, you are assisting them with written composition.

Figure1. Relationships among Written and Oral Language (Boyle.1979)



Moreover, reading can be one of the most important ways to develop oral vocabulary, and writing facilitates learning how to compose in oral language. Thus, in day-to-day life, oral and written language is interwoven like threads in a tapestry, each supporting the other to create the whole picture [4].

In summary, we have spent some time discussing the integration of listening, speaking, reading, and writing to emphasize the importance of creating learning opportunities that involve using all four interrelated language processes. We have described two general reasons for this recommendation. First, in the course of day-to-day living, people move back and forth from oral to written modes during communication that promotes learning in the classroom. Thus, the integration of listening, speaking, reading, and writing is functionally appropriate. Second, practical use of each language process provides both specific development of that process and overall language development in English. As teachers, we want to develop all students' abilities to the fullest as listeners and speakers, readers, and writers.

Used Literature

1. International Teacher Training Organization, 2005.p.3.
2. Robinson, P. (1989). An overview of English for specific purposes. In H. Coleman (Ed.), Working with language: A multidisciplinary consideration of language use in work contexts, Berlin: Mouton de Gruyter, p.398
3. Simone Sarmiento. Ana Eliza Bocorny. English for Specific Purposes (ESP) Chapter. November 2018. p.2
4. Boyle, O. F. (1979). Reading, writing, and learning in ESL: A resource book for K12 teachers. Pearson/Ally & Bacon. p.133 p.135



ИНСОН АДАПТАЦИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР

*Аишурова Мохира Баҳтиёрвна
Наманган вилояти Норин тумани
13-мактабнинг психологи
Тел: (97) 253-06-21*

Аннотация: Бу мақолада инсон адаптациясининг ривожланишига таъсир қилувчи омиллар ўрганилган.

Калит сўзлар: Шахс, адаптация, жамият, реакция.

Шахснинг ижтимоий муҳитдаги адаптацияси муаммоси, бу пассив мослашиш эмас, балки ижодий мулоқотга киришиш, ўзаро ҳамкорликнинг янги усуллари ишлаб чиқиш жараёнидир. Инсон адаптациясининг ривожланишига таъсир қилувчи ижобий ва салбий омилларини ажратади. В.Волканнинг фикрича адаптация тушунчаси одамларнинг фаолликлари характеристикасига нисбатан қўлланилиши мумкин. Инсон томонидан, унинг

муҳит билан турғунлигини таъминлайдиган унинг мақсадларини амалга оширишини ушбу жараённинг ўзига хос маҳсул кўриниши сифатида қараш мақсадга мувофиқ. Бундай талқин қилишни шахснинг ўз-ўзини тарбиялашида муҳим аҳамиятга эга бўлган тегишли мақсадларни амалга оширишга ҳам кенгайтириш мумкин. Шу билан бир вақтда

инсон даражасидаги адаптация кўп ҳолларда ён бериш билан ёки нофаол мослашиш каби талқин қилинади. Мослашиш ҳодисасидан фарқли равишда адаптация қулай шароитларни қидириш ва шахснинг шаклланиши ва ривожланиши учун воситаларни ишлаб чиқиш каби тушунилиши мумкин. Бунда, шахс адаптацияси ҳодисасининг асосий мазмуни субъект

ва атроф муҳит ўртасида мувофиқликка эришишда акс этади. Ўзининг моҳияти бўйича мослашиш зарурати иккита асосий томони билан, яъни инсон яшашининг жамоат шакли, шахс ривожланиши жараёнидаги, инсоннинг шахс сифатида шаклланишини доимо кузатиб боровчи, мувозанатлаштирувчи пайтларнинг зарурлиги билан юз беради.

Ижтимоий адаптацияни шахс ва жамият ўзаро муносабатларининг янада умумийроқ муаммосининг бир қисми сифатида қараб В.Казанская, ушбу жараён жамиятнинг одамларни ўзининг жамоавий мақсадларига мослаштириш зарурати ва одамларнинг жамоа фаолиятининг ушбу мақсадларига, характерига ва шаклига, жамиятнинг нормал фаолият юритиши ва шахс қобилиятларини, имкониятларини амалга ошириш шароитларига кўникиш зарурати билан боғлиқ, деб ҳисоблайди. Ўз навбатида, ҳаракатдаги ижтимоий атроф-муҳит билан ўзаро ҳамкорлик жараёнида ижтимоий муҳитнинг доимо ўзгариб турадиган шароитларига мослашиш инсон ҳулқининг силлиқлашишини таъминлайди.

А.В.Абрамова шахс адаптациясининг асосий ижтимоий-психологик воситаларига, жамоанинг қимматликлар ва қонун-қоидалари тизимини, шахслараро мулоқотга киришиш қобилияти ва кўникмаларини эгаллаш, мустаҳкамлаш ва ривожлантиришда акс этадиган фикрлаш ва ҳулқ наъмуналарини ишлаб чиқишни киритади. Муаллиф томонидан ҳаёт кечириш шароитлари ва уни ташкил қилиш усуллари ўртасидаги боғлиқлик, объектив жамоатчилик шакллариининг ва ҳаёт кечириш шароитларининг уни ташкил қилишнинг индивидуал, сифат жиҳатдан ўзига хос усуллари айланлиши жараёни бўлиб майдонга чиқадиган ижтимоий-психологик адаптация ҳодисаси сифатида қайд қилинади.

Е.В.Красавин, О.Н.Тузов ва бошқаларнинг фикрича, адаптация жараёнлари турлича характерланадиган тегишли психологик вазиятлар билан чамбарчас боғлиқ. Шу жумладан, критик психологик вазиятлар вазиятга мос реакциялар билан биргалликда юз бериши мумкин. улар қаторига, одатда, дезорганизация, демобилизация, пессимизм ва бошқа реакцияларини киритадилар. Бу реакциялар доимо ҳис-туйғули, яъни ваҳима, ҳафалик, нафрат, умидсизлик каби намоён бўлиши ва муҳим эҳтиёжларни йўққа чиқарувчи рухий шикаст етказувчи таъсирга жавобан пайдо бўлади. Ушбу таъсир, мазмунан, инсоннинг дунёга низоли муносабати туфайли туғилади. Вазиятга боғлиқ реакциялар учун ноиложлик, ишончсизлик, умидсизлик ҳиссини чақирувчи вазиятни ҳал қилишнинг ишончли воситаларининг мавжуд эмаслиги ҳам характерли.



Шундай қилиб, юқорида баён қилинганлардан келиб чиқиб, замонавий изланишларда адаптация жараёнининг ўзига хосликларини кўриб чиқиш ушбу ҳодисани ижтимоийпсихологик мавзуда ҳаракатдаги мувозанатни, тегишли фаолиятни амалга ошириш даврида шахснинг атрофдаги социум билан лозим бўлган ўзаро ҳамкорлигини, инсонга унинг

учун муҳим бўлган эҳтиёжларни, унинг билан боғлиқ жиддий ҳаётий мақсадларни, зарур психологик саломатликни сақлаган ҳолда, амалга ошириш имкониятини берадиган оилавий ҳаётни йўлга қўйишнинг алоҳида ва кўп томонлама жараёни сифатида қараб чиқиш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади, деб хулоса қилиш мумкин.

Adabiyotlar:

1. Красавина Е.В. Социальная адаптация молодежи в современном обществе: особенности и специфика / Е.В. Красавина. - Новочеркасск: Новочеркасский политехнический институт, 2005. - 20 с.

2. Казанская В. Социальная адаптация. / В. Казанская. — М.. Питер М.: 2013. - 288 с.



BENEFITS OF EXTRA CURRICULAR ACTIVITIES IN EFL CLASSES

Babakulova Guljamol
English teacher of secondary school № 6
Bukhara region Kagan city
Tel: +998 99 083 30 47

Annotation: The present paper is an attempt to broad the knowledge about extra-curricular activities. After knowing the students' problem, they were given special training by using new techniques. The analysis proved that the students were largely benefited from this innovative model of teaching. It also makes an in-depth analysis of the traditional methods, techniques and approaches adopted by the teachers and suggest innovative techniques of teaching.

Key words: Extracurricular activities, integral, education system, express, governance, approach, mindset, self-concepts, dropout, obedient, skillful, individual performance.

Extracurricular activities are the sources that have been an integral part of the education system; pupils participate in these kinds of activities and they do not fall into the sphere of normal curriculum and instructional methods. Pupils at all levels participate in these activities, of all age groups and standards. The areas that come under extra-curricular activities include sports, games, art, music, drama, poetry, pupil newspaper, clubs and governance. Participation in all these activities or just one of them of pupil's own interest has been connected to social and academic success; on the other hand, over-participation may be quite demanding and may consume much of their free time and thus interrupt with their academic curriculum as well.

There have been several advantages of participation in extracurricular activities which have been stated as follows:

1. Pupils tend to perform better in their studies and score good grades, as their mindset gets stimulated by the participation in activities; their exam results, educational attainment gets improved.

2. Pupils are willing to attend school more regularly and there is a decline in the rate of absenteeism; self-concepts of the pupils become more enriched and deep.

3. Through the participation in extracurricular activities, there is a reduction in school dropout rate as these activities do attract pupils; a large number of pupils find these activities more influencing then the academics.

4. Pupils become more disciplined and obedient, they tend to stay more focused and are less likely to misbehave or get engaged in delinquent acts.

5. Through these activities pupils become more practiced, competent and skillful; sometimes if they are good at making a painting, they may choose a career as an artist or if they are good at a dance performance they may become a professional dancer.

Conclusion. At the end of the article, I can say that there is no sure fire remedy or method to enhance extracurricular activities in a day or two. it is essential for all the pupils of all the classes and age groups to get involved in some kind of extracurricular activities as well. Finally, it can be stated that extracurricular activities are a must to be developed for an individual of all age groups; an individual should get himself engaged in at least one activity if not all; the negativities that occur as a result of these activities are quite uncommon.

List of used literature:

1. Wilson N. Impact of Extracurricular Activities on Pupils. London: Rutledge Press. 2009.
2. Johnston H. Extracurricular Activities and Pupil Achievement: Everyone Gains. Oxford: Oxford University Press.2014
3. Darling N. Participation in school-based extracurricular activities and adolescent adjustment. Oxford: Oxford University Press.2005



TEKNOLOGIYA DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR

*Kazakbayev Xolmat
Toshkent shahar Shayhontohur tumanidagi
119-maktabning texnologiya fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim muassasalarida texnologiya darslarida qo‘llaniladigan metodlar va ularning tasnifi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy, pedagogika, tushuntirish, suhbat, o‘qituvchi, rexnologiya, mashqlar, laboratoriya ishlari, kitob, texnik vositalar, amaliy ish.

Texnologiya darslarida ham zamonaviy pedagogika ishlarini to‘g‘ri tashkil etish va uning usullariga qo‘yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O‘qitish metodlari – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars jarayonidagi birgalikdagi faoliyatlari bo‘lib, bular yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga erishadi. O‘qituvchi o‘z tajribasida o‘qitishning xilma – xil usullaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchining intilishi, xatti – harakati darsda o‘quvchilarning diqqat- e’tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo‘lishiga, ularning chambarchasligiga yo‘llangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o‘quvchilarni ham shunga o‘rgatishi kerak. Har bir o‘qituvchiga o‘z uslubi, o‘z usulining o‘ziga xosligiga ega bo‘lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo‘lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin.

Barcha fanlarda bo‘lgani kabi texnologiya darslarida ham o‘quvchilarning mehnatga oid bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash va o‘quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o‘qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog‘liq.

Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘qitishning turli metod va usullarini qo‘llab, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib o‘quvchilarning yaxshi o‘zlashtirish natijalariga erishmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar texnologiya darslarida o‘quvchilarga qo‘l mehnatini o‘rgatishda o‘quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishlarini, mustaqil faollikni o‘stirishga yordam bermoqdalar.

O‘qitish usullari bilimlarni shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olsinlar.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarni qo‘l mehnatiga o‘rgatishda qo‘llaniladigan asosiy usullar tizimi quyidagilardir:

1. Og‘zaki bayon usuli. 2. Tushuntirish va bayon qilish. 3. Suhbat. 4. Mashqlar. 5. Amaliy ishlar. 6. Laboratoriya ishlari. 7. Mustaqil ishlar. 8. Ekskursiya. 9. Kitob bilan ishlash. 10. Texnik vositalar.

Og‘zaki bayon qilish – usuli ikki xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Birinchisi, monologik bayon qilish bo‘lib, bunda faqat o‘qituvchi gapiradi, o‘quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo‘l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko‘rinishida bo‘ladi. Ikkinchi ko‘rinishi, dialogik bayon bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro suhbatidir.

Tushuntirish va hikoya qilish – bu usulda materialni jonli va obrazli hikoya qilish tushuniladi. Bu usulda yangi bilimni o‘qituvchining o‘zi beradi. Ba’zan suhbat davomida o‘quvchilarning qanchalik o‘zlashtirayotganliklarini bilish maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoyada bajarilgan ishlar, natural rasmlar, rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko‘rsatib bajarilsa, anchagina tushunarliroq bo‘ladi. Bu o‘rinda tushuntirayotganda – ko‘rsat va tushuntir degan qoida bajariladi.

Suhbat – turli o‘quv maqsadlarida, yangi dastur materialini bayon qilish, bilimlarni rejalashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlash jarayonida, o‘quvchilarning bilimini tekshirish uchun qo‘llanilishi mumkin.

Suhbat o‘quv materialining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi, o‘quvchilarda bo‘lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o‘tashi, egallagan bilimlarni amalda qo‘llash malakalarini singdirishga yordam berishi kerak.



Mashqlar – olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi ko'nikma va malakalarni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga turli mashqlar beradi. Bunda u ijobiy xarakterdagi ishlarni tashkil etib, ko'proq mustaqil faoliyat talab etuvchi mashqlarni nazarda tutadi. Bu metodning mohiyati borgan sari murakkablashib boruvchi usul va harakatlarning ongli hamda ko'p marta takrorlashidir.

Mashqlar ommaviy va yakka tartibda bo'ladi, ya'ni butun guruhda bir xil ishni va barcha o'quvchilar yakka tartibda turli ishlarni bajarishlari mumkin. Mashqlar yakunida ishlarni tahlil qilish, eng yaxshi ishlarning tahliliga tayanib, kim qanday natijalarga erishganligini ko'rsatish lozim. Ayni bir vaqtda kamchiliklar ustida ham to'xtash va ishning sifatini yaxshilash yoki bajarish tezligini oshirish uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish lozim.

Amaliy ishlar – o'quvchilarga egallagan bilimlarini amalda qo'llay olishga yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o'quvchilarning o'zlari mustaqil tuzishlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ko'rgazmali qurollarni o'quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari - ta'limning turli bosqichlarida bo'lishi mumkin. Laboratoriya ishlarini o'tkazilishi egallagan bilimlarni ishonarlilik kuchini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ularni amalda qo'llashga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Laboratoriya ishlari jarayonida o'quvchilarda ma'suliyatni his etish, kuzatuvchanlik, diqqatlilik rivojlanadi.

Mustaqil ishlar – bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig'i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir.

Ekskursiya – o'quvchilarga mustaqil ishlash malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o'rin egallaydi. Ekskursiya jarayonida o'quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar.

Kitob bilan ishlash – hozirgi kunda texnologiya darsliklari nashrdan chiqqan bo'lib, o'quvchilarni mazkur kitoblardan balki, fanga oid boshqa qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatishimiz lozim.

Texnik vositalar – qo'l mehnati mashg'ulotlarida ayrim bo'limlarni o'rganish, kasblar, materiallarni tayyorlash texnologiyasi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini tanishtirish munosabati bilan qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rib o'tgan usullar texnologiya o'qituvchilari tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanilsa, dars jarayonining samaradorligi yanada oshadi hamda o'quvchilarning fanga oid bilimlarni egallash, o'zlashtirish jarayonlari yanada tezlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. R.A.Mavlonova, O.T.To'rayeva, K.M.Xoliqberdiyev. "Pedagogika" T.: "O'qituvchi", 1998.
2. R.A.Mavlonova, H.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. T.: 2007.
3. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika. Toshkent 2017-yil
4. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: 2005-yil



ТА’ЛИМ ЖАРAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRADIGAN INTERFAOL METODLAR VA ULARNING TASNIFI

*Abdoshimov Abdurauf
Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanidagi
16-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
fizika fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayoni samaradorligi oshirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar va ularning qo‘llanilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, tajriba, interaktiv, metod, kuzatuvchi, xulosalovchi, ta’lim – tarbiya.

Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakalarga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Zamonaviy o‘qituvchi ta’lim – tarbiya jarayonida innovatsion usullardan va interfaol ta’lim metodlaridan foydalana bilishi va uni amalga oshira olishi lozim.

Interfaol metodlar o‘qituvchi bilan o‘quvchining faol munosabati, bir-birini to‘liq tushuntirishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o‘quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo‘lmasin, qayerda o‘tkazilmasin darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o‘zlashtirishlarini ta’minlashi lozim. Bunda o‘qituvchi faqat yo‘l – yo‘riq ko‘rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi vazifasini bajaradi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlarda o‘qitishning mohiyati quyidagicha:

1. O‘rgatuvchi ham o‘rganuvchi ham ma’lumotlar bilan faol ishlashi;
2. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o‘rgatishi;
3. O‘qituvchiga “o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish uchun” xizmat qilsa, o‘quvchilarga esa, “fikrlashni o‘rganishlari uchun” xizmat qilishi.

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish;
2. Kichik guruhlariga ajratish;
3. Tabaqalashtirish;
4. O‘rgatish va o‘rganish jarayonida demokratik, do‘stona muhitni yaratish;
5. O‘zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar bilan tanishib chiqsak.

Aqliy hujum – mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o‘z tasavvurlari va g‘oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg‘ulot jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Mashg‘ulot ishtirokchilarning o‘zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish;
2. G‘oyalarni yozib berish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish;
3. Muammoni aniqlash;
4. Mashg‘ulot jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash.
5. Bildirilayotgan g‘oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish;
6. Muayyan qog‘oz varaqlari g‘oyalarni yoki fikrlar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish;
7. Bildirilayotgan fikrlarni yangi g‘oyalarni bilan boyitish asosida ularni qo‘llab – quvvatlash;



8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlar ustidan kulish, ularga nisbatan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Aqliy hujum metodi to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Zigzag” strategiyasi metodi – sinf o‘quvchilari 7 guruhga bo‘linadilar va guruhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. O‘quvchilar matnlarni diqqat bilan o‘rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a‘zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Barcha guruhlarining o‘quvchilari o‘zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so‘zlab berganlaridan so‘ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o‘rganib chiqilgach, o‘quvchilar o‘qilgan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini aniqlaydilar va yuzaga kelgan g‘oyalarni asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So‘ngra o‘zlashtirilgan bilimlar asosida o‘quvchilarning o‘zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Skarabey – interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarda mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. “Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo‘lib, undan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda foydalaniladi.

Ta’limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o‘zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomilalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- “men”ini ifodalashga imkon beradi;
- o‘z faoliyati natijalariga ma’sullik va qiziqish uyg‘otadi.

“Zakovatli zukko” metodi – metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatni yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun rag‘batlantiruvchi ballar belgilanadi. Bularning belgilanishi o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Metod o‘quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli, ommaviy ishlashga birdek qo‘llanilishi mumkin.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan metodlarimiz o‘quvchilarning salohiyatini yuksaltirib, mantiqiy fikrlashga undaydi hamda ularni ma’naviy yetuk, barkamol shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – T.:RBIMM, 2008.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A., Pardayev A., Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008.



ТА'ЛИМ СИФАТИНИ OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Abdullayeva Sanobar Atanazarovna
Urganch shaxar 28-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 299 83 56
sanobar.atanazarovna@inbox.uz

Masharibova Dinora Komilovna
Urganch shaxar 28-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 527 72 15
m_dinora99@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada xar bir pedagog ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi yo'llari hamda, pedagogik texnologiyalarning ahamiyati boyicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiyalar, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik xaritasini tuzish.

Respublikamizdagi ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi hamda kadrlar tayorlash sohasidagi davlat siyosati, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etgan holda har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, iqtisod, fan, madaniyat, zamonaviy texnika va texnologiyalarning ilg'or yutuqlarini amalda tadbir etishdir. Uzluksiz ta'limni joriy etish va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni o'z ichiga olgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirishda mavjud ta'lim va kadrlar tayorlash tizimini tubdan o'zgartirishga, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini hayotga tadbir etishga, barcha ta'lim muasasalarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga va ta'lim tizimini dunyo standartlari darajasiga ko'tarishga e'tibor qaratilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tuzilgan o'qitish metodlari va pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish ijodiy guruhining tarifi bo'yicha "pedagogik texnologiya – ta'lim oluvchi shaxsga yo'naltirilgan, demokratik hamda takrorlanuvchi o'qish natijalarini kafolatlaydigan ma'lum jarayonini loyihalash, amalga oshirish va baholashning tizimiy metodidir", - deyilgan.

Pedagogik texnologiya qo'yilgan ta'lim maqsadlariga turli uslubiy majmualar yordamida erishish yo'li sifatida qaraladi.

Ingliz tilini o'rgatishda amaliy mashg'ulotlarning texnologik xaritasini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tuzishda qo'llanilayotgan usul mashg'ulot samaradorligini oshirishi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi, bilimlarning puxta egallanishini ta'minlashi, talabalarda mustaqil fikrlash malakalari va ko'nikmalari shakllantirilishiga e'tibor qaratilishi lozim. Ta'lim jarayoni samaradoligi va natijaviyligiga erishishda axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalar juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda internetdan istalgan mavzuga oid istalgancha ma'lumotni olish mumkin, yangi pedagogik texnologiyalar turlari ham son sanoqsiz. Har qanday axborot texnologiya vositalari va yangi pedagogik texnologiyalar kerakli joyda to'g'ri qo'llanilgandagina kutilgan ijobiy natijani beradi.

Mashg'ulotning pedagogik xaritasini tuzishda o'qituvchi har bir etap uchun nima mos kelishini oldindan taxmin qila olishi lozim, chunki o'qituvchi o'zi dars berayotgan guruh talabalarining bilim darajasi, qiziqishlari, darsdagi faolligini yaxshi biladi (yangi guruhlardagi birinchi darslar bundan mustasno). Nofilologik OTMLarda xorijiy tilni o'rgatishda ikki muhim jihatga e'tibor qaratish lozim:

Birinchi jihati, bu- xorijiy tilga xos bo'lgan fonetika, grammatik qoidalar, kundalik nutqda foydalaniladigan leksika, dialogik va monologik nutq faoliyati, o'qish texnikasini oshirish, tinglab tushunish malakalari bo'lsa;

Ikkinchi jihati, bu- sohaga hos atamalarni o'rgatish, ilmiy texnik adabiyotlarni o'qish, tushunish, tahlil qilish va o'z munosabatini bildira olish ;

Ushbu ikki jihat har bir mashg'ulotni bir biriga bog'langan ikki qismdan iborat qilib tashkil



etishni taqozo etadi.

Amaliy mashg'ulotlarning har bir etapida o'ziga mos keladigan pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa, ta'lim jarayoni samaradorligi va natijaviyligi yanada oshishiga erishiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek har bir etapga mos pedagogik texnologiyalarni tanlash va uni mohirlik bilan qo'llay olish o'qituvchining vazifasidir.

1-qadam. Masalani qo'yish. O'qituvchi har bir guruhga muhokama uchun mavzu beradi.

2-qadam. Har bir guruh o'z mavzusi ustida ishlaydi. (odatda 5-10 minut).

3-qadam. Kichik guruhlar qo'shni guruhlar masalasi echimiga o'z fikrini bildirishi. Har bir kichik guruh doira bo'ylab g'oyalar yozilgan katta varaqni uzatishi mumkin.

4-qadam. Qo'shni masalasi echimini oxirigacha etkazish. Har bir kichik guruh varaqqa yozilgan qo'shni guruh g'oyalarini o'rganadi; savol belgisi bilan rozi bo'lmaganlarini belgilaydi; Qo'shni masalasi echimi bo'yicha o'z g'oyalarini yozadi. 5 minutdan keyin guruhlar doira bo'ylab keyingi kichik guruhga o'tib, yana joylari bilan almashadi. Siljishlar soni kichik guruhlar (qo'yilgan masalalar) soniga teng.

5-qadam. O'z masalasiga qaytish. Masaladan masalaga doira bo'yicha

o'tishlar har bir kichik guruh o'zining dastlabki masalasiga qaytish bilan tugallanadi. Bunda eng muhimi talabalarning berilayotgan vazifani bajara olishiga ishonch hosil qilishiga erishishdek psixologik jarayonni nazardan qochirmaslikdir.

Agar bilim darajasi yuqori bo'lgan guruhga oson vazifa berilsa, yoki aksincha bilim darajasi pastroq guruhga qiyin topshiriq berilsa, natija qanday bo'lishi o'z-o'zidan ma'lum. Shuning uchun darsga tayyorgarlik ko'rayotgan o'qituvchi har bir dars etaplarida guruhning bilim darajasiga mos keladigan pedagogik texnologiyani tanlab olishi lozim. Bir vazifani uch xil guruhda uch xil tashkil etish mumkin. Masalan, tinglab tushunish uchun biror bir matn eshittirmoqchi bo'lsak. Bilim darajasi yuqoro bo'lgan guruhga matnni tinglab, unga nisbatan o'z fikrini bildirish vazifasini qo'yish mumkin. Bilim darajasi o'rta bo'lgan guruhga matnni tinglab, undagi muhim jihatlarni aniqlash, matn mazmunini qayta gapirib berish va bilim darajasi pastroq bo'lgan guruhda matnni tinglab, tushunishga harakat qilish va "Yes", "No" tarzida savol-javob o'tkazish mumkin.

Ushbu texnologiya dars jarayonida, darsdan tashqarida, to'garak va fakultativ mashg'ulotlarda, bo'sh vaqtlarda turli adabiyotlar, ilmiy texnik maqolalar va matnlar bilan ishlash jarayonida talabalarning o'rganilgan materialni yaxshi eslab qolishiga, og'zaki nutqni rivojlantirishi va o'z fikrini erkin bayon eta olish malakasini shakllantiradi, shuningdek, bir dars davomida barcha talabani baholash imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim jarayonini san'at va mahorat darajasiga etkazish, talabalarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularni har bir masalaga tanqidiy yondashuvga, ijodiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, erkin fikrlashga o'rgatuvchi optimal vosita va an'anaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhori

1. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. T.:TIB-KITOB, 2009
2. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Moliya-iqtisod" nashriyoti, 2009.
3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013
4. Sul'tonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi DTPU, 2005.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI BILAN AXBOROT KOMUNIKATSION TEXNLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Abdullayeva Maloxatxon Muxtarovna
Andijon viloyati Paxtaobod tumani
26-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Anatatsiya: Maqolada umumta‘lim maktablarida boshlang‘ich sinflarda dars o‘tish jarayonida har bir fanga darsga mavzuga oid axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish usullari haqida ma‘lumot berilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta‘lim tizimida maktab fanlarini o‘qitishda AKT dan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta‘limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta‘kidlanmoqdaki, AKT o‘quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta‘sir etadi. O‘quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o‘quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta‘lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad — aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo‘lgan o‘quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo‘lishidir.

Ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim — ta‘lim tizimining poydevori hisoblanib, o‘quvchilarni o‘qitish sifati unga bog‘liq bo‘ladi va bu boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta‘lim tizimida boshlang‘ich maktab «ko‘nikmalar maktabi» bo‘lib keldi, ya‘ni o‘quvchi keyingi ta‘lim olish uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta‘lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang‘ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta‘lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta‘lim olish kuchlarini sinash joyi bo‘lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta‘lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o‘quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta‘lim jarayoniga AKT’ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

AKT’dan foydalanilganda ta‘limda shaxsga-yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo‘lib qoldi, butun o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta‘limi dasturlaridan, o‘quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog‘i vositalaridan foydalanib, multimediali ta‘lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o‘quv fanlarda qo‘llash mumkin. Darslarda o‘quv va o‘yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va Rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo‘yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari uchun turli didaktik materiallar to‘plamidan foydalanib, ko‘rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o‘rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo‘yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinfda o‘qish darsida elektron o‘quv qo‘llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so‘zni tovushli-harfli tahlil qilish, so‘zning bo‘g‘inlari tuzilishi, ba‘zi orfogrammalar o‘rganilishi turli qiziqarli ko‘rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g‘aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o‘quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o‘yin shaklida o‘quv materialini bilan tanishish imkonini beradi, o‘zini nazorat qilish va o‘quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo‘llanma bo‘yicha ta‘lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o‘qitish bo‘yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo‘limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim.



Matematika darslarida «O‘yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinfda o‘rganiladigan ko‘plab mavzular bo‘yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o‘quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

«Tabiatshunoslik» fani bo‘yicha barcha mavzulari bo‘yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Masalan: «O‘lkamiz suv havzalari», «Ona zamin», «O‘rmon va dalalar — tabiat boyligi», «Qishloq xo‘jaligi sohalari», «Bizning o‘lka», «Yer osti boyliklari», «O‘lkamiz hududiy tuzilishi», «O‘lka chorvachiligi va o‘simliklari» va boshqalar. Ona tili bo‘yicha o‘rganiladigan so‘z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o‘quvchilarda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o‘quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma‘nosini topishga, sinonimlarni to‘g‘ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o‘rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag‘ishlangan «Testkari o‘yin» testidan foydalanish o‘quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta‘sir etadi. Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o‘quvchining ko‘zi, miyasi va qo‘llari ishtirok etadi, o‘yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, ta‘lim jarayoni jadalligi kerakli darajasini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o‘quvchilar dars materiallarni mustaqil o‘rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar. Barcha o‘quv fanlarida qo‘shimcha va rivojlantirish materiallari sifatida ko‘plab videofilm hamda fotolavhalar bilan o‘lkashunoslik materialidan foydalanish mumkin.

Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta‘lim jarayonida AKT‘dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi — axborotlilik, ko‘rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo‘yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo‘shimcha axborotlardan foydalanish mumkin. Maktabda mavjud bo‘lgan Internet tarmog‘i ishimizda katta yordam ko‘rsatadi. Internet — bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma‘lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o‘z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko‘paytirib, barcha kompyuterlarga o‘rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O‘quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o‘tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to‘ldirish imkoni paydo bo‘ladi. Axborot olishning boshqa bir usuli — dars davomida bevosita Internetdan axborot olish hisoblanadi. Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, darsda esa uni o‘quvchilarga ko‘rsatish mumkin. Ishni o‘rganilgan material bo‘yicha dialog ko‘rinishida olib borish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni biladilar. 2-sinfdanoq o‘quvchilar faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O‘quvchilar kompyuter bilan ishlash birinchi ko‘nikmalarni oladilar, o‘zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirib boradilar.

Boshlang‘ich sinflarda fikrlash operatsion uslubini shakllantirishda informatika kursining roli juda muhim. Informatikaning ushbu roli harakatlari tuzilishini rejalashtirish, axborot izlash, mulohazotni rejalashtirish, axborot modellarini qurish, faoliyatni vositalashtirish kabi dastlabki ko‘nikma va malakalar to‘plami ko‘rinishida qaraladi. Kompyuterni o‘qishda yordamchisi, ijodkorlik, o‘zini ifoda etish va rivojlantirish vositasi sifatida tushunish katta ahamiyatga ega. Katta sinflar o‘quvchilarida fikrlash uslubi shakllanib bo‘ladi, yangi shakllarini ular qiyinchilik bilan qabul qiladilar. Ushbu kurs o‘quvchini SHK‘da axborot bilan amaliy ishlashga o‘rgatishi kerak. Boshlang‘ich maktabda kompyuterni o‘zlashtirib o‘quvchilar undan o‘z faoliyatlarini vositasi sifatida boshqa sinflarda ham foydalanishlari mumkin, kompyuterni qo‘llash bilan olib boriladigan darslar ularda qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Foydalangan adabiyotlar ;

1. R.Ishmuxammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev "Innovatsion Texnologiyalar" ta‘lim muassasalarida pedagog – o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar Toshkent 2008.
2. J. G‘Yo‘ldoshev Pedagogik texnologiya asoslari. O‘qituvchi 2010.
3. www.pedagog.uz
4. ziyo.net



IJTIMOIY FAOL O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHGA INNOVATSION YONDASHUV.

*Alimova Gulandom Bahodirovna.
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
38-umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.
e-mail:nafasovdoniyor@gmail.com.
Tel: +998942300399*

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol ta'lim texnologiyalarining mohiyati, maktab ta'limi bosqichida A.Navoiy hayoti va ijodini o'qitish jarayonida "Bumerang" interfaol texnologiyasini qo'llash yo'llari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, bumerang, anglash bosqichi, interfaol, inter

Yangi O'zbekistonni ravnaqi ko'p jihatdan ta'lim sohasidagi islohotlarga bog'liq. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek "mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish lozim"[1].Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya" iboralari keng qo'llanilmoqda. Aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiya asosida o'qitishni boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalashko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan narsalardir.

Pedagogik jarayonni samarali va natijali bo'lishini ta'minlash uchun hozirgi kunda ta'limning interfaol uslublaridan foydalanilmoqda. **"Interfaol"**- inglizcha so'z bo'lib, "Interact": "inter"-o'zaro va "act" - "harakat qilmoq", ularni umumlashtirganda esa, "Interfaol"-o'zaro harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi[2]. O'zaro harakat-bu o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi harakatidir. Umumta'lim maktablari o'quv jarayonida Alisher Navoiy ijodini o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati katta. Maktab ta'limida adabiyot darslarini samarali tashkil qilishda "Alisher Navoiyning hayoti va ijodi" mavzusini o'rganishda "Bumerang" interfaol texnologiyasidan foydalanish shartlarini keltiramiz.

«Bumerang» texnologiyasi.

Ushbu texnologiya dars jarayonida, darsdan tashqari bo'sh vaqtlarda turli adabiyotlar, tarixiy manbalar, matnlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning o'rganilgan materialni yaxshi eslab qolish, og'zaki nutqini rivojlantirish va o'z fikrini erkin bayon qilish malakasini shakllantiradi, shuningdek, bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholash imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi. Bu texnologiyadan yangi mavzuni yoki materialni o'rganish jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiyadan foydalanish tartibi.

1 - bosqich. O'quvchilar 4 - 5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadilar.*2 - bosqich.* O'qituvchi har bir guruh va uning har bir a'zosiga mustaqil o'rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun o'rganilayotgan yangi mavzu bo'yicha alohida yozma tarqatma material beradi. Tarqatma material umumiy mavzuning bir qismini tashkil qiladigan matndan yoki jadvaldan iborat bo'lib, guruhning barcha a'zolarigabir xil mazmunda berilishi kerak. Demak, yangi mavzu oldindan tashkil etiladigan guruhlar soniga qarab 4 yoki 5 qismga bo'linishi lozim. Shunda har bir guruh yangi mavzuga oid alohida matnga ega bo'ladi.*3 - bosqich.* Guruhning har bir a'zosi matnni yakka tartibda, alohida o'rganib chiqib eslab qolishi, keyin esa guruh a'zolari matnni o'zaro savol-javob asosida guruhda muhokama qilishi kerak. Matnning katta kichikligiga qarab bu ishga - 10 daqiqa ajratiladi.*4 - bosqich.* O'qituvchi har bir guruh yoniga kelib, guruh a'zolariga oldindan tayyorlangan, raqam yozilgan qog'ozlardan bittadan olishni taklif etadi (*qog'oz soni guruhdagi o'quvchilar soniga teng bo'lishi kerak, 1 raqamini olganlar 1 - guruh, 2 raqamini olganlar 2 guruh va xokazo*). O'qituvchi raqamlar bo'yicha yangi guruhlar tuzishni taklif etadi.*5 —bosqich.* Yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifani ham o'qituvchi,



ham o'quvchi vazifasini oladi. Ya'ni guruhning har bir a'zosidan oldingi guruhda o'zi o'rganib chiqqan matn mazmunini yangi guruh a'zolariga o'rgatishi va o'z navbatida guruhning boshqa a'zolarining matnlarini ham o'zlashtirib olishi talab etiladi. Bunda guruhning har bir ishtirokchisi o'zi o'zlashtirgan materialni so'zlab berish orqali boshqalarga yetkazishi kerak. Buning uchun 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Natijada raqamlar bo'yicha tuzilgan yangi guruhlar umumiy mavzu bo'yicha barcha materiallarni o'zlashtirishga erishadilar.

6 —bosqich. Guruhdagilar bir - birlariga o'z matnlarini gapirib bergach, matn qanday o'zlashtirilganini tekshirish uchun o'qituvchi guruh a'zolariga o'z matnlaridan kelib chiqib bir - birlariga savol berishlarini tushuntiradi va guruh ichida shu tariqa ichki nazorat o'tkaziladi. Bu esa guruhdagilarning bir - birlariga so'zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan qanday o'zlashtirilganini aniqlashga va mustahkamlashga yordam beradi. 7 - bosqich. O'qituvchi barcha o'quvchilarning oldingi guruhlariga qaytishlarini so'raydi va hamma dastlabki guruhga qaytadi. 8 - bosqich. O'qituvchi barcha o'quvchilarning mavzuga oid hamma material bilan tanishib chiqqanligini hisobga olgan holda sinfdagi xohlagan o'quvchisidan ushbu mavzuga oid xohlagan savolini so'rashi mumkinligini va nazorat savollarini reyting ballari asosida baholashini aytadi. Agar savollarga berilgan javoblar o'tirgan joyida luqma tashlasa - 1 ball, javob berolmasa - 0 ball qo'yiladi. Guruh a'zolarining javoblarini belgilash va hisoblab borish uchun bir o'quvchi tayinlanadi. 9 - bosqich. O'qituvchi tarqatma materiallardagi savollar asosida guruhlarining o'zlashtirishini tekshirib chiqadi. 10 - bosqich. Endi o'qituvchi har bir guruhga o'z materiali asosida yangidan 3 ta savol tuzishni taklif etadi. Vaqt 3 - 5 daqiqa. 11- bosqich. Bu bosqichda guruhlar bir - birlariga o'zlari tuzgan savollarni beradilar va berilgan javoblar yuqoridagi tartibda hisoblanadi. Agar boshqa guruhlar savolga to'g'ri javob bera olmasa, guruh o'zi javobni to'ldiradi va qo'shimcha ballga ega bo'ladi. 12 – bosqich: Yakuniy bosqichda guruhlar to'plagan ballar hisoblanib, guruh a'zolari soniga bo'linadi. Ballarni taqsimlashda guruh a'zolarining ham fikrlari inobatga olinadi.[3]

«Bumerang» texnologiyasi dars jarayonida yoki turli adabiyotlardan, tarixiy manbalar, matnlar bilan mustaqil ishlash jarayonida o'quvchilarning o'rganilgan materialni yaxshi eslab qolish imkonini beradi, og'zaki nutqni rivojlantiradi va o'z fikrini erkin bayon eta olish malakalarini shakllantiradi, shuningdek, bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholash imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi. «Bumerang» texnologiyasidan yangi mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin. «Bumerang» texnologiyasining texnologik tavsifi quyidagicha ekanligini ko'rsatish mumkin: **da'vat, anglash, fikrlash** hamda **sharhlash** bosqichlari. Misol sifatida adabiyot fani bo'yicha «Navoiyning hayoti va ijodi» mavzusidagi dars ishlanmasini keltirib o'tamiz.

1. Da'vat bosqichida o'quvchilar guruhlariga bo'linadilar (4 kishi bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi). Bu bosqichda avval olgan bilimlar faollashtiriladi, ya'ni shu yangi mavzu bo'yicha bilganlarini tiklaydilar. O'qituvchi har bir guruh va uning har bir a'zosiga mustaqil o'rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun o'rganilayotgan yangi mavzu bo'yicha alohida yozma tarqatma material beradi.

Guruhlariga beriladigan tarqatma material umumiy mavzuning bir qismini tashkil qiladigan matndan iborat bo'lib, guruhning barcha a'zolariga bir xil mazmunda berilishi kerak. Har bir guruh alohida yangi matnga ega bo'lishi kerak. Masalan:

1-guruhga «Navoiyning bolaligi»

2-guruhga «Navoiyning lirikasi»

3-guruhga «Navoiyning siyosiy faoliyati»

4-guruhga «Navoiyning «Xamsa» asari» kabi ko'rinishda berish mumkin.

2. Anglash bosqichi - bunda yangi mavzuni o'zlashtirishga erishish maqsad qilib quyiladi. Bu bosqichda guruhning har bir a'zosi matnni yakka tartibda, alohida o'rganib chiqadi va guruhga umumiy muhokamaga qo'yiladi. Muhokamaga 10 daqiqa vaqt ajratish mumkin. So'ngra o'qituvchi guruh a'zolariga oldindan tayyorlangan 1 dan 4 gacha bo'lgan raqamlar asosida qaytadan guruhlar tashkil qilinadi. 1-raqamlar 1-guruh, 2-raqamlar 2-guruh va hakoza. Yangi tuzilgan guruhda o'quvchilarni har biri o'zi avvalgi guruhda o'zlashtirilgan bilimlarni yangi guruh a'zolariga o'rgatishga harakat qiladi. O'z navbatida boshqa guruh a'zolaridan umumiy matnning qolgan qismidagi yangi ma'lumotlarni o'zlashtirib olish vazifasi qo'yiladi. Guruhning har bir a'zosi o'zi o'zlashtirgan bilimlarni dastlab o'z guruhida muhokama qiladi va so'ngra boshqa guruh a'zolariga tushuntiradi, takrorlash orqali mustahkamlashga erishadi. Mavjud bilimlarga



qo'shimcha ravishda guruhning boshqa a'zolaridan ma'lumotlar olib, mavzuni kengaytirib, o'zlashtirib oladilar. Buning uchun 20 daqiqa vaqt ajratiladi.

3. Fikrlash bosqichi - bunda o'quvchilar dastlabki guruhlariga qaytadilar va savol - javob orqali umumiy matnning boshqa qismi bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydilar. Bunga 10 daqiqa vaqt ajratish mumkin. Quyidagi keltirilgan savollarni berishi mumkin. 1. *Alisher Navoiy qanday oilada dunyoga kelgan?* 2. *Alisher Navoiyni qanday dostonlari mavjud?* 3. *Alisher Navoiyga ustozlari Lutfiy qanday baho bergan?* 4. *Alisher Navoiy qanday taxalluslarda ijod qilgan?* So'ngra o'qituvchi guruhlarda o'z matnlari bo'yicha 4 tadan savol tayyorlashga va boshqa guruhlariga berishga yo'naltiradi. O'qituvchi savolning saviyasi va berilayotgan javoblarga jiddiy e'tibor berib borishi kerak. Agar savollar javobsiz qolsa yoki noto'liq javob bo'lsa, savol bergan guruh javobni to'ldirib, qo'shimcha ballga ega bo'lishi mumkin. Shu tarzda guruhni yangi mavzu bilan tanishtirish bilan birga, ularni o'zlashtirishlarini baholash ham mumkin. O'qituvchi darsni mustahkamlaydi va yakunlovchi xulosani bildiradi. Xulosa qilib aytganda bu texnologiya ta'lim bilan birgalikda bir necha tarbiyaviy vazifalarni: guruh bilan ishlash, o'zgaralar fikrini hurmat qilish, mas'uliyatlilik, faollik, ishga ijodiy yondoshish, mustaqil o'z fikrlarini bayon qilish, o'z faoliyatini samarasini ko'ra bilish, muomala madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi .

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Toshkent sh., 2020- yil 6- noyabr. PF-6108- son.

2. Ishmuhammedov P, Abduqodirov A . Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: 2008 yil. – 25 b.

3. Tolipova M. va boshqalar Pedagogik texnologiyala: nazariya va amaliyot -T.,2004. – 48 b.



KONSTITUTSIYAMIZ HUQUQIY KAFOLATIMIZDIR

Artiqova Shirin
Urganch tumani 48- son
maktabning boshlang'ich ta'lim
o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada Konstitutsiyaviy xuquqning asosiy sub'ekti insonligi, inson, uning xuquqlari va erkinliklari konstitutsiyaviy xuquqning mazmun mohiyatini belgilab berishi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun, huquq, oily qadriyat, inson, fuqaro, jamiyat, davlat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy xuquqning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, konstitutsiyaviy-xuquqiy normalar yordamida inson, jamiyat va davlat xokimiyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Konstitutsiyaviy xuquq normalari inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi va ta'minlaydi. Bunday ustuvor yo'nalishlarni va oliy qadriyatlarni aniqlaydi va konstitutsiyaviy amaliyotni belgilab beradi. Bu oliy qadriyatlarga konstitutsiyaviy institutlar mos bo'lishi kerak. Konstitutsiyaviy xuquqning asosiy sub'ekti insondir. Inson, uning xuquqlari va erkinliklari konstitutsiyaviy xuquqning mazmun mohiyatini belgilab beradi. Konstitutsiyaviy huquq normalarini xayotga tatbiq etish jarayonlarida konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Konstitutsiyaviy huquq-davlat hokimiyati tashkil etilishini mustahkamlovchi, jamiyatning bugungi kuni va kelajagini belgilovchi, jamiyat va shaxs munosabatlarini tartibga soluvchi inson va fuqarolarning huquqlarini hamda davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishini belgilovchi davlat organlari tizimi va ular faoliyatining eng muhim jihatlarni mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisidir.

O'zbekistonda ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanib bormoqda, bu esa davlat boshqaruvida demokratik umuminsoniy printsiplarga asoslanganligini bildiradi. Butun dunyo tinchliksevar jamiyatlari tan olgan inson huquqlari tamoyillari mamlakatimiz hayotida mustaqillikka erishgan kunlarimizdan boshlab amalga bo'ldi, unga ko'ra inson, hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshiradi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy xuquqning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, konstitutsiyaviy-xuquqiy normalar yordamida inson, jamiyat va davlat xokimiyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Konstitutsiyaviy xuquq normalari inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi va ta'minlaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish maqsadida jamiyat hayotining barcha sohalarida bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgacha bir necha marotaba o'zgartirishlar kiritildi, lekin bu o'zgartirishlar Konstitutsiyaning asl mazmunini o'zgartirgani yo'q. Jamiyat rivojlanib borar ekan Konstitutsiya va qonunlarga tuzatish va o'zgartirish kiritishni hayotning o'zi taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2014 yil 27 martda qabul qilingan va Senat tomonidan 2014 yil 10 aprelda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi (32, 78, 93, 98, 103, 117) qonuniga binoan Konstitutsiyaga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar hokimiyat va boshqaruv tizimini yanada demokratlashtirish, «kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» printsipli bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy



Majlisi palatalarining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirish, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan qonun chiqaruvchi oliy organning, hokimiyat vakillik organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish, shuningdek hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini ro'yobga chiqarish borasidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida kiritilmoqda.

Birinchidan, Konstitutsiyaviy huquq normalari boshqa huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan barcha huquqiy munosabtlarning o'zagini tashkil qiladi.

Ikkinchidan, bu noralar bilan o'rnatilgan munosabatlarda xalq hokimiyatchiligini amalga oshirish shakllari, ya'ni O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab, Konstitutsiya hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Uchinchidan, Konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar davlat va jamiyat tuzilishini bir butun organizm sifatida ifodalaydi. Masalan: O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.

To'rtinchidan, Konstitutsiyaviy huquq predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari, ya'ni sub'ektlari maxsus doiraga ega bo'lib, ular qatoriga O'zbekiston xalqi, O'zbekiston davlati kiradi. Bu munosabatlarning maxsus huquqiy shaklda mustahkamlanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tartibga solingan.

Xullas, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar mazmun-mohiyati bilan insonni ulug'lashga, uning sha'ni, qadr-qimmatini oshirishga va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Т.: “Ўзбекистон”, 2003, 5-бет.
2. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Prof. H.B.Boboev, X.Odilqoriev tahr.ost.T.2000 y.



GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN DIDAKTIK O‘YINLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Berikbayeva Gulmira
Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanidagi
16-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablari da geografiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Xususiy metodik, didaktik o‘yinlar, ta’lim-tarbiya jarayoni, shaxs, o‘quvchi.

Xususiy metodik darajada geografiya fanini o‘qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida geografiya ta’lim mazmunini o‘quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

Geografiya darsi jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayonini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. Didaktik o‘yinli darslar orqali quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi: Ta’lim-tarbiya berish, shaxsni rivojlantirish, o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, bilimlarni nazorat va tahlil qilish, kasblar bilan tanishtirish va kasbga yo‘naltirish, o‘quvchilarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish. Dars jarayonida mazkur funksiyalar majmua holda amalga oshiriladi, lekin quyida o‘rganiladigan didaktik o‘yin turlarida qaysidir funksiya ustunlik qiladi. Masalan, konferensiya darslarida o‘quvchini rivojlantirish ustunlik qiladi, qolgan funksiyalar unga ilova bo‘ladi. O‘yin mashqlarida esa bilimlarni nazorat va tahlil qilish ustunlik qiladi, qolgan funksiyalar uni to‘ldiradi.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish, ularda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini anglash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual, harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’lim tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda bilim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Geografiya fani o‘qituvchisi o‘yinli darslarni o‘tkazishga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

1. Didaktik o‘yinli darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;

2. O‘dob – ahloq me‘yorlariga mos bo‘lishi;

3. O‘yin tuzilishi mantiqiy ketma – ketlikda bo‘lishi;

4. Darsda didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishish.

Didaktik o‘yinli darslarni o‘quvchilarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga ko‘ra syujetli – rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin – mashqlarga ajratish mumkin. Didaktik o‘yinli darslar ichida konferensiya darslari muhim o‘rin tutadi. Konferensiya darslari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishda, ularni qo‘shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy – ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi konferensiya darsini o‘tishdan oldin dars mavzusini, maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olib shu mavzuga oid qo‘shimcha ilmiy, ilmiy – ommabop adabiyotlarni ko‘zdan kechiradi. Mazkur darsni o‘tkazishdan 10 kun oldin dars mavzusi e‘lon qilinib, unga tayyorgarlik ko‘rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. E‘lon qilingan didaktik o‘yinli darsda olimlar rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, har bir o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatiga yarasha ma’ruza tayyorlash o‘quvchilarning ixtiyorida bo‘ladi. Darsga tayyorgarlik davrida o‘qituvchi tomonidan ijobiy rag‘batlantirishning ustunligi va muvaffaqiyatga yo‘llovchi o‘qituvchining muloqot madaniyati, o‘zaro yordami o‘quvchilarning darsga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishning



muhim omili sanaladi.

Ilmiy konferensiya darsini quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi:

1. O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi olimlar bilan tanishtiradi;

2. Ilmiy ma'ruzalarni tinglash "Olimlar" mavzu yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon etadilar;

3. Ma'ruzalar muhokamasi. Bunda "Olimlar" va sinfdagi boshqa o'quvchilar o'rtasida mavzu yuzasidan bahs, munozara o'tkaziladi;

4. Ilmiy konferensiya yakuni. O'qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g'oyalarni ta'kidlab yakunlaydi;

5. O'quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Ishchanlik o'yin dars – dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Mo'jizalar maydoni darsi – o'quvchilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchilarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchidars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanar ekan, buning uchun albatta o'yin mazmun – mohiyatidan kelib chiqib eng zarur vositalarni tanlay bilishi kerak. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz lozimki, uzluksiz ta'lim jarayoninig barcha bosqichlarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda didaktik o'yin darslaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilimlarni o'zlashtirishi, hamkorlikdagi faoliyati dinamikasining oshishida ijobiy natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2005.

2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: 2008.

3. Xaydarov F.I, Xalilov N.I. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: 2010.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING UMUMIY MASALALARI

Bolg'aboyeva Nurgul
Navoiy viloyati Nurota tumani
32-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarda va darsdan tashqari jarayonlarda kasb-hunarga yo'naltirishning afzalliklari haqida yozganman. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari kasb tanlashga juda qiziqadilar.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich, kasb-hunar, pedagog, psixolog.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tushunchasini shakllantirish, yosh avlodning kelgusida egallaydigan kasb yoki hunariga e'tiborli bo'lish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tushunchalarini shakllantirib, ulardagi qiziqishlarni kuzatib borish, kelgusida yosh avlodning salohiyati, qobiliyatini va albatta ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb tanlashga yo'l ochib beradi.

Kasbga yo'naltirish bu- bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, ilk bosqichda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning odob-ahloqi va mehnatga layoqatligiga ko'ra minimal talablar qo'yiladi.

Birinchi, boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasb-hunarni egallash yuzasidan tushunchalar berishdan avval, ular qaysi fanga o'zlarining imkoniyat darajasidan ko'proq intilayotganini o'qituvchi amaldagi kuzatuv jarayonlaridayoq anglay olishi zarur.

Ikkinchi, o'quvchilardagi qiziqishlarni chiqarishda yordam beradigan barcha turdagi o'yinlar, psixologik mashg'ulotlar, treninglar eng samarali va aynan boshlang'ich sinflar uchun dunyo miqyosida mos bo'lganlarini dasturiy ishlab chiqish bo'yicha shug'ullanish.

Uchinchi, ishlab chiqilgan dastur bo'yicha amaldagi tadbqiqot ishlari, darsturni sinflar kesimida qo'llash va natijalar do'skasi yaratish ushbu masalalar yechimi o'laroq amalga oshirish bo'yicha izlanishlar olib borilishida o'z samarasini beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqa fan o'qituvchilari va shuningdek, psixolog bilan uzviy aloqada ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Sababi boshqa fan o'qituvchilari ham o'z fanidan o'quvchilarning bilim salohiyati qay darajada ekanligi haqida sinf rahbariga ma'lumot berib, birgalikda faoliyat yuritilsa, kasbga yo'naltirish borasida yuzaga keladigan bir qancha muammolarning oldi olinadi.

O'quvchilarning kasb tanlashiga doir qator omillar sabab bo'ladi. Masalan, ularning qiziqishi, xarakteri, tafakkur va qobiliyati idrokidan kelib chiqqan holda bir to'xtamga kelinadi. Maktab jamoasi va oiladagi o'zaro hamkorlik bo'lsagina, o'quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan moyillik, qiziqish paydo bo'ladi.

Bugungi kun o'quvchi va yoshlari kasb tanlashida pedagog va psixologlar kasb ta'limi mutaxassislari olib borayotgan ishlar o'z samarasini bermoqda.

Darhaqiqat, o'quvchi va yoshlarning kasb tanlashida pedagog-psixologlarning o'rni beqiyosdir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda bilimlarni chuqurroq egallashlariga nazariyot va amaliyotning uzviy bog'lanishi, mehnatsevarlik ilm-hunarga ishtiyoqlik ruhida tarbiyalashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Psixolog tavsiyasi" Mahoratli pedagog jurnalidan
2. Boshlang'ich ta'lim jurnalidan.
3. Internet saytlaridan



BOSHLANG'ICH SINFLARDA МАТЕМАТИКА О'QITISH PREDMETI

Boymatova Muqaddas Mahamadaliyevna
Namangan Viloyati Norin tuman
19-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
+998931786555
boymatovamqadass@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish predmeti vatrlil hil usullar orqali bolalarni fikrlash qobiliyatlarini o'stirish va prezident maktablariga tayyorlash da qo'l keladi.

Kalit so'zlar: O'qitish vositalarini, darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma - qo'llanmalar va texnik vositalarni.

Ulkan iqtisodiy o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrda matematikaning ahamiyati yanada oshdi, shuning uchun ham matematik ta'lim katta ijtimoiy ahamitga ega. Respublikamiz hukumati yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ta'lim va tarbiyani turmushning oshib borayotgan talablari darajasiga etkazish vazifasini qo'ydi.

1997 yilda «Ta'lim to'g'risida qonun» qabul qilindi. Bu qonunda ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar davrida maktabning roli yanada o'sganligi, maktabning bosh vazifasi - o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berish ularda iqtisodiy - matematik savodxonligini shakllantirish, hayotga va ongli kasb tanlashga tayyorlash haqida, hamda o'quv reja va dasturlarni ta'lim mazmunini hozirgi zamon yutuqlari va talablari darajasiga keltirish to'g'risida fikrlar keltiriladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida deyarli barcha predmetlar, jumladan matematikadan ham yangi o'quv dasturi kiritiladi, o'qitish metodlari takomillashtiriladi. Boshlang'ich sinflar uch yil o'rniga 4 yillik ta'limga otkazildi. Boshlang'ich sinflarning matematikadan yangi dasturlarga o'tish munosabati bilan, yangi metodik tizim ishlab chiqildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (nima uchun o'qitiladi).


2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (ya'ni matematikadan qaysi material boshlang'ich sinflarda o'rganilishi, nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang'ich sinflarda kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o'rganilishi, mavzular qanday tartibda o'rganilsa, eng ratsional bo'lishi ko'rsatiladi).

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish. (qanday o'qitish kerak, ya'ni o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni va aqliy qobiliyatlarini egallab oladigan bolishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak? Masalan, 10 ichida sonlarni qo'shish va ayirishni qanday o'rganish kerak, jumladan, bu mavzuda qo'shishning o'rin almashtirish xossasini qanday ochib berish kerak?).

4. O'qitish vositalarini - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma - qo'llanmalar va texnik vositalarni ishlab chiqish (nima yordamida o'qitish?). kerak!

5. Ta'limni tashkil etishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari formalarini qanday o'tkazish?. O'quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o'tkazish kerak?. O'quv prosessida ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?).

Shunday qilib, o'qitishning maqsadlari, mazmuni metodlari, vositalari va shakllari metodik tizimning asosiy komponentalaridir.



Xulosa qilib aytganda o'qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o'quvchilardan og'zaki so'rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, interfaol o'yinlar orqali mustahkamlash, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Matematika o'qitish metodikasi" S.Alixonov . Toshkent 2011
2. "Matematika analiz" 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent "O'qitvchi-1994"
3. www.ziyo.com kutubxonasi



BOSHLANG'ICH SINFLARDA МАТЕМАТИКА ДАРSLARIDA АРИФМЕТИК АМАЛЛАР БАЖАРИШ ТАРТИБИНИ ТУШУНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Aminova Dilshoda Shavkatovna
Samarqand viloyati Samarqand tumani
37-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda matematika darslarida arifmetik amallar bajarish tartibini o'tishda foydalanadigan usullar haqida yozilgan

Kalit so'zlar: Amallar, sinlar, ko'p xonali sonlar.

Ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma'lum. Bu haqda Prezidentimizning quyidagi so'zlari ibratlidir:

“Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tilsa, o'qitish jarayoni takomillashadi.

Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar bajarishni bog'lanish va bilimlarni muvofiqlashtirish tamoyilai asosida o'quv fanlarining ichki bog'likligi va o'quv fanlari aro uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar bajarish talablarining o'quvchilar tomonidan bajarilishi ularning zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlariga yordam beradi. Shunindek, arifmetik amallarni boshlang'ichda o'rganish uslubi ham mukammallashtirilgan. Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishning barcha bosqichlaridan ularning tiklash faollashtirishga tayanch izohlar va kuzatishlarni o'z vaqtida umumlashtirishga, ayirim masalalar orasidagi o'zaro bog'lanishni tayinlashda, bolalarda mustaqil ishlash o'quvlarini paydo qilishda qaratilgan yangi ilmiy asoslangan usul va uslubdagi maktab dasturiga kiritilgan.

O'quv soatlarini o'quv yilli bo'yicha taqsimlanishida o'rganilayotgan sonlar sohasini asta-sekin kengayib borishi kuzatiladi.

- 1-sinf 1 dan 20 gacha sonlar
- 2-sinf 1 dan 100 gacha sonlar
- 3-sinf 1 dan 1000 gacha sonlar
- 4- sinf 1 dan 1000000 gacha sonlar

Va xakozo, ya'ni ko'p xonali sonlar o'rganiladi. Arifmetik amallarga doir mavzular ko'p xonali sonlarga bo'lib o'rganiladi. Har bir ko'p xonali sonlar o'z mazmuniga ko'ra sistematik arifmetika darsining asosiy masalalarni aks ettiradi, shuning uchun o'quvchilar u yoki bu chegaralar ichida sonlar ustida amallarni o'rganar ekanlar, umuman arifmetikaning mohiyati to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Har gal yangi sonli mavzu asosida amallar bajarishga qayta-qayta murojaat etish eng muhim arifmetik tushunchalarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ko'p xonali sonlarga mustahkam o'quv va malakalarning asta-sekin shakllanishi ta'minlanadi.

Shunday qilib, har bir oldingi nomerlash va arifmetik amallarni o'rganish mos masalalarni kelgusida o'rganish uchun tayyorgarlik ishi bo'lib hisoblanadi, har bir keying ko'p xonali sonlarda esa ilgari o'rganilgan mavzu umumlashtiriladi va mustahkamlanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Matematika o'qitish metodikasi" Qosimova



BOSHLANG'ICH SINFLARDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI

Djuraqulova Adolat
Samarqand viloyati Samarqand tumani
37-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Anatatsiya: Men bu maqolamda iqtidorli o'quvchilarning aniqlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, ahamiyati haqida o'z fikrlarimni bayon etganman.

Kalit so'zlar: Pedagogik, iqtidorli, ahamiyat, sharoit, o'quvchilar, aniqlash, ilmiy-tadqiqot.

Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs manaviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo etadi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'satkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarini tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali ketishi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda, maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, Ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarni aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi pedagogik yonalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqea va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivojlanishi uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarsiliklarning shaxs kamolatini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyasining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik kuzatish metodi:

Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadbiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avval va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, metodning ahamiyatini yanada oshiradi.

Test metodi:

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va makakalarni turkum asosida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejallishi bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Movlona. R, Vohidova. N. Raxmonqulova. Pedagogik nazariyasi va tarixi.
2. Ijtimoiy tarmoqlardan.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA VA BITIRUVCHILARNI OLIY TA'LIMGA YO'NALTIRISH

Fayzanova Umida Xusenovna
Navoiy viloyati Navoiy tumani
53-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

Annatsiya: Ushbu maqolamda maktab o'quvchilarini kasb- hunarga yo'naltirish va bitiruvchilarning oliy ta'limga yo'naltirishning o'ziga hos hususiyatlari haqida yozilgan

Kalit so'zlar: Maktab, ota-ona, oila, o'quvchi, o'qituvchi, olit ta'lim.

Bitiruvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda faqat qiziqishlari va kasbga bo'lgan munosabatlaridan tashqari bugungi kunda hududimizdagi imkoniyatlar va kadrlarga ehtiyojni hisobga olish, shuningdek, bandlikka ko'maklashish markazining yillik hisobotlari bilan tanishib chiqishi kerak. Bu faqat o'quvchilar emas, balki o'qituvchilar va ota-onalarning oldida turgan muhim masalalardan biri.

Kasbiy, hududiy diagnostika tahlilidan kelib chiqib bitiruvchilarga bundan keyin texnik, texnolog, muhandis kabi yo'nalishlarda o'qishini taklif etishimiz lozim.

Maktablarning umumiy vazifasi o'quvchilarni mustaqil hayotga va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilishga tayyorlashdir. Maktablarda kasb-hunarga yo'naltirish psixologik-pedagogik va tibbiy chora-tadbirlar tizimidan iborat bo'lib maktab bitiruvchisiga jamiyat ehtiyojlari va uning qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasb tanlashga yordam beradi. O'quvchilarni mustaqil kasbni tanlash imkoniyatlari saviyasining pastligi sababli maktabda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari eng avvalo ularning kasbiy qobiliyatlari va mayinliklarini aniqlash, shuningdek rivojlanish dinamikasini o'rganish vazifalarini hal qilishni taqozo etadi.

Endi pedagogik- psixolog ta'rifdan yondashadigan bo'lsak, quyidagilarni joriy etishni taklif qilamiz:

1. O'quvchilarga kasbiy maslahat markazini tashki etish.
2. Markaz rahbarligiga texnologiya, boshlang'ich sinf, tabiiy fanlar va aniq fanlar yo'nalishidagi o'qituvchilarni ta'yinlash.
3. 1-11-sinf o'quvchilarini maktab kasbiy maslahat va ilmiy ishlar markaziga jalb etish.
4. Yosh xususiyatlariga qarab sinflarga bo'lish. 1-4-sinf o'quvchilari uchun kasb alifbosi, kasblar o'yini, kasblar bo'yicha qiziqishlar haritasi, yosh xususiyatiga qarab test, so'rovnomalar, rasmlar anketasini olib, tahlil qilish
5. 5-7-sinf uchun kasbiy ma'lumotlar, konferensiyasi, seminar, onlayn tarzda oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va targ'ibot ishlarini olib borish.
6. 7-9 sinf o'quvchilari uchun grafik asosida tanlangan yo'nalishlari bo'yicha ish berish muassasasi ma'muriyati bilan onlayn aloqalar o'rnatish, uchrashuv tashkil etish, ekskursiyalar uyushtirish, shu yo'nalishlar aks etgan ma'lumotlar (kitob, afisha, tarqatmalar, videoroliklar) tarqatish.
7. 9-11-sinf o'quvchilarining qiziqishidan kelib chiqib to'rt tomonlama (o'quvchi, ota-ona, maktab va ish beruvchi) shartnoma tuzish va bu bo'yicha "Maktab-oila-mahalla-oliy o'quv yurtlari-tuman hokimligi" tizimini yo'lga qo'yish.
8. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda nazoratni yo'lga qo'yish. Maktab rahbariyati, bandlikka ko'maklashish markazi, tuman hokimligi hisobotlarini onlayn tarzida olib borish.

Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatov tomonidan yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berish tashabbusining amaliyotga tatbiq etishi, ularning ta'lim olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Biz umumiy o'rta ta'lim rahbarlari o'quvchilarimizni yurtimiz rivojiga hissa qo'shishi uchun shart-sharoit yaratib berishimiz kerak deb o'ylayman.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI VA VAZIFALARI

Gulnoraxon Sayfuddinova
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
11-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang'ich sinf darslarida o'qish darslarining o'quvchilar uchun ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati keng yozilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiyaviy ahamiyati, ongli o'qish, milliy qadriyatlar.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiyaviy asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa narsalar ta'limini o'qish ta'limsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar kabi mavzular bo'yicha atroficha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy asarlar kiritilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, Vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, Vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Umuman, "O'qish kitobi" darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha narsalarni darslarida amalga oshiradi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi.

O'qish darslariga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularning oddiy kutubxonadan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning hayolot olamini boyitish.

7. Elementlar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalar bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet saytlaridan www.eduportal.uz



BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QITUVCHINING O‘QUVCHILAR BILAN O‘ZARO HAMKORLIGI

Hakimova Hurmat Alimovna
Navoiy viloyati Karmana tumani
31-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang‘ich siflarda o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars mobaynida o‘zaro hamkorligi haqida yozganman. Bu hamkorlik o‘qituvchi va o‘quvchi dars mobaynida birga ishlash yo‘llari haqida yoritilgan

Kalit so‘zlar: O‘quvchi, o‘qituvchi, ta’lim, ixtisoslashgan.

Bugungi kunga qadar amaldagi o‘quv jarayonida o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlarida monologik ish uslubi hukmronlik qilmoqda: hamon o‘qituvchi gapiradigan vaqt mobaynidai, o‘quvchi tinglaydi. O‘quvchi faqat belgilab qo‘yilgan muayyan vaqt mobaynida o‘z fikrini bayon qilishi mumkin. Shunda ham uning aytgan fikrlari mustaqil bo‘lmaydi. O‘quvchi tomonidan bayon qilingan fikr asosan o‘qituvchi uchun muhim bo‘lishi kerak. Bu fikr o‘quvchi uchun qanchalik muhimligi inobatga olinmaydi. Pedagogik jarayonni diolglashtirish birinchi navbatda mavjud vaziyatlarda o‘qituvchi bilan o‘quvchi mavqeyi teng bo‘lishiga erishishni talab qiladi. Bu mavqe o‘quv jarayonining teng huquqli ishtirokchilari, o‘zaro hamkorlik hamda muloqot jarayoniningsub’ekti tarzida namoyon bo‘lishi kerak. O‘quv faoliyati mayillarni aniqlash didaktikaning markaziy masalalaridan hisoblanadi.

Bu esa o‘z navbatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv jarayonida o‘quvchi faoliyatini individuallashtirish bilan bog‘liqdir. Quyidagi uch shartga amal qilgandagina o‘quvchida egallagan bilim va tajribalarga asoslangan o‘quv mayllari hosil bo‘lishi mumkin:

O‘quvchi har doim menga nimani o‘rgatsalar o‘sha narsani o‘rganish qiziqarli, degan o‘y bilan mashg‘ulotlarda ishtirok etishi;

Meni kim o‘qitishi ahamiyatli, degan savolni o‘z oldiga qo‘ya bilishi;

Meni qanday o‘qitishlari muhim, degan savolga javob topishi kabilar.

Bugungi kunga qadar mutaxassislar juda kam ahamiyat bergan muhim bir dalil ham mavjudki, bu dalil o‘quvchida o‘quv mayllarning jadal rivojlanishida alohida o‘rin egallaydi. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun har doim kattalar jamiyatining azosi hisoblanadi. U o‘z o‘quvchilari ularning otalariga nisbatan ko‘proq muloqotda bo‘ladi. Bu shakl-shubhasiz o‘quvchining kattalar olami bilan aloqa o‘rnatishga alohida ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim berishda individual ta’limdan foydalanish uning samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. O‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlariga qarab bilimlarini taqdim etish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘quvchining kasb tanlashi uchun qulay pedagogik sharoit yaratish, ularning tanlovlarini qo‘llab-quvvatlashga ko‘maklashadi. Shu bilan birga o‘quvchilarning mustaqil, ongli tanlovlarini ta’minlaydi. Buning natijasida o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy hayot yo‘llarini loyhalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, ularda tadqiqotchilik, loyhalash, erkin muloqot va tanlov ko‘nikmalari tarkib topadi. Tabaqalashtirilgan bilimlar yordamida ular o‘zlarining individual kasbiy yo‘nalishlarini belgilashga intiladilar. Maktab ta’limini tabaqalashtirish asosida kasbiy sohalarga ajrashi maqsadiga yo‘naltirilgan pedagogik harakatlar ixtisoslashgan shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni sifatida tarkib toptirishga imkoniyat beradi. Bu esa o‘quv jarayonini individuallashtirishning samarali shakli hisoblanadi. Buning natijasida har bir o‘quvchining shaxsiy quvvatlari namoyon bo‘ladi va ro‘yobga chiqadi. Har qanday ixtisoslashgan ta’lim jarayonida birinchi navbatda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan uni rivojlantiruvchi darslarni o‘qitish o‘qituvchi oldidagi maqsadlardan biri bo‘lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.N. Alimov, J.R. Nurmatov “Pedagogik texnologiyalar” (o‘quv uslubiy qo‘llanma) 2007-yil
2. G. Boymurodova, X. Sattarova, Z. Kabilova. “O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma, T-“Sharq” 2017-yil



MASALALARNING O'QUVCHILAR BILIM OLISHIDAGI AHAMIYATI

*Ismoilova Shohista Zayniddinovna
Toshkent viloyati Toshkent tumani
7-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismidir. O'quvchilarga ularning qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon berish, mustaqilligini va ijodiy potinsialini rivojlantirish boshlang'ich maktabning asosiy vazifasidir. Bu masalalarni muvofaqiyatli hal qilish uchun ko'p tomondan o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishning shakllantirilganligiga bog'liq.

O'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini rivojlantirishda tafakkur asosiy rol o'ynaydi. Tafakkur bilan bir vaqtda va uning bilan bog'liq ravishda barcha bilim olish jarayonlari rivojlanadi. Tafakkurning rivojlanishi bilan birgalikda "fikran, sodda ishlarni rejalashtirish", o'zining harakatlarini baholash xususiyatlari rivojlana boradi.

Matematika tafakkurni rivojlantirish uchun asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Tafakkurni rivojlantirishning konkret usullari mavjud emas. Biz o'quvchilar tafakkurini umuman o'stiramiz, matematika o'rgatish va h.k lar orqali.

Dastlabki matematik bilimlarni o'quvchilar o'zlarining oldingi bilimlariga mos ravishda bir-biri bilan bog'liq holda o'zlashtiradilar. Bunda ular tafakkurning ular bilimlarga mos darajasidagi amallari: analiz, sentiz, taqqoslash, abstraktlashtirish, konkretlashtirish, induksiya va deduksiyadan foydalanishadi, mulohazalar yuritishadi. Matematik bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi. Tafakkur amallarini bilib olish esa o'z navbatida yangi bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi.

Real dunyo predmetlari va hodisalarni o'rganish uchun biz ularni xayolan (fikran) kichik qismlarga ajratamiz, ya'ni analiz qilamiz; qismlar yoki predmetlar va hodisalar orasidagi bog'lanishni o'rganamiz, ya'ni sentiz qilamiz. Tafakkurning bu amallari o'zaro bog'liqdir.

Analiz va sintez amallari arifmetikani o'rganishda ham, mashqlar bajarilganda ham, masalalar yechilganda ham ishlatiladi. Birinchi sinfdayoq o'quvchi to'plam elementlarini real ko'rinishda qismlarga ajratadi, o'rganadi va ularni birlashtiradi. Keyinchalik esa u xayolda, fikran analiz va sintez amallarini bajara boshlaydi.

Matematikaning har qanday bo'limini o'rgatishda ham analiz va sintez amallaridan keng foydalaniladi. Bu amallar matnli masalalarni yechishda ham ishlatiladi.

O'qituvchi rahbarligida o'quvchi masalaning mazmunini analiz qiladi, uni sonli ma'lumotlarga ajratadi, berilgan qism va topilishi kerak bo'lgan noma'lumlarni aniqlaydi.

Murakkabroq arifmetik masalalarni yechishda murakkab hamda nozik analiz va sintez usullari ishlatiladi.

Boshlang'ich matematikani o'rgatishda taqqoslash usulidan ham foydalaniladi. Bunda berilgan arifmetik masalalardagi ob'ektlar va ularning qismlari o'zaro taqqoslanadi, o'xshash va o'xshash bo'lmagan xususiyatlar aniqlanadi.



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI YOZUVGA VA XATOLARNI BARTARAF ETISHGA O'RGATISH.

*Jambulova Muborakxon
Uchqo'rg'on tumani 40-umumta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna
Namangan davlat universiteti doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida yozuvga o'rgatish va xatolarni oldini olish, ular ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Savod, nutq, bayon, grafik xatò, orfografik xatò, fonetik xatò, imlo, lug'at, dialekt.

“Ona tili” fanini o'qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o'z fikrini erkin va ta'sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek tili qonun-qoidalarini ongli o'zlashtirishga o'rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi “Davlat tili to'g'risida”gi, “Talim to'g'risida”gi qonunlari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”ga muvofiq boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish oldiga yangi-yangi vazifalar qo'yilmoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichida yangi tahrirdagi DTSlari asosida o'quvchilarni ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar standart me'zon orqali aks ettiriladi:

1. O'qish texnikasi
2. O'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash
3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'quvchilar shu parametrlar asosida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1-4- sinf ona tili fanini o'qitishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi:

1. O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish;
2. O'z fikrini o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og'zaki va yozma ifodalay olish;
3. Bir ma'noni turli shakllarda bera olish ko'nikmalarini shakllantirish, so'zlardan o'rinli foydalanish;
4. Dunyoni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shuningdek boshlang'ich sinf ona tili ta'limi o'quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko'zda tutadi.

- Bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;
- Bolalarga atrof- muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish;
- Nafosat hissini tarbiyalash;
- Mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish;
- O'quv mashg'ulotlariga, bilim manbai bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish.

Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilishga ko'maklashish lozim.

Mazkur maqsad va vazifalarni to'laqonli bajarish uchun o'qituvchi faqat dars bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Darsdan tashqari paytlarda ham muntazam ish olib borishi yaxshi natija beradi. Tilni o'rganishga doir kechalar, to'garaklar, maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan qo'shimcha darslar, sinfdagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash kabilardan foydalanish kerak.

O'quvchilarga til ta'limini singdirishda ularning yosh va bilim darajalarini ham hisobga olish zarur. Chunki 2-sinf o'quvchisiga 4-sinf hajmdagi bilimni berilsa o'quvchi buni hazm qila olmaydi, o'zlashtira olmaydi ham. Aksincha 4-sinf o'quvchisiga 1-2-sinfidagi bilimlar berish bilan cheklanib qolinsa bu ham o'quvchi uchun zerikarli bo'ladi. Natijada o'quvchilarda tilni o'rganishga bo'lgan havas, qiziqish rivojlanish o'rniga susayadi.



O'quvchilarning dars jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini sekin yotig'i bilan tushuntirish lozim. O'quvchi shundagina yozuvida yo'l qo'ygan xatosini tushunib oladi va tuzatishga harakat qiladi, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishlari ortib boradi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini bajargan ishlarini o'z vaqtida baholab borish ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf ona-tili darsliklaridagi manbalar oz bo'lsada izlanish metodi bilan ishlashni taqozo etadi O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mashq shartini o'qib unda talab etgan topshiriqlarni aniqlaydilar savollarga javob qidiradilar undagi fikrlarni umumlashtiradilar, mashqlar bajaradilar. Umumlashtirish va xulosalar asosida qoidalar ishlab chiqadilar.

Umuman ona-tili darslarini to'g'ri va qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuvlarida turli xatolar uchraydi. Bu uchraydigan xatolarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Grafik xatolar. Grafik xatolarga harf shakllarini o'xshata olmaslik, harflarning o'rnini almashtirib yozish, talaffuzi o'xshash undoshlarni aniq ajratmaslik natijasida yozuvda bir harf o'rniga ikkinchisini ishlatish biror harfni tushirib qoldirish kabi xatolar uchraydi. Shularga ko'ra grafik xatolar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Alisher odobli bola.
2. Kuz fasli boshlandi
3. Qobil ikki tup ko'chat ekdi
4. *Olma, o'rmon, to'qmoq.*

2. Fonetik xatolar. Bunday xatolar so'zlarni tog'ri talaffuz qila bilmaslik, sheva va dialektlar ta'sirida bo'ladi. Fonetik xatolar asosan quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi.

Masalan: 1. Borgan edi – boruvdi. (sheva xatolari)

2. Tomni – tommi. Piyolaga – piylaga. (Assimilatsiya hodisasi)
3. Go'sht – go'sh. G'isht – g'ish
4. Devor – devol. (tovushlar almashuvi)

Xatolar ustida ishlashda orfografik tahlilni ahamiyati katta bir necha gapni orfografik jihatdan to'la tahlil qilish kerak. Bu bilan o'quvchilar so'z ma'nosi va uning imlosini puxta o'zlashtirib oladilar. O'quvchilarning to'g'ri, xatosiz yozishga o'rgatish va yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Eng avvalo o'quvchilarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish. Ya'ni so'z aytilganda tovushlarni aralashtirmay, tovush tushirib yoki orttirib talaffuz etmaslik. Masalan: kitob o'rniga kitob, ruchka o'rniga yuchka, maktab o'rniga matab deyishga yo'l qo'yimaslik.

2. Har bir darsda ko'pchilik uchun bir xil uchraydigan tipik xatolar doskada ko'rsatilib, tuzatiladi.

3. Ayrim o'quvchilar uchun tegishli xatolar o'sha o'quvchi bilan birgalikda tuzatiladi.

4. Agar o'quvchilar biror qoidani bilmasligi natijasida xatoga yo'l qo'ygan anashu qoidani takrorlash bilan tushuntirish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar yozuvida xatolar bo'lmasligi uchun lug'at ishiga ta'limiy harakterdagi yozma ishlarga ko'proq o'rin berish zarur. Imlosi qoidalashtirilmagan va qiyin so'zlar jadvali tuzilib, sinf xonasiga o'quvchilarga ko'rinarli qilib osib qo'yilishi va uni vaqti-vaqti bilan almashtirib turishsa yaxshi natija beradi.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIMY O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI


*Jumaniyazova Mexrinisa Madrimovna,
Shovot tumanidagi 1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabining
boshlang‘ich tarbiya fani o‘qituvchisi.
Email: mehriniso@inbox.uz. Tel: +99 42433 47*

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda ta’limiy o‘yinlardan foydalanishning samarali usullari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, o‘yin, bola, ko‘rgazmalilik, ta’limiy

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning asosiy faoliyati o‘yinlardir. Maktabda 45 daqiqa o‘rnidan qimirlamay darsni tinglab, o‘qituvchi tomonidan berilayotgan barcha ma’lumotlarni o‘zlashtirish yosh bolalar uchun juda murakkab jarayondir. Buni oldini olish uchun o‘yin va ta’lim faoliyatlarini chambarchas bog‘lash zarur. Ya’ni dars jarayonida ta’limiy va harakatli o‘yinlardan foydalanish, ta’lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo‘lishiga erishishimiz mumkin. Dars jarayonida ta’limiy o‘yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o‘z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to‘laligicha esda saqlab qolish imkonini beradi. Ta’limiy o‘yinlarning yana bir jihati shuki, u bolada ikki miya yarim sharlarining bir vaqtning o‘zida ishlashini ta’minlaydi. Miyadagi bunday faollik berilgan axbarotni bir vaqtning o‘zida qabul qiladi, esda saqlaydi uni qayta tahrirlab berilgan savolga tez va aniq javob berishni ta’minlaydi. O‘yin - bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Matematika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilar zehni o‘stirish, tez hisoblash ko‘nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘yin qoidalariga qat’iy rioya qilishga o‘rganadilar, inoqlik his - tuyg‘ulari dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning xususiyatiga ko‘ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko‘rgazmalilikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi. Har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin o‘quvchilarga o‘yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O‘quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Quyida matematika darslarida o‘tkaziladigan ayrim didaktik o‘yinlardan namunalar keltiriladi.

“Zukkolar” o‘yini.



O‘yinning maqsadi:

Qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash.

O‘yin jihozi: Bayroqchalar.

O‘yinning borishi: Guruhlararo o‘tkaziladi. Guruhlar nomi doskaga yoziladi va o‘quvchilar soni teng bo‘linadi. O‘qituvchi har bir guruhning oxirida o‘tirgan o‘quvchiga bayroqchani beradi.

O‘qituvchi son aytadi. Masalan:

- 1- guruhga 9 soni,
- 2- guruhga 8soni,
- 3- guruhga 5 soni...

Masalan, bayroqchalarni olgan o‘quvchi $9 \cdot 1 = 9$ deb bayroqchani yonidagi partadagi o‘quvchiga uzatadi. Hosil bo‘lgan sonni 2 ga ko‘paytirib, natijani 3 o‘quvchiga aytadi. $9 \cdot 2 = 18$; Uchinchi



o'quvchi berilgan sonni 3ga ko'paytirib 4-o'quvchiga aytadi. $18 \cdot 3 = 54$: To'rtinchi o'quvchi 4 ga ko'pytirib 5ga aytadi. $54 \cdot 5 = 270$; Qaysi guruh oldin ishlasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. O'yin shu tarzda davom etadi.

Go'lib qatorning nomi yozilgan joyda bayroqchalar biriktirilib qo'yiladi.

“Bu qaysi shakl ?” o'yini.



O'yinning maqsadi: Geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta'rif berish malakasini oshirish. Og'zaki nutqini rivojlantirish.

O'yin jihozi: Konvertlarga solingan geometrik shakllar.

O'yinning borishi: Doskaga bir o'quvchi chiqadi. Konvertdagi shaklni qaysi ekanini ko'rib olib, o'quvchilarga murojaat qiladi. Masalan, "Qo'limdagi geometrik shaklning uch tomoni uch burchagi bor, uning tomonlari xar xil uzunlikda bo'lishi ham mumkin. Bu qaysi shakl?". Shaklga to'g'ri ta'rif bergan va shaklning nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

“Tez yurar poyezd” o'yini



O'yin maqsadi: O'quvchilarning intellektual bilim salohiyatini oshirish.

O'yin jihozi: doskaga bir - biriga qarama - qarshi turgan poyezd rasmi bor ko'rgazma ilinadi.

O'yinning borishi: Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. O'qituvchi bergan savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchining poyezdi oldinga surilaveradi. "Marra"ga birinchi bo'lib yetib kelgan o'quvchi g'olib bo'ladi.

Savollar: 1. Raqamlar nima? 2. Kub nima? 3. $1 m = ?$. sm. 4. To'rtburchakning yuzi nimaga teng? kabi savollardan foydalanish mumkin. To'g'ri javob bergan o'quvchining poyezdi marraga tez yetib keladi... Shularni inobatga olgan zamonaviy o'qituvchidan har bir darsni didaktik o'yinlar asosida tashkil etish talab etiladi. Yuqoridagi kabi ta'limiy o'yinlar jarayonida o'quvchilarning idroki, zehni, xotirasi, bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlana boshlaydi, ijodiy qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.E.Jumayev "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent, Ilm-ziyo. 2013



ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ЛУГ‘АТ УСТИДА ИШЛАШ ВА НУТҚ О‘СТИРИШ

Mamadaliyeva Dilshoda Ravshanboy qizi
Kamolova Shaydoxon Abdugappor qizi
Namangan viloyat Norin tuman
1- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998 94 409 02 91

Annotatsiya; ushbu maqolada ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash va nutq o‘stirish jaraonlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar; nutq, ona tili, lug‘at, dars, o‘quvchi, ta’lim.

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida „ona tili, o‘qish bolalarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omilidir“, deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o‘rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug‘aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o‘qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o‘rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til - aloqa vositasi, chunki so‘zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro‘yobga chiqqan fikrni anglaydi. Ona tili fani o‘quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro‘yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta’rifini o‘zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya’ni fikrni og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashga alohida e’tibor qaratish lozim. Lug‘at ishida so‘zning ma’nosi, talaffuzi va imlosi e’tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o‘quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o‘zgalarda nutqini anglashlarini ta’minlashdir. Buning uchun o‘qituvchi ona tili darslarida qo‘llangan har bir so‘zning va ta’limiy jarayonlarda: ekskursiya, o‘zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so‘zlarning ma’nosiga e’tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak. Tilning lug‘at boyligini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so‘zlar va ularning ma’nolari quyidagicha tanishtiriladi:

1. O‘quvchilarni notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish. O‘quvchilar darslikdagi so‘z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo‘lishi mumkin. Bu so‘z yangi paydo bo‘lgan so‘z bo‘lmasa ham, o‘quvchi uning ma’nosini bilmaydi, demak, o‘quvchi uchun yangi so‘z hisoblanadi. Masalan, 1 -sinf „Ona tili“ darsligida xabib (do‘st), darparda (oyna o‘rniga shaffof qog‘oz yopishtirilgan derazaparda), mag‘rur (kekkeygan, mag‘rur — kamtar), kamol (har tomonlama yetuk, to‘kis, kamol topmoq — xazon bo‘lmoq), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (do‘si, birodar, qarindosh-urug), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), sarkarda (qo‘mondan, lashkarboshi), zeb (bezak, ko‘rk, husn), qasr (hashamatli saroy, ko‘shk) kabi so‘zlarga duch keladilar. Bunday so‘zlarning ma’nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo‘li bilan, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar bilan izoh berish yo‘li bilan, gap tuzish orqali ma’nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo‘li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o‘quvchilarda so‘z ma’nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. O‘quvchilarni so‘zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish. O‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zlarning bir ma’nosini tushunsa, boshqa ma’nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so‘zlarning hamma ma’nolarini birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar. Ularning ma’nosini o‘zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1—2-sinflarda o‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zning bir-ikki ma’nosi bilan tanishsa, 3—4-sinflarda yana boshqa ma’nolarini bilib oladi. Tilning barcha sathlari: fonetika, leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis (boshlang‘ich sinfda bu bo‘limlar „Tovushlar va harflar“, „So‘z“, „Gap“, „Bog‘lanishli nutq“ deb nomlanadi)ni o‘rganish jarayonida tasviriy ifodalar, iboralar, ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli so‘zlarning ma’nolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi. Masalan, „niyati buzuvchi“ iborasini tushuntirishda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalaniladi:

— Bu iborani „soat buzuvchi“ birikmasi bilan taqqoslang.



- Qaysi biri o‘z ma‘nosida qoilanyapti? (soat buzuq)
- Qaysi birikma boshqa ma‘noda qo‘llanyapti? (fikri buzuq)
- „Niyati buzuq“ birikmasi qanday ma‘noni ifodalayapti? (O‘quvchilar o‘ylab, niyati yomon kishilarni „niyati buzuq“ deyishadi, deb izoh beradilar)Ko‘rinadiki, taqqoslash usuli so‘z ma‘nolarini izohlashda samarali usul sanaladi. „Ouloch otib“, „tanbeh yedi“, „ko‘zi o‘ynar“, „qalbi olov“, „til topisluli“ kabi iboralarning ma‘nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi.

I-sinf darsligida „Xiva ona tarix tilmochi“, „urush yo‘lini taqqa bekitdik“, „biz ma‘nosiga zeb bersak“, „rediskaga akainan“, „karvon bo‘lib kelamiz“ („Turnalar“), „chehrasiga tabassum yugurdi“, „bahor oq bulutni yetaklab ketdi“, 2-sinf darsligida „dov-daraxtning soch-soqolin qirishdi“, „Biz oqlagan daraxtlar oppoq paypoq kiyishdi“ kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o‘quvchini so‘z va iboralardan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishga undaydi, nuqtaning emotsional- ligini oshiradi.3. O‘quvchilar tilida kam qo‘llanadigan so‘zlar ma‘nosi ustida ishlash. Adabiy tilga oid ba‘zi so‘zlar o‘quvchilar nutqida kam qo‘llanadi. Bu so‘zning ma‘nosini o‘quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o‘rnida oddiy so‘zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so‘zlarni qo‘llaydi. O‘qituvchi ularni kitobiy so‘zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo‘llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiy masalalari. Toshkent, „Tafakkur“, 1998 yil.
2. Yangi pedagogik texnologiyalarning yo‘nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.



OILADA BOLA TARBIYASI UCHUN OTA-ONANING O‘RNI VA AHAMIYATI

*Kirgizboyeva Muslima Bo‘ribojevna
Toshkent viloyati O‘rtachirchiq tumani
65- maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*



Annotasiya. Maqolada tarbiya, xulq, axloq tushunchasi, barkamol avlod tarbiyasida ota-onaning o‘rni va ahamiyati, bolaning yetuk bo‘lib shakllanishida oilaning ma‘naviyati, shuningdek tarbiya haqida donishmandlarimizning fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, ota, ona, tarbiya, axloq, xulq-atvor, ma‘naviyat, avlod

*Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo
halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir.
Abdulla Avloniy*

Oila jamiyatning negizi, barkamol avlod ana shu oilada kamol topadi, tarbiyalanadi. Darhaqiqat, oila, ayniqsa o‘zbek oilasi asrlar osha yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonni voyaga yetkazishda muqaddas maskan bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Har bir insonda Vatan tushunchasi ilk bor tetapoya bo‘lib o‘sib kelayotgan yosh go‘dakning ongi, ruhi va qalbiga kirib boradi, butun umri, hayotiy faoliyati davomida yanada sayqallanib, mazmunan mujassamlashadi. Bu jarayon oiladagi sog‘lom muhitda, ota-bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mrhri, aka-uka, opa-singillarning mehr-oqibati orqali amalga oshib boradi. Inson oila qurishi, farzand ko‘rishi zarur ekan uni tarbiyalash esa yanada muhimdir. Ota-bobolarimiz oilada bolalarni odamiylik va insoniylik ruhida intilib kelganlar. Har qanday farzand uchun, avvalo, ota-onalarning mehribonchiligi, e‘tibori zarur.

Ona-bolaga til o‘rgatuvchi. Ona- bolada mehr uyg‘otuvchi. Ona bolani ozodalikka, mehnatsevarlikka, tirishqoqlikka, halollikka yetaklovchi buyuk zotdir.

Ota-inoyat, ona-hidoyat. Onadagi mas‘uliyat ota g‘amxo‘rligida yengilladi.

Ota-ona qadri, mehr-muhabbati hamisha samimiyat bilan kuylanib borilaveradi. Ular o‘z farzandlarini dunyoga keltirib, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab voyaga yetkazadilar. Keyin ham tinib-tinchimay bolalariga bahtiyorlik baxsh etib, baxtli hayot kechirishlari uchun mashaqqatli mehnatdan yuz o‘girmaydilar.

Insonni ma‘naviy jihatdan go‘zal qilayotgan odamiylik va mehnatsevarlik kabi sifatlar orasida axloq sharti yana ham muhim bilimi, tajribasi, shijoati, tashqi qiyofasi bilan havas uyg‘otishi mumkin. o‘rin tutadi. Odam bolasi Yaxshi fazilat shunday ulug‘ narsaki, uni odam hayotining ma‘naviy xazinasida bo‘ladi. Bu xazina inson husnining durdonalari saqlanadi. Bu durdonalardan har bir odam o‘zi bitta-bittadan terib, husn xazinasiga keltirib to‘kadi. Inson deganda biz shu ma‘naviy boylik xazinasining ajoyib sohibkorlarini tushunamiz. Tarbiya-o‘smoq, baland yerga chiqmoq ma‘nosidir. Aflotun tarbiyani “U insonning badaniga, tabiatiga qobil bo‘lgani qadar go‘zallik va kamolot berishdir”, deb ta‘rif beradi. Donishmandlardan biri - “Tarbiya insonda tabiatning sig‘dira bilgan mukammaliyatini hosil etishdir”, - deb ta‘riflaydi.

Bolada paydo bo‘lgan yomon xulq-atvorda ota-onaning ham aybi bormi-yo‘qmi, - bu muammoning ikkinchi tomoni deb qaraymiz. Xolbuki, xulq-atvori yomon bolalarning ma‘lum qismi asosan ota-onasining beparvoligi yohud yomon tarbiyasi natijasida shunday ahvolga tushib qoladi. Ba‘zi ota-onalar farzandlarining ust-boshlari, qorinlari g‘amini yeyishadi-yu, lekin, afsuski, ma‘naviy va jismoniy ehtiyojlarini avval bog‘chaga, keyin maktabga havola qilib qo‘yib, farzand tarbiyasidagi benihoya katta burchlarini bo‘ynilaridan soqit qiladilar.

Bola tarbiyasini bundan ham yomonroq tushunadigan boshqa toifa ota-ona ham bor. Bu xil ota-onalar bolalarining ma‘naviy va jismoniy tarbiyalarigina emas, hatto oddiytozaligiga ham e‘tibor bermaydilar. Bolalari burunlari oqib, loylarga bulg‘alanib yotsalar ham, xechqisi yo‘q, yerda yumalab yurib katta bo‘lib qolishadi, biz ham chang to‘zitib yurib katta bo‘lganmiz deyishadi. Ular toza tanda toza aql bo‘lishini ham unutadilar.

Ma‘naviy jihatdan esa bolada oq bilan qorani farq qila boshlagan kundan tortib, to ongi yuksak pog‘onaga ko‘tarilguncha yuz bergan butun sifat o‘zgarishlari kiradi. Biz bola tarbiyasida ko‘pincha shu muhim tomonini hisobga olmaymiz. Natijada bolalar gap uqmas, o‘zboshimcha,



ba'zan xarakterlari yomon bo'lib o'sadilar. Ana shunday beparvo ota-onalarga A.S. Makarenko "Hozirgi ota-onalar bolalarni tarbiyalash bilan mamlakatimizning kelajak tarixini tarbiyalaydilar",- degan nihoyatda dono so'zini eslatib o'tgim keldi.

Masalaga shu nuqtai nazardan olsak, har bir ota-ona o'zining tarix yaratuvchilik rolidan faxrlansa arziydi. Darhaqiqat, tarixda iz qoldirgan, yo juda muhim o'rin tutgan ulig' kishilarning yuksak mavqega erishishlarida ota-onaning xizmati shubhasizdir. Ana shunday ota-onalar bolalarini taqdir ixtiyoriga havola qilib qo'yib, o'z ishlari bilan band bo'ladigan beparvo ota-onalar emas, bolalarini bir parcha go'shtlik chog'laridan tortib aql-idok, odamiyat yo'lga solib yuborish uchun hech narsasini ayamagan bolajon ota-onadir.

Afsuski, bola tarbiyasini noto'g'ri tushunadigan ota-onalar ancha-muncha topiladi. Asosiy vazifa bolani jamiyatga munosib, yetuk odam qilib yetishtirishdir. Ota-ona oldiga shunday talab qo'yilganda, ba'zilar o'zlarining bevosita burchlarini zimmalariga olishdan qochibmi, yo tutayotgan ishlari yanglish ekanini anglamaymi: "Yo'q, hozir bola tarbiyasi faqat maktab zimmasida Ana shular tarbiya qilishsin, odam qilishsin! Biz ishda bo'lsak, qachon bolamiz orqasidan ko'z-quloq bo'lib yuramiz!",-deyishadi.

To'g'ri bola tarbiyasida maktabning ham o'rni katta. Lekin ishda ekanini bahona ilib, bola tarbiyasidek sharaflı burchdan qochish, uni bo'yindan soqit qilish yaramaydi. Ammo hozirgi kunda davlat yo jamoat ishi bilan band bo'lmagan kim bor? Insof bilan aytganda, idora yo korxonalarda, dala yo qurilishda o'tadigan vaqtimiz boladek aziz jigargo'sha tarbiyasiga aslo halaqit bermaydi. Ba'zi ota-onalar ana shunday asossiz bahonalarni ro'kach qilishib, bolalarining yurish-turishlarida, hatto ma'naviy va jismoniy jihatlarida yuz bergan o'zgarishni payqamay qoldilar. Bola kichik bo'la turib, aqli ko'p narsaga yetadigan bo'lib qoladi. Mana shunday aqliy va jismoniy taraqqiyot o'rtasidagi farqni anglamaslik orqasida ba'zi ota-onalar bolalarini jussalariga qarab, hali yosh, aqlari hech nimaga yetmaydi deb o'ylaydilar-da, bolalari oldida bo'lar-bo'lmas gapni og'izlariga olaveradilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki tarbiyaning shaxs kamolotida dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaganholda, yurtboshimiz maktablarda "Tarbiya" fanini yaratish va o'qitish tashabbusi bilan chiqdilar. Bu tashabbusning o'zi ham bola tarbiyasida tarbiyaning naqadar ahamiyatli masala ekanligini isbotlaydi.

Tarbiya-bu tamal toshi. U qaysi tarafga qo'yilsa, o'sha taraf og'irlashadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ismoilij. Inson husni: Axloq-odob mavzuidagi suhbatlar –T. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.-256 b
2. A.Razzoqov. "Oila-farog'at qasri"-T. Sano-standart nashriyoti.2012. -102 b
3. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari.7-sinf darsligi. T.2015



ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI VA AHAMIYATI

*Matamirova Barno Muhitdinovna
Andijon viloyati Baliqchi tuman
23-maktab o‘qituvchisi
Tojiboyeva Ra‘no Shaxobiddinova
Andijon viloyati Baliqchi tuman
23-maktab o‘qituvchisi*

Annatsiya: Ushbu maqolamizda hozirgi kunda yosh avlodni tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiyalarning o‘rni va vazifalari haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, zamon, tushuncha.

Yangilangan ta’limda o‘quvchining yuragidagi cho‘g‘ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir.

Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta’lim texnologiyasi, o‘qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda “yangi pedagogik texnologiya”, “ilg‘or pedagogik texnologiya”, “zamonaviy ta’lim texnologiyasi”ga oid tushunchalar hali ham bir qolipga tushirilmagan, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko‘pgina ta’riflari mavjud. Pedagogik texnologiya- shunday bilimlar sohasi, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta’lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, o‘quvchi bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimi shakllantiriladi.

Ma’lumotlilik asosida yotuvchi bosh g‘oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechgan, sabr-bardoshli, qanoatli, o‘zgarlar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishni ko‘zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalani yechimi qaysidir darajada ta’limni texnologiyalashtirish bilan bog‘liqdir.

Alohida qayd etib o‘tish joizki, ayni vaqtda ta’lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g‘oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas.

Hozirgi ta’lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan iborat. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya-jarayoni katta avlod tomonidan o‘z bilim va tajribalarini o‘sib kelayotgan avlodga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avlod-dan-avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning har turli ta’riflari mavjud bo‘lib, har bir ta’rif ma’lum nuqtai nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayirim asosiy ta’riflar va ularning sharxlarini ko‘rib chiqamiz:

Pedagogik texnologiya- barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Pedagogik texnologiya-o‘qitishning, ta’limning shakllari, usullari yo‘llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig‘indisi va joylashuvini belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat.

Pedagogik texnologiya-o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir.

Pedagogik texnologiya-o‘quv jarayonining o‘quvchilar va o‘qituvchi uchun so‘zsiz qulay sharoitlar ta’minlashni loyihalash, tashkil qilish va o‘tkazish boyicha hamma detallari o‘ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat metodi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib dars o‘tishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. “Pedagogik texnologiya” T.O‘qituvchi-1997-y
2. Internet tarmoqlaridan



ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA MODULLI ТА'ЛИМ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

Matkarimova Shahnoza Shonazarovna
Xonqa tumani 19-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 083 87 00
sh_matkarimova00@inbox.uz

Madaminova Qlara Duramovna
Xonqa tumani 19-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 960 71 70
qlara.duramovna7170@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish usullari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Modul, blok, mantiqiy tugallangan qism, modul dasturi, o'quvchilarning o'quv faoliyati, o'quv faoliyati elementlari, modul dasturlarining turlari, modul dasturini yakunlash.

Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, qism (blok) degan ma'noni bildiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda mashg'ulotda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Shu o'quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Mazkur mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati modullarni ketma-ket o'zlashtirishlarini nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Har bir modulni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilarning yaxlit bilish faoliyatining elementi sanaladi, ya'ni bir mashg'ulotda yaxlit tashkil etilishi ko'zda tutilgan o'quvchilarning o'quv faoliyati mavzu ajratilgan modullarga muvofiq holda o'quv faoliyati elementlaridan tashkil topadi. Agar mashg'ulotda o'rganiladigan mavzu mazmuni 4 ta moduldan iborat bo'lsa, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati mos holda 4 ta o'quv faoliyati elementidan tashkil topadi. Shuni qayd etish kerakki, mashg'ulot yakunida o'quvchilarning o'z faoliyatlarini tahlil qilishi va o'z-o'zini baholashini amalga oshirish maqsadida modul dasturini yakunlash bosqichi bo'ladi. Shu sababli fikr yuritilayotgan ushbu mashg'ulotda foydalaniladigan modul dasturida 5 ta o'quv faoliyati elementi bo'ladi. O'qituvchi shu asosda modul dasturini tuzadi.

Ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o'qishni o'rgatish orqali bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iborat.

Ushbu vazifalarni an'anaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanilgan holda hal etib bo'lmaydi, shu sababli ta'lim-tarbiya jarayoniga modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash zarurati vujudga keldi.

Modulli ta'limning asosiy mohiyati, o'quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashiga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning mashg'ulot davomida bajaradigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o'zida mujassamlashtiradi.

Modulli ta'lim texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati modul dasturlari asosida tashkil etiladi. O'quvchilar o'quv materialini modul dasturidan o'rin olgan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarish orqali mustaqil o'zlashtiradilar va o'z o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanadilar. Shu tariqa yagona ta'lim-tarbiya jarayonining ikkita sub'ekti o'qituvchi va o'quvchi o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishadi.

O'qituvchi o'quv materiallarini modullarga ajratadi va modul dasturini yaratadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlarini aniqlaydi. Mashg'ulot yuzasidan



nazorat test topshiriqlari va mustaqil ish topshiriqlarini tuzadi. O'quvchilarning mustaqil o'quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi. O'quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi.

Modul dasturidan o'rin olgan har bir modul yakunida o'quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o'tkazadi. Modul dasturini yakunlaydi.

Ma'ruzada modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyadan foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borgan bo'lishi shart:

1. O'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida o'quvchilarga qo'yiladigan o'quv maqsadlarini belgilash;

2. O'rganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratish, har bir modulning xususiy maqsadlarini aniqlash va ularning iyerxargik darajasini tuzish;

3. O'quvchilarning har bir modulning xususiy maqsadlariga erishish yo'llarini nazarda tutgan holda o'quv topshiriqlarini tuzish va unga ajratilgan vaqt me'yorlarini belgilash;

4. Modullarning ketma-ketligi asosida modullarning xususiy maqsadlari, o'quv topshiriqlarni yaxlit tarzda o'zida mujassamlashtirgan modul dasturini loyihalash;

5. Ma'ruza matni va modul dasturini mashg'ulotdan bir hafta avval o'quvchilarga tarqatish;

6. Modul dasturining uch xil turi bo'lishini nazarda tutgan holda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shaklini aniqlash;

Izoh:

- Agar o'rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallardan iborat bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishida qiyinchilik yuzaga kelmasa, u holda modul dasturining individual ishlash modul dasturidan foydalaniladi;

- Agar o'rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallar bilan bir qatorda ilmiy-nazariy masalalardan iborat bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga keltirgan holda modul dasturining ikki o'quvchi hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturidan foydalaniladi;

- Agar o'rganiladigan mavzu mazmuni ilmiy-nazariy masalalar, tushuncha va atamalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga kelishi tabiiy bo'lgan holda modul dasturining o'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturidan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.
2. Adam, R. The Process of Educational Innovation I R. - Lnd, 1991.
3. Bassett G. Innovation in Primary Education. - Lnd: 1992.
4. Beverly D. Inquiry Based Teacher Education - Lnd: 1996.
5. D. Beverly, D. Shaklee, K. Cushner II. Pedagogicheskoye obrazovaniye dlya XXI veka. - M.: 1994.



ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Matnazarova Gulpashsha Ismailovna
Xiva shahar 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
1-toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Xiva, Xorazm, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili dars mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga bilim berish va ularda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ona tili, adabiyot, maktab, pedagogika, ilm-fan, yangi g'oyalar, zamonaviy texnologiyalar.

Bugungi davrda - ya'ni axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv shakli va dars mashg'ulotlarining tuzilish tarkibiga ham o'z ta'siri ko'rsatmoqda. Bundan anglash mumkinki, ta'limda ish olib boruvchi pedagoglarimiz ham o'z ish faoliyatlarini bu innovatsiyalar bilan hamohang holda shakllantirishmoqda. Buning rivojlanishiga yanada samarali hissa qo'shish maqsadida ona tili dars mashg'ulotlarida innovatsion o'qitish shakli va an'anaviy dars o'tish uslublarini ko'rib chiqamiz:

b) An'anaviy texnologiya - har bir o'quvchining ta'lim va bilim faoliyatini tashkil qilish shakllari, usullari, mustaqil fikrlash darajasi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ko'p bosqichli yondashuv asosida ta'minlaydigan har qanday vositalar tizimida amalga oshiriladi.

c) Sinf o'qitish texnologiyasi - o'quv materiallarini muntazam ravishda o'zlashtirish va bilim ko'nikmalarni sinf mashg'ulotlari orqali o'rgatishni ta'minlash.

d) Interfaol texnologiyalar yoki guruhli o'qitish texnologiyalari (juft bo'lib ishlash, yoki stollarni aylana shaklda joylashtirgan holda) - shaxsiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega va guruhda ishlashga qodir o'quvchi qobiliyatini shakllantirish; dasturiy materiallarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish.

e) O'yin texnologiyasi (didaktik o'yin) - amaliyotda o'quvchi bilan hamkorlikda bilim ko'nikmalarni qo'llash orqali yangi bilimlarni rivojlantirish. O'quvchilar mustahkam bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun mustaqil faoliyat usullarini ishlab chiqish uslubida ularning bilim va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

f) Ilg'or ta'lim texnologiyasi - O'quvchilarning talab qilinadigan minimal ta'lim mazmuniga erishishi. Muammolarni qanday hal qilishni o'rganish, imkoniyatlarni hisobga olish va ma'lum vaziyatlarda bilimlardan foydalanish. Har bir o'quvchiga aniq natijani izlash usullari va uning vositalarini mustaqil ravishda aniqlash imkoniyatini berish. Uslubiy kompetentsiyani shakllantirishga yordam berish. O'quvchida kerakli ma'lumotlarni qidirish qobiliyatlarini shakllantirish. Mavzu bilan bog'liq muammolarni yechimini topishni oddiy usullar bilan o'rgatish.

g) Texnologik uslublar - O'quvchilar uchun hayotning maqsadlarini, o'zlarini va dunyodagi o'rnini anglash, birgalikda (jamoaviy) izlashda, ijodkorlikda, izlanishda o'zini anglash uchun qulay sharoitlarni yaratish. Ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

h) ETR (elektron ta'lim resurslari, shu jumladan AKT) - turli xil ma'lumot manbalari bilan ishlashga o'rgatish, o'z-o'zini o'qishga tayyorlik va ta'lim yo'nalishida sodir bo'lishi kutilayotgan ma'lumotlar haqida habardor qilib borish.

i) Hamkorlik pedagogikasi - bolaga shaxsiy yondashuvni amalga oshirish va o'quv yo'nalishi o'quvchilari tomonidan ongli ravishda tanlash uchun sharoit yaratish.

j) Jamoa bo'lib ijodiy ishlarni olib borish texnologiyasi - o'quvchilarni ijodda, izlanishlarda va turli maktab tomonidan o'tkaziladigan tabdirlar va bahri-bayt kechalarida o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratish. O'quvchilarni eng ko'p qiziqtirgan muammolarni muhokama qilish va tahlil qilishga jalb qilish va o'quvchilarning tashkiliy qobiliyatlarini shakllantirish.

Har bir o'qituvchi zamonaviy innovatsion texnologiyalar, maktab g'oyalari, ko'rsatmalariga amal qilishi, allaqachon ma'lum bo'lgan narsalarni ochishga vaqt sarflamasligi kerak. Bugungi kunda biz ta'lim texnologiyalarining keng imkoniyatlarini o'rganmasdan turib, pedagogik jihatdan barkamol mutaxassis bo'la olmaymiz. Bu jarayonda Ona tili dars mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantiribgina qolmay, o'qituvchining kasbiy faoliyatini baholashning asosiy negizini tashkil etadi.



Shu sababli, bizning sharoitimizga mos ravishda ta'lim tizimining mavjud texnologiyalardan unumli foydalanib, bizda mavjud bo'lmagan o'quv texnikalarini o'zimiz mustaqil izlanishlarimiz natijasida shakllantirib o'quvchi yoshlarimizga puxta bilim berish orqali yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 06.11.2020 yildagi PF-6108 sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/5085999>
2. Mirziyoyev Sh.M. ““Erkin va farovon, deokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq”” – T., 2016
3. Dichkovskaya I.M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. - K., 2004.
4. Selevko G.K. Ta'lim jarayonini boshqarish va tashkil etish samaradorligiga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Kompyuter (yangi axborot) ta'lim texnologiyalari // Ta'limdagi informatika va axborot texnologiyalari. - № 12. - 2004 yil.
5. Golovina L.M. Talabalarning bilim faolligini oshirish. - M.: Prospekt, 2003
6. www.google.uz, www.ziynet.uz



МАКТАБДА КИМЙО ДАРСЛАРИДА РАҚАМЛИ ЛАБАРАТОРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ОРҚАЛИ ДАРС СИФАТИНИ ОШИРИШ МЕТОДЛАРИ

Mirdadayeva Shoxista
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
31-maktab kimyo fani o'qituvchisi
Shohista_scholl31@gmail.com
+998939470289

Annotatsiya: ushbu tezisda umumiy o'rta ta'lim maktablarida raqamli laboratoriyalardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish usullari haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Virtual laboratoriya, Raqamli laboratoriya, Kimyoviy reaksiyalar, Virtual kuzatuv kimyo darslarida innovatsion axborot-kommunikatsiya o'quv qo'llanmalariga raqamli laboratoriyalar - laboratoriya eksperimentini o'tkazish uchun uskunalar va dasturlar kiradi.

Bular kimyoviy eksperimentlaridan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun uskunalar va dasturiy ta'minot to'plamlari. Sinfda o'qituvchilar tomonidan ishlatilishi mumkin bo'lgan raqamli sensorlarning keng doirasi va raqamli mikroskoplar bunga misoldir. Raqamli laboratoriyalar NOVA5000 yoki USB-link asosida ishlaydi - bu zamonaviy kimyoviy laboratoriyasining rivojlanishidagi sifatli usul hisoblanadi. O'rnatilgan o'lchov interfeysi 4 tagacha raqamli datchiklarni birlashtiradi. Kimyo laboratoriyasida bu o'quvchilarning individual va guruhviy faoliyati turlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Bu usulning kichik kamchiligi barcha dasturlar rus va ingliz tilida. Dasturiy materiallar butunjahon raqamli ta'lim korporatsiyalari va o'qituvchilari tomonidan kimyo fanini o'qitishda zamonaviy ilmlarni tadqiq qilgan holda ishlab chiqilgan. Tabiiy fanlarni zamonaviy maktabda o'qiyotganda o'quv materialining ravshanligi katta ahamiyatga ega. Ko'rinishlilik o'rganilayotgan mavzuni tez va chuqurroq o'zlashtirishga imkon beradi, qiyin masalalarni tushunishga yordam beradi va mavzuga qiziqishni oshiradi. Afsuski, ilgari kimyo bo'yicha laboratoriya ishlari uchun uskunalar odatda mikroskoplar va tayyor preparatlar yoki reaktivlar to'plami bilan cheklangan. Shuning uchun, asarlarning aksariyati faqat tavsiflovchi edi. O'rganilgan mavzular bo'yicha film va video materiallarning mavjudligi ham muammoni hal qilmadi, chunki bu bolalarning ishda qatnashishiga imkon bermadi. Raqamli laboratoriyalar - bu tabiatshunoslik bo'yicha turli xil maktab tadqiqotlarini o'tkazish uchun yangi, zamonaviy uskunalar. Ularning yordami bilan maktab dasturiga kiritilgan ishlarni va umuman yangi tadqiqotlarni amalga oshirish mumkin. Laboratoriyalardan foydalanish, ish jarayonida ham, natijalarni qayta ishlashda ham laboratoriya to'plamiga kimyo (yorug'lik, namlik, nafas olish, kislorod konsentratsiyasi, yurak urishi, harorat, kislotalilik va boshqalar uchun sensorlar) to'plamiga kiritilgan yangi o'lchov asboblari tufayli ko'rinishni sezilarli darajada oshiradi...), Raqamli laboratoriyaning jihozlari universaldir, u turli xil eksperimental qurilmalarga kiritilishi mumkin, "dala sharoitida" o'lchovlarni amalga oshiradi, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun vaqtni tejaydi, o'quvchilarni ijod qilishga undaydi, bu esa o'lchov parametrlarini osongina o'zgartirishga imkon beradi. Bundan tashqari, video-tahlil dasturi sizga videokliplardan ma'lumotlarni olish imkonini beradi, bu sizga misol sifatida foydalanish va o'quvchilarning o'zlari tomonidan suratga olingan hayotiy vaziyatlarni va o'quv va ommabop videofilmlarning miqdoriy miqdorini o'rganishga imkon beradi. Kimyo darslarida raqamli laboratoriyalardan foydalangan holda o'quvchilar turli laboratoriya ishlarini bajarish bilan bir qatorda sinfdan tashqari tadqiqotlarni ham, masalan, Elektroliz jarayonini o'rganish (oqim va kuchlanish sezgichlari). Shisha ichimlik suvi va mineral suvning (kislotasi sensori) turli xil namunalarning kislotaliligini o'rganish, Gaz qonunlarini tekshirish. Ekzotermik (mis xloridning alyuminiy bilan o'zaro ta'siri) va endotermik (pishirish sodasining limon kislotasi bilan o'zaro ta'siri) reaksiyalarini o'rganish. Kimyoviy katalizni o'rganish (MnO₂ ishtirokida N₂O₂ ning parchalanishi). Yoqilg'i yonishining issiqlik ta'sirini o'rganish. va boshqalar Namoyish eksperimentida CL-dan foydalanilganda, tajribalar shu qadar samarali va vizual bo'ladiki, o'quvchilar nafaqat mavzuni tezda anglashlari va eslab qolishlari, balki topilgan narsalarni tasdiqlovchi ko'plab kundalik misollarni topishlari va savollarga osonlikcha javob berishlari mumkin bo'ladi. CLning noyob imkoniyatlarini alohida ta'kidlashni istardim. Barcha zamonaviy o'quv dasturlarida atrof-muhitni muhofaza qilish muammolariga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Amaliy mashqlar va ekskursiyalar ushbu sohani to'liq o'rganish



uchun juda muhimdir. Kislorod, pH va yoritish sezgichlarining mavjudligi (bosim, harorat va namlik sezgichlari bilan birgalikda) Arximed CLni 10-11 sinflarda atrof muhitni o'rganish uchun ajralmas qiladi. Archimedes CL-ni ishlatish juda qulay, ixcham va nisbatan avtonom bo'lishi juda muhimdir. Maktabdan tashqarida siz quyidagi ekologik tadqiqotlar o'tkazishingiz mumkin: Maktab binolarida yoritishni o'lchash Har xil ichimliklarning kislotaliligini o'lchash Maktab binolarida havoning fizik parametrlarini o'lchash Ventilyatsiyaning sinfning mikroiklimiga ta'siri Tuproq kislotaliligining o'simliklarning tur tarkibiga ta'siri.

Raqamli laboratoriyalarda kompyuterlarning ko'p qirraliligini ham ta'kidlash lozim. Aloqa qilishning keng imkoniyatlari tufayli zamonaviy laboratoriya to'liq tarmoq, Internetga ulanish va boshqalar bilan barpo etilmoqda. Siz sinfda ko'p bosqichli ishlarni tashkil qilishingiz, o'quv jarayonini individualizatsiya qilishingiz, nazorat va o'zini o'zi boshqarish samaradorligini oshirishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. СНІР. Журнал информационных технологий. 2004 №3
2. Измерительные приборы и массовые электронные измерения Moskva 2017
3. LabXchange platformasi ma'lumotlari. Garvard universiteti
4. EduWebLabs virtual laboratoriyasi ma'lumotlari



TARIX FANINI O‘QITISHDA CHET EL TAJRIBALARINI O‘RGANISH VA FOYDALANISH

*Муйдинова Шахнозахон Пайзуллаевна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим
мактабининг тарих фани уқитувчиси*

Annotatsiya; ushbu maqolada tarix fanini o‘qitishda chet el tajribalarini o‘rganish va foydalanish usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, tajriba, ta’lim, foyda, Germaniya, Fransiya, soha.

Shuni e’tirof etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sohasida ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir davrda bizda ta’lim mazmunini yangilash uni boshqarish yangi pedagogik texnologiyani maktab hayotiga tatbiq etishda hamon kamchiliklar mavjud. Ta’lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti yangi texnologik rivojlanishlar sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan jamiyat a’zolarini etishtirib berish yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirishda davlat xizmatini hamda o‘rta ta’limning ko‘p variantli uchinchi bosqichini joriy etish ta’lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo‘llash ta’limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo‘l ochish uni muqim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o‘rganish ayni muddaodir.

Rivojlanayotgan xorijiy davlatlarda ta’limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy taminlashga qaratilayotgan mablag‘ miqdori yildan yil oshib bormoqda. Yaponlarda, masalan “maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli” gina bo‘lib qolmay, “u insonlarni yaxshilaydi”, degan fikr ishonch timsoliga aylangan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tatqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassasalar faoliyat olib boradi. Fransiya, Germaniya, AQSh, Yaponiyada ta’lim-tarbiya nazariyasi muommolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tatqiqot markazlari shug‘ullanmoqda. Ular faoliyatini esa xalqaro ta’lim markazlari, masalan AQShda xalqaro ta’lim instituti muvoffiqlashtirib bormoqda. Asosiy o‘quv dasturlariga ma’lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni organishni kuchaytirib, ularni chuqur o‘zlashtiradi va o‘quvchilarni ortiqcha yukdan halos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o‘quv kurslari integrasiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar o‘quv dasturiga integrasiyalashtirilgan kurslarni kiritish to‘la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o‘quv soatlari ajratildi. Chet el tajribalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim mazmunini qayta qurish ishida shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Fikrimizcha, bu sohada samaraliroq yo‘l integrasiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o‘quv dasturini yaratishdir. Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e’tibor tobora ortib bormoqda. Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQShda keng ko‘lamga ega keyingi davrlarda o‘z tengdoshlariga nisbatan qobiliyati bir necha barobar ilgarilab ketgan bolalar bugun ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Bunday iqtidorli talabalar maktabi g‘arbda 60-yillardayoq paydo bo‘lgan edi. Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturi AQShda keng rivojlangan. 70-yillarda AQShda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmunini o‘qituvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta’limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlarining kamoltopishini taminlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash bozor munosabati sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish va shunga xos kasbga yo‘naltirishdan iborat. Boshlang‘ich sinflardagi o‘qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo‘linadi. Fransiyada boshlang‘ich ta’lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb etiladi. Fransuz maktablarida nafosat ta’limiga ham alohida ahamiyat beriladi. Bunday ta’lim uch tartibdan iborat: musiqa, tasviriy sanat va sport. O‘quvchilar 11 yoshda boshlang‘ich maktabni tugallab o‘rta maktabga o‘tadilar.

Takidlab o‘tish lozimki, Germaniyaning bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li bizning Respublikamizdagiga o‘xshab ketadi. Jahonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanishiga katta



hissa qo‘shib kelayotgan dunyoning iqtisodiy rivojlangan davlatlari ichida kuchli davlatlar qatoriga kirgan Germaniyada ham ta‘lim tizimi o‘z rivojlanish bosqichiga ega. Maktabgacha ta‘lim tizimi Germaniya ta‘lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Uning yuz yildan ortiq tarixi mavjud. Majburiy ta‘lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun. O‘qitish davlat maktablarida tekin, o‘quvchilar darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan tekin ta‘minlanadi. Germaniyada maktab ta‘limi qanday qurilgan va o‘qitish faoliyati qanday tartibda tashkil etiladi? Boshlang‘ich maktabda to‘la to‘rt yillik o‘qishdan keyin o‘quvchilar yo‘nalish asosidagi maktablarda ta‘limni davom ettiradilar. Asosiy maktab dasturi yilma –yil tahlil etib boriladi. Germaniyada o‘z vaqtida ta‘lim olaolmagan katta yoshdagilar uchun bilim olishga imkoniyat yaratib qo‘yilgan. Kechki gimnaziya sanoat, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda ishlovchilar 3-6 yil davomida o‘quv ko‘rsini o‘taganidan keyin etuklik attestatini olish uchun imtixon topshiradilar. Germaniyada hunar ta‘lim tizimi katta ahamiyatga ega chunki, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talab yuqori hisoblanadi.

Germaniya ta‘lim tizimining o‘ziga xos tomonlaridan yana biri hunar diplomlari oliy o‘quv yurtlariga kirib o‘qish huquqini bermaydi. O‘qishga qabul qilish imtixonsiz maktab ta‘limi to‘g‘risidagi hujjatga asoslangan holda amalga oshiriladi. Oliy o‘quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan prezident boshqaradi. Oliy o‘quv yurtlarida tatqiqotning asosiy yo‘nalishi fundamental amaliy tadqiqot bo‘lib, ularga boshqa ilmiy tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi .

Adabiyotlar:

1. J.G.Yo‘ldoshev “Xorijda ta‘lim” T.:1995
2. J.G.Yo‘ldoshev “Yangi pedagogik texnologiyalar yo‘nalishlari,muommolari va yyechimplari” T.:1999



PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY KOMPETENSIYASI

Musayeva Lolajon Atabayevna
Urganch tumani 27-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (99) 969 72 11
lolajon.musayeva27@inbox.uz

Qalandarova Sayyora Samandarovna
Xonqa tumani 19-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (99) 964 22 46
sayyora_samandarovna@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada bilim, ko‘nikma va malakalarida bo‘shliqlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyasi bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, ko‘nikma, malaka, pedagogik mahorati, pedagogik faoliyat, kasbiy kompetensiya, boshqaruv, oshkora axborot almashish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy pedagog javob berishi kerak bo‘lgan talablar kompleksini belgilaydi. Quyidagilar mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta‘minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta‘limga qaratilayotgan e‘tibor barcha o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o‘quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta‘lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo‘shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o‘z navbatida ta‘lim muassasasi rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo‘yadi. Ma‘lumki, inson har doim o‘sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta‘sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to‘g‘ri tushunishlari lozim. Har bir o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta‘sirida amalga oshiradi.

O‘qituvchining faoliyatiga ta‘lim muassasidagi bugungi sharoithamda jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarli amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli tasir qiladigan odamlar guruhi bo‘lgan pedagogik jamodagi shakllangan ta‘limiy muhit o‘z hukmini o‘tkazadi. Jamoa jamiyatning bir bo‘lagi sifatida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. Foyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma‘naviy va boshka jabhalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ixtiyoriy pedagogik jamoani tayinlangan rahbar boshqaradi. Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta‘sir o‘tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog‘lik bo‘lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir. Shunday qilib, «boshqaruv» tushunchasi, «rahbarlik» tushunchasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Rahbar boshqaruv faoliyatidaqator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy- pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag‘batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uninazorat qilishni amalga oshiradi va xokazo.

Shuning uchun ham rahbar yosh o‘qituvchining o‘zi tanlagan kasbga mehr qo‘yishi, o‘qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o‘rganishi va unda o‘z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg‘ulari rivojlanishiga ko‘p qirrali ta‘sir qiladi. O‘z navbatida rahbar jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lib, u bilimi, muomalasi, ilmiy dunyoqarashi, o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatda, maqsadga intilishda, ijtimoiy xulq va boshqalarda namuna bo‘lishi zarur, bundan jamoaning xar bir a‘zosi o‘ziga xos ta‘sir lanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o‘zaro ta‘sirning ikki yo‘nalishini, o‘qituvchining jamoaga va jamoaning o‘qituvchiga ta‘sirini va bu o‘zaro ta‘sir ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

O‘qituvchining jamoaga ta‘siri uning obro‘si, bilimi, dunyokarashi, o‘zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o‘z fanini puxta bilishi, o‘quvchilar bilan munosabati, o‘z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi, faolligi va tashabbuskorligi singari ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Uning obro‘si deganda o‘qituvchining mutaxassis sifatida jamoa tomonidan tan olinishi, sub‘ektiv sifatlarining jamoa faoliyatining ob‘ektiv talablariga mos kelishi tushuniladi. Bunda o‘qituvchining bilimi, ko‘nikma va malakasi, tajribasi, kasb



mahorati, uddaburonligi, tadbirkorligi va ijodkorligi uning boshqalardan ko'ra ko'proq ko'zga tashlanishiga va obro' orttirishiga sabab bo'ladi. Obro'ga ega bo'lgan o'qituvchi shaxslararo munosabatlarda yuqori mavqega ega bo'ladi, jamoada uning fikr-muloxazalariga quloq soladilar, undan maslahat so'raydilar, uning nuqtai nazari bilan hisoblashadilar. Ammo obro' orttirishda shaxsiy sifatning o'zigina yetarli bo'lmay, u yoki bu o'qituvchi haqidagi jamoatchilik fikri ham sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchining jamoatchilik fikri bilan hisoblashmay iloji yo'k, bu esa jamoaning o'qituvchiga bo'lgan ta'siridir. Ya'ni, jamoa o'qituvchining ayrim sa'y-harakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi, aksincha bundan saqlanishga intilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, jamoa bilan o'qituvchining o'zaro ta'siri ikki xil, ya'ni ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin, bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo'ladi. Ijobiy ta'sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta'lim muassasasining manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, o'qituvchilarning muvaffaqiyati hamda kayfiyatlari bilan qiziqishi, tabassum bilan muomala qilishi, o'qituvchining ismini hurmat bilan aytib murojaat qilishi (har kimga o'z ismini boshliqdan eshitish yoqimli bo'lishini esda tutishi) zarur. O'qituvchiga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lish, suhbatdoshini o'zi haqida gapirishga ruhlantirish, oshkora axborot almashishdan cho'chimaslik, o'qituvchiga uning jamoa uchun kerakli ekanligini sezdirish, har bir o'qituvchining kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etish kabi rahbarlikning eng maqbul uslublarini o'z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Talim muassasasida turli dunyoqarash va madaniyatga ega, fe'l-atvori, aqlu zakovati turlicha bo'lgan, ishga layoqati alohida namoyon bo'ladigan o'qituvchilar mehnat qiladi. Bu hol ularning mehnati va funksional vazifasiga bo'lgan munosabatida ham ifodalanadi. Ta'lim muassasasiga yangi kelgan yosh o'qituvchilar jamoadagi tajribali o'qituvchilarning faoliyatini, ularning o'z funksional vazifasiga bo'lgan munosabatini va u yerdagi shart-sharoitlarni to'la o'rgangunga qadar turlicha tasavvurga ega bo'ladilar. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» deganlaridek, yosh o'qituvchining ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlarni, mazkur ta'lim muassasasida o'qituvchiga qo'yilayotgan talablarni hamda yuklatilayotgan vazifalarni bajarish uchun qay darajada bilim, ko'nikma va malakalar zarurligini, kadrlar salohiyatini va ularning o'z ishlariga bo'lgan munosabatlarini, rahbarlarning mavqei hamda qo'l ostidagilar bilan munosabatlarini o'rganib, tahlil qilib, ijobiy xulosa chiqargan holda o'z ustida ishlashi, izlanishi, tajriba opttirib borishi uchun mazkur ta'lim muassasasida qulay ta'limiy muhit hukmdor bo'lishi zarur, aksincha yosh o'qituvchilar loqayd bo'lib qolishi mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina yosh o'qituvchilar ancha vaqtgacha ta'lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlarga psixologik jihatdan moslashishga qiynalmoqdalar, ayrim moslasha olmaganlari qobiliyatli bo'lishlariga qaramay pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishdan voz kechib, boshqa turli sohalarda faoliyat ko'rsatishmoqda. Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim ta'lim muassasalarida jamoaning yosh o'qituvchilar bilan o'zaro ta'siri (salbiy hususiyatlarga ega bo'lib, rahbar va uning qo'l ostidagi xodimlar yosh o'qituvchiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lmasligida namoyon bo'ladi. Yosh o'qituvchining izlanishi, bilimi, o'z faniga bo'lgan qiziqishi tufayli pedagogik jamoa va o'qituvchilar o'rtasida tez obro'topayotganidan xursand bo'lish hamda uni rag'batlantirish o'rniga uning yoshligini ro'kach qilib, turli xil arzimmas sabablarni bahona qilib yig'ilishlarda uyaltirish, obro'sini tushirish uchun qilingan xatti-harakatlar ta'lim muassasasidan bezib ketib qolishlarga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlantirish Tashkiloti (OECD) (2016): PISA 2015 natijalari: Muvaffaqiyatga erishish uchun maktablar uchun strategiya va amaliyotlar (II Bob).
2. J. Shustereder (2014): Yevropa Ittifoqida va Markaziy Osiyoda O'qituvchilar Siyosati.
3. Ulrich, D., Zenger, J. and Smallwood, N. (1999): Results-Based Leadership.



ТАЛАБАЛАРДА ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ-ПЕДАГОГИК ЖИХАТЛАРИ

Nafasov Doniyor Shernafasovich
УрДУ таянч докторанти (PhD),
e-mail: nafasovdoniyor@gmail.com.
Tel: +998942300399

Аннотация: Ушбу мақолада талабаларда ижтимоий-маданий компетентликни ривожлантиришнинг назарий-педагогик жиҳатлари: ижтимоий-маданий компетентлик тушунчасининг мазмуни ва моҳияти, феноменологик асослари, ижтимоий-маданий компетентликнинг тузилиши ҳамда ижтимоий-маданий компетентликни ривожлантириш бўйича тавсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: Компетентлик, ижтимоий-маданий компетентлик, когнитив, аксиологик, коммуникатив.

Кириш

Ўзбекистонда таълим тизими ислохотларини амалга ошириш жараёнида шахснинг ҳар томонлама камол топиши, ёшларнинг самарали таълим олиши учун кенг имкониятлар яратиб берилмоқда. Мамлакатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, мамлакат тараққиёти учун янги ташаббус ва ғоялар билан майдонга чиқиб, уларни амалга оширишга қодир бўлган, интеллектуал ва маънавий салоҳияти юксак янги авлод кадрларини тайёрлаш, таълим ташкилотлари битирувчилари замонавий касб эгалари бўлишлари учун уларда зарур кўникма ва билимларни шакллантириш лозим [1]. Олий таълим талабаларининг ижтимоий-маданий компетентликни ривожлантириш бугунги куннинг долзарб масаласи саналади.

Сўнги йилларда „ижтимоий-маданий компетентлик“ атамаси педагогик, касбий ҳамда меъёрий-услубий адабиётларда энг кенг тарқалган мавзу ва тушунчалардан бирига айланди. Тадқиқотчилар ушбу тушунчани таърифлашда турлича ёндашувларга асосланганлиги сабабли, ҳар хил маъноларни келтириб, “компетентлик”, “компетентцияларга асосланган ёндашув” каби мураккаб педагогик ходисаларнинг муҳим хусусиятларни аниқлашда, ижтимоий-маданий компетентликнинг тузилишига ҳамда уни таълимнинг турли босқичлари ва даражаларида ягона мантиқга мувофиқ методологиясини шакллантиришда муайян қийинчиликлар келтириб чиқармоқда. Ижтимоий-маданий компетентлик масалалари Э. И. Воробьева, Ю. И. Костюшина ва бошқалар тадқиқотларида ўрганилган [2]. Ижтимоий-маданий компетентлик инсон шахсининг ижодий-яратувчанлик фаолиятида намоён бўладиган тизимли характеристикаси сифатида қаралади ва у яратган маҳсулотларда, фаолият натижаларида ўз аксини топади. Уни яхлит педагогик жараёнда шакллантириш зарурати бир қатор сабаб ва асосларга таянади:

1. давлат сиёсатининг долзарб муаммоларини билиш; ижтимоий-иқтисодий муаммолар ва жараёнларни мустақил таҳлил қила олиш; хорижий тилларни бирида касбий фаолиятга оид ҳужжатларни моҳиятини тушуниши, табиий-илмий фанлар бўйича касбий фаолияти доирасида зарурий билимларга эга бўлиши ҳамда улардан замонавий илмий асосда касб фаолиятида фойдалана билиш; табиат ва жамиятда кечаётган жараён ва ходисалар ҳақида яхлит тасаввурга эга бўлиши, табиат ва жамият ривожланиши ҳақидаги билимларни эгаллаши ҳамда улардан замонавий илмий асосларда ҳаётда ва ўз касб фаолиятида фойдалана билиши” лозим.

Ижтимоий-маданий компетентликнинг феноменологик асосларини ишлаб чиқишда тадқиқотчилар қуйидаги асосий ҳолатларга диққатини қаратадилар:

- ижтимоий борлиқ ва ижтимоий ҳаётга алоқадор компетенцияларнинг шахс социуми билан ўзаро боғлиқлиги ва ўзаро таъсири “ижтимоий индивид” каби кенг камровли тушунча сифатида таърифланади;
- ижтимоий-маданий компетентлик ўз таркибий тузилмаси ва мазмунга эга;
- ижтимоий-маданий компетентлик ёш хусусиятлари ва уларнинг динамик ўзгаришлари билан бевосита боғлиқ;
- концептуал жиҳатдан ижтимоий-маданий компетенция таркибида шахслараро фао-



лиятда нима аниқланиши ҳамда уни қай тарзда турли мулоқот восита ва шакллари орқали намоён бўлиши муҳимлиги [3].

Ижтимоий-маданий компетентликнинг муҳим хусусиятларини батафсил ўрганишда унинг функцияларига ҳам мурожаат қилиш мақсадга мувофиқдир. Булар қаторида, биринчидан, ижтимоий-маданий компетентлик инсоннинг маълум бир ижтимоий гуруҳга мансублигида акс эттирилиши, гуруҳ жамоасида ижтимоий ҳаракатлар ҳолатларида намоён бўлишидир. Иккинчидан, ижтимоий-маданий компетентлик ички маданий ижтимоийлашув жараёнида шахснинг ўзи мансуб бўлган маданият стереотиплари билан ҳамоҳанг тарзда ўзлигини англаб боришини билдиради.

Психологик тадқиқотларда ижтимоий-маданий компетентлик тузилмасининг таркибий қисмлари сифатида нафақат билим, кўникма ва малакалар, балки когнитив (ўз маданиятини билиш), аксиологик (маданий қадриятлар), концептуал (касбий, ижтимоий-маданий фаолиятга оид билимлар), ҳиссий-ахлоқий (шахснинг ижтимоий-маданий масъулияти), коммуникатив (вербал ва невербал мулоқот техникаси); баҳоли-рефлексив (мустақил фикрлаш, рефлексия, ўз-ўзига баҳо бериш); шахсий-операцион (шахслар ва маданиятлараро мулоқот кўникмаларига эга бўлиш); ҳаракатли-фаолиятли (мотивация, рефлексия ва креативлик) компонент ва элементларни киритадилар.

Метод ва воситалар

Ахборот жамияти имкониятларини фаол англаш жараёнида бўлган инсон ўзига хос маданий тажрибани ўлаштиради. Ижтимоий-маданий компетентликни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнида талаба нафақат маълумот олади ва ундан фойдаланади, балки ўз маданий тажрибасини бойитади ҳамда жамиятдаги устувор қадриятларни онгига сингдиради.

Ижтимоий-маданий компетентлик таркибида ижтимоий-маданий маълумот ва ахборотларни босқичма-босқич ўлаштириш ва уни индивидуал тажрибага айлантириш муҳимлигини таъкидлаш зарур: ахборотни идрок этиш (субъектив тажрибани актуаллаштириш); ахборотни тушуниш (онг ва ижтимоий-маданий тажрибанинг синтези); ортирилган тажрибани ўз фаолиятининг самарали шаклларида тадбиқ қилиш (ижодий фаолиятда қиймат-семантик ҳолатини аниқлаш); баҳолаш ва таққослаш (талқин қилиш, шахсий қадриятлар устуворлигини ишлаб чиқиш).

Ижтимоий-маданий компетентлик таркибидаги ижтимоий-маданий билимлар ва кўникмалар тизими билим ва вазият ўртасидаги алоқаларни ўрнатиш имконияти, муаммони аниқлаш, уни ҳал қилишнинг самарали усулини топишга хизмат қилади. Ижтимоий-маданий маҳоратни шаклланиши бевосита талабанинг ижтимоий-маданий мослашиш қобилиятига боғлиқдир. Шу сабабли, таълим жараёнида талабаларга турли хил фаолият шаклларида маданий меъёрлар ва қадриятларни ўлаштиришга имкон берадиган технологиялардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Таълимнинг культурологик парадигмасида ижтимоий-маданий компетентлик инсоннинг ажралмас характеристикаси сифатида қаралади, турли хил ижтимоий маданият (ахлоқий, миллий, ҳуқуқий, конфессионал) соҳаларида билимларнинг мавжудлигида намоён бўлади; уни ўрганишга қизиқиш; унинг қадриятларига мувофиқ турли хил ҳаётий вазиятларда одамлар билан мулоқот қилишга тайёрлиги; хулқ-атворнинг ижтимоий аҳамиятга эга мотивларининг шаклланганлигини билдиради.

Ижтимоий-маданий компетентлик асосини жамиятнинг ижтимоий маданияти, устувор маънавий-ахлоқий қоидалар, шахслараро мулоқот шакл ва усуллари ҳақидаги билимлар ташкил этади. Умуман олганда, талаба социум ёки жамиятни асосан кенг (дунё, мамлакат) ва тор (оила, мактаб, маҳалла) маъноларда англайди ҳамда унинг ижтимоий-маданий компетентлиги айнан шу иккита, ўзаро боғлиқ тушунчаларни қай даражада ўлаштирганлиги билан белгиланади. Бунда гап нафақат жаҳон, муайян минтақа, мамлакат ёки халқнинг маданий хусусиятлари, мактаб ва оила каби ижтимоий институтлар, балки инсонлараро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари, анъана ва урф-одатлар, одоб-ахлоқ қоидалари бўйича билимларга эга бўлиши ҳақида ҳам кетади. Ижтимоий-маданий компетентликни ривожлантиришнинг энг самарали йўлларида бири бу талабаларда ижтимоий-маданият, унинг намоён бўлиши хусусиятлари, одоб-ахлоқ қоидалари ҳамда ҳар бир конкрет ҳолатда инсонлараро муносабатлар ва ўзаро таъсир кўрсатиш жиҳатлари ҳақидаги мустаҳкам билимларни шакллантиришдир.



Хулоса

Инсоннинг жамият, бошқа одамлар билан ўзаро таъсирини тавсифловчи ижтимоий-маданий компетентлик унга жамиятдаги ҳаёт нормалари ва қоидаларини етарлича бажаришга имкон беради. Демак, ижтимоий-маданий компетентлик – бу муайян ижтимоий гуруҳнинг ижтимоий роллари, одоб-ахлоқ меъёрлари ва қоидалари, устувор қадриятлари, маданий хулқ-атвор намуналарининг йиғиндиси бўлиб, шахснинг айнан шу жамиятга хос хусусиятларга асосланган ҳолда ўзини англашидир.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”. Тошкент ш., 2020- йил 6- ноябр. ПФ-6108- сон.
2. Костюшина Ю. И. Формирование социокультурной компетенции на занятиях по русскому языку как иностранному с использованием произведений живописи // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2015. № 1 (43): в 2-х ч. Ч. 2. С. 104-108;
3. Муравьева Н. Г. Понятие социокультурной компетенции в современной науке образовательной практике // Вестник Тюменского государственного университета. 2011. № 9. С. 136-143;



ZAMONAVIY O‘QITISH USLUBLARI. PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALAR.

Najimova Aysara Dyusenbayevna
Nukus davlat pedagogika institute
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasio ‘qituvchisi
Telefon: :+998(91)3757281
najimova81@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu tezisda dars jarayonlaridagi zamonaviy metodlarning o‘rni va ahamiyati, turli uslub va metodlar, pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy o‘qitish, kichik guruhlar, aqliy hujum, muammoli o‘qitish, pedagogik texnologiyalar, ta‘lim texnologiyasi.

So‘nggi yillarda Respublikamizning taniqli pedagog olimlari tomonidan o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyani joriy etish bo‘yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalarda, anjuman ma‘ruzalarida, davriy nashrlarda o‘z aksini topmoqda. Respublikamizning taniqli olimlari R.X.Jo‘raev. U.N.Nishonaliev. N.S.Sayidaxmedov. B.L.Faberman: Rossiya pedagogik olimlari B.P.Bespalko, M.V.KJarin, N.I.Talizina, L.M.Fridman. V.Slasyonin. N.N.Mixaylov: Amerika. G‘arbiy Evropa va boshqa davlatlar olimlari B.Blum, J.KerroI. Golbraynt. T.Sokomoto o‘z ilmiy tadqiqotlarida “pedagogik texnologiya” tushunchasining mohiyati va ahamiyatini ochib berishga munosib hissa qo‘shganlar.

O‘qitishga texnologik yondashish, ya‘ni o‘quv jarayonini ham ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlariuvchan xarakterga ega bo‘lishini ta‘minlashga oid dastlabki izlanishlar asrimizning XX asrning 50 yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, “ta‘lim texnologiyasi” iborasi ham birinchi marta amerikalik olim B.Skinner tomonidan ishlatilgan. U “ta‘lim texnologiyasi -psixologiya fani yutuqlarini pedagogik amaliyotda qo‘llashdan iborat”, deb ta‘riflagan. Bu ta‘rifga asosan shuni ta‘kidlash lozimki, hozirgi kunda “pedagogik texnologiya” tushunchasiga “yangi”. “ilg‘or”. “progressiv” kabi so‘zlarni qo‘shib aytilish ham nisbiydir.

Tegishli adabiyotlarni tahlil qilish “pedagogik texnologiya” tushunchasi o‘zining rivojlanish tarixiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xorijiy mutaxassislar bu tushunchaning rivojlanishini uch bosqichga bo‘lib o‘rganish lozim deb hisoblaydilar.

Ma‘lumki. o‘qitish metodikasi ko‘p hollarda o‘quv jarayonini tashkil etish va olib borishga oid tavsiyalar yig‘indisidan iborat bo‘lsa, pedagogik texnologiya bundan farqli o‘laroq. birinchidan, yakuniy natijani kafolatlaydi, ikkinchidan esa. bo‘lajak o‘quv jarayonini ham loyihalaydi.

Ta‘lim jarayonidagi o‘qitish metodlari haqida so‘z borar ekan, avvalo dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun o‘quvchining shaxsiy qobiliyatlarini inobatga olish zarur. Bunda quyidagi metodlarda foydalanish mumkin.

Passiv metodlar. Ta‘lim jarayonining markazida o‘qituvchi bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchi bo‘lib qoladi. Ushbu metodlar qo‘llanilganda o‘qituvchi mavzu boyicha ma‘ruza qiladi, tushuntiradi, ta‘lim vositalari orqali ma‘lumotlarni taqdimot va namoyish qiladi. O‘quvchi bu sharoitda faqatgina tinglovchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Bunday metodlarga ma‘ruza, namoyish, taqdimot, illyustratsiya va boshqalar kiradi.

Aktiv metodlar. Bu metodlardan foydalanganda ta‘lim jarayonining markazida o‘quvchi bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi passiv, o‘quvchi esa faol ishtirokchi bo‘lib qoladi. O‘qituvchi guruhni boshqaruvchi sifatida ishtirok etadi, o‘quvchilar esa berilgan topshiriqlarni mustaqil fikrlab, muammolarni bartaraf eta oladigan darajada faoliyat yuritadilar. Bunday metodlarga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, rolli o‘yinlar va boshqalar kiradi.

Hozirgi vaqtda o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishiga olib keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An‘anaviy dars shaklini saqlab qo‘lgan holda, unga turli-tuman o‘quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o‘quvchilarning o‘zlashtirish arajasini ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta‘lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, muammoli vaziyat,



yoʻnaltiruvchi matn, loyiha, rolli oʻyinlar metodlarini qoʻllash, oʻquvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, turli baholash metodlaridan foydalanish, taʼlim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizda hozirgi kunda taʼlim-tarbiyaga berilayotgan keng eʼtibor har bir taʼlim oluvchini oʻz kasbining yetuk mutaxasisi, eng yangi bilim va koʻnikmalarning puxta egallashni talab etadi. Buday jaayonda esa oʻqituvchi oʻzi dar berayotgan yoshlarga eng yangi metodlarni qoʻllagan holda dars tashkil etishi, darsning yaxshi va samarali egallanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxoʻjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: 2003.
2. Musayev R.S. "Oʻqitishning zamonaviy texnologiyalari. II Respublika ilmiy–amaliy konferensiyasi materiallari". 18-19 may 2001 yil. T. : 2001.
3. Golish L.V. "Taʼlimning faol usullari: mazmunini tanlash, amalga oshirish". Ekspres - qoʻllanma, T. : 2002.



DARS JARAYONLARINI FAOLLASHTIRISH VA JADALLASHTIRISHDA O‘YINLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Najimova Aysara Dyusenbayevna
Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasini o‘qituvchisi
Telefon: :+998(91)3757281
najimova81@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta‘lim maktablarida o‘quvchilar bilan dars jarayonlarini tashkil etishda pedagogik o‘yinlarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘yinli texnologiyalar, o‘yinlarning funksiyalari, tashkil etish, muammoli vaziyat, pedagogik amaliyot.

Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. D.N. Uznadzening ta’rificha, o‘yin shaxsga xos bo‘lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir. L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi. A.N. Leontev o‘yinga shaxsning hayoltdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta’kidlaydilar ki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi. O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Tadqiqotchilar o‘yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhim qirralari S.A. Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo‘llanadi. O‘yin ijodiylik bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga - “ijod maydoni”ga ega bo‘ladi. O‘yin uchun hissiy ko‘tarinkilik xosdir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar. O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub’ekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar “o‘yinli pedagogik texnologiyalar”ni tashkil etadi. Pedagogik o‘yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo‘yiladi. Pedagogik o‘yinlar asosida talabalarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. G.K. Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;

“o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;

“o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;

“o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;

“didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

O‘yinlarning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini mazmuniy jihatdan o‘rganish va tahlil qilish ularni o‘quvchi-yoshlar, talabalar va katta yoshdagi kishilar o‘rtasida tashkil qilishda ana shu maqsadlarni belgilab beradi. Shu sababdan talabalar kurs, diplom (bitiruv) ishlarini tayyorlashda milliy harakatli o‘yinlarni chuqurroq o‘rganish, ularning tarbiyaviy jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Harakatli o'yinlarning asosiy mazmunini harakatlarning va o'yinchilar faoliyatining xilma-xilligi tashkil etadi. O'yinlarga to'g'ri rahbarlik qilinganda ular organizmning yurak-qon tomir, muskul va nafas olish tizimlariga ijobiy ta'sir etadi. Harakatli o'yinlar funksional imkoniyatlarni oshiradi, harakatlarni bajarishda tananing katta va kichik muskullarini ishga soladi, bo'g'inlar harakatchanligini oshiradi. Harakatli o'yinlarning sog'lomlashtiruvchi ahamiyati haqida gapirilganda o'yinlarning qish va yoz fasllarida toza havoda o'tkazilishi juda ahamiyatlidir. Toza havoda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar modda almashinuvini, organizmni yetarli kislorod bilanta 'minlanishini yaxshilaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'yin davomida holatlarning tez o'zgarishi, yuqori emotsionailik boshqaruvni qiyinlashtiradi. Shu sababii jismoniy harakatlarning optimalligini kuzatib borish lozim. Shug'ullanuvchilar organizmga moslashishi uchun muntazam mashg'ulotlardagi o'yinlarni sekin-asta oshirib borish kerak. Harakatli o'yinlar bolalar asab tizimiga ijobiy ta'sir etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonxo'jayev T.S., Xojayev.F. Harakatli o'yinlar. - T., 1992.
2. Normurodov A.N. O'zbek milliy o'yinlari. - T., 1999.
3. Boshlang'ich ta'lim jurnali 2003-yil 5-soni, 2005-yil 3 –soni



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИ ВА ИСЛОМ ХУҚУҚИ: ҚИСҚАЧА ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛ

Намозова Мафтуна Шокир қизи
Ўзбекистон Миллий Университети 2-курс магистранти
Олмазор тумани 1-мактаб ўқитувчиси
Телефон: +998998819445

Анотация: Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасининг Конституциясининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларига доир нормалари ислом ҳуқуқидаги нормалар билан қисқача қиёсий тахлил қилинади.

Калит сўзлар: Конституция, қонун, ҳадис, шариат, тенг ҳуқуқлилик, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари, ислом ҳуқуқи, ҳамоҳанглик.

Конституция давлатни давлат, миллатни миллат сифатида танитадиган қобуснома бўлиб, ҳуқуқий давлатнинг асосий белгилардан биридир.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси жамиятимиз ҳаётининг барча жабҳаларини қамраб олган бўлиб, 6 бўлим, 26 боб ва 128 моддадан иборат. Конституциямизнинг асосий фазилати шундан иборатки, унда инсон ҳуқуқи, шаъни ва кадр-қиммати энг олий кадрият деб белгилаб қўйилган бўлиб, у энг аввало инсон манфаатлари учун хизмат қилади. Бу олий кадриятларни, инсон манфаатларини ҳимоя қилиш қайси йўл билан таъминланади? Албатта, қонунлар билан. Қонунлар одил бўлса, қонун ҳар нарсадан устувор бўлса, барча кичик қонунлар мазкур асосий қонунга мувофиқ келса, ўша асосий дастурдан тармоқланиб чиқса, бундай юрт раванқ топади, гуллаб-яшнади. Конституция давлатимизнинг ана шу асосий қонунидир. Асосий Қонунимиз лойиҳаси уч минг йиллик миллий давлатчилик ҳамда дунё қонунчилиги тажрибасини, халқаро инсон ҳуқуқлари мезонларини ўзида мужас-самлаштирди. Бу ҳақида Конституциямизнинг кириш қисми бўлмиш муқаддима қисмида ҳам алоҳида таъкидланган. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясининг 2-моддаси-да давлат халқнинг иродасини ифода этиши, унинг манфаатларига хизмат қилиши, давлат муассасалари ва мансабдор шахсларнинг жамият ва фуқаролар олдида масъуллиги белги-лаб қўйилган.

Бу қоида Пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссаломнинг қуйидаги ҳадиси шарифларига ҳамоҳангдир:

على راع الرجل و مسؤول هو و الناس على راع فالأمير رعيته عن مسؤول كلكم و راع كلكم هو و سيده مال على راع العبد و مسؤولة هي و زوجها بيت على راعية المرأة و مسؤول هو و أهله رعيته عن مسؤول كلكم و راع فلكلكم مسؤول

«Ҳар бирингиз мутасаддисиз, ҳар бирингиз қўл остингиздагилар учун масъулсиз. Ҳар бир раҳбар инсонлар устидан мутасаддидир ва улар учун масъулдир. Эр ўз аҳли аёли ва қўл остидагилар устидан мутасаддидир ва улар учун масъулдир. Хотин эрининг уйида мутасаддидир ва қўл остидагилар учун масъулдир. Қул хожасининг молига мутасаддидир ва унинг учун масъулдир. Ҳар бирингиз қўл остингиздагилар учун масъулсиз».

Имом Бухорий, имом Муслим, Имом Термизий, имом Аҳмад ва Байҳақийлар ривоят.

Маълумки, Аллоҳ таоло Ислом динини, Ўзининг шариатини инсониятнинг икки дунё-даги бахт-саодатини таъминлаш учун жорий қилган. Ислом динининг барча таълимотлари, қонун-қоидалари бешта асосий мақсадни кўзда тутди:

- инсоннинг ҳаётини муҳофаза қилиш;
- инсоннинг ақлини муҳофаза қилиш;
- инсоннинг динини муҳофаза қилиш;
- инсоннинг наслини муҳофаза қилиш;
- инсоннинг мол-мулкни муҳофаза қилиш.

Шуни алоҳида таъкидлашимиз лозимки, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ушбу мақсадларнинг барчасига мувофиқ, уйғун ва ҳамоҳангдир. Ўзбекистоннинг Асосий Қонуни ушбу муҳим вазифаларни ҳаётга татбиқ этишда мустаҳкам асос бўлиб хизмат қиляпти. Унда инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, кадр-қиймати, диний эътиқоди ва



бошқа дахлсиз ҳуқуқлари олий қадрият эканлиги белгилаб қўйилган. Хусусан, Конституциямизнинг 24-моддасида яшаш ҳуқуқи хар бир инсоннинг узвий ҳуқуқидир Инсон ҳаётига суиқаст қилиш енг оғир жиноятдир деб инсон ҳаёти муҳофазаланган, 18-моддасида жинси, миллати, дини, ирқи, ёши, эътиқоди, ижтимоий келиб чиқишидан қатъи назар, барча фуқаролар тенг ҳуқуқлидирлар ва 31-моддасида эса ҳамма учун виждон еркинли кафолатланади. Хар ким исталган динга эътиқод қилиши ёки умуман эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга деб эълон қилинган бўлиб, унда инсон ҳуқуқлари ва эътиқод эркинлигини камситадиган бирорта ҳам модда йўқдир. Бу ўз ўрнида инсоннинг динини муҳофаза қилишнинг ёрқин исботидир. Конституциямизнинг 36-моддасида хар ким мулкдор бўлиш ҳуқуқига эгаллиги, банкда қўйилган омонатлар сир тутилиши ва мерос ҳуқуқининг қонун билан кафолатланиши инсоннинг мол-мулкани муҳофаза қилишнинг ёрқин исботи бўлса, инсоннинг ақлини муҳофаза қилишга Конституциямизнинг 41-42-моддалари мисол бўла олади. Уларда илм олиш ва илмий-техникавий ижод эркинлиги ҳуқуқининг давлат томонидан кафолатланганлигини кўриш орқали Асосий Қонумиз ва ислом ҳуқуқининг ҳамоханглигини кўришимиз мумкин.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Конституциямиз Республика худудида яшовчи барча фуқаролар ва миллат ва элатларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолоти бўлиб, улар белгилаб қўйилган ҳуқуқ ва эркинликлардан кенг ва тўлиқ фойдаланмоқдалар. Ишонч билан айта оламизки, Асосий Қонумиз ва ислом ҳуқуқининг ҳамоханглиги Конституциямизнинг нақадар мукамал ва хар томонлама ёндошилганлигининг назарий исботидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абу Абдуллох Муҳаммад Ибн Исмоил Ал-Бухорий Хадис Қомуслар бош тахририяти Тошкент – 1997
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Тошкент – 2019
3. Mehrob.uz



1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MATNLI MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH

Nurmatova Laylo Nuraliyevna
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani
27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda 1-sinf matematika darslarida matnli masalarni yechishda qisqa yozuv asosida masalalarni yechishning ahamiyati haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Masala, qisqa shart, muammoli, tasavvur.

Masalalar yechish avvalo bolalarda mukammal matematik tushunchalarni shakllantirishi, ularning o'quv dasturida belgilab berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega.

Masalalar yechish orqali o'quvchilarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tatbiq qilinadi, shu orqali mustahkamlanadi.

Masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar yangi matematik bilimlarini egallaydilar, amaliy faoliyatga tayyorlana boradilar. Masalalar ularning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek masala yechish o'quvchilarning shaxsiy tarbiyalarida ham katta ahamiyatga ega. Shuning o'qituvchining matnli masala haqida, uning tuzilishi haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishi, bunday masalalarni turli usullar bilan yecha olish muhimdir.

Matnli masala biror bir vaziyatlarning tabiiy tildagi ifodasi bo'lib, unda bu vaziyatning biror-bir qismiga miqdoriy xarakteristika berish, uning qismlari orasidagi ba'zi munosabatlar bor-yoqligini aniqlash yoki bu munosabat turini aniqlash talab etiladi.

1-masala. Ushbu "Lola 10 ta olma va 5 ta nok oldi, Dilshod esa 7 ta olma oldi. Bolalar nechta olma olishgan?"

Yechish. Masalada nok haqidagi ortiqcha ma'lumot bor. Berilgan "5 ta nok" ortiqcha. Hayotda vujudga keladigan muammoli vaziyatlar asosida talabini bajarish uchun yetarlicha ma'lumotlar bo'lmagan masalalar uchrashi ham mumkin. Masala yechish nima?

Boshlang'ich sinfda sodda va murakkab masalalarni yechish malakasini tarkib toptirish bo'yicha 1-sinflarda boshlangan ish 2-3- sinfda davom ettiriladi.

Matnli masalalar yechish u yoki bu tushunchani, munosabatni, hisoblash malakalarini tarkib toptirishdan tashqari, o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirishga, ba'zi miqdorlar va ular orasidagi boglanishlarni chuqurroq tushuntirishga imkon beradi. O'quvchilarning masalani taxlil qilishning umumiy usulini qay darsjada egallab olganliklarini va masala yechimini mustaqil topishda ularga yordam beradigan vositalarni qanday qo'llana olishlari masalalar yechish malakasini hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Masalaning mazmunini o'zlashtirish masalaning qisqa yozuvini bajarish, yechish rajasini tuzish, yechimni tegishli yozma yoki og'zaki tushuntirishlar bilan yozish, yechimning to'g'riligini tekshirishdan iborat.

O'quvchilar masalani o'qib chiqib, unda aks ettirilgan hayotiy vaziyatni aniq tasavvur qila olishlari kerak. Shu bilan birga, 1-sinfda masalaning qisqa yozuvi, asosan o'qituvchi rahbarligida amalga oshiradi.

Masalalar yechish matematika o'qituvchining tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan turib matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matematika darsida masalalar yechishni 1-sinfdanoq mukammal o'rgatish joiz deb o'ylayman. Chunki o'quvchi matnli masalalarni o'qib 1-sinfda qisqa yozuv tuzishga mustaqil o'rgansagina, keying sinflarda rasm asosida yoki chizma asosida mustaqil masala tuza oladi deb o'ylayman. Chunki, masala o'quvchini fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va so'z boyligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova " Matematika o'qitish metodikasi"



О‘SMIR YOSHDAGI О‘QUVCHILARNI INGLIZ TILIDAN NUTQINI О‘STIRISH TURLARI

*Navoiy viloyati qiziltepa tumani 41 -maktab
ingliz tili fani o‘qituvchisi
Ochilova Nasiba Baxriddin qizi*

Annotatsiya: ushbu maqolada 5-9 sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishga qaratilgan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: metodika, metodik qo‘llanma, munozara, bosqich, guruhlar

Nutq faoliyat turlari o‘rtasidagi bog‘lanish to‘rt nutq faoliyati turlari: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv o‘zaro bog‘langan holda o‘qitiladi. Bunga sabab haqiqiy hayotda kamdankam hollardagina o‘qigan narsalarimiz haqida gaplashmaymiz yoki yozmaymiz yoki eshitgan narsalarimizga o‘qigan narsalarimizni bog‘lamaymiz. Shu sababli nutq faoliyati turlarini bir-biri bilan quyidagidek turli faoliyatlar orgali bog‘lashgaharakat qildik:

– o‘qish va yozish, m-n.: o‘qish va jadvallarni to‘ldirish, qisqa bayonlar yozish, xatga javob yozish, o‘zi haqida yozish, o‘ziga qayd qilib qo‘yish, savollar yozish, fikrlar yozish va boshqalar.

– o‘qish va tinglash, m-n.: o‘qib olingan ma‘lumotni tinglash orqali tekshirib ko‘rish, matn va fikrlarni solishtirish va boshqalar.

– o‘qish va gapirish, m-n.: o‘qish va savollarga javob berish, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ma‘lumotlarni aytish, matndagi ma‘lumotlarni muhokama qilish, bahslashish va boshqalar.

– tinglash va o‘qish, m-n.: tinglash va matnlar tartibini joylashtirish, matndan talab qilingan ma‘lumotlarni topish va boshqalar.

– tinglash va yozish, m-n.: tinglash va tushib qolgan ma‘lumotlarni, jadvallarni to‘ldirish, fikrlar yozish va boshqalar.

– tinglash va gapirish, m-n.: tinglash va savollarga javob berish, muhokama qilish va boshqalar.

Qo‘shimcha Grammatik mashqlar

Bular bo‘lim yoki darslarda o‘rganilgan grammatika uchun qo‘shimcha mashqlarni o‘z ichiga oladi. Siz bu mashqlarni qachon va qayerda qo‘llash yuzasidan ko‘rsatmalarni O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmadan topishingiz mumkin.

5 Fly High da qo‘llanilgan yondashuv

Fly High xorijiy tillar bo‘yicha Ilmiy Metodik Kengashda 2013 yil fevral oyida tasdiqlangan Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturi asosida yaratildi. Dastur

O‘zbekistonning turli joylarida istiqomat qiluvchi o‘quvchi va o‘qituvchilar bilan maslahatlashgan holda tanlangan mavzularga asoslanadi.

Fly High da o‘quvchilarga to‘rt nutq faoliyati turlari: o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozuvni rivojlantirishga yordam berish maqsad qilib olingan.

Darslikda zamonaviy kommunikativ Ingliz tilini o‘qitishga alohida urg‘u berilgan, shuning uchun ilgarilari nazardan chetda qoldirilgan gapirish va tinglashga katta e‘tibor qaratilgan. Albatta o‘quvchilarga Lug‘at, Grammatika va Talaffuz bo‘yicha yaxshi bir poydevor kerak, shuning uchun bular ham muntazam ravishda rivojlantirilib borilgan. Fly High da lug‘at mavzular bo‘yicha tanlangan, grammatika esa, muloqotning tarkibiy qismi sifatida o‘rgatilgan.

9-sinfda tarjim malakalari yanada ko‘proq rivojlantiriladi. Endilikda o‘quvchilarda ingliz tilidan yaxshi zamin yaratilgani bois tarjima ingliz tilini va ingliz tili haqida ko‘proq o‘rganishning ayniqsa foydali usulidir. Kundalik hayotda o‘quvchilar ingliz tilida o‘qishlari va ona tiliga tarjima qilishlari yoki qisqacha mazmunini aytib berishlari kerak bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham bu malakalar bu yerda rivojlantiriladi.

Fly High va Siz foydalangan boshqa bir darsliklar orasidagi asosiy farq shundaki,

Fly High da til o‘qitishning o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuviga urg‘u berganligidadir. nBuning ma‘nosi shuki, ilgarilari o‘quv jarayonida o‘quvchilarga emas, balki o‘qituvchining roliga ko‘proq e‘tibor berilar edi. Albatta o‘qituvchi ham juda muhim, ammo tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, agar o‘quvchilarga yangi til materialini mashq qilish va amalda qo‘llab ko‘rishga imkoniyat berilsa ular samarali muloqot qilishni ko‘proq o‘rganadilar. Shunday qilib, Fly High da ishlatilgan o‘quvchiga yo‘naltirilgan uslubning maqsadi o‘quvchini sinfxonada sodir bo‘ladigan ko‘p narsalarning diqqat markaziga qo‘yishdir.



Albatta Siz hanuz yangi soʻz va grammatikani oʻquvchilaringizga tanishtirishingizga toʻgʻri keladi, lekin oʻquvchiga yoʻnaltirilgan sinfxonada Siz juftlik va guruh ishlarini tashkil qilish va boshqarishga ham koʻp vaqt sarflaysiz.

Oʻquvchiga yoʻnaltirilgan sinfxonani tashkillashtirish .Oʻquvchilaringiz tez-tez juftlik, uchlik va toʻrtliklarda ishlaydi, shuning uchun oldindan darsni va bu guruhlarni qanday tashkil etish xususida oʻylab koʻrishga toʻgʻri keladi. Oʻquvchilar bir necha marta guruhlarni tashkil qilib koʻrgandan soʻng, ularni eslab qoladi va tezlikda guruh tashkil etishga oʻrganib qoladi.

Quyida qoʻzgʻalmas partalar joylashgan sinfxonada juftlik, uchlik va toʻrtlik guruhlarni tashkil qilish yuzasidan baʼzi takliflar keltirilgan. Diagrammada oʻquvchilar yoki, oʻqituvchi esa T koʻrinishida tasvirlangan.

a) Bu yerda oʻn ikkita oʻquvchi vazifa bajarishmoqda, oʻqituvchi esa tinglamoqda. Qora nuqtalar har bir juftlikning eʼtibor qaratadigan joyini koʻrsatib turibdi.

b) Bu yerda ham shu oʻn ikki oʻquvchi juftlikda vazifa bajarishmoqda, ammo ular bu safar oʻz oʻtirgan joylarini oʻzgartirmasdan yangi sherik bilan juft boʻlib ishlamoqdalar. Oʻqituvchi yordamlashmoqda.

c) Bu yerda ham shu oʻn ikki oʻquvchi, faqat ular endi uchlik guruhda vazifa bajarishmoqda. Ular hali ham oʻz oʻtirgan joylarini oʻzgartirgani yoʻq. Oʻqituvchi uchlik guruhlardan birini tinglamoqda.

d) Bu toʻrtlik guruhda oʻquvchilar oʻz qarshisida turgan oʻquvchi bilan ikki kishilashib vazifa bajarmoqdalar. Oʻquvchilarda ikkitasi oʻz joylarini oʻzgartirib, toʻrtlik guruh hosil qilishgan. Oʻqituvchi, dars davomida keyinroq oʻquvchilarga yordam berish maqsadida, yoʻl qoʻyilgan xatolarni oʻziga qayd qilib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati;

1. Ingliz tili metodikasi 1 Toshkent 2011
2. Fly Higt English 9 Teachers book T 2004
3. Fly Higt English 10 Teachers book T 2005



ТА'ЛИМ-TARBIYA JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM YONDASHUVLARINI QO'LLASH

Ollamova Shaxnoza Shonazar qizi
Urganch tumani 27-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (93) 758 68 66
sh_ollamova@inbox.uz

Yuldashova Nazokat Maxsudovna
Urganch tumani 27-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 511 85 11
nazokat.maxsudovna11@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga yordam beruvchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari qo'llashga oid ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Noan'anaviy ta'lim yondashuvlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari, tizimli yandoshuv, faoliyatga yo'naltirilgan yandoshuv.

Pedagogik-psixologik hamda fanlarni o'qitish metodikalariga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlarda o'quvchining individual xususiyatlarini ochib berishga uning qobiliyatlarini rivojlantirish qiziqishlarini e'tiborga olgan holda shaxs sifatida shakllanish ishiga yordam beruvchi yakka tartibda olib boriladigan ta'lim shaklini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb qaraladi.

Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Ta'lim tarbiya jarayonida qo'llaniladigan barcha usullar shaxsga qaratilganini e'tirof etgan holda alohida olingan o'quvchiga ta'limiy – tarbiyaviy ta'sir etish usulini ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usuli deb ataymiz. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini anglash va bir-birini tushunish tashkil etadi. An'anaviy ta'lim asosini tushuntirish tashkil etib, bu tushunchalar farqi quyidagicha sharxlanadi: tushuntirish – bitta sub'ekt, monolog; anglash – ikkita sub'ekt bir-birini tushunishi, hamkorlik, dialogdir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tushuntirishdan anglashga, monologdan dialogga, ijtimoiy nazoratdan rivojlanishga, boshqarishdan o'z-o'zini boshqarishga o'tish tashkil etadi. Pedagog fanni o'quvchilar bilishiga emas, ularning hamkorlik qilishiga, ijodkorlik xususiyatlarini namoyon qilishiga erishishi kerak. O'quvchini pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchining asosiy vazifasi bo'lishi kerak. O'quvchining qo'yilgan masala ustida ijodiy izlanish, masalani tadqiq etishga tajribasi, imkoniyatlari, salohiyati yetarli emas. O'qituvchining maslahati va yordamiga muhtoj.

O'qituvchining qo'llab-quvvatlashi Sh.Amanashvili ta'kidlashicha quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- bolani sevish;
- bola yashayotgan muhitni odamiylashtirish;
- o'z bolaligini bolada ko'rish.

Xorijiy psixologik tadqiqotlar pedagogning vazifasi bola shaxsini shakllantirishda, rivojlantirishda deb ta'kidlaydi. K.Rodjers fikriga ko'ra o'qituvchi sinfdagi o'quvchining individual rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhitni yaratish uchun quyidagilarga amal qilishi kerak:

- o'quv jarayoni davomida o'quvchilarga to'la ishonchni namoyon qilishi;
- har bir o'quvchi va sinf oldida turgan maqsad va vazifalarni aniqlashtirish va ifoda qilishda ko'maklashishi;
- o'quvchilarda ichki rag'bat (motiv) mavjudligiga asoslanishi;
- har bir o'quvchi uchun o'qituvchi turli tuman tajribalarga ega, zarur bo'lganda doimo murojaat etish mumkin bo'lgan manba bo'lishi;
- o'qituvchi doimo o'quvchilar guruhi ruhiyatini sezishi va uni qabul qilishi;
- guruhdagi o'zaro muloqotning faol ishtirokchisi bo'lishi;
- o'z xis – tuyg'ularini ochiq ifoda etishi;
- har bir o'quvchi his-tuyg'ulari va kechinmalarini tushunishga erishishi;



- o‘z-o‘zini va o‘z imkoniyatlarini yaxshi bilishi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etuvchi o‘qituvchi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- bolaga, madaniyat va ijodga qadr qiymatli munosabatda bo‘lishi;
- insoniy pedagogik munosabatni namoyon qilishi;
- bolaning ruhiy va jismonan sog‘lig‘ini saqlashi;
- o‘quv-rivojlantiruvchi va madaniy-axborot ta’lim muhitini yaratishi va muntazam boyitishi;
- ta’lim mazmunini o‘quvchi shaxsini shakllantirishga qarata takomillashtirishi;
- o‘quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli tuman pedagogik texnologiyalarni egallashi;
- har bir o‘quvchining o‘ziga xos tomonlarini qo‘lab-quvvatlashi va rivojlantirishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: «Nihol» nashriëti, 2013, 2016.–279b.
2. Sergeev I.S. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – SPb.: Piter. Seriya «Uchebnoye posobiye», 2004–316 s.
3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.



RUS TILI DARSLARIDA TILLARNI O‘RGANISHDAGI INTEGRATSIYA

Oxunova Shahodat Jo‘rayevna
Sirdaryo viloyati Shirin shahar
3-umumta‘lim maktabi rus tili va
adabiyoti fani o‘qituvchisi
+99899 861 44 68

Annotatsiya. Mazkur maqolada rus tili darslarida tilni o‘rganishda ona tili fani bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish yo‘nalishlarida, ya‘ni mavzular asosida, enerjayzerlar, o‘yin va darsdan tashqari tadbirlarda yuzaga keltirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: rus tili, ona tili, integratsiya, enerjayzer, o‘yin, tadbir.

Rus tilini o‘rganish va u tilda erkin so‘zlay olishga yo‘naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buni amalga oshirishda ona tili darslari bilan integratsiya jarayonini yuzaga keltirgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili ta‘limi standarti ko‘rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni aniqlash va o‘z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o‘rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi. O‘z ona tilini grammatik xususiyatlarini o‘rganish orqali o‘quvchida o‘z ona tilini so‘z qurilishi, fonetika, morfologiya, sintajis va boshqa bilimlari rivojlanib boradi. O‘z tilini o‘rganish asosida boshqa tillarni o‘rganish ham muhim omillardan biridir. Tillarni o‘rganishda integratsiyalashgan darslar tashkil etish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

“Integratsiya” atamasi – lotinchadan *integration* – *tiklash, to‘ldirish, integer– yaxlit* so‘zidan olingan bo‘lib – quyidagi ma‘nolarni anglatadi:

Ikkita tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Tillarni o‘rganishdagi integratsiyani ikkinchi tushuncha asosida izohlab o‘tamiz.

Tillarni o‘rgatish jarayonida quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha integratsiya jarayonini yuzaga keltirishimiz mumkin:

- Mavzular jarayonida;
- Enerjayzer va bardamlashtiruvchi mashqlar;
- Ta‘limiy o‘yinlar;
- Lug‘at ishi.

Mavzular asosida integratsiya jarayonini quyidagicha yuzaga keltirishimiz mumkin: rus tili darsida “Имя числительное” mavzusini o‘tishda o‘z ona tilida sanash imkoniyatlarini yuzaga keltirib, so‘ng rus tilida sanashga yo‘naltirish: раз, два, три, четыре ..., kabi o‘rganilgan sonlarni o‘zaro integratsiya asosida qiyoslab o‘rgatishimiz mumkin.

“Enerjayzer” inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, ” kuch va energiyamni qayta tiklayman” ma‘nosini bildiradi. Dars jarayonida: enerjayzerlardan foydalanish asosida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobarga olish bilan bir qatorda jismoniy va fiziologik rivojlanishlariga ham ahamiyat berib boriladi.

Bardamlashtiruvchi mashqlarning dars va uning mavzusiga bog‘liqligi ham bolalarni charchog‘ini chiqarish bilan bir qatorda dars mazmunini to‘ldirib boradi.

Dam olish daqiqalari asosida ham tillarni o‘rganishdagi integratsiyani yuzaga keltirishimiz mumkin:

O‘zbek tilida: “Bosh, yelka, tizza va barmoqlar”.

Rus tilida: “Голова, плечи, колени и пальцы”.

Bunda she‘rga mos harakatlar qilinadi, avval astaroq aytilib, so‘ngra tezlashiladi.

O‘yin-bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof-muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar, dunyosi bilan tanishadi.

O‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilar aqlini charxlaydi, so‘z boyligining oshishi, og‘zaki nutqining rivojlanishiga, mukammal inson bo‘lib kamol topishida g‘oyat katta tarbiyaviy ta‘sir



kuchiga ega.

Shuning uchun ham didaktik o‘yinlar asosida tillarni o‘rganish imkoniyati katta

“Bu” o‘yini .

Stol ustiga 6 ta o‘quv quroli qo‘yiladi:

O‘zbek tilida: ruchka, qalam, kitob, chizg‘ich, qalamdon, o‘chirg‘ich.

Rus tilida: ручка, карандаш, книга, линейка, пенал, резинка.

Bir o‘quvchi chiqib xohlagan bir narsani ko‘z ostiga olib qo‘yadi. O‘quvchilar avval o‘zbek tilida “Bu.....”, rus tilida “Это?”.so‘raydilar, bola o‘ylagan narsa aytilsagina, o‘quvchi “ha” deb javob beradi.

Tadbirlar jarayonida ham turli tillarga oid she‘rlar chiqishlar asosida ham til o‘rganish integratsiyasi yuzaga keladi:

Masalan Alisher Navoiy tavalludiga bag‘ishlangan tadbirda bir o‘quvchi o‘zbek tilida, ikkinchisi rus tilida Alisher Navoiy haqida ma’lumot berishi orqali ham tillarni o‘rganish integratsiyasi va qiyoslab o‘rganishni yuzga keltirgan bo‘lamiz:

O‘zbek tilida: Alisher Navoiy buyuk shoir. U 5 dostonidan iborat “Xamza” dostoning muallifi...

Rus tilida: Алишер Навои величайший поэт. Он автор “Хамсы” сборник пяти дастанов.....

Xulosa qilib aytganda rus tili darslarida mavzuni o‘rganishda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda bola o‘zlashtirishi oson bolagan she‘r, o‘yin, maqol, tez aytish, topishmoq, ertaklardan ham unumli foydalanish ularning tillarni o‘rganishdagi integratsiyani to‘la amalga oshirish imkonini beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova.R.A. Boshlang‘ichta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi T-2005

2. Klarin, M.V. Interaktivnoe obuchenie instrument osvoeniya novogo opita Tekst. M.V. Klarin Pedagogika. - 2000. - № 7. - S. 12-18.



INGLIZ TILI METOKASINI DARSLARDA QO‘LLASH BOSQICHLARI

*Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 41-maktab
Po‘latova Lobar Hojiqurbon qizi
Telefon 91252 4494*

Anatatsiya: bu maqolada o‘quvchilarga ingliz tili fanini bahslar va bosqichlar yordamida o‘rgatish usullari berilgan.

Kalit so‘zlar: metodika, metodik qo‘llanma, munozara, bosqich, guruhlar

O‘qituvchi uchun ijodiy ish darslari yuzasidan batafsil uslubiy tavsiya o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmada berildi. Ijodiy ish davomida tayyorlangan plakatlarni ota-onalarga bolalarning ingliz tilini qay darajada o‘zlashtirayotganliklarini ko‘rsatish uchun ham foydalanishingiz mumkin.

Bahslar

Bahslar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishga va masalaga turli nuqtayi nazardan yondashishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarda gapirish ishonchini shakllantiradi, chunki o‘quvchilar bu yerda til ravonligiga emas balki o‘z nuqtayi nazarini isbotlash haqida ko‘proq qayg‘uradi. Bahslarga tayyorlanish davomida o‘quvchilar bahs uchun ma‘lumot topish maqsadida oldingi darslarni o‘qib chiqadi. Shu yo‘sinda bahslar o‘quvchilarni ma‘lumot olish uchun samarali o‘qishga ruhlantiradi. Bahslar o‘quvchilarga faol tinglovchi bo‘lishga ham yordam beradi. Munozarada qarshi turuvchilarni tinglash paytida ular qarama-qarshi fikrlar topishga harakat qiladi va qarshi bahs yuritadi.

Quyida bahsni tashkil etish bosqichlari keltirildi. Jarayon chigal ko‘rinadi, lekin u bir necha maktablarda sinovdan o‘tkazilganda o‘quvchilarga juda ma‘qul bo‘ldi.

Ishonchimiz komilki, u siz va sizning o‘quvchilaringizga ham ma‘qul bo‘ladi.

I va II bosqichlar faqatgina siz bahsni birinchi marta tashkillashtirganingizda kerak bo‘ladi. I bosqich

O‘quvchilardan bahs to‘g‘risidagi bilimlarini so‘rab biling. Siz quyidagidek savollarni so‘rashingiz mumkin.

- 1) What is a debate?
- 2) Where do we have debates?
- 3) Have you ever taken part in a debate? When? What was the debate about?
- 4) Who takes part in debates?
- 5) Why do we have debates?
- 6) What happens in a debate?
- 7) Where do we sit in a debate?

II bosqich

Bugun bahs o‘tkazilishini o‘quvchilaringizga tushuntiring. Ular, masalan, “ Sport is always a good thing. We should have sports lessons every day at school.” degan mavzu yuzasidan bahs yuritadilar. Sinf ikkiga bo‘linadi. Sinfning yarmi mavzu tomonda, yarmisi esa mavzuga qarshi.

III bosqich

Bir o‘quvchini bahsni olib boruvchi qilib tayinlaysiz. Bahsni olib boruvchi sinfdagi eng yaxshi o‘quvchi bo‘lishi kerak (uning bahsda hukmronlik qilmasligini yoki boshqa o‘quvchilarni gapirishdan mahrum qilmasligini nazarda tutgan holda) yoki yaxshi gapira olmaydigan uyatchan o‘quvchini tanlab olishingiz mumkin.

IV bosqich

Guruhlardan o‘rtasidan pastga qarab chiziq tortilgan bir varaq qog‘oz tayyorlashni so‘rang. Chap tomonda ular boshqa guruh berishi mumkin bo‘lgan sabablarni yozishlari kerak. O‘ng tomonda esa o‘zlarining sabablarini yozadilar.

Guruhdagi har bir o‘quvchining o‘z sabablari ro‘yxati bo‘lishi kerak. Quyidagi jadvalni doskaga yozing, shu asosda vazifani bajarishni o‘quvchilardan so‘rang.

For (Mavzu tomonda)	Against (Mavzuga qarshi)
good for health	wastes time

Guruhlarga sabablar ro‘yxatini yozish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.



V bosqich

Guruhlar sabablar ro'yxatini yozishni boshlaganlaridan va Siz ularning nima qilishlarini yaxshi tushunib olganliklariga ishonch hosil qilganingizdan so'ng bahsni olib boruvchiga uning roli to'g'risida ma'lumot bering va unga u aytishi kerak bo'lgan ba'zi narsalar yozilgan qog'ozni bering.

m-n.:

Ladies and gentlemen. Welcome to class We are here today to debate the motion Pupils for the motion are sitting on my left, pupils against the motion are sitting on my right. We have ... minutes for the debate.

Please raise your hand when you wish to speak. I decide the person to speak. Please be polite and don't interrupt. No-one may speak for more than 1 minute. At the end we are going to have a vote. Let's begin. (Mavzu tomondagi guruhga qaraydi.)

Your time is up.

Next speaker please.

Order! Order!

That's all we have time for.

Please vote now. If you are for the motion, raise your hand. (Sanaydi) If you are against, raise your hands. (Sanaydi).

The Fors/Againsts are the winners.

VI bosqich

Zaruriyat tug'lsa, fikrlarni qanday berishni va qanday qilib fikrga qo'shilish, qo'shilmaslikni takrorlab oling. Iloji bo'lsa, so'z birikmalarini doskaga yozib qo'ying.

m-n.: I think that.....

Sorry, I don't agree. We know that..... so

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Ingliz tili metodikasi 1 Toshkent 2011
2. Fly Higt English 9 Teachers book T 2004
3. Fly Higt English 10 Teachers book T 2005



INFORMATIKA FANING MAQSAD VA VAZIFALARI. TA'LIMIY TARBIYAVIY AHAMIYATI. KOMPYUTER GRAFIKASI MISOLIDA

Qadirov Bekzod Ko'palbay o'g'li
Xorazm viloyati Bog'ot tumani
1-son maktab informatika fani o'qituvchisi
Telefon:+998(99)7521939
Pochta: qbekzod629@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompyuter grafikasi vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish xozirgi kunning dolzarb masalalaridan ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter grafikasi, Axborot kommunikatsion texnologiyalari, televideniya, internet, axborot, ikki o'lchamli, uch o'lchamli grafika.

Axborotni asosiy qismini inson ko'rish azolari orqali oladi. Ko'rgazmali axborotni o'zlashtirish oson bo'ladi. Inson tabiatining ana shu hususiyati grafik operatsion tizimlarda ishlatiladi. Kompyuter grafikasi hozirda jadallik bilan hayotimizga kirib keldi va yanada kuchayib bormoqda. Keyingi o'n yil misolida biz kompyuter grafikasi sohasida misli ko'rilmagan o'sishni ko'rishimiz mumkin. 2D va 3D texnologiyalari hayotimizni o'rgimchak to'ridek o'rab oldi. Hozirgi kunni ularsiz ta'savvur qila olmaymiz. Chunki butun insoniyat unga bog'lanib qoldi va undan keng (samarali tarzda) foydalanib kelmoqda albatta. Shuni aytib o'tish joizki, kompyuter grafikasi texnologiyalari sohasi iqtisodiyotning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurdi. Kompyuter grafikasi hamma sohaga jadallik bilan kirib bormoqda. Hox u ishlab chiqarish (Kompyuter grafikasi orqali turli xil buyum va kiyim kechaklarni avtoqismlarni tayyorlab olishadilar.) Tibbiyot sohasida ham Kompyuter grafikasi juda keng qo'llanilib kelinmoqda. Masalan UZI uskunalari, EKG uskunalari, turli xil roentgen moslamasi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Televideniya va multipikatsiya sohasida ham kompyuter grafikasini biz naqadar rivojlanib ketganini ko'rishimiz mumkin. Turli hil bolajonlar uchun mo'ljallangan multfilmlar, kino filmlar, video roliklar, virtual o'yinlar shular jumlasidan. Yana kompyuter grafikasini biz arxitektura sohasida ham naqadar rivojlanib ketganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Turli xil turar joy binolari, uylar, savdo komplekslarini dizayner arxitektorlar siz hohlagan usulda va aynan siz aytganizdek qilib ko'nglingizdagidek qilib tayyorlab beradilar. Yana kompyuter grafikasini astronomiya va yadro fizikasi, biologiya, kimyo, qishloq ho'jaligi, yo'l qurilishi, geologiya, geodeziya ishlab chiqarishning yana boshqa sohalarida ham ko'rishimiz mumkin. Xullas kompyuter grafikasi degan tushuncha hayotimizga juda tez, jadallik bilan kirishda davom etyapti. Bu ya'ni Kompyuter grafikasi sohasini yaqinda o'rganish uchun bizga O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida va o'rta maxsus ta'limida, Oliy ta'limda keng o'rganilib borilayotgan INFORMATIKA fani yaqindan yordam beradi. Bizga ko'makdosh bo'ladi. Kompyuter XX asrning 50 - yillarida paydo bo'lgan bo'lsa uni yaqindan o'rganuvchi fan informatika XX asrning 70 -yillarida paydo bo'ldi. Va alohida fan sifatida o'rganilib bora boshlandi. Keyin esa multimedia tushunchasi kelib chiqdi.

Shu tariqa biz kompyuter grafikasi tushunchasi hayotimizga kirib keldi. Keling uni hozir qanday paydo bo'lgani haqida tushunchalar berib o'tamiz...

Kompyuter grafikasi o'tgan asrning 70 - 80-yillaridan boshlab ommaviylasha boshladi. Hozirgi kunda kompyuter grafikasi shu qadar rivojlanganki, kompyuter texnikasining jadal rivojlanishining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Kompyuter grafikasi ilm-fanga, tijoratga, san'at va sportga ham tegishli bo'lib, barcha sohalarda keng qo'llaniladi. Kompyuter grafikasi bo'yicha har yili ko'plab konferensiyalar o'tkaziladi, ilmiy jurnallar va o'quv qo'llanmalar chop etiladi, dissertatsiyalar himoya qilinadi.

Har yili bir necha yuz milliard dollarlik kompyuter grafikasi mahsulotlari ishlab chiqariladi va sotiladi. San'at durdonalari yaratiladi. Kompyuter grafikasi asosida yaratilgan elektron o'yinlar bo'yicha Jahon birinchiliklari o'tkaziladi va ularda millionlab qatnashuvchilar ishtirok etadilar.

Yaratish usuliga ko'ra kompyuter grafikasi ikki guruhga ajratiladi:

- 1) (inglizcha - ikki o'lchamli jumlasidan olingan) 2D
- 2) (inglizcha - uch o'lchamli jumlasidan olingan) 3D



Ikki o'lchamli grafika yassi va tekis sirtlarda yaratilgan tasvirlar bo'lib ularga misol sifatida printerda qog'ozga chop etilgan fotosurat, rassom tomonidan (maxsus mato)da chizilgan rasmlarni keltirish mumkin. Ikki o'lchamli grafikaning turlari bilan keyingi sahifada batafsil tanishamiz.

Uch olchamli grafika yordamida hajmga ega jismlar tasvirlanadi. Bunda jismning fazoda egallagan o'rni mayda kublar bilan to'ldiriladi. Mana kompyuter grafikasi haqida ozmi – ko'pmi ma'lumotlarga ega bo'ldingiz.

Endi esa informatika fani qanchalik kompyuter grafikasiga bog'liq ekanligini bilib olasiz hurmarli mushtariy. Agar siz informatika fanini sitqidildan, astoydil o'rgansangiz siz IT texnologiyalari va kompyuter grafikasi sohasida ishlasangiz ham hech qanday muammoga duch kelmaysiz.

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki, hozirgi kunda talim tizimida kompyuter grafikasi rivojlantirish ayniqsa, ularda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim tizimi oldida turgan juda ham ko'plab moddiy va ijtimoiy dolzarb masalalarni xal qilish mumkin.

Talimda multimediali axborot resurslaridan foydalanishda ularning eng samarali vosita va ta'lim mazmunini boyituvchi omil ekanligi yaqqol namoyon bolib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Boltayev, M. Mahkamov Informatika va axborot texnologiyalari 2017 O'zbekiston milliy ensiklopediya Davlat ilmiy nashriyoti 60 b. 2015 110-betlar.

2. Axborot texnologiyalari/ M. Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov Mamarajabov. — T.: Noshir, 2009. 123 b. S.S.G'ulomov — Informatika va Axborot texnologiyalari.

3. <http://uz.infocom.uz/2017/03/26/> Kompyuter grafikasi vazifalari



О‘QUVCHILARNI TABIAT BURCHAGIDAGI О‘SIMLIKLARNI SAQLASH VA PARVIRISHLASH QOIDALARIGA О‘RGATISH

Qambarova Mahfuza Obidovna
Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani
1-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+99897 569 9525

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarni tabiat burchagidagi o‘simliklarni qanday parvarish qilishlari va ularni saqlash hamda ko‘paytirish qoidalari bilan tanishtirish yo‘nalishlari ko‘rsatilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tabiat burchagi, o‘simlik, parvarish qilish, saqlash.

Tabiat burchagidagi xona o‘simliklarini saqlash ularni sug‘orish, purkash, yuvish, tuprog‘ini yumshatish, almashtirish, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish, oziqlantirish, kesish, ko‘paytirish, zararkunandalarga qarshi kurashishdan iboratdir

Suv quyish. O‘simlikka xona haroratidagi suv quyiladi. Vodoprovod suvi tarkibidagi xlorini yo‘qotish uchun uni ochiq idishda ushlab turiladi. O‘simlik rivojlanayotgan va gullayotgan vaqtda unga xona haroratidan 2°C ortiq bo‘lgan suv quyiladi. Agar gultuvak tagida suv yig‘ilib qolgan bo‘lsa va ikki soat davomida tuvak teshigi orqali shimilib ketmasa, u to‘kib tashlanadi.

Purkash. Purkash ko‘pgina o‘simliklarni parvarish qilishning muhim qismi hisoblanadi. Chunki u o‘simlikning suv bilan me‘yorida ta‘minlanishiga yordam beradi. Purkaganda o‘simlik qishda ham xuddi yozdagidek ko‘mko‘k bo‘lib turadi. Iliq suv bilan purkab turilganda o‘simlik novdalari va barglari tezroq o‘sadi, kurtak chiqaradi.

Yuvish. O‘simlikni changdan tozalash uchun iliq suv bilan muntazam yuvib turish lozim. O‘simlik dush tagiga yoki tog‘oraga qo‘yib yuviladi, bunda tuvakdagi tuproq yuvilib ketmasligi uchun uning usti kleyonka bilan yopib qo‘yiladi. Tikanli kaktuslarni yuvishdan oldin changlari yumshoq cho‘tki bilan tozalanadi. Egilgan bargli o‘simliklarni yuvish mumkin emas, ulami changi mayin mo‘yqalam bilan tozalanadi. Gultuvaklar yiliga 3—4 marta sovunlab, qaynoq suv bilan qattiq cho‘tki yordamida yuviladi.

Yumshatish. Yumshatish — bu suvsiz sug‘orishdir. U suv quyilgan kunning ertasiga amalga oshiriladi. O‘simlik ildizlariga zarar yetkazmaslik uchun tuvak chetlaridagi tuproq ko‘pi bilan 1 — 1,5 sm chuqurlikda yumshatiladi.

Ko‘chirib o‘tqazish va ko‘chat qilish. Ko‘chirib o‘tqazish — tuvak torlik qilib qolganda o‘simlik ildizini yopishib turgan tuproq bilan birgalikda boshqa tuvakka o‘tqazishdir. Tuvak tagiga yangi tuproq solinib, o‘rtasiga ko‘chat o‘tqaziladi. Bunda, qolgan tuproq bo‘sh joyga solinadi. Ko‘chat qilishda esa o‘simlik ildiziga yopishib turgan uyum bir oz tozalanadi va eski tuproqni bir qismi olib tashlanadi. Yangi tuvak eskisidan 3—4 sm kattaroq bo‘lishi kerak. Ko‘chat qilishni bahorda, o‘simlik o‘sishni boshlamasdan oldin amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O‘g‘itlash. O‘simliklarning me‘yorida oziqlanishlari uchun ularni o‘g‘itlab borish zarur. Buning uchun bolalar bog‘chasi sharoitida mineral o‘g‘itlardan foydalangan ma‘qul. O‘simlik ko‘chat qilib o‘tqazilgandan so‘ng o‘sa boshlagach yoki ildiz olgach o‘g‘itlanadi. O‘g‘itlashdan bir necha soat oldin o‘simlikni yaxshilab sug‘orish lozim.

Kesish. O‘simlikning chiroyli ko‘rinishi va sershoh bo‘lishi uchun uning o‘sishini muntazam boshqarib turish lozim. Buta hosil qilish maqsadida, yon shoxchalar o‘sishi uchun asosiy shoxning uchi qirqiladi, yon shoxchalar 10—15 sm ga yetganda ularning ham uchi qirqiladi. Kesishda o‘tkir pichoqdan foydalanilib, kurtak tepasidan qirqiladi va kesilgan joyga maydalangan ko‘mir sepiladi. Yorongul, fuksiya, rozan va shu kabilar kesiladi.

Ko‘paytirish. Xona o‘simliklarini poya va barg qalamchalari, bachkilar, piyozi, butani bo‘lish, parvarish qilish va shu kabilar orqali ko‘paytirish mumkin.

Qalamchalar yordamida ko‘paytirish. Qalamchalar poya va bargdan bo‘lishi mumkin. O‘simliklarning ko‘pchiligi (radeskatsiya, begoniya, fikus, aukuba, xina, pelargoniya) poya qalam chalaridan ko‘payadi, bunda o‘sib turgan novdadan 23 bo‘g‘imli novda qirqib olinadi. Pastki kesik shunday bo‘g‘imning tagida bo‘ladi. Qalamcha suvga solib qo‘yiladi yoki tuvakka ekiladi, bunda pastki kesik qumga ko‘milib turishi kerak. Ekilgan qalamchalar usti oyna bilan yopilib, kuniga 2 marta pulverizator yordamida suv purkab turiladi. Begoniyareks, sansevyera,



uzambarg gunafshasi barg qalamchalaridan ko‘payadi. Begoniyareksning bargi (pastki tomoni) ni tomirlari tarqalgan joydan lezviya bilan kesiladi va nam qumga o‘tqaziladi. Kesilgan joylar qum bilan siqib qo‘yiladi.

Piyozdan ko‘paytirish. Amaralis, krinum, gemantus, zafirantes piyozdan ko‘payadi. Piyoz boshida kurtaklar paydo bo‘lib, ulardan piyozchalar o‘sib chiqadi. Ko‘chat qilinishda ular eski piyozboshdan ehtiyotkorlik bilan ajratilib, tuvakka ekiladi va xuddi piyozbosh singari parvarish qilinadi.

Bachkildan ko‘paytirish. Yer ustidan deyarli to‘liq shakllangan yosh o‘simliklar shaklidagi bachkilarni hosil qiluvchi o‘simliklar (toshiyorar xlorofitum) juda oson ko‘payadi. Bu bachkilar asosiy o‘simliklardan qirqib olinib, kichik tuvaklarga o‘tqaziladi.

Ildizpoyadan ko‘paytirish. Bu usuldan o‘simliklarni ko‘chat qilib ekishda foydalaniladi. Ildizpoyadagi tuproq silkitib tushiriladi va uni o‘tkir pichoq bilan har bir bo‘lakda, juda bo‘lmaganda 1—2 kurtak yoki nihol va ildiz qoladigan qilib qismlarga ajratiladi. Aspidistra, sansevyera, siperus ildizpoyadan ko‘payadi.

Xulosa shuki, tabiat burchagidagi o‘simliklarni parvarishlashga o‘rgatish orqali ularda tabiatga nisbatan mehr-muhabbatni tarbiyalaymiz va o‘simliklar olamini sir-sinoatinidan xabardor qilgan holda kelajakda bu yo‘nalishdagi kasb-hunarga yo‘naltirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova M. “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. T.: 2005.
2. Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi T-2008.



О‘QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA NUTQ MAHORATI

Qosimova Shaxnoza Kosimovna
Marg‘ilon shahar 1-umumta‘lim maktabi,
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
sadoshkarimova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘qituvchi pedagogik faoliyatida nutq mahoratining tutgan o‘rni, ona tili o‘qitish mazmuni fonetika, leksikologiya, to‘g‘ri talaffuz, so‘z tanlash va gap tuzish, fikrni to‘g‘ri, aniq ifodalash haqida bayon etilgan. O‘qituvchi o‘zbek tilining umumdidaktik prinsiplari bilan yaxshi tanish bo‘lishi, ta‘lim jarayonida unga qat‘iy amal qilishi lozim.

Kalit so‘zlar: nutq, iboralar, leksika, kommunikativlik, sinonim, antonim, paronim, dialekt, sheva.

O‘qituvchining tili hamma vaqt o‘zbek adabiy tili normalariga sodiq qoladi, adabiy tilning go‘zal va ta‘sirchanligini o‘zida saqlaydi. Adabiy til ma‘lum qo‘shimchalar, grammatik kategoriyalarni qo‘llanilishidagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo‘zbek harakatlarida bo‘ladi.

Nutqning to‘g‘riligi. Nutqning to‘g‘ri anglanishida mantig‘iy urg‘u, pauza, ohang ham alohida ahamiyatga ega. Ular bilan bog‘liq qonuniyatlar ham o‘zbek adabiy talaffuzi me‘yorlarini belgilaydi. To‘g‘rilik deganda kommu-nikativ sifat uchun grammatik to‘g‘rilik asoslarning asosidir. Grammatik to‘g‘rilik esa nutqda grammatik me‘yorlarga qat‘iy amal qilish orqali namoyon bo‘ladi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi asosan urg‘u va grammatik me‘yorga amal qilishni taqozo qiladi. So‘zlardagi ayrim bo‘g‘inlarning zarb bilan talffuz qilinishi, ya‘ni ularga urg‘uning tushishi hamma tillarda ham bir xil xususiyatga ega emas.

Nutqning aniqligi . So‘zning tildagi ma‘nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat‘iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifattir. Aniq nutq malakasining shaklla-nishida tavsiflanayotgan voqelikni bilish, tidagi so‘z ma‘nolari sistemasini yaxshi anglash, nutq mazmuniga e‘tibor bilan qarash hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Ana shunda ifoda uchun eng uyg‘un almashtirib bo‘lmaydigan aniq so‘zni topish mumkin. Nutqni aniq tuza olish uchun, eng avvalo, so‘zning leksik ma‘nosini to‘g‘ri tasavvur qilish lozim.

Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo‘lgan material o‘rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

- a) sinonimlardan o‘rinli foydalanish;
 - antonimlardan to‘g‘ri foydalanish;
 - ko‘chma ma‘noli so‘zlarni o‘rinli qo‘llash;
 - so‘z birlikmalarini to‘g‘ri qo‘llash;
 - iboralarni to‘g‘ri qo‘llash;

O‘qituvchi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o‘rinni egallaydi. Fan sifatida o‘zbek tilshunosligi ham boy atamalarga ega. Ularning bir qismi tilshunos olimlarimiz tomonidan ijod qilingan bu bir qismi boshqa tillardan to‘g‘ri yoki kalkalash (nusxa olish) orqali qabul qilingandir. XX asrda xalqaro ilmiy aloqalar nihoyatda ravnaq topdi. Ayni til hodisasi bir necha atama bilan izohlanadigan holatlar nihoyatda ko‘paydi. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma‘lum. G‘arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblanganlar. Aristotel “Agar nutq noaniq bo‘lsa, u maqsadga erishmaydi” degan bo‘lsa, Kaykovus: “Ey, farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgan, so‘zlaganda ma‘noli gapir, notiqlikning alomatidir”. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma‘noga ega ekanligini bilmasang aniqlik nutqning tenbrlarini yaxshilash, diktsiyaga e‘tibor berish, tovushlarning past baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar. “Nutqning aniqligi so‘zning narsa va hodisalardan aks etgan borliq belgilari bilan qat‘iy mos kelinishidir”, - deydi rus tilshunosi V.N.Golovin.

Nutqning mantiqiyiligi uning asosiy sifatleri – to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Notiq nutqi mantiq qoidalariga muvofiq bo‘lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- nutq aniq, ravshan bo‘lishi kerak;



- nutqda fikr (bayon) izchilligi saqlanishi kerak;
- nutq jarayonida fikriy ziddiyat bo'lmash kerak;
- fikrlar dalillangan bo'lishi mumkin fikrlar dalillangan bo'lishi kerak.

Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar ta'sir qiladi:

- Mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi.
- O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari.
- Jargonlar.
- Vulgarizmlar.
- Nutqda ortiqcha takrorlanadigan "parazit" so'zlar.

O'qituvchi o'zbek tilining umumdidaktik printsiplari bilan yaxshi tanish bo'lishi, ham yaxshi bilishi va ta'lim jarayonida unga qat'iy amal qilishi lozim.

Ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari shu tilning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Tildan o'rganiladigan bilimlarning manbai o'zbek tilshunosligi fani hi-soblanadi. Zotan, tildan beriladigan bilimlarning nazariy asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari tilshunoslik fanida batafsil bayon etilgan.

Maktabda ona tili o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda nutq madaniya-tini shallantirish bo'lib, bu o'quvchilarning o'zbek tilidan bilimlar sistemasini egal-lashlari, ularda turli nutq ko'nikmalarini hosil qilish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish bilan harakterlanadi. Grammatik bilim, ko'nikma va ijodiy faoliyat nutq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. –163 b.
2. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
3. Uzviylashtirilgan o'quv dasturi. –T.: Yangiyo'l poligraf service, 2010. – 46-68 b.



LE SYSTÈME ÉDUCATIF EN FRANCE

Qo'ziyeva Gulsara Jo'raqulovna
Professeur de 3 écoles du district
De Shafirkan de la région de Boukhara

Annotation: Les articles de la section fournissent de informations sur le système d'enseignement et de formation secondaire général en France. L'article pratique traite également des systèmes d'évaluation internationaux.

Mots clés: France, le programme PISA, éducatif, réforme, Les collèges, et pédagogique, de l'Éducation

Le système éducatif en France est centralisé et piloté par le ministère de l'éducation nationale. Depuis 2019, l'instruction est obligatoire de 3 à 16 ans ; l'instruction dite « en famille », très minoritaire, est néanmoins légale. À partir de 2020, suivre une formation entre 16 et 18 ans sera obligatoire (il pourra s'agir d'une scolarisation, d'un apprentissage, d'une insertion professionnelle ou encore d'un service civique). Il existe plus de 65 000 établissements scolaires très majoritairement publics, seuls 15 % (primaire) à 20 % (secondaire) des élèves sont dans des établissements privés principalement sous contrat avec l'État français. Les établissements dépendent presque exclusivement du ministère de l'éducation nationale (publics ou privés sous contrat), l'enseignement privé hors contrat étant un phénomène marginal en France. Les effectifs totaux d'élèves et d'étudiants atteignent 15 millions, c'est-à-dire qu'un quart de la population suit des études. En 2008, le coût de l'éducation représente 6,6 % du PIB de la France (7,6 % en 1995), dont 54,1 % dépendent du ministère de l'Éducation nationale (contre 61 % en 1980). Le système éducatif en France est centralisé et piloté par le ministère de l'éducation nationale. Depuis 2019, l'instruction est obligatoire de 3 à 16 ans ; l'instruction dite « en famille », très minoritaire, est néanmoins légale. À partir de 2020, suivre une formation entre 16 et 18 ans sera obligatoire (il pourra s'agir d'une scolarisation, d'un apprentissage, d'une insertion professionnelle ou encore d'un service civique). Il existe plus de 65 000 établissements scolaires très majoritairement publics, seuls 15 % (primaire) à 20 % (secondaire) des élèves sont dans des établissements privés principalement sous contrat avec l'État français. Les établissements dépendent presque exclusivement du ministère de l'Éducation nationale (publics ou privés sous contrat), l'enseignement privé hors contrat étant un phénomène marginal en France. Les effectifs totaux d'élèves et d'étudiants atteignent 15 millions, c'est-à-dire qu'un quart de la population suit des études. En 2008, le coût de l'éducation représente 6,6 % du PIB de la France (7,6 % en 1995)^[1], dont 54,1 % dépendent du ministère de l'Éducation nationale (contre 61 % en 1980).

Selon le programme PISA de comparaison des systèmes éducatifs nationaux, les résultats du système éducatif français sont dans la moyenne de ceux des États membres de l'OCDE avec une influence de l'origine sociale des élèves plus fortement marquée. En 2008, selon l'Insee, 69 % des français possèdent un diplôme égal ou inférieur au bac et 20 % sont titulaires d'un diplôme supérieur au baccalauréat. En 2014, une étude menée par le Ministère de l'éducation sur des cohortes d'élèves montre que le niveau en français et en mathématiques des élèves est en baisse par rapport à 1999. L'origine sociale des élèves influe considérablement sur leurs résultats scolaires. En CE2, les élèves issus du quart le plus pauvre obtiennent en 2019 une note moyenne de 57 sur 100 en français et 58 en math, contre respectivement 87 et 85 pour le quart issu des milieux les plus privilégiés. Les inégalités s'accroissent après le collège avec un taux d'accès en seconde générale ou technologique 2 fois plus élevé pour les élèves issus de milieux favorisés que pour les autres. Dans le supérieur, les enfants de cadres supérieurs sont 2,9 fois plus nombreux parmi les étudiants que ceux issus de la classe ouvrière.

Les collèges et lycées publics jouissent du statut d'établissement public local d'enseignement (EPLE). Leur conseil d'administration est responsable de leur budget, dont le chef d'établissement est l'ordonnateur, et sous le contrôle financier de l'agent comptable. Comme il s'agit de deux fonctionnaires d'État choisis par le ministre de l'Éducation nationale (le chef d'établissement étant son représentant dans l'établissement), qu'ils n'ont quasiment aucune prise sur les nominations (et plus généralement la gestion : avancement, promotion, etc.) du personnel qui sera affecté dans l'établissement, et que leur budget propre est (sauf exception) anecdotique, l'autonomie des



EPLE est toute relative. Les collectivités leur votent annuellement une dotation de fonctionnement et prennent en charge certains investissements ; en outre, elles prennent en charge directement les salaires du personnel non enseignant. L'État prend, lui, en charge directement les salaires du personnel enseignant et de direction. Les communes, départements ou régions peuvent organiser dans les établissements scolaires, pendant leurs heures d'ouverture et avec l'accord des conseils et autorités responsables de leur fonctionnement, des activités éducatives, sportives et culturelles complémentaires. Ces activités sont facultatives et ne peuvent se substituer ni porter atteinte aux activités d'enseignement et de formation fixées par l'État. Les communes, départements et régions en supportent la charge financière. Des agents de l'État, dont la rémunération leur incombe, peuvent être mis à leur disposition. Les lois de décentralisation de 2003 ont transféré le recrutement, la rémunération et la gestion de carrière du personnel technique et ouvrier des collèges et lycées aux collectivités territoriales, l'État transférant les fonds nécessaires à ces nouvelles responsabilités. Les personnels de cette catégorie exerçant dans les services administratifs (Administration centrale, rectorats...) et l'enseignement supérieur restent sous la tutelle de l'État.

Les compétences de l'État en matière d'éducation sont principalement exercées par le ministère de l'Éducation nationale, de l'Enseignement supérieur et de la Recherche . Le ministère de l'Éducation nationale, de l'Enseignement supérieur et de la Recherche assume également un certain nombre d'autres compétences, tels l'attribution de bourses, l'action sociale et sanitaire en milieu scolaire et universitaire... L'État reste également propriétaire des universités et des établissements d'enseignement supérieur et abonde la plus grande partie de leur budget matériel (constructions, rénovations, fournitures...) et pédagogique (bibliothèques ...). Les personnels universitaires, tant enseignants qu'ingénieurs, administratifs et ouvriers, relèvent également de l'Éducation nationale qui les rémunère sur son propre budget. Toutefois, les collectivités territoriales peuvent participer au financement et à la vie des établissements universitaires.

Liste de littératures

1. ↑ Voir graphique : évaluation de la dépense intérieure d'éducation et de sa part sur le PIB. sur le site de Libération, consulté le 31 mars 2010.
2. ↑ voir Graphique : comparaison de la structure du financement initial de la DIE en 1998 et 2008. sur le site de Libération, consulté le 31 mars 2010.
3. ↑ a et b Résultats de la France aux tests PISA 2012 [PDF] OCDE, France, PISA 2012 : faits marquants.
4. ↑ Niveau général de formation selon l'âge sur le site de l'Insee, consulté le 31 mars 2010.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Qurtova Nilufar
Buxoro viloyat Olot tuman
7-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
997033503

Anotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, “Sinkveyn” metodi, rasmlı topshiriqlar.

Ma’lumki, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, o‘quvchilarga chuqur bilim berish boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir.

Interaktiv metodlar - o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyati bo‘lib, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo‘llashga o‘rgatadi. O‘qituvchining asosiy vazifasi esa, o‘quvchilarga aniq yo‘nalish berish, to‘g‘ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o‘qituvchi o‘quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to‘g‘ri xulosani aytadi, natijada o‘quvchi o‘z xatosini tushunib, fikrlashdan to‘xtamaydi va ular o‘rtasidagi doimiy faollik ta’minlanadi. Ma’lumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo‘lib, 1-sinf o‘quvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o‘quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O‘quvchilarga rasmlı topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og‘zaki nutqini o‘stirib, lug‘at boyligini oshiradi. Interfaol ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media – ta’lim metodlaridan iborat. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Agar o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta’minlagan bo‘lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalastirgan ta’lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta’lim jarayonlarini didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritimiz: Interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o‘yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda.



Dars mashgʻulotlarida oʻyin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. Oʻyin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf oʻquvchilarining oʻyin-topshiriqlarni bajarishga oʻrgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, oʻrganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bogʻliq boʻlishi kerak.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, boshlangʻich sinflarda interfaol metodlarda oʻqitish dars taʼlim tizimini rivojlantirishda yaxshi hissa qoʻshadi va oʻquvchining oʻzlashtirish qobiliyatini bir necha bor oshiradi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Gʻafforova T., Shodmonova E., Eshturdiyeva T. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. Qosimova K, Fuzailov S, Neʼmatova A. Ona tili.
2. <https://moluch.ru/archive/294/66754/>



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Quryazova Muqaddam Muxtarovna
Xonqa tumani 19-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (99) 964 22 46
mm_quryazova99@umail.uz

Radjabova Ug‘iljon Davlatovna
Xonqa tumani 19-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (99) 942 96 92
radjabova_u@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” “O‘zim tekshiraman”, “Bo‘lishi mumkin emas”, “Ortiqchasini top”, “Juftini top” metodlari.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarda o‘z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda ta‘lim oluvchi-yoshlarning ijodiy g‘oyalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta‘limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishi belgilandi.

Darhaqiqat, boshlang‘ich ta‘limda bola shaxsining aqli, dunyoqarashi, savodxonligi, mantiqiy tafakkuri, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, o‘qish darslarida bola borliq, atrof-muhit bilan tanishadi, yaxshini yomondan ajratishni anglaydi, vatan tuyg‘usini his qiladi. Ko‘rganini va o‘qiganini qayta hikoyalash ko‘nikmasi shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziquvchanligi va bilishga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda pedagogik va axborot texnologiyalaridan darslarda samarali foydalanish bugungi kun pedagoglaridan zamon bilan hamnafas bo‘lishni talab qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarni darsdagi faolligiga erishiladi, dars mazmuni o‘quvchilarga tushunarli tilda bayon etiladi.

Bu borada “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” singari metodlar bilan bir qatorda “O‘zim tekshiraman”, “Bo‘lishi mumkin emas”, “Ortiqchasini top”, “Juftini top” singari didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” metodlarida boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan barcha o‘quv fanlarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanilganida juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash mumkin.

Savod o‘rgatish darslarida “Ortiqchasini top” didaktik o‘yinini qo‘llash orqali sinf o‘quvchilarining eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Ushbu didaktik o‘yinni tayyorgarlik davrida rasmlar yoki tayyor predmet va o‘yinchoqlar asosida tashkil qilinganida ham yaxshi natijalar qo‘lga kiritiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘qitish tamoyillaridan biri sanalmish ta‘lim-tarbiyaning ko‘rgazmalilik tamoyili asosida darslarni tashkil qilishga harakat qiladi. Bunda talab asosida ko‘rgazmalilik aniq predmet va narsalarni kuzatish va ko‘rsatish orqali;

Mavjud predmetlar va narsalarning modeli va nusxasidan foydalanish orqali;

Hodisaning tasviri, rasm, jadval yoki xaritalarni ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi ushbu tamoyilni amalga oshirishda multimediyaviy vositalaridan foydalanishi mumkin. O‘tilayotgan mavzuni bola tasavvurida yaqqol hosil qilish va ta‘lim sifatini oshirishda multimediyaviy vositalari



orqali namoyish qilishning ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni avtomatlashtirish (axborotlashtirish) yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish murnkin:

a) ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirishning yetakchi bo'g'inligini ta'minlash;

b) barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni riyojlantirishni loyihalash va yaratish (monitoring), resurs markaz tizimi;

d) axborotlashtirish sohalarida me'yoriy bazalarni yaratish (metodlar, ilmiy-metodik birlashmalar va h.k.);

e) texnik ta'minotni – kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari (fotoapparat, kamera), ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;

f) telekommunikatsiya (havo orqali, yerning sun'iy yo'ldoshlari va boshqa aloqa kanallari) tarmoqlari;

g) ta'minot resurslari (dasturiy ta'minot, internetdagi axborotlar majmui, ma'lumotnomalar va h.k.).

Boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kun ta'lim jarayoninig muhim vazifasi hisoblanadi.

Ayniqsa tabiatshunoslik darslarida televideniya orqali berib boriladigan ilmiy-ommabob filmlar, audio-video texnikasi vositalari orqali beriladigan o'quv materiallari, kompyuter va internet materillaridan foydalanish mumkin.

Hozirda boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchilari darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan birga axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalangan holda tashkil etish orqali oquvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustaxkamlash ma'suliyati yuklanadi.

Kompyuter orqali darslarni tashkil etish uchun fan o'qituvchilari avvalo kompyuterda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Har xil ko'rinishdagi darslarni tashkil qilish asnosida vizual informatsiyalarga yuqori darajada talabgor bo'lgan o'quvchilarning xohishi amalga oshadi, mashg'ulot zerikarli ko'rinishdan mazmunan boy va ta'sirchan darsga aylanadi, ko'rgazmalilikning amalga oshishi natijasida diqqat va yangi mavzuning xotirada uzoq muddatga saqlanib qolishi ta'minlanadi. Darsni mazmunli o'tishiga tayyorgarlik ko'rilishi natijasida esa, o'qituvchining ijodkorligi va zamonaviy bilimlarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009.

2. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari . - T.: 2008.

3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

4. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat . –T.: TDPU, 2005.

5. Begimkulov U.Sh., Djurayev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboyev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot, Toshkent: – 2011.



МАКТАБДА МА'NAVIY-МА'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Raimov Baxtiyor
Navoiy viloyati Nurota tumani
32-maktab MMIBDO

Annatsiya: Ushbu maqolamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha director o'rinbosarining pedagogik shart-sharoitlari va vazifalari yozilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, o'quvchi, o'quvchi, sinf rahbar

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish –ma'rifat va madaniyat borasida olib borilayotgan islohotlarni mustahkamlashda asosiy omillaridan biri sanaladi. Ma'naviyatsiz, ma'rifatsiz jamiyat rivojlana olmaydi.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz azal-azaldan inson tarbiyasi masalalariga jiddiy e'tibor berib kelishgan va bu an'ana avloddan –avlodga ko'chib, takomillashib, yangicha usullar evaziga boyib brogan. Zotan, inson ma'naviyati tarbiyaga bog'liq. Tarbiyasiz ma'naviyat poydevorsiz binoga o'xshab omonatlik kasb etadiki, bu holni sharxlab, izohlab o'tirishning hajati yo'q.

Umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning asosiy sub'ekti-ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha director o'rinbosaridir.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosariga qator funksional huquqlar qo'yilgan.

Bunga birinchi navbatda sinf rahbarining ma'naviy -ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar director o'rinbosari bilan doimo birga ish olib boradilar.

Sinf rahbari deganda o'quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog sinf rahbari deb ataladi. Sinf rahbarining asosiy maqsadi, o'quvchilarni tog'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olishi va sinf rahbari tomonidan o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishi kerak.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib umumiy xulosalarga kelish mumkin:

Jamiyat ma'naviyati-ijtimoiy tarbiya mahsulidir. Shu sababli ma'naviy tarbiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqish jamiyat ma'naviy yangilanishining strategic yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ma'naviyva ma'rifiy ishlar yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarning muayyan majmui xalqimizning tarixi, urf-odatlarini, rasm-rusumlari asosida tayyorlanib, o'quvchi-yoshlarda milliy qadriyatlarimizga hurmat uyg'otish ruhida o'tkazilishi muhimdir. Shuni ham aytish kerakki bunda milliy o'ziga xoslikka haddan tashqari e'tiborni qaratish, boshqa millatlarning an'analari, urf-odatlarini ozgina bo'lsa-da kamsitish, behurmat qilish kabilarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Milliy qadriyatlar bo'yicha tayyorlanadigan tadbirlar umuminsoniy qadriyatlar bag'rida, u bilan ichki, uzviy aloqadorlik tarzida o'tkazilishi lozim.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bolalarni ijodkorlikka da'vat yetuvchi tarbiyaviy maskandir. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi sharoitda maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi maktab tarbiyasining uzviy davomchisi bo'lib qolishi kerak.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni ko'ngildagiday olib borishda o'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalashda oila va mahalla hamkorlikda ish olib borishi lozim. Chunki, kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, tahlil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarosi bo'lishlari lozim.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1. Yusupov.E "Inson kamolotining ma'naviy asoslari" T, 1998-y



VATAN RAVNAQI G'ŌYASINI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH VAZIFALARI

*Rajabova Surayyo Madaminovna
Urganch tumani 48 – son maktabning
tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Xalq farovonligi yo'lida fuqarolarning burch va vazifalariga to'xtalib o'tilgan. Bugungi kunda farovon turmush asosi - erkinlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlikdir. bu hakikatni odamlar ongiga singdirish, keng axoli katlamlarining isloxotlar moxiyati aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xalq faravonligi, jamiyat, vatan, maqsad, harakat, erkinlik

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlarning oliy maqsadi xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi - ijtimoiy yunaltilgan bozor iqtisodiyotidir. Bugungi dunyodagi ko'p mamlakatlar aynan shu yo'l bilan taraqqiy etib, o'z xalqining farovonligini ta'minlashda o'rnak bulmoqda. O'zbekiston ham xuddi shunday oqilona yo'lni tanladi. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan isloxotlar shunchaki isloxot uchun emas, aynan inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qiladi. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan har qanday yangilanish, o'zgarishning moxiyatida ana shunday ezgu maqsad yotgani barchamizga gayrat-shijoat baxsh etadi. Sobiq shuro tuzumi odamlar ongiga barcha falokatlarning sababi - xususiy mulkdadir, degan g'oyani singdirib, soxta tenglikni qaror toptirmoqchi edi. Oqibatda ishlamagan odam ishlagan odamdan yaxshiroq yashay boshlagan edi. Xatto sovet kishisining o'zi ham davlat mashinasining muruvatiga aylantirilgan edi. Mexnatga haq to'lashdagi adolasizlik boqimandalik kayfiyatini, ishlab chiqarishdagi isrofgarchilikni, ta'magirchilikni kuchaytirdi. Afsuski, o'sha davrdan meros bo'lib kelayotgan «Davlat bor, xammani boqadi» degan kayfiyat ayrim kishilar ongida hanuzgacha yashab kelmoqda. Bugun ham ma'lum kishilar ish axtarish, o'z aravasini o'zi tortish, yangi kasb egallash urniga turli idoralardan moddiy yordam surash bilan ovora, xolbuki, davlat xammaga tekin mol ulashadigan korxonalar emas buni anglab etmaganlar «bersang - eyman, ursang o'laman» kabilida loqaydlik bilan xanuz xarakat qilish o'rniga bir chetda tomoshabin bo'lib turibdi. Odatda mustabid tuzumlar xalq farovonligidan, uning boyib ketishidan manfaatdor bo'lmaydi. Sovet tuzumi ham ommani sun'iy ravishda turmush tashvishlariga botirgan edi. Xaqiqatan ham, kun ko'rish mashaqqatidan boshi chiqmagan xalk ob'ektiv narsalar xususida o'ylashga, fikrlashga imkon topolmay qoladi. Sho'rolar ham shu tariqa o'zlari yuritgan siyosatni tanqid qilishga qodir ijtimoiy-siyosiy oqimlar- paydo bo'lishining oldini olishga uringan. Lekin eski tuzumning barcha urinishlari bekor ketdi, u oxir-oqibatda o'z o'zini eb tugatdi. Turt muchasi but, ongli, aqlli va faol odamning kambag'al yashashi uyat sanaladigan davr kelganini xali xamma xam anglab olgani yo'q.

Xalqimizda «besh ko'l barobar emas» degan ajoyib naql bor. Lekin sobiq tuzum besh qo'lni barobar qilish shiori bilan yashadi. Bozor iqtisodiyoti jamiyatda ma'lum ma'nodagi tabaqalanishga olib kelishi tabiiy. Shu bilan birga, biz barpo etayotgan jamiyatda davlat xalqning keskin tabaqalanishiga - oshib-toshib ketgan boylaru kambag'al kashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rib, bu borada o'ziga xos kuchli ijtimoiy siyosat yuritmoqda. Axolining eng kam ximoyalangan va muxtoj tabakalarini o'z vaqtida kullab-kuvvatlash xalk farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan isloxotlar muvaffakiyati kafolatidir. Ijtimoiy ximoya choralari axolining xammasiga emas, balki ko'proq xaqiqiy muxtoj va extiyojmand qatlamlarga yo'naltirilmoqda. Bu borada davlat manbalari bilan bir qatorda mexnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari xamda jamgarmalarning mablag'lari ham ishga solinmoqda. «Sendan - xarakat, mendan barakat» degan dono naql bejiz aytilmagan. Ya'ni bu dunyoda ko'p narsa insonning o'ziga, uning sa'y-xarakatlariga ham bog'liq.

Bugungi kunda farovon turmush asosi - erkinlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlikdir, bu xaqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng axoli qatlamlarining isloxotlar moxiyatini anglab etishiga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishmog'imiz darkor. Buning uchun esa ularning dunyoqarashini, xayotga, mexnatga, yerga munosabatini tubdan o'zgartirish muxim axamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot o'tgan tuzumda ayrim mutaxassislarining ishi bo'lsa, bugun umumxalq, umumjamiyatning manfaatiga daxldor masala bo'lib qoldi. Butun xalq yangi iqtisodiy tafakkur bilan qurollanmoqda. Bizning mulkka, mexnatga munosabatimiz tubdan o'zgara boshladi.



Miyamizga singib kolgan «davlat mulki» degan tushuncha yoniga bugun xususiy mulk, shirkat, fermer, oila pudrati degan yangi tushunchalar qushildi. Mamlakatimizda istiqlol yillarida o‘ta markazlashgan va yakka-xokimlik asosiga qurilgan, o‘zini oqlamagan tizimga barxam berildi. Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi uchun konstitusiyaviy, xuquqiy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi. Mulkdorlar sinfini shakllantirish, ularning xuquqini mustaxkamlash, nufuzini oshirish va kafolatlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, odamlarda mulkka egalik xissini tarbiyalash, kichik va o‘rta korxonalarini izchil rivojlantirish, axoli farovonligi va daromadlarining ortishida, ishsizlik muammosini echishda muxim axamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda xalqimizda mulkka egalik xissini shakllantirish, uning xo‘jalik yuritishning zamonaviy usullarini o‘zlashtirishga erishish, unda o‘z kuchiga ishonch tuyg‘ularini kamol toptirish milliy islohotlarning eng ustuvor vazifalaridan biridir.

Tabiiy boyliklar, yer resurslari, mamlakat iqtisodiy salohiyati xar bir fuqaroning extiyojlarini qondirish, o‘zligini namoyon etish va bunyodkorlik qobiliyatini ruyobga chiqarishning asosiy omillaridir. Qozoq og‘li Abay «O‘zbeklar etishtirmaydigan va mo‘l xosil olmaydigan ekinning o‘zi yuq, er yuzida O‘zbek savdogarining oyogi etmagan joy yuq, O‘zbeklar uddalay olmaydigan ishning o‘zi yuq... o‘tkir zexn, mahorat, abjirlik va tadbirkorlik - bularning xammasi O‘zbeklarga xos xususiyatdir» deganida juda to‘g‘ri tariff bergan. Mexnatkash, mirishkor, ishning ko‘zini biladigan O‘zbekiston xalqi o‘z turmushini o‘z qo‘li bilan farovon qilishga qodir. Xar qaysi inson va oila badavlat bulsa, jamiyat va davlat xam kuchli va qudratli bo‘ladi, degan xaqiqatga asoslangan bugungi iqtisodiy islohotlarimiz yaqin kelajakda, albatta, o‘z mevasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy g‘oyani xalqimiz ongiga ngdirish omillari va votalari. -T.: 2002
2. To‘raev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g‘oya. —T.: Ma‘naviyat, 2008




МАКТАБДА ТАРИХ ДАРSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Raxmonova Farida Umataliyevna
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
Xalq ta’limi bo’limi ijtimoiy fanlar metodisti
Raxmonova_XTB@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda tarix darslarida o’quvchilarni fanga bo’lgan qiziqishlarini oshirish uchun qo’llaniladigan metodlar haqida so’z yuritimiz.

Kalit so’zlar: zamonaviy pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, mozaika uslubi, eyler ven diagrammalari..

Bugungi kunda tarix fanini o’qitishda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o’ynaydi. Bu metodlardan foydalanishda o’qituvchilar quyidagi jihatlarga e’tiborlarini qaratishlari lozim: O’quvchining yoshi, o’quvchilarning dunyoqarashi, ularning fikrlash doiralari.... bu faktorlar e’tiborga olinmasa o’quvchilarda qo’llanilgan interfaol metodlar yoki pedagogic texnologiyalar aks natija berishi mumkun. Ba’zi metodlardan qanday va qay vaqtda foydalanish hususida so’z yuritib o’taylik: “VENN DIAGRAMMASI” bu metod o’quvchilarni bilimlarini qiyoslash orqali oshirishga va fikrlashga yo’naltiradi. Bu metodni bir-biriga bog’liq bo’lgan bir nechta mavzuni o’tgandan so’ng qo’llash juda yahshi samara beradi. Masalan Buxoro, Xiva va Qo’qon xonliklari mavzularini o’tilgandan so’ng ushbu metodni qo’llash o’quvchilarda olingan bilimlarni yaxshi o’zlashtirilishiga va oldin olingan bilimlarni qayta eslashga majbur qiladi.



Diagramada topshiriqda o’rta osiyoda uchta xonlikning davlat boshqaruvlari haqida yozish kerak. Bunda o’quvchilar, ushbu uchta xonlik haqida ma’lumotlarga ega bo’lishlari talab qilinadi. Diagrammalar kesishgan nuqtalarda o’quvchilar bu xonliklardagi boshqaruvdagi bir hilliklarni yozib chiqishlari kerak bo’ladi. Uchta aylana kesishgan nuqtada esa uchala xonlik uchun ham umumiy bo’lgan boshqaruv tizimi joylashadi. Bu metodning eng foydali jihati o’quvchilarda umumiy hulosa chiqarish hususiyatini shakllantiradi. Bu metodni turli hil mavzularga qo’llash mumkun. Etibor beriladigan jihati o’quvchilarni yoshini hisobga olish. Bu metod o’quvchilarni bilimini oshiradi. Bundan ko’rinib turibdi o’quvchi tarix faniga qiziqadi. Agar o’quvchilar tarix faniga qiziqmasa ularni qiziqtirish uchun boshqa metodlarni qo’llash kerak bo’ladi. Ko’plab o’qituvchilar tommonidan keng qo’llaniladigan mozaika metodi o’quvchilarni fikrini mavzuga qaratishga yordam beradi va ularni mustaqil ravishda ishlashlariga yordam beradi. Bu metodning asosi mavzuga doir rasmlar olinadi va bu rasmlar listga chiqarilgan holatda bo’laklarga bo’linadi. O’quvchilar bu bo’laklardan yaxlit holdagi rasmni tiklashlari lozim. Bu metodni qo’llash orqali o’quvchi o’zi yig’ib chiqqan rasm haqida ma’lumot izlashidir. Bu orqali mavzuga o’quvchilarni etiborini jalb qilib olish ancha osonroq bo’ladi. Bu metoddan o’rta yoshli o’quvchilarni darsga va mavzuga qiziqtirish maqsadida foydalanish mumkun. Navbatdagi metod o’quvchilardan kerakli atamalarni qay darajada o’zlashtirganliklarini va mantiqiy taxliliy fikrlashlarini tekshirish imkonini beradi. Bu metod interfaol metod hisoblanib ortiqchasini top deb ataladi. bu metodda bir nechta so’zlar ro’yhati beriladi. Bu metoddan ko’zda tutilgan maqsad o’quvchini bir nechta



mavzularni qay darajada o'zlashtirganligini tekshirish hisoblanadi. Bu metodda ham o'qituvchi etibor beradigan jihat o'quvchilarning yoshi va fanga bo'lgan qiziqishlari hisobga olinishi kerak bo'ladi. Bu metod ortiqchasini top deb ataladi. Bu metodda bir nechta atamalar berilib shular ichidan ortiqcha bo'lgan so'zni topish talab qilinadi. Masalan: paleolit, mezolit, neolit, eneolit, nefrit qaysi so'z ortiqcha ekanligini toppish kerak. Bu joyda davrlar oralig'I berilgan va nefrit so'zi ortiqcha hisoblanadi. Metodning qulayligi bu topshiriqdan keyin bu davrlarni tartib bilan joylash so'ralishi mumkin. Bu bilan o'quvchilarni bilimlarini yanada mustahkamlash ko'zda tutiladi.

O'qituvchilarga tavsiya: u yoki bu metodni qo'llanilganda eng avvalo auditoriya kayfiyatini hisobga olish lozim. Metodlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni katta qismini mavzuga jalb qilish va ularning tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdan iborat. **Fanlarni o'tishda milliy g'urur tushunchasini shakllantirish:** bu nafaqat tarix fanini balki barcha fanlarni o'qitishda etibor berilishi lozim bo'lgan jihat hisoblanadi. Shakllantirish qay tarzda amalga oshirish pedagoglarning tajribasi va bilimiga bog'liq. Tavsiya sifatida o'rta sinflarda ajdodlarimizning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini aytish orqali, yuqori sinflarda ajdodlarimizning ilm-fan yo'nalishidagi izlanishlarini hozirgi ilm fan bilan solishtirgan holda amalga oshirishni aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
2. Tarix fanini o'qitish metodikasidan ma'ruzalar to'plami. NamDu 2007
3. I. Yo'ldashev, I. Kamolov Tarix darslarida interfaol metodlar. QDPI
4. Tarix fanidan ma'ruzalar to'plami. Toshkent 2019
5. Tarix fanini o'qitish metodikalari Moskva 2003 (rus tilida nauka nashriyoti)



О‘QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI

Ro‘zmetova Farida Shuxratovna
Xiva tumani 16-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (97) 362 26 86
farida.shuxratovna9797@mail.ru

Ro‘zmetov Farxod Madirimovich
Xonqa tumani 19-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (97) 602 35 80
f_madirimovich@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limning zamonaviy o‘qitish shakllari va ularni amalga oshirish usullari, yakka, guruh va ommaviy tarzda tashkil etiladigan o‘qitish shakllari va avzalliklari.

Kalit so‘zlar: Ta‘limning ommaviy shakli, differensiyalashgan-guruhli ta‘lim shakli, Individual ta‘lim, zamonaviy ta‘lim, jamoaviy ishlash, individual-psixologik, tanqidiy fikrlashni, aqliy operatsiyalar

Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo‘llarini izlashda darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan – ommaviy, guruhli va individual.

Ta‘limning ommaviy shakli sinfdagi jami o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko‘zda tutadi. Guruhli shaklida esa o‘quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Individual shakli har bir o‘quvchining alohida mustaqil ishlashini ko‘zda tutadi.

Birlashtirish-guruhli shaklida sinfni odatda katta umumiy topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlariga ajratishni ko‘zda tutadi.

Differensiyalashgan-guruhli ta‘lim shakli doimiy guruhlar ham, bir xildagi o‘quv imkoniyatlariga ega va o‘quv ko‘nikmalari bir xil darajada shakllangan o‘quvchilarni birlashtirishini ko‘zda tutadi. Guruhli shakllariga o‘quvchilarning juft bo‘lib ishlashlari ham kiritiladi. O‘quv guruhlari faoliyatlarini o‘qituvchi o‘zi bevosita hamda o‘z yordamchilari – o‘quvchilar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadalar orqali boshqaradi.

Individual ta‘lim o‘quvchilarning boshqa o‘quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko‘zda tutmaydi. O‘z mohiyatiga ko‘ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasa-da, biroq o‘quvchi o‘zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo‘lida maxsus tayyorlangan kartochnalardan foydalanish mumkin.

Darsda o‘qituvchiining e‘tibori bir necha o‘quvchiga qaratilsa, bu vaqtda qolgan o‘quvchilar mustaqil ishlalalar ta‘limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi.

Zamonaviy ta‘lim amaliyotida ko‘proq ikki tashkiliy shakl: ommaviy va individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtda guruhli va juftli o‘qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi.

Ta‘limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasa-da, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta‘lim deb ko‘rsatishga harakat qiladilar.

Jamoaviy ishlash faqatgina differensiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O‘quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o‘qituvchi va o‘quvchilarning dinamik yoki o‘zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish kelajakda yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish, erkin fikr bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning ilmiy bilim darajasini va faolligini kengaytirishni, ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Masalan, erishilgan natijani o‘lchash me‘yori (baholash usuli) – guruhlariga bo‘lingan holda «Go‘zal fazilat - inson husni», «Bobur va kabutar», «Kamtarinlik hakida», «Navro‘z - bahor



bayrami» mavzulariga oid ogʻzaki esse tuzish; berilgan vaqt doirasida testlar toʻplamini bajarish: mashgʻulot davomida berilgan savollarga javob berish.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish «Oʻqish», «Matematika». «Ona tili», «Tevarakdagi olam», «Odobnoma», «Tabiatshunoslik», «Konstitutsiya saboqlari» va boshqa darslarda amalga oshiriladi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda taʼlimning ilk boskichidan boshlab, tarbiyaning yangi omili - oʻz-oʻzini tarbiyalash vujudga keladi. Bolalar oʻzlarida ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish, xulq-atvoridagi kamchiliklarga, salbiy illat va sifatarga barham berish sohasida ongli ravishda yondashish xislatlarini tarkib toptirishlari lozim. Bunda oʻz ustida muntazam ravishda ishlash «... odamning yuksak darajada oʻz-oʻzini idora qiluvchi, oʻz-oʻzini kamol toptiruvchi birdan-bir tizimdir», - degan edi L.I.Bojovich.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi pedagogik-psixologik omillarni inobatga olish zarur:

- individual-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va shu asosda didaktik topshiriklardan optimal ravishda foydalanish;

- tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yoʻnaltirilgan didaktik taʼminotlarni tuzish va amalga tatbiq qilish;

- oʻquvchilarda oʻqish koʻnikmasini, aqliy operatsiyalar: analiz, sintez kabilarni tarkib toptirish;

- tanqidiy fikrlashni shakllantirish orqali ijtimoiy hayot sohalarida faol ishtirokchi sifatida kobilyatini namoyon qilishga zamin yaratish lozim;

- zamonaviy taʼlim berishda asosiy urgʻu oʻquvchilarning tanqidiy fikrlashlarini shakllantiradigan oʻquv materiallarni tanlashga ham qaratilishi lozim boʻlsa, oʻqitish jarayonida innovatsion metodlarni toʻgʻri tanlay olishni talab qiladi. Amaldagi dasturlar boʻyicha tuzilgan darsliklar va oʻquv qoʻllanmalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan topshiriklar keltirilgan, ammo ularning barchasi ham ularning mohiyatini aniq aks ettirmaydi.

Oʻquvchilarning eng muhim psixologik xislatlarining alohida ahamiyatga ega ekanligini inobatga olish, chunki tanqidiy fikrlash akliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida ijtimoiy-axloqiy sohada oʻz ifodasini topishi muqarrardir. Oʻquvchilar orasida qulay tashkil kilingan faoliyatgina ularning sinf, maktab jamoasi va oila aʼzolari oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlarini barqarorlashtiradi. Oʻquvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida ularda oʻz shaxsiy hayotiga maqsadli yondashuv hissini uygʻotish.

Shunday qilib, oʻquvchilarda mustaqil qaror chiqara olish, shaxsiy pozitsiya va bunyodkor gʻoyaga ega boʻlishlik kabi xislatlarni oʻstirishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik uzviylikini inobatga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Blum B. Taksonomiya.-Chikago, 1989. 43-s.
2. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Universitet, 2000.65-bet.
3. Mutalipova M., Imomov M. Taʼlimda ilgʻor xorijiy tajribalar moduli boʻyicha oʻquv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017



STEAM – YONDASHUVINING O‘ZIGA XOSLIGI

Rozzokova Rayxonoy Matyakubovna
Xonqa tumani 19-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (93) 922 04 04
rm_rayxonoy@inbox.uz

Sa’dullayeva Go‘zal Amankeldiyevna
Xiva shaxar 1-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (93) 425 20 97
sadullayeva_go‘zal11@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM dasturining mazmun-mohiyati hamda, STEAM yondashuvi asosida maktablarda darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish yuzasidan ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M – matematika, Ijodiy fikrlash, Muhandislik yondashuv, Tanqidiy fikrlash, Dizayn asoslarini.

Bugungi kunda STEAM-ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunad ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashadi.

STEAM yondashuvi tufayli o‘quvchilar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, o‘quvchilar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

STEAM(S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M - matematika) ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi

Muammolarni keng qamrovli tushunish

Ijodiy fikrlash

Muhandislik yondashuv

Tanqidiy fikrlash

Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash

Dizayn asoslarini tushunish

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi.

O‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda o‘quvchilar o‘z qo‘llari bilan yaratgan ko‘prik va yo‘llar, samolyotlar va avtomobillarni “ishga tushirib”, suv osti va havo tuzilmalarini”rivojlantirib”, sinovdan o‘tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan “mahsulot”ni qayta-qayta sinovdan o‘tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o‘zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g‘alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g‘alaba, o‘zlarining qobiliyatlariga ko‘proq ishonch uyg‘otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo‘rqmaslikka o‘rganadilar. Ko‘pincha, stol atrofida o‘tirmaydi, o‘zlarining dizaynlari asosidagi “mahsulot”larni sinovdan o‘tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta’minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do‘stlari bilan muloqot qilish bilan band bo‘lishadi.

Texnik fanlar bo‘yicha qiziqishlarni rivojlantirish. STEAM ta’limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo‘yicha, qilgan ishni yaxshi ko‘rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo‘lib, bolalarning zerikishlariga to‘sqinlik qiladi. Ular vaqt o‘tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamaydilar.

STEAM yondashuvi asosida maktablarda darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini ijobiy tashkil etish, o‘quv fanlariga bo‘lgan



qiziqishlarini orttirish, kasbga yo‘naltirish, o‘zlashtirishlariga ijobiy ta’sir etadi.

Ta’limda bu yangi yondashuv qanday paydo bo‘ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba’zi maktablar o‘zlarining bitiruvchilarining kareralarini rivojlantirishga e’tibor berishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi, shuning uchun STEM tashkil etildi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik unga san’at qo‘shildi va STEAM tashkil etildi. O‘qituvchilar, bu fanlarni yoki bu fanlarga oid bilimlarga ega bo‘lish, maktab o‘quvchilarini kelajakda yuqori malakali mutaxassislar bo‘lishiga yordam beradi deb hisoblaydilar. Natijada o‘quvchilar yaxshi bilim egallash va bilimlarini qo‘llashga harakat qiladilar.

G‘oyalar haqiqatga aylanadi. Agar biz an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bu bilimlarni o‘rgatish va ishlatish bo‘lsa, demak, STEAM yondashuvi olingan bilimlarni haqiqiy hayotga mahorat bilan qo‘llashni o‘rgatishdir. Bu maktab o‘quvchilariga faqatgina ba’zi g‘oyalarga ega bo‘lishni emas, balki ularni haqiqatda ishlatish va amalga oshirish imkonini beradi. Haqiqatda ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilimlar haqiqatda qimmatlidir.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusetts Texnologiyalar Instituti (MIT). Bu mashhur universitetining shiori “Mind and hand” – “Aql va qo‘l” dir. Massachusetts Texnologiya instituti STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba’zi o‘quv yurtlarida STEAM ta’lim markazlari yaratildi.

STEAM yondashuvi o‘rganish va ta’limga bo‘lgan munosabatimizni o‘zgartiradi

O‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarga e’tibor qaratish orqali irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Ushbu ko‘nikmalar va bilimlar asosiy ta’lim vazifasini tashkil etadi, ya’ni ta’lim tizimining bosh maqsadi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytmoqchimanki, o‘rta maktabda STEAM yondashuvi bolalarga tajribalar o‘tkazish, dizayn modellarini yaratish, mustaqil musiqa va kino yaratish, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirish va yakuniy mahsulotni yaratishni rag‘batlantiradi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va oliy ta’limda o‘qishni yanada osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 05.09.2018 yildagi № PF-5538 Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6 aprel 2018 yil 187-son Qarori.

3. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. Питер. Серия “Учебное пособие”, 2004.



BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN NAZORAT TOPSHIRIQ TURLARI

Safarova Mexribon Ibraximovna
Urganch shaxar 28-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (99) 503 91 15
mexribon.ibraximovna@inbox.uz

Nazarova Zumrad Kadamovna
Urganch shaxar 28-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (91) 915 33 22
nazarova.zumrad3322@umail.uz

Annotatsiya: Ushdu maqola boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda foydalaniladigan nazorat topshiriq turlari haqida.

Kalit so‘zlar: Nazorat topshirig‘i, diktant, ta’limiy diktantlar, tekshiruv diktantlari, ta’kidiy diktant, o‘z diktant yoki yoddan yozuv diktanti, izohli diktant saylanma diktant, erkin diktant, rasm diktant, lug‘at diktant, ijodiy diktant.

Diktant eshitib idrok qilingan so‘z, gap, matnни yozishdir. O‘quvchilarning og‘zaki yozma nutqini o‘stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O‘quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganliklariga bog‘liq bo‘ladi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o‘z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Diktantlar maqsadiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Ta’limiy diktantlar – bilim berishga yo‘naltirilgan diktantlar.
2. Tekshiruv diktantlari – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta’limiy diktantlarni o‘tkazish vaqtini, o‘rnini, turini o‘qituvchining o‘zi belgilaydi. Ta’limiy diktantlar uchun darsning ma’lum bir qismi (5-10 daqiqasi), ba’zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o‘quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. Ta’limiy diktantda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rgatilayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, o‘quvchilar so‘zlarni to‘g‘ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga ruxsat beradi. Har qanday yo‘l bilan xatoning oldini olish chorasi ko‘riladi. Masalan, 1-sinfda a va o unilari o‘rganilayotgan darsda bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tahlili o‘tkaziladi. Baho, bahor so‘zlarining birinchi bo‘g‘inida a harfi yozilishini o‘quvchilar bilib olgach, o‘quvchilardan biri shu so‘zlarni xattaxtaga yozadi. So‘ng so‘z o‘chirib tashlanadi, shundan keyin aytib turib yozdiriladi.

Ta’limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ta’kidiy diktant.
2. O‘z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.
6. Rasm diktant.
7. Lug‘at diktant.
8. Ijodiy diktant.

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma’lum o‘zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o‘rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo‘lim o‘rganilgandan so‘ng yoki chorak oxirida o‘tkaziladi. Tekshiruv diktanti o‘quv yili davomida 5-6 marta o‘tkaziladi. Diktantning bu turida yo‘l qo‘yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta’limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Ta’kidiy diktantdan qoidani tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi.



Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o‘quvchilar so‘zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

O‘z diktant yoki yoddan yozuvda o‘rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so‘zlar bo‘lgan matnni o‘quvchilar o‘zlari o‘qib yodlaydilar (ko‘rib idrok qiladilar) yoki o‘qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin o‘zlari mustaqil yozadilar.

Izohli diktant o‘quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o‘tkaziladi. O‘quvchi, odatda, o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan ma‘lum so‘zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So‘zning yozilishini bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, ““Kitob – bilim manbai” – Kitob: Ki-tob. Ikki bo‘g‘in. Birinchi bo‘g‘inida k, i; ikkinchi bo‘g‘inida t, o, b tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda b yoki p tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so‘z oxiriga i tovushini qo‘shamiz va aytamiz: kitobi. B tovushi yozilar ekan” kabi izohlanadi.

Bu diktantda o‘quvchilar qoidalarga oid so‘zlarning tagiga chizadilar.

Saylanma diktantda o‘quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o‘qituvchining topshirig‘iga mos qisminigina (o‘rganilgan qoida asosida yoziladigan so‘zlarni, so‘z birikmalarini) yozadilar. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan so‘zlarnigina yozish (1-sinf), qaratqich kelishigidagi so‘zni u bog‘langan ot bilan yoki tushum kelishigidagi so‘zni u bog‘langan fe‘l bilan birga yozish (4-sinf) kabi. Saylanma diktant o‘quvchilarda imloviy ziyraklikni o‘stiradi.

Erkin diktantda o‘quvchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini o‘zgartirish, bir so‘zni unga yaqin ma‘noli so‘z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3-5 qismli matn tanlanadi. O‘qituvchi avval matnni bir marta ifodali o‘qib beradi, so‘ngra matn mazmuni yuzasidan suhbat o‘tkazadi. Ayrim qoidalarni eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta o‘qib beriladi, o‘quvchilar uning mazmunini yozadilar.

Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o‘quvchilar nutqini o‘stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki o‘zini ko‘rsatib o‘tkaziladi: predmet rasmi ko‘rsatiladi, o‘quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo‘yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so‘z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko‘ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda o‘rganilgan qoidani, ayniqsa, o‘quvchilar yili davomida o‘rganiladigan imlosi qiyin so‘zlarni to‘g‘ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko‘zda tutiladi.

O‘qituvchi darsning maqsadi va malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.

Bayon o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni o‘rganishning yakunlovchi bosqichida, o‘quvchilar qoidalarni bilib olib, uni tatbiq qilishga o‘rganganlaridan so‘ng o‘tkaziladi. Bayon yozganda o‘rganilgan imlo qoidalarini to‘g‘ri tatbiq etish ularning ongli o‘zlashtirilganligini ko‘rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Jumayev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbayeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.

2. Mirzaxmatova Sh., Po‘latova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta‘lim (Uslubiy qo‘llanma) –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.

3. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. – T.: TDPU, (O‘quv qo‘llanma) 2007.



МАКТАБЛАРДА О‘ЗБЕК ТИЛИНИ О‘ҚИТИШДА INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

*Davronova Zebiniso Baxtiyorovna
Buxoro viloyati Vobkent tumani
21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish vat a’lim sifatini oshirish haqida gapirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, pedagogic texnologiyalar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganining asosiy sabablari quyidagilardir. Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. O‘quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o‘quvchidan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o‘quvchini kim o‘qitayotganligi va o‘qituvchi kimni o‘qitayotganiga bog‘liq. O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan: natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar kerak bo‘lar. Bularning hammasi o‘qituvchi va o‘quvchilarga bog‘liq. O‘quv-tarbiya jaryonida zamonaviy o‘qitish uslublari – interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar, o‘quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Innovatsiya- yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Interfaol – o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Shu jihatdan o‘zbek tilini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularning o‘zbekcha nutqini shakllantirish, nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. O‘quvchilarning izlanishi, mustaqil ravishda qo‘shimcha manbalarga murojaat qilishi, ma’lumotlar bankidan o‘ziga kerakli materiallarni saralab olishga o‘rgatish orqali egallayotgan bilimlarining amaliyotda qo‘llay olish layoqati shakllanadi. Bunda, albatta, o‘qituvchiga katta mas’uliyat yuklanadi, chunki ular Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi va darslikda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fanning o‘ziga xos jihatlari, o‘quvchilarning yosh, psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, tayanch va fanga oid kompetensiyalarning elementlarini shakllantirib borish va ularning qiziqishdan kelib chiqib, ta’lim metodlari va dars shakllarini tanlaydi. Dars jarayonida bir nech-



ta metodlardan o‘rinli foydalanish darsning samaradorligini oshiradi, o‘quvchini faollashtiradi. Ta’lim shakli, metodlari sinfdan sinfga o‘tgan sari oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borilishi, quyi (2–4) sinflarda ko‘proq rasmlar, narsa-buyumlardan foydalanilsa, slydlar, audio va videolavhalardan foydalanish, darslarda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Til o‘rganish jarayoni, avvalo, jonli muloqotni taqozo etadi. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarini yangi pedagogik texnologiyalar va an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirgan holda tatbiq etish yuqori samara beib kelmoqda.

Ta’limiy didaktik o‘yinlar, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi, ular dunyoni va o‘zlikni anglashda, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta’limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillatishga, o‘quvchilarni darsga to‘liq jalb etishga yordam beradi, ular o‘quvchilarning o‘zaro va o‘qituvchilar bilan hamkorligini mustahkamlashda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq ulardan o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish mumkin. Ta’limiy o‘yinlarni qo‘llashda me’yorni bilish kerak, ularni haddan ziyod ko‘paytirib yuborish o‘quvchini dars maqsadidan chetlashtirib qo‘yishi mumkin.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘zbek tili darslarini o‘tishda quyidagi didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Nazarova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” O‘qituvchi - 1992
2. Mahmudov “Til va Madaniyat” T:1992
3. Ziyodova “Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma” T:2002



МАКТАБ ПСИХОЛОГЛАРИНИ САМАРАЛИ ИШЛАШЛАРИ UCHUN ULARGA NIMALAR XALAL BERMOQDA.

Sayfudinova Gulbahor
Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani
11-maktab amaliyotchi psixologi

Annatsiya: Ushbu maqolamda maktab psixologlarning samarali ishlashi va o‘quvchilar bilan muloqat olib borishlari haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: psixolog, test, muammo, shaxs, o‘quvchi.

Maktab psixologi- yosh avlodni katta hayotga to‘g‘ri yo‘naltirishga ota-ona va o‘qituvchi bilan barobar ahamiyatga ega shaxs. Murakkab davr- o‘smirlikka qadam qo‘yayotgan bola, shaxs sifatida shakllanayotgan o‘smirning o‘z olamidagi muammolariga yechim topishi uchun yordam berishda maktab psixologining roli katta.

Bugungi kunda maktablarda psixologning foydasi amalda juda kam. Biribchidan, bu oliy ta‘lim tizimida psixolog kadrlarni tayyorlashdagi muammolar bilan bog‘liq.

Ikkinchidan, psixologning maktabdagi mavqeyi achinarli-unga keraksiz shaxs sifatida qaraladi. Jinsiy tarbiya, suitsid, ijtimoiy hayotga moslashuvdagi to‘siqlar kattalar bilan muloqot, kasb tanlashda psixologning o‘quvchi hayotidagi roli katta bo‘lsa-da, bu amalda ko‘rinayotgani yo‘q.

Bundan tashqari, maktabda o‘quvchilar bilan ishlash uchun foydalaniladigan testlar zamondan orqada qolgan, deb hisoblayman. Chunki hozirgi o‘smirlarning psixologiyasi bu testlar ishlab chiqilgan davrnikidan farqli. Har 20-30 yilda avlod almashadi, bu yangicha qarashlar, yangicha ruh paydo bo‘ladi degani. 1996-yildan keyin tug‘ilgan avlod- zet avlod, tabiiyki, o‘zidan avvalgi avlodlarga nisbatan boshqacha fikrlaydi, ularda psixika boshqa. Ammo ular bilan ishlashda boshqa avlod vakillari bilan o‘tkazilgan tajribalarga asoslangan testlardan foydalanilmoqda. Bu testlar ularning ruhiyatini ochib bera olmaydi, shuning uchun ham qo‘llashga yaroqsiz.

Shunday bo‘lsa-da, yuqoridan yuborilgani uchun ham shu testlar asosida ishlashga majbur bo‘lamiz.

Aslida nuqtayi nazardan olganda, psixologiyaning asosiy metodikuzatish va suhbat hisoblanadi. Shu sababli testlar sonini qisqartirish, depressiya, suitsidga moyillik kabi eng zarurlarini qoldirib, treninglarga ko‘proq vaqt ajratish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, psixologiya mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarni kasbga tayyorlash degan metodika bor. Bu borada testlar yevropa modelidan ko‘chirilgan holda bizga modifikatsiya qilingan, lekin bu modifikatsiya noto‘g‘ri qilingan. O‘quvchilar tugul, psixologlarning o‘zi ham ularning mohiyatini tushunmaydi.

Maktab psixologi o‘quvchilarga ustoz emas, do‘st bo‘lishi kerak. O‘quvchilar o‘z sirlarini psixologga qo‘rqmay ayta olishlari, unga ishonoshlari lozim. Buning uchun, o‘quvchilar bilan individual yoki jamoaviy ishlashda psixologning xonasi talabga javob berishi lozim.

Yana bir muhim jihat: psixolog xonasi maktabning birinchi qavatida joylashishi lozim. Bu ota-onalar bilan suhbatlarni tashkil qilish uchun qulaylik yaratadi.

Umuman olganda, maktablarda psixologlarning mavqeyini oshirish, uning o‘z faoliyatini samarali tashkil qila olishi uchun muhit yaratish masalasi, ayniqsa, e‘tibor kamroq bo‘lgan tuman hududlarida tubdan qayta ko‘rib chiqilishi kerak.

Chunki psixolog o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni chindan ham uddalay olsa, keyinchalik kattalashib ketishi mumkin bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy muammolarni birinchi bosqichlardayoq profilaktika qilish mumki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet tarmoqlaridan



INNAVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Shamsiyeva Mavjuda Shavqiddinovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
27-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Hosilova Dildora Begmurodovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
27-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda maktablarda ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va o'rni haqida yozilgan

Kalit so'zlar: Ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, texnologiya, dars, samardorlik

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik va o'z soxasidagi bilimlarni mustaxkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zaruriyati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Pedagogik texnologiyalarining rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir.

Keyingi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha farmon va qarorlar qabul qilindi. Bunda prezidentimiz tomonidan:

“Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerakligi, har bir sinfdagi bolalarning nimalarni bilish zarurligidan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari va o'quv rajalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish “ haqida o'z ma'ruzalarida bayon etdilar. Ayni paytda o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarini to'la egallashlariga erishish, mustaqil bilim olishlarini ta'minlash, iqtidorli, iste'dodli hamda ayirim fanlarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarga individual yondashish, bolalarning eng yaxshi fazilatlarini rivojlantirish, yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, intellektual xususiyati va shaxsiy sifatlarini aniqlagan holda darslarni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish dolzarb vazifalardandir.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yavgi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari tomonidan baxolashga qodir, zarur qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan o'quvchilar kerak deb o'ylayman. Shuning uchun ham, muassasalarning o'quv- tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, maktablarda ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyalarni tanlash va tanlash natijasida oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun ularning bilim saviyasi yetarli bo'libgina ular o'z maqsadlariga erishadilar deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi qaroridan
2. Xasanboyev J, Sariboyev X, Niyozov G. Pedagogika. Toshkent; Fan, 2006



USING EDUCATIONAL INFORMATION RESOURCES TO DEVELOP STUDENTS' LISTENING SKILLS

Sobirova Dilorom Haydaraliyevna (
teacher, GulDU)

Abstract. This article is devoted to the issue of effective use of educational information resources in the process of teaching listening in a foreign language for students, taking into account their professional orientation. An analytical analysis of the experience of previous studies, as well as the authors' own experience in teaching a foreign language, made it possible to draw up some recommendations, as well as to identify the specifics of using educational information resources in modern conditions.

Kalit soʻzlar: oʻquv axborot resursi; tinglash; kasbiy yoʻnaltirish; asl material; AKT.

Ключевые слова: образовательный информационный ресурс; аудирование; профессиональная ориентация; аутентичный материал; ИКТ.

Key words: educational information resource; listening; vocational guidance; authentic material; ICT.

Methodology. Learning to listen taking into account the professional orientation of students has its own specific features. First of all, this is due to the correct selection of educational material. Therefore, the goal of our study, is to compile some recommendations on a proper choice and usage of educational information resources for the development of students' professional listening skills. The study will use the method of analytical analysis, as well as a comparative descriptive method. As the result of the review of literature and previous research in this area combined with the results of an analytical analysis of the experience of the authors of this paper, some general conclusions were drawn and recommendations were made on the effective use of educational information resources in the process of teaching students' professional listening skills.

Literature review. Many fundamental research papers on the methodology of teaching listening skills were published in the 1980s [3; 5] and 1990s [4; 6]. But only relatively recently, special attention was paid to the investigations of the features of the use of ICT and multimedia tools in the process of teaching listening skills [7]. Now, the attention of methodologists is attracted by huge and extensive educational information resources, primarily posted on the Internet. The questions, which immediately appeared in the result of that were as following – “which of these resources can be used in teaching foreign languages” [2, 138], “which of these resources are most effective in teaching listening” [1, 35], and “how to take into account the factor of the professional direction of education of students of non-philological specialties” [8, 94]. Nevertheless, it can be noted that despite of the accumulated practical experience in the application of educational information resources in teaching foreign languages, including teaching listening skills, such studies cannot be combined by any general methodological approach [9, 2]. Thus, there is no single coordinated strategy for these purposes, and the psychological-pedagogical aspects of their implementation in the educational process have not been sufficiently studied.

The need for the widespread introduction of educational information resources and ICT in teaching a foreign language at a university is due to the fact that their application opens up great opportunities for the implementation of didactic principles – the principle of visualization, individualization of learning, and continuity. Modern methods of teaching languages require the introduction of sound and video recordings, films, computer training programs and electronic learning tools into the educational process.

The rational use of educational information resources in the process of teaching professional listening skills allows to:

- 1) to make up for the lack of a natural foreign language environment at all stages of training;
- 2) to more fully realize the important didactic principle of visualization;
- 3) to carry out teaching taking into account the individual typological characteristics of each student;
- 4) to create the best conditions for programming and control;
- 5) to ensure the accelerated formation and development of listening skills in specialized and



professional speech;

6) to make maximum use of the students' analytical and simulation abilities, and to fully mobilize their internal resources;

7) to more or less accurately determine the quality indicators of foreign speech of students in the form of recording;

8) to perform many active types of professionally oriented listening exercises with all students at the same time.

9) to present the educational material in blocks or in separate fragments using hyperlinks; in Power Point presentation; in animation, etc.

10) many educational information resources offer a virtual teacher, multimedia textbooks and distance learning opportunities, as well as specialized educational videos and films in a foreign language.

The method of teaching listening with the active use of educational information resources has some specific features if compared to the traditional forms of the pedagogical process. Thus, for example, during an interactive lesson using educational information resources, a teacher often turns from a lecturer into a commentator, or a guide. Practice shows that the main source of information in this case should be precisely the audiovisual technical complex. This will allow students to focus better and, therefore, to remember more. Teacher comments should be in place and in time. This determines the methodology of working with educational information resources – a clear plan or program should be drawn up in advance. The teacher should know the selected resources in details, should know the exact time and place of “breakpoints” for the comments and clarifications.

Conclusion. In conclusion, it should be noted that the excessive use of educational information resources is also not desirable, as students can get tired of them, so such activities should not be abused. But the rational use of educational information resources gives a teacher the opportunity to load the speech and auditory channels of students to any reasonable limits and activate their speech activity in the direction required by the profession. Thus, educational information resources must be used in the process of teaching listening for students at a university, because they give a great opportunity to optimize the learning process of foreign language by increasing students' motivation, mastery of authentic professional speech and critical thinking skills, as well as research work on the specialty, and a complete immersion in the foreign language environment.

References:

1. Brown G. Dimension of Difficulty in Listening Comprehension. 3rd ed. – San Diego: Dominie, 2017.
2. Brown H. D. Teaching by Principles. 2nd ed. White Plains: Pearson, 2011.
3. Dunkel P. A. Developing Listening Fluency in L2 // The Modern Language Journal. – 1986. Vol. 70(2). – P. 99-106.
4. Dunkel P. A. Authentic Second/Foreign Language Listening Texts. – Boston: Heinle & Heinle, 1995.
5. Long D. R. Second Language Listening Comprehension // The Modern



О‘QUVCHILAR NUTQIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

*Солиева Василахон Махамдалиевна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим мактабининг
бошланғич синф уқитувчиси*

Annotatsiya; ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiga qo‘yilgan talablar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar; o‘quvchi, nutq, talab, bolalar, hikoya, mantiqiylik, jarayon.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin. Hikoya yoki insho o‘quvchilar uchun yaxshi ma‘lum bo‘lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko‘rsatuvdan olgan ma‘lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo‘ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko‘rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so‘zlashga yo‘l qo‘yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi. Nutq o‘stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya‘ni material yig‘ish, uni muhokama qilish, to‘ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo‘lsin. O‘quvchilar nutqi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o‘rinlar tushirib qoldirilmasligi va o‘rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo‘lmagan ortiqchalikka yo‘l qo‘yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyliги narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o‘ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo‘lsin. O‘quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so‘z, so‘z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o‘rgansin. 4. Nutq til vositalariga boy bo‘lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo‘yib bo‘lmaydi, ammo o‘qituvchi o‘quv ishlarida ularning so‘z boyligini oshirib borishni har vaqt ko‘zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo‘lsin. Og‘zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi zarur. So‘zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o‘quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo‘lsin. Agar nutq ifodali, ya‘ni jonli, ishontiradigan bo‘lsa, eshituvchiga yoki o‘quvchiga ta‘sir etadi. Og‘zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta‘sir etsa, og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o‘quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so‘zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta‘sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo‘lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so‘zlardan xoli bo‘lishini taqozo etadi.

7. Nutq to‘g‘ri bo‘lsin. Maktab o‘quvchilari uchun nutqning adabiy til me‘yorlariga mos va to‘g‘ri bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og‘zaki nutq esa orfoepik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi uchun so‘z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega. Yuqorida sanab o‘tilgan talablar o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta‘lim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi. Nutq — o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishdagi muhim vosita. Nutq fikmi bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini baja-radi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin.

Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va buyon etilsagina, muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z



(soʻz birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda tashqi nutqda fikrlash irrkhoniga ega boʻladi. Nutqda fikr shakllantrritadi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. „Nutq tafakkur bilan cljambarchas bogʻlangandir. Nutq boʻlmasa, tafakkur ham boʻlmaydi.- til materiali boʻlmasa, fikrni ifodalab berib boʻlmaydi”

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy boʻlishini taʼminlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasrni, lugʻat tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni oʻstirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini oʻrganishning muhim vositasi boʻlib xizmat qiladi. Nutqdan oʻquvchi fikriy rivojining asosiy oʻlchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. Oʻquvchining barcha oʻquv predmetlaridan materialni oʻzlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni oʻquvchi oʻz nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib boʻlmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib etiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning oʻsishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Q. Abdullayeva, K. Nazarov, Sh. Yoʻldosheva. Savod oʻrgatish darslari. — T.: „Oʻqituvchi”, 1996.
2. Q. Abdullayeva va boshq. Oʻqish kitobi (2-sinf uchun darslik).— T.: „Oʻqituvchi“, 2007.



XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘RGANISHDA YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI.

Tilavova Firuza Xayrullayevna

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
O‘zbek tili fani o‘qituvchisi Telefon raqami:*

Imomova Umida Iskandarovna

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
O‘zbek tili fani o‘qituvchisi Telefon raqami:*

Annotatsiya. Xalq og‘zak ijodini o‘rganish masalasi mustaqillikgacha bo‘lgan davrda ham, istiqloq davri adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida ham izchil tadqiq qilingan. Ularni zamonaviy usullar vositasida, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘rganish masalalarini targ‘ib qilish, dars jarayoniga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalaladir

Kalit so‘zlar. Milliy qadriyatlar, Xalq og‘zak ijodi, innovatsion texnologiyalar, vorislik tuyg‘usi, muqaddas qadriyatlarimiz, Mulohaza,, dunyoqarash, an’analar.

Milliy qadriyatlar muayyan millatning asrlar osha yashab kelayotgan bebaho ma’naviy boyligi hisoblanadi. Ular jamiyat a’zolarini ruhan yaqinlashtirish, yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy hayotni barqarorlashtirish, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislik tuyg‘usining bardavomligiga ta’sir ko‘rsatishday beqiyos ahamiyatga ega. Shuning uchun ham qadriyatlarni asrabavaylash va yosh avlodga ma’naviy-meros sifatida yetkazish masalasi bugungi kunda ham dolzarb muammo sanaladi. Ayniqsa, insonlar, mamlakatlar va qit’alar o‘rtasidagi aloqa vositalari kuchayib borayotgan hozirgi globallashtirish jarayonida bu masala yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Kuchli axborot bosimi ostida o‘zining milliy ma’naviy qiyofasini saqlab qolishga harakat qiladigan xalq yoki jamiyat o‘z kelajagining bunyodkori – yosh avlod salohiyatini el-yurt uchun foydali ishlarga qaratishga intilishi tabiiy hol. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida yosh avlodni xilma-xil shakllardagi ma’naviy tajovuzlardan saqlash uchun buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi bunyodkorlik, yaratuvchilik, insonparvarlik g‘oyalari ila kurashish zarurki, bu borada milliy qadriyatlarga tayanish, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalariidan foydalanish ma’naviy qiyofamizni va o‘zligimizni asrashga yordam beradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin»ligi xalq og‘zaki ijodi namunalari tahlili orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish muammosining dolzarbligini belgilaydi. Adabiy ta’lim boshqa ta’lim shakllaridan bunday imkoniyat doirasining kengligi bilan ajralib turadi. O‘quvchi fikrlash orqali o‘zi ko‘rgan, idrok etgan, sezgan, tasavvur qilgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqiqatligi yuzasidan muayyan tushunchaga ega bo‘ladi. Mulohaza yuritib, so‘ng o‘z munosabatini bayon qiladi. Ana shu fikrlash jarayonida o‘quvchi o‘zi egallagan bilim, ko‘nikma va malakaga tayanib so‘z yuritadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘qib o‘rganish va tahlil qilish jarayonida shunday ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, yanada takomillashtirish ko‘zda tutiladi. Inson tafakkuri uning ruhiyati bilan chambarchas bog‘liqlikda harakat qiladi. O‘quvchi ruhiyati boy, dunyoqarashi keng, bilimi chuqur bo‘lsa, fikrlari ham, mulohazalari ham asosli, mantiqli bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘qitish va tahlil qilishdan ko‘zlanuvchi metodik maqsadlardan eng muhimi o‘quvchini mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga o‘rgatish, ravon so‘zlash, tafakkur shakllariga tayanib hayot hodisalari zamiridagi ma’nolarni anglab olishga o‘rgatish, kulgu yo o‘and-nasihatlar ortiga yashiringan haqiqatlar mohiyatini tushunib, xulosa chiqarishga yo‘llashdir. Bolaning fikrlashi va ilm olishga intilishi o‘zaro uzviy aloqadorlikdagi jarayondir. Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘qitish va tahlil qilish jarayonida xalq yaratgan qahramonlarning xatti-harakatlari, fe’l-atvori, ruhiy olamga munosabat bildirishi o‘quvchini



fikrlashga yo‘naltiradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim... Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz” deb ta’kidlaydilar. Xalq og‘zaki ijodi asarlari tahlili ajdodlarimizning yosh avlodni barkamol kishilar qilib voyaga yetkazish borasidagi qadimiy va ilg‘or an‘analarini tiklash yo‘lidagi muhim bir qadamdir. Zero, «Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharafli vazifa turgan bir paytda bu ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati ming karra ortdi. Nega deganda, har qanday ulug‘ maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go‘zal hayot barpo etish, avvalo shu jamiyat a‘zolari bo‘lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham hozirgi kunda, xalqimiz, farzandlarimiz iqbolini o‘ylab, qattiq bel bog‘lab mehnat qilayotgan ma’suliyatli bir davrda mazkur tushunchalar yanada teran ma’no kasb etadi». Aslida avlod-ajdodlarimiz ham farzandlarni umumbashariy tuyg‘ular, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida folklor asarlarining yuksak ma’naviy qudratidan samarali foydalanib kelishgan. Xalq og‘zaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg‘or va hayotbaxsh an‘analarni o‘zida mujassamlashtirgan ma’naviyat sarchashmasidir. Ana shu ma’naviy merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq urf-odatlar, an‘analar alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Boliyev M. Yangi innovatsion texnologiyalar – davr talabi //Ma’rifat //26.10.02.2007.
2. Jumanazarova D. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va xalq dostonlari. T.: Fan, 2008
3. www.ziyouz.com



МАТЕМАТИКА ДАРSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Shahnozaxon To'xtasinova
Marg'ilon shahar 1-DIUM o'qituvchisi
Telefon: +998(91)661-29-22

Annotatsiya: Maqolada matematika darsida o'yinli texnologiyalardan qanday foydalanish, bir nechta o'yinli texnologiyalardan misollar, ularni qo'llash qanchalik foydali ekanligi tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, yangi pedagogik texnologiya, didaktik topshiriq, jimjitlik o'yini, o'yinli texnologiyalar, pedagogik mahorat.

O'quvchilar hayotida o'yin katta rol o'ynaydi. O'yin bolalarning ongi va qalbiga singib ketgan faoliyatdir. *Ularning bu faoliyati* o'yin turlariga qarab ob'yektiv voqe'likni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada mustahkamlashidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur ehtiyojidir. O'yin bolalar uchun ovitish, xursandchilik, rohatlanish, hordiq chiqarish kabilarni beradi. O'yin muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvchi, ya'ni o'tilgan o'quv materialini o'zlashtirishga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Har bir o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan: "Teatr" o'yinida qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darsda tanishgan "5" soni haqidagi tushunchalarni mustahkamlashdan iborat.

"Doiraviy misollar" o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash, malakalarni mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yinlar singari o'z qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'lim tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi.

Misol uchun matematika fanidan "Jimjitlik" o'yini keltirish mumkin. O'yinda bolalarga beriladigan topshiriq o'qituvchi ko'rsatgan buyumlar miqdorini xayolda sanab yechish va son natijasini topishdir. Quyidagi didaktik masalalardan foydalaniladi: suratlar, jadvallar, stol ustida ko'rsatiladigan, san'at asbobi, o'yinchoqlar, cho'tlar, xaltachaga solingan yong'oqlar, cho'plar, qo'lda yasalgan qog'oz qayiqcha va qalpoqcha, geometrik sharlar, chizilgan jadvallar, sxemalar, sanoq materiallari va geometrik sharlar solingan qutichalar

Qo'llaniladigan o'yinlar nomi: Sanayver, ko'rganingni eslab qol, biz kamayib qoldik, kim ketdi, nima o'zgardi, teatr, nechta ekanligini top, jadvalini qidirib top, qo'shnilaringni top, uychaga tez kim kiradi, kim chaqqon? Kim tezroq? Dordan mening joyim qani?, to'rt burchak, yulduz, raketa

"Jimjitlik" Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarni aniqlash, va mustahkamlash.

O'yin to'grisidagi aniq buyumlarni "xayolda" sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko'rsatish. O'qituvchi bolalarga har xil narsalarni ko'rsatadi. O'quvchilar ularning sonini topishi kerak bo'ladi. O'qituvchi keyin narsalami ko'rsatadi. O'quvchilar ovoz chiqarmasda, qo'llari bilan sanoqni ko'rsatadilar.

O'qituvchi 4 ta qo'g'irchoqni ko'rsatganda bolalarning hammasi to'rtta barmog'ini ko'rsatadi. Sinfda jimjitlik bolalarning hammasi butun diqqat e'tiborlari topshiriqni bajarishga qaratiladi.

O'qituvchi kvadratlarni sanang deydi-da taxtachaga ketma-ket kvadratlarni qo'yadi. Bolalar sanashadi va barmog'ini ko'rsatishadi. Bu borada bolalarning birinchi o'nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha narsa ko'rsatilsa, o'shani barmoq bilan sanab ko'rsatish malakasi mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirishi bilan birga bilimlarini o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azixo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: TDPU, «Nizomiy», 2003
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. — T.: 2001
3. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya. T.: «Lider Press», 2009.
4. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma// Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.



NUTQ VA UNI O‘STIRISH TUSHUNCHASI

*Турсунова Одина Махмуджановна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим мактабининг
бошлангич синф уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada nutq o‘zi nima va uni o‘stirish tushunchalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, kishi, o‘stirish, ta’sir etish, jarayon, xulosa, o‘quvchi.

Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vostalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir. Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so‘z, gap, bog‘lanishli nutq kabi qismlarni o‘z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo‘limlari „Xat-savod o‘rgatish va nutq o‘stirish“, „O‘qish va nutq o‘stirish“, „Grammatika, imlo va nutq o‘stirish“ deb nomlangan. Nutq faoliyati uchun, shuningdek o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqni mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti — nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta’lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda „tilni sezish“ shakllanadi. Nutq o‘stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya’ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasi idrok etish, ikkinchidan, o‘rgangan til vositalaridan foydalanib, o‘z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi. Buning o‘zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o‘zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til me’yorlarini o‘zlashtirish. Maktab o‘quvchilarini adabiy tilni sodda so‘zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o‘rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so‘zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish. Bu bilan o‘quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og‘zaki so‘zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O‘quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o‘quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e’tibor beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o‘quvchilar nutqini o‘stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog‘lanishli



nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Ko‘rsatilgan uch yo‘nalish parallel olib boriladi: lug‘at ishi gap uchun material beradi; so‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash bog‘lanishli nutqqa tayyorlaydi. O‘z navbatida, bog‘lanishli hikoya va insho lug‘atni boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar nutqini o‘stirish o‘z metodik vositalariga ega, o‘zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog‘lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq o‘stirishda izchillik to‘rt shartni, ya‘ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo‘ysundirish ko‘nikmasini amalga oshirish bilan ta‘minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog‘lanadi va keyingisiga o‘quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo‘ysungan holda yana qandaydir yangilik qo‘shadi. Maktabda o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o‘stirish faqat ona tili va o‘qish darslarininggina emas, balki o‘quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san‘at, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. Q. Abdullayeva, K. Nazarov, Sh. Yo‘ldosheva. Savod o‘rgatish darslari. — T.: „O‘qituvchi“, 1996.
2. Q. Abdullayeva va boshq. O‘qish kitobi (2-sinf uchun darslik).— T.: „O‘qituvchi“, 2007.



RAQAMLI IQTISODIYOT VA ILMIY TADQIQOT

*Umarov Ravshan G'afurovich
Farg'ona sanoat va xizmat
ko'rsatish texnikumi direktori.*

Annotatsiya: maqolada davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo'llab-quvvatlash sohasida raqamli ta'limning zamonaviy metodlarini qo'llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o'zlashtirishda ko'maklashishi haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, ilmiy tadqiqot, xalqaro raqobat, Don Tepkott, milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo'lib 1995 yilda *Don Tepkott* muallifligida chop etilgan *"Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va 'da va xayf-xatar"* (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo'tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog'lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari)¹ ajratib ko'rsatiladi.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot–bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish ob'ekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga o'tishi atiga bir necha o'n yilni tashkil etadi.

Turli tadqiqotlar natijalari bo'yicha raqamli iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyotidagi salmog'i 4,5 foizdan 15,5 foizgachani tashkil etadi. Jahon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorida yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning deyarli 40 foizi va blokcheyn texnologiyalari bilan bog'liq patentlarning 75 foizi Amerika Qo'shma Shtatlari va Xitoy Xalq Respublikasi xissasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 13 fevral kuni axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadbirda keltirgan statistik ma'lumotlariga muvofiq AQShda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2 foizdan² ham oshmaydi.

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berish taklifi ilgari surilishi tom ma'noda O'zbekiston hayotida global taraqqiyotga hamohang ravishda tarixiy burilish davri boshlanganini tasdiqladi.

Davlatimiz rahbarining ta'kidlashicha, "...yurtimiz xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha 2019 yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqada. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyn bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

¹ Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari o'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2007

² To'rayev Z.N., Ro'ziyev O.A., Avliyoqulov A.A., Berdiyev S.R. Xalqaro turizm va uning rivojlanishi. Oliy o'quv yutirlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. –Termiz, 2009



Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor.

Xulosa o'rnida aytish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi.

Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo'llab-quvvatlash sohasida raqamli ta'limning zamonaviy metodlarini qo'llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o'zlashtirishda ko'maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralari ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev L. Istoriko-demograficheskiye ocherki urbanizatsiya Uzbekistana. –T.: Universitet, 2002.
2. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari o'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2007.
3. To'rayev Z.N., Ro'ziyev O.A., Avliyoqulov A.A, Berdiyev S.R. Xalqaro turizm va uning rivojlanishi. Oliy o'quv yutrlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. –Termiz, 2009.



INNOVATION FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH USULLARI

Valiyeva Eleonora Nailevna
Urganch shaxar 28-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (93) 745 64 06
eleonora_nailevna@inbox.uz

Radjapova Raziyajon Marimovna
Urganch shaxar 28-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (91) 428 84 74
r_radjapova@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagoglarning innovatsion faoliyati va uni amalga oshirish jarayoni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion faoliyati, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyalar, pedagogik tadqiqot metodlari, muammoni tahlil, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyat

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orasida innovatsion ta'lim texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida "innovatsiya" tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham innovatsiyalar negizida o'qitish jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarning mohiyati yoritiladi.

Pedagogning innovatsion faoliyati bu ta'lim jarayonidagi har qanday innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga yangiliklarning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi. Pedagogning bu boradagi faoliyati "innovatsion faoliyat" deb yuritiladi.

Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablarning bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Bu kabi faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyatning asosiy belgilari quyidagilardir:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion faoliyat – pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. V.Slasteninining fikriga ko'ra innovatsion (ijodiy) yondashuv:

- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lishni ifodalaydi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etish to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyat – ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib



borish yoki fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat. Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli o'qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to'siqlar mavjud. Bularning birinchisi o'qituvchining o'zi ko'nikkan faoliyatchegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya'ni o'qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo'lsa, yana bir sabab yangi va noma'lum narsalar har doim odamlarda cho'chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir. Innovatsion faoliyat o'qituvchining hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo'lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

Pedagoga ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari. O'qitish jarayoni yoki ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvni qaror toptirish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Bu jarayon bir necha bosqichda kechadi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich: tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi;

2-bosqich: mavjud tizimga ayrim yangi g'oyalar, metodlar kiritiladi.

3-bosqi: yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlari ishlab chiqiladi.

4-bosqich: pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi yoki metodikasini ishlab chiqadi.

Pedagoglarning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Shu bilan birga pedagogning innovatsion faoliyatini uning motivatsiyasi, malakaviy tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga oid bilim va malakalari, pedagogik faoliyatdagi muammo (to'siql)larni bartaraf eta olish mahorati bilan ham belgilanadi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri uning ijodiy faolligi, ijodkorligi hisoblanadi. O'qituvchidan yangiliklarnio'zlashtirib borish bilan birga ularni o'z faoliyatida qo'llashi va pedagogik jamoa o'rtasida targ'ib qilishi talab etiladi. Pedagoglarda innovatsion faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishda jamoadagi psixologik muhit, jamoa a'zolarining jahon ta'lim yangiliklardan xabardorliklari muhim ahamiyatga ega. Pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvining natijalari

quyidagilarda ko'rinadi:

- faoliyat maqsadini aniq belgilab olishida;
- nostandart vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilishida;
- o'quv yoki ilmiy-tadqiqot jarayoni bilan bog'liq masalalarni samarali echish usullarini egallay olganligida;
- muammolarni hal etishda eng samarali vosita va metodlarni tanlay bilishida;
- o'z ustida mustaqil ishlashni rejalashtira olishida;
- faoliyati natijasini nazorat va tahlil qila olishida;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining mavjudligida;
- yangi g'oyalarni izlab topa olishida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogik mahorat. Mavlonova R.,Abdurahimova D. T.: Fan va texnologiyalar. 2012-yil
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiyasi va intergatsiyasi. O'quv qo'llanma R.A.Mavlanova, N.X.Raxmankulova T. G'.G'ulom, 2013 y
3. Interfaol metodlar:mohiyati va qo'llanilishi (Metodik qo'llanma) -T.: "TDPU nashriyoti", 2012



ЎЗБЕКИСТОННИНГ УМУМТА'ЛИМ МАКТАБЛАРИДА МУСИҚА ТА'ЛИМИ ВА ТАРБИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

*Хамдамова Шохидахон Гуломжоновна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий ўрта таълим мактабининг
музыка фани уқитувчиси*

Аннотация; ushbu maqolada maktablardagi musiqa ta'limi va tarbiyasining rivojlanishi va ahamiyati bayon etilgan.

Калит so'zlar: maktab, ta'lim, jarayon, musiqa, tarbiya, xususiyat.

Bugungi o'zligimizni anglash o'z taqdirimiz va farzandlarimiz istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan. Mustaqil O'zbekistonda milliy madaniyatimizni o'ziga hosiyatini tiklash umumta'lim maktablari yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish, hamda hozirgi kunimizni to'laroq idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmoqlik hisoblanadi. Chunki, har bir yangilik, tarixiy bog'lanish orqali amalga oshiriladi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topadi.

Musiqa san'atining imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos, takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limidan, davlat standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan biriga ularni uzatuvchanlik, xotirani mustaxkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak, yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda «Musiqa madaniyati» darslarini ahamiyati katta. Musiqiy madaniyat darslari o'quvchilarni axloqiy - estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ulardagi go'zallikka bo'lgan his - tuyg'ularini ustiradi, musiqa san'atiga mehr - muhabbat, qiziqish uyg'otadi, ona - Vatanni sevishtga, bir - birini, kattalarni hurmat qilish, mehnatni, tabiatni sevishtga, qadrlashga o'rgatadi va havotda o'z o'mini topa olishgamadad beradi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishi, musiqani idrok etish, yakka va jamoa bulib qo'shiq kuylash va raqsga tushish, ijodkorlik malakalarini shakllantirish, musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart - sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim - tarbiyasining vazifasini tashkil etadi. Hozirgi musiqiy ta'lim -tarbiyasi, shuni ko'rsatadiki, milliy musiqa merosimizni o'rganishda, musiqa darslarini va sinfdan tashqari musiqat arbiya tizimini ahamiyati katta. Musiqa darslarini hayotga joriy etish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun musiqadan 1999 yili davlat ta'lim standartlari asosida yangi dastur ishlab chiqildi. Yangi dasturning asosiy mohiyati avvalo darsning mavzulari, har bir chorak o'quv belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi. Darsni qiziqarli bo'lishi uchun musiqa ijodkorligi qo'llanildi, barcha musiqa faoliyatlari (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash) dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bog'lanib o'tiladi. «Dars» - ta'lim - tarbiyani amalga oshirishning eng qo'lay va samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabhalarda bo'layotgan siyosiy - iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy o'zgarishlar barcha fanlar qatori musiqa darslarining mazmuni va metodikasiga ham quyildi: Darsda ta'limiy - didaktik, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarni bilish va ularni amalga oshirish. 1. Darsda ta'limning faol usul va uslublaridan foydalanish. 2. Dars jarayonida xalq pedagogikasi an'alarini, jaxon pedagogika va psixologiyasi, san'atimiz, buyuk ajdodlarimiz o'g'itlari, rivoyatlarimiz, xadislrimizdan unumli foydalanib borish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, keyingi yillarda tajribali metodistlar, olimlar va amaliyotchi o'quvchilarning o'quv jarayonini tahlil qilish sohasida o'tkazilgan va didaktik shart - sharoitlarga bog'liq ekanligi ko'rsatmoqda. Eng muhim shart - sharoitlar quyidagilardan iborat: 1. Darsliklar, qo'llanmalar, dastur, tavsiyanomalar, didaktik va metodik ko'rgazmali quroillar va texnik vositalardan foydalanish. 2. Sinfdan ijobiy psixologik muhit bo'lishi.

3. O'quvchi va o'quvchilar orasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish. Ushbu pedagogik shart - sharoitlarga amal qilib, darsning maqsadi va mavzusi, to'g'ri tashkil qilinsa, dars sifatli va samarali bo'lishi mumkin. Oliy Majlisning 1997-yil 29 avgustdagi IX - sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» muhim tarixiy, amaliy hujjat bo'lib ta'lim tizimini



tubdan islox qilish, uni dunyoning ilgʻor demokratik davlat darajasiga yetkazish va yosh kadrlarni yuksak maʼnaviy - axloqiy, yuqori bilimlarga ega qilib tarbiyalashni maqsad qilib qoʻyadi. Oʻquvchilarimizni olgan nazariy bilimlari bilan birga amaliy mashgʻulot oʻtkazgan dars lari va oʻquv - tarbiya mashgʻulotlarida guruxning barcha talablari, oʻqituvchi ishtirokida tahlil va muhokama qilishlari lozim. Tahlil jarayonida, eng muhimi oʻquvchi oʻzining dars oʻtkazuvchi oʻqituvchi sifatida tasavvur qilib, oʻz ishini uddasidan qanchalik chiqa olishini toʻgʻri baholay olganidadir. Oʻquvchi tomonidan oʻtqazilgan darslarning va tarbiyaviy ishlarning tahlili, odatda oʻz - oʻzini baholashda, oʻzini hisobotini reja va konspektalarni tahlil qilishdan oʻz ishini baholay olishdan boshlanadi. Metodist - oʻqituvchi amaliyotchi – oʻquvchiga metodik yordam koʻrsatish va maslahatlar berib kamchilik va yutuqlarni aniqlab toʻgʻri yoʻl koʻrsatishi lozim. Bunda eng asosiy maqsad talaba-yoshlarimizni qobiliyat va imkoniyatlarini aniqlab toʻgʻri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimovning - «Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohatlarimizning samaradorligi avvalo xalq maʼnaviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng oʻrganilishi, anʼanalarimizning saqlanishi, madaniyat va sanʼat, fan va taʼlim rivoji bilan uzviy bogʻliqdir», - degan soʻzlari maʼnaviyat choʻqqisiga intilishga chorlamoqda.

Adabiyotlar:

1. H.Nurmatov, N.Yoʻldosheva « Oʻzbek xalq musiqasi ijadiyoti» oʻquv qoʻllanma. - T. : «Gʻofur Gʻulom» nashriyoti, 2007 y.
2. M.Ismoilova «Xalq qoʻshiqlari vositasida oʻquvchilarning maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish» oʻquv qoʻllanma. - T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2000 y.
3. H.Nurmatov, O.Ibrohimov «Musiqa» oʻquv qoʻllanma. - T.: « Oʻqituvchi» nashriyoti, 1997 y.



О‘СИМЛИКЛАР ДУНЫОСИДАН FOYDALANISH VA ULARNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

Xasanova Feruza
Xiva shahar 2- son maktabning
biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘simlik dunyosi ob’ektlaridan foydalanish turidan ohirgisi ulardan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanishning huquqiy asoslari va ulardagi majburiyat va javobgarliklar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: o‘simlik, tabiat, ekologiya, qonun, ma’muriy javobgarlik, fuqarolik kodeksi

Tabiatdan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar tizimi va ularning ta’sir doirasi har bir tarixiy bosqichda mavjud ilm, fan va texnika rivojlanishi hamda atrof tabiiy muhit holatining darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham XX asrda amalga oshirilgan fan-texnika revolyutsiyasi natijasida yaratilgan yangi texnika vositalari, ishlab chiqarish obektlari o‘z navbatida tabiatga bo‘lgan ta’sirini oshishi misli kutilmagan ekologik salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi¹. O‘simlik dunyosi ob’ektlaridan turli xil maqsadlarda foydalaniladi. O‘simlik dunyosidan foydalanish maqsadi avvalo o‘simlik dunyosi ob’ektlarining xususiyatidan kelib chiqadi. Chunonchi, o‘rmonlar yog‘och kesish yoki pichan o‘rish yoxud boshqa maqsadlarda foydalanilsa, botanika bog‘lari ilmiy maqsadlarda foydalanishi mumkin va hakoza.

O‘zbekiston Respublikasida o‘simlik dunyosidan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tartibga soluvchi, o‘simlik dunyosi ob’ektlari huquqiy holatini o‘rnatuvchi me’yoriy xo‘jjatlar qabul qilingan. Bular jumlasiga O‘zbekiston Respublikai Konstitutsiyasi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi², “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Ma’muriy javobgarlik, Fuqarolik kodekslarini kiritish mumkin. Masalan, konstitutsyaning 55-moddasida o‘simlik dunyosiga nisbatan mulkchilikning huquqiy holati o‘rnatilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘simlik dunyosi davlat mulki -umummilliy bo‘lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir deb belgilangan. Bundan tashqari o‘simlik dunyosini muhofaza qilish, foydalanish va ularning huquqiy holati, vazifalari “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (4-modda), “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (3-modda), “O‘rmon to‘g‘risida”gi (3-modda) qonunlarda belgilab qo‘yildi.

Huquqiy adabiyotlarda faqat o‘rmon tushunchasi va o‘rmondan foydalanish huquqi tushunchalarigagina e’tibor qaratilgan³. Ma’lumki, o‘simlik dunyosi tushunchasi o‘rmon tushunchasiga nisbatan ancha keng bo‘lib, undan ba’zi jihatlari bo‘yicha farq ham qiladi. Masalan, o‘rmon tushunchasiga dov-daraxtlar bilan qoplangan erlar bilan bir qatorda, dov-daraxtlar bilan qoplanmagan, ammo shu maqsadlarga ajratilgan erlarni ham kiritamiz. Bundan tashqari, o‘simlik dunyoi tushunchasiga suv ostida o‘sadigan o‘simliklarni ham kiritishimiz mumkin, lekin ular o‘rmon tushunchasini bermasligi mumkin. O‘simlik dunyosining huquqiy holatini belgilashda milliy qonunchilik uning ob’ektlarini aniqlashga alohida e’tibor bergan. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasiga ko‘ra, o‘simlik dunyosi ob’ektlarini, birinchidan, yovvoyi organizmlar, ya’ni daraxt, buta va o‘tsimon urug‘laydigan o‘simliklar, qirqquloqsimonlar, mohsimonlar, suv o‘tlari, lishayniklar va zamburug‘lar o‘zining butun xilma-xil turlari bilan; ikkinchidan, yovvoyi organizmlardan tashkil topadigan tabiiy o‘simliklar jamoalari yoki ularning har qanday majmui; uchinchidan, kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik turlari; to‘rtinchidan, yovvoyi o‘simliklarning mevalari, urug‘lari va boshqa qismlari yoki ular hayot faoliyatining mahsullari tashkil etadi. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunining 19-moddasiga binoan o‘simlik dunyosi ob’ektlaridan foydalanish huquqi shunday huquqdan voz kechilganda; muddat tugaganda;

¹ Bogolyubov S.A. *Ekologicheskoe pravo*. M.: Norma–Infra, 1998. – S. 158–164.

² O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. – 1999. – № 1. – 20–modda.

³ Namazov F.S. «Uzbekistonda urmonlardan foydalanish xukuki.» -T.: NPO «Vostok», -2000.



foydalanuvchi yuridik shaxs tugatilganda; o‘simlik dunyosi ob’ektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni takror ko‘paytirish qoidalari, normativlari buzilganda; haq belgilangan muddatda to‘lanmaganda; foydalanish ta’sirida tabiiy o‘simliklar jamoalarida asliga qaytarib bo‘lmas o‘zgarishlar xavfi yuzaga kelganda; er uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilganda bekor qilinadi. O‘simlik dunyosi ob’ektlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida belgilab berilgan. Unga ko‘ra foydalanuvchilar o‘simlik dunyosi ob’ektlari nima maqsadda berilgan bo‘lsa o‘sha maqsadda foydalanishlari shart. Masalan, o‘simlik dunyosi ob’ekti ilmiy maqsadlar uchun berilgan bo‘lsa, undan ovchilik uchun foydalanish mumkin emas. O‘simlik dunyosi ob’ektlaridan foydalanuvchilar buzilgan huquqlarini tiklanishi hamda o‘zlariga etkazilgan zararning qoplanishini talab qilish huquqiga egadirlar. Masalan, o‘rmon xo‘jaligi korxonalari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘rmonlardan qonunga xilof ravishda foydalanilganda buzilgan huquqlarini sud yo‘li bilan tiklash va o‘zlariga etkazilgan zararni to‘la undirib olish huquqiga egadirlar. Bundan tashqari “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunda o‘simlik dunyosidan foydalanish munosabatlarining huquqiy asoslari, uning sub’ektlari, undan foydalanish shartlari va tartiblari, o‘simlik dunyosiga nisbatan mulkchilik masalalarini, qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalarini tartibga solish bo‘yicha qoidalarni o‘zida jamlagan. Shu sababdan suv bo‘yi tegrallarida, ekin maydonlari atrofida er va suv resurslarini muhofaza qilish maqsadida daraxtlar ekilib, ulardan tabiatni muhofaza qilish maqsadi ko‘zlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bogolyubov S.A. *Ekologicheskoe pravo*. M.: Norma–Infra, 1998. – S. 158–164.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. – 1999. – № 1. – 20–modda.
3. Namazov F.S. «Uzbekistonda urmonlardan foydalanish xukuki.» -T.: NPO «Vostok», -2000.



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI.

Ra'no Xonboyeva Hasanovna
Toshkent shahar Sergeli tumani 277-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
rano12659@gmail.com
Tel:+998946792476

Sodiqova Nodira Abdulalomovna
Toshkent shahar Uchtepa tumani
229-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
nodirasodiqova1981@mail.ru
Tel:+998976977257

Annotasiya. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi roli. Ularni qo'llash usullari va metodlari. O'quvchilarga oson va sodda usulda ta'lim berish va ta'lim sifatini oshirish.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, innovatsiya, texnologiya, metod.

Annotasiya. The role of modern innovative technologies in improving the quality of education. Ways and means to use them. Educate students in an easy and simple way and improve the quality of education.

Keywords: modern education, innovation, technology, method.

Аннотация. Роль современных инновационных технологий в повышении качества образования. Способы и средства их использования. Обучайте студентов легко и просто и повышайте качество образования.

Ключевые слова: современное образование, инновации, технологии, метод.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Talim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, talim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang'ich talim umumtalim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq etibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang'ich sinfda talim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni talim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining



faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va etiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ishiga ixlos bilan qaragan o‘qituvchida chinakkam ehtiros bo‘ladi.

Darsning oldindan loyihasi, yani texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o‘qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o‘qituvchining pedagogik va o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo‘llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o‘quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o‘rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o‘rtasidagi uzviylikni taminlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi.

“Baliq skeleti” texnologiyasi.

Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida “Yo‘l qoidalari” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar. Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.

“Venn diagrammasi

Ushbu texnologiya ona tili, o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Barkamol avlod yili” Davlat Dasturi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: “Sharq”, 1998



О‘SMIR BOLA TARBIYASIDAGI ENG MUHIM JIHATLAR.

*Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi
36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
amalyaotchi psixologi
Xudoyberdiyeva Malika Raximovna*

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘smirlik davridagi bolalarda kechadigan o‘zgarishlar va ularning psixologiyasi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, bolalik, maktab, psixologiya, o‘qituvchi, rivojlanish.

O‘smirlik davri insonni bolalikdan yoshlikka o‘tuvchi o‘z navbatida boshqa davrlardan o‘zining keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o‘qish paytlariga to‘g‘ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davr oralig‘da kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil oldin yoki kechroq kuzatilishi mumkin. O‘smirlik davrining og‘ir murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda jismoniy aqliy, axloqiy, ijtimoiy rivojlanishning mazmun mohiyati ham o‘zgaradi. O‘smir hayotida uning ruhiyati organizmning fiziologik va ijtimoiy holatlarda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu davrda bola endi bola emas shu bilan birga hali katta ham emas. Uning o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlari, qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo‘nalganligi qaytadan shakllanadi, o‘z-o‘zini anglashi, baholashi qadriyatlarini o‘zgaradi Uning uchun o‘z menini ahamiyati ortadi. O‘smir organizmida biologik, fiziologik yetukligi borasida tub o‘zgarishlar amalga oshadi. Fiziologik rivojlanish jinsiy balog‘atga yetish va jismoniy rivojlanishdagi o‘sish o‘smir ruhiyatida yangi psixologik tuzulishlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega. O‘smirlik davrining xarakterli xususiyatlaridan yana biri–bu davrda o‘smirlarda kuzatiladigan o‘smirlik avtonomiyasi holatidir. O‘smirlik avtonomiyasining turlari

Huquqiy avtonomiya

Emosional avtonomiya

Makoni avtonomiya

O‘smirda psixik jarayonlarning keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burulishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, muloqotda, kattalar bilan o‘smirlarning muomalsida qat’iy o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. O‘smirda ro‘y beradigan biologik jismoniy o‘zgarish natijasida uning psixologik dunyosida tub burulish nuqtasi vujudga keladi. O‘smir o‘zining qobiliyati va kuchuni to‘g‘ri baholamay turib murakkab xayotiy masalalarni hal qilishga urunadi, ammo fikr yuritish qobiliyati yuzaki bo‘lganligi sababli qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. O‘smir o‘g‘il qizlar shaxsining kamol topishida o‘zini anglash jarayonida o‘ziga baho berish mayli va istagi o‘zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash va o‘ziga bino qo‘yish istagi paydo bo‘ladi. O‘smir o‘z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganligini, bilim saviyasi kengayganini anglay boshlaydi. Bu davrda o‘yin faoliyati asta–sekin kamayib yangi faoliyatlar yuzaga kela boshlaydi.

O‘smir bola bilan muomalaga kirishayotganda avvalo unda kechayotgan bu psixologik holatlarni unutmaslik lozim. Barchamizga ma’lumki bugungi kunda hayot tarzimiz tubdan o‘zgarib jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Ushbu o‘sish va rivojlanish davri bir qancha qulayliklar bilan birga, o‘smirlar hayotida bir qancha muammo va qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Ya’ni o‘smirlar psixologik holatini tushunmaslik natijasida, yoshlar tarbiyasidek nozik masalada ayrum kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganini guvohi bo‘lamiz. Muhtaram yutboshimiz aytganlaridek, ”Gap yoshlar tarbiyasi haqida borar ekan, bu borada shoshmaslik yoshlar va otalarining talab va istaklaridan kelib chiqib, har tomonlama puxta o‘ylab ish tutish kerak”. Yurtboshimiz tomonlaridan yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasida ko‘tarilayotgan bir davrda biz yoshlarimizni ta’lim va tarbiyasiga muhim e’tiborni qaratishimiz lozim. Shu o‘rinda Abu Abdullo Rudakiyning quyidagi so‘zlarini ta’kidlash joiz deb o‘ylayman.

Har kishi hayotda olmasa ta’lim, Unga o‘rgatolmas hech bir muallim.

Darhaqiqat, tarbiyaning asosiy maskani bu avvalo oila maskanidir. Insonni shaxs sifatidagi poydevori oilada nish uradi. Inson o‘zini o‘rab turgan dunyo haqidagi dastlabki bilimlarni, yaxshi–yomon to‘g‘risidagi boshlang‘ich tasavvurlarni, ilk tarbiyaviy ta’sirni oilada o‘rganadi. Oiladagi



ijobiy munosabatlar va yondashuvlar bolada yaxshi xislatlar shakllanishida, shaxslararo munosabatga ijobiy kirishish ko'nikmasi hosil bo'lishiga negativ fikrlardan yiroq bo'lishga, o'zidagi salbiy xislatlarni bartaraf etishga amaliy yordam beradi.

Yuqoridagi ta'kidlardan farqli ravishda o'smirlik yoshidan boshlab esa, tarbiyaning yangi omili ya'ni oz-ozini tarbiyalash vujudga keladi. Oquvchilar o'zlarida jamiyatga o'z o'rniga ega bo'lgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish sohasida o'z ustida ongli ravishda muntazam ishlay boshlaydilar. Ushbu davrda yoshlar o'zini kattalardek his qilishni boshlaydilar, o'z o'rnini bildirishga, so'zini o'tkazishga harakat qiladi, hamma vaqt o'zini haq deb biladigan bo'lib qoladi. Talim –tarbiya ishida yoshlarni o'z –o'zini takomillashtirish jaroyoni muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'tish davrida yoshlarimiz yana ham e'tibor talab, yana ham mehrga muhtoj, do'stga, sirdoshga, hamsuhbatga ehtiyoji ortib boradi. Yoshlardagi ushbu davr talim-tarbiyadagi eng nozik va ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda oilada ota-onalar, talim muassasida pedagoglar yoshlardagi ushbu o'tish davrini muammolarsiz, salbiy holatlarsiz kechishiga ko'maklashishlari zarur bo'ladi.

Qanday qilib? Haqli savol, albatta, yuqorida takidlab o'tganimizdek, yoshlarning bu davrda xohish istaklari ortib boradi, aqliy qobiliyatdan ko'ra hissiyotlarga tayanib ish tutadigan bo'lib qoladilar, o'ylab emas, his qilganini bajaradigan boladilar. Bunday vaziyatda ota- onalar va pedagoglar hamkorlikni kuchaytirgan holda yoshlaega do'stona munosobatda bo'lib ularni koproq eshitishlari hamsuhbat bo'lishlari fikr almashishlari ularning fikrlarini qo'llab quvattlashlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlari zarur bo'ladi. Hech bir inson qobiliyatsiz bo'lmaydi, faqatgina shu qobiliyatni oldindan kora bilib yoshlarni to'g'ri yo'naltirishni bilish kerak. SHuni inobatga olgan holda har bir o'tish davridagi o'smirni hech kim nazaridan chetga qoldirmasligi lozim. Bu davrda bolani atrofidagi do'stlari kim, kim bilan suhbat quryapti, qanday muhitli davralarda yuribdi, bulardan ota-onalar va o'qituvchilar xabardor bo'lishlari zarur.

O'smir davrida yoshlarimiz tez asabiylashidigan stressga tushish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. Bunday paytda sport bilan shug'ullangan yoshlarda o'tish davri oson kechadi, chunki sport bilan mashg'ulot qilish jaroyonida inson ichidagi agressiyani turli xil harakatlar orqali chiqarib yuboradi. Demak, oilada ota-onalar, talim muassasida pedagoglar emak, oilada ota-onalar, talim muassasida pedagoglar yoshlarimizga talim tarbiya berishda tog'ri va samarali yo'nalishlarni tanlab, ularni tog'ri yo'naltirishni bilsak men ishonamanki, yoshalarimizni tarbiyasida ularning xulq-atvorida salbiy o'zgarishlarning oldini olishda erishgan bo'lamiz Biz tarbiyalayotgan har bir yoshlarimiz xalqning, millatning ertasi va egalari bo'lib, bizning farzandlarimiz ajdodlariga munosib avlod ekanliklarini anglab, his etib, tarbiyalanishlari va talim olishlari zarur.

So'z yakunida V. GYUGOning quyudagi fikrini takidlab o'tishni joiz deb o'ylayman "Odamning ulug'ligi uning boyi bilan o'lchanmaganidek xalqning ulug'vorligi ham uning soni bilan o'lchanmaydi, yagona o'lchov uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidadir. "

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. L.S.Vigtskiy " Yosh davrlar klassifikatsiyasi "
2. M.G'oziyev " Yosh davrlari psixologiyasi"



ADABIY SAVODXONLIK MUAMMOLARI HAQIDA

Berdiyeva Shahloxon Yandoshovna
Navoiy viloyati, Zarafshon shahar 13-AFCHO'IM ning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Tel-99893-311-90-74

Annotasiya: Ushbu maqolada Adabiyotda yozuvchining asarlari ning o'ziga xosligi, adabiyot darsliklaridagi ayrim mulohazalar, internet haqida, hozirgi sharoitda, "informatsion portlash" davrida kitobga bo'lgan munosabat, yoshlarning kitobni o'qishiga bo'lgan qiziqishini oshirishga xos bo'lgan ayrim mulohazalar haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, Kitob, Internet, So'z san'ati, Adabiyot darslik, kino va televideniye, informatsion portlash, axborot texnologiyasi.

Adabiyotda yozuvchining asari o'quvchi tomonidan har xil qabul qilinadi, har xil tushuniladi, har xil targ'ib qilinadi. Barcha kitobxonlar tomonidan yaxshi kutib olinishi qo'lma-qo'l bo'lib ketishi muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarning tushunilishi ma'lum ma'noda maktab adabiyot darslari bilan bog'liq ekani nazarda tutilsa, e'tibor bevosita adabiy ta'limga qaratiladi. Ma'lumki, maktab hamma narsani berolmaydi, lekin u bitta juda muhim narsani, ya'ni o'quvchining butun ma'naviy hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydigan badiiy asarni mutolaa qilish, tahlil qilib o'rganish ko'nikmasini shakllantirishi kerak. Adabiyot darsliklarida ma'lum asarlar berilganidan so'ng adabiyotshunos olimlarning o'sha asar haqidagi yakuniy xulosalari, mulohazalari beriladi. Bu esa o'quvchilarni bir xil fikrlaydigan, bir xil xulosa chiqaradigan qilib qo'yadi. Bundan keyin chiqadigan darsliklarimizda mana shularni hisobga olgan holda ularni nashr etsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Asarni o'qigandan keyin xulosa qanday xulosa qilishni kitobxonning o'ziga qo'yib beraylik. Mana shunda ular o'zlari mustaqil fikrlaydigan, o'zlari har qanday masalada qat'iy qarorga keladigan bo'lishadi. Bu - mustaqil mutolaa qilish, mustaqil tahlil, mustaqil fikrlash shaklida bo'lib, uning vositasida o'quvchilarda kitobga muhabbat uyg'onishi kerak. Bizningcha, hozirgi adabiyot o'qitishning nuqsoni yoki takomili yoxud uni yaxshilash haqida fikr yuritiladigan bo'lsa, masalani, avvalo, mana shu muammodan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki adabiyot o'qitishdagi rasmiyatchilik quruqlik, hayotdan uzilish va boshqa ko'p kamchiliklar, ya'ni mustaqil mutolaa ko'nikmasini shakllantirish vazifasi yetarli darajada keskin qo'yilmaganligidan kelib chiqadi. Fan va texnikaning beqiyos taraqqiyoti, axborot texnologiyasining turli-tuman ko'rinishlari bugungi hayotimizdan mustahkam o'rin olgan. Ayniqsa, kino va televideniye yosh-u kattani o'ziga birdek mahliyo qilib, kitob mutolaasiga sarf qilinadigan vaqtni ham o'z tasarrufiga olgan. Internet orqali esa istalgan ma'lumotni hech bir qiyinchiliksiz topib olish imkoniyati berib turilgan bir davrda bugungi o'smir haqli savol qo'yishi mumkin: kitob o'qish shartmi?

Haqiqatan ham kitob o'qish shartmi? Shundoq ham vaqt ziq. Olamda har kuni roppa-rosa yarim million kitob chiqib turibdi, qaysi birini ham o'qiyman degan muammo kitobxonlikka xalaqit beradi. Bu mulohazada mantiq, lekin dahshatli mantiq bor. "Sariq devni minib", "Shum bola", "O'tkan kunlar" asarlari-ning suratga olinishi ularning, ya'ni kitobxonlarining kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Biroq kino romandagi barcha go'zalliklarni kitobxon ongiga singdira oladimi yoki kitobdan olinadigan badiiy zavq va estetik tarbiya o'sha kitobxon axloqi va ma'naviy dunyosi uchun yetarli bo'lishi mumkinligini tasavvurga sig'dira olamizmi?

So'z san'ati go'zalligi o'zi alohida sehrli olam, kitobni qo'lga olib, yosh to'kib, quvonib, g'azablanib shaxsan o'qiganga hech narsa yetmaydi. Lekin, goho ekran yoshlarni faqat tomosha san'ati bilan cheklab qo'yadi, bunday ruhda tarbiya-langani kitobxon kitob o'qisa ham undan qiziq voqeani qidiradi; tasvirlarni o'ychan, fikrchan sahifalarni, psixologik, lirik chekinishlarni tashlab o'qishni odat qiladi.

O'qishlar ham har xil bo'ladi. Birov ermak uchun o'qiydi, birov o'qiydigan

Kitobini ilmiy tahlil qilish uchun, ya'ni "burch yuzasidan". Birov bo'lak mashg'ulot bo'lmaganidan, vaqt o'tkazish uchun, birov nimanidir bilib olish uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonning taqdiriga qiziqib qolgan uchun o'qiydi.

Shu bilan birga har qanday kitobxon har qanday asarni birvarakayiga o'qib ketishi mumkin emas. Hozirgi axborot va taraqqiyot davrida tanlab o'qishga to'g'ri keladi. Agar hozirgi sharoitda, "informatsion portlash" davrida tanlamay o'qilsa, kitob dengizida g'arq bo'lib, o'qish bifoyda



mashg'ulotga aylanib qolishi mumkin. Masalan, men kitobni qo'limda qalam bilan o'qiyman. Kitob agar o'zimmiki bo'lsa, ayamadan qaydlar qilaman, buni kitobga hurmatsizlik deb hisoblamayman. Kitob o'qish uchun olingan, bezak uchun emas.

Kelinglar aziz ustozlar, o'quvchimizni mana shunday g'aroyibotlar olamiga olib kiraylik. U mana shu ajoyibotning tilsimlari ichida yashasin, unda o'zligini, kamoloti-ni topsin. Zero, Prezidentimiz ham bu mavzuga alohida urg'u berayotgan bir paytda shoirning ushbu satrlari yodimizga kelaveradi.

Jahonda kitobdan yaxshi yor o'lmas,
Davr g'amxonasida g'amgusor o'lmas.
Yolg'izlik kunjida undan har qachon,
Yuz rohat yetar, lek bir ozor o'lmas

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N.Rasulova Adabiyotdan mukammal savol-javoblar T.: Nurafshon ziyo yog'dusi .-11-20 bet
2. O.SHarofiddinov XX asr o'zbek adabiyoti tarixi . T.:O'qituvchi .- 23-28 betlar
3. A.Qahhor Adabiyot . T.: Adabiyot va san'at .- 12-14 bet



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Yoqubova Gavxarjon Ro'ziboyevna
Urganch tumani 13-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 510 75 51
g_yaqubova1313@umail.uz

Kurdosheva Jumagul Kenjaboy qizi
Xonqa tumani 19-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 221 99 83
kurdosheva.jumagul97@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiatshunoslik tushunchalarining klassifikatsiyasi, tushunchalarini shakllantirish bosqichlari, umumiy, geografik va biologik tushunchalar hamda tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tabiatshunoslik tushunchalar, klassifikatsiya, umumiy tushunchalar, geografik tushunchalar, biologik tushunchalar, ekskursiya, sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirish yakka tushunchalar.

Boshlang'ich sinflarda tabiat to'g'risidagi bilimlar tarkibiga jonsiz tabiat jismlari va hodisalari, o'simlik va hayvonlar, odam tanasining tuzilishi va salomatlikni muxofaza qilish, yilning fasllarida qishloq xo'jalik mehnati to'g'risida tasavvur va tushunchalar, oddiy jo'g'rofik tasavvur hamda tushunchalar kiradi.

Atrofiolam bilan dastlabki tanishish ularning sezgi organlarining qabul qilishiga asoslanadi. Olamni bilib olishning birinchi bosqichi-bolalarning barcha yangilarni qarab chiqishga iloji bo'lsa ushlab ko'rishga qaratilgan tug'ma intilishdir. Shunga ko'ra dastlabki tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishga o'quvchiga o'rganish ob'yekti bilan bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatini berishi kerak.

Ekskursiyalarda, kuzatishlar vaqtida o'quvchilar kundalik xayotning narsalarini qabul qilib, ulargi o'xshashlik va tafovut belgilarini topadilar. Ularda oddiy tushunchalar shakllanadi. Fikrlash jarayonida bolalarda aniq fikrlar vujudga keladi. Fikr bevosita qabul qilish va tasavvurlar asosida shakllanadi. Fikrlash faoliyati jarayonida bolalarda atrof olam to'g'risida tushunchalar shakllanadi. Tushuncha ochib beriladigan fikrlar yig'indisi uning mazmunini tashkil qiladi. Tabiat jismlari yoki ob'yektlarining birortasi to'g'risida bolalar qanchalik ko'proq fikr aytsalar, tushunchalar mazmun jihatdan chuqurroq bo'ladi. Tabiatshunoslikni o'rganishda bolalar oladigan tushunchalar jo'g'rofiy (umumiy, aloxida va yig'ma) va biologik (tur va avlod) tushunchalariga bo'linadi.

Tabiatshunoslik tushunchalari-bu umumiy muhim belgilari bilan birlashtirilgan ob'yektlar, hodisalar, jismlarining butun guruhi to'g'risidagi umumlantirilgan bilimlardir.

Tushunchalar tasavvurlardan farqlidir. Tasavvur- sezgi organlar faoliyatining, hotiraning yoki tasavvur qilish mahsulidir. Tushuncha – tafakkur mahsuloti hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi. Tushuncha butun narsalar sinfiga taaluqli umumlantirilgan mazmunni aks ettiradi. Tasavvurlar tushunchalarning sezgisi asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar o'rtasida keskin chegara yo'q. Tasavvurlar mazmunning boyib borishi, ularda narsalarning muhim xossalari tobora ko'proq aks ettirib borishi bilan umumlantiradi va tushunchalarga aylanadi.

Tabiatshunoslikni o'rganishda bolalar Toshkent, Sirdaryo, Tyan-Shan tog'lari kabi yagona tushunchalar; tog'lar, daryolar, shaharlar kabi umumiy tushunchalar; archa, qarag'ay, terak, namatak, jasmin, oq quyon, kulrang quyon kabi tur tushunchalari; daraxt, buta, quyonlar va boshqa avlod tushunchalari bilan uchrashadilar. Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida jo'g'rofiy tushunchalarini biologik tushunchalar bilan bog'lanishiga e'tibor bermoq zarur.

Maktabda o'qishning birinchi yilida bolalar atrof olam bilan tanishish o'quv kitobidan ertak va xikoyalarni o'qish, tabiatdagi kuzatishlar asosida o'simlik va hayvon organizmlari to'g'risida umumiy oddiy tabiatshunoslik tushunchalarini oladilar. Kelgusi sinflarda ular tajribalar o'tkazishda, kuzatishlar, ekskursiyalar, amaliy ishlar vaqtida tabiat to'g'risidagi konkret tushunchalarga ega bo'ladilar.



Umumiy tushunchalarni shakllantirishda o'qituvchi: ob'yektlarni maqsadga yo'nalgan holda qabul qilib olishlinishni tashkil qilishi; tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida har bir yangi tushunchani tahlil qilishi va barcha narsalarda, ilgari o'zlashtirilganlarda takrorlanadigan muhim belgilarni ajratishi; ikkinchi darajali uncha muhim bo'lmagan barcha belgilarni mavhumlashtirish, buning uchun uncha muhim bo'lmagan turlanadigan belgisi, lekin muhim belgilarini saqlagan (lola va binafsha, boychechak va lola) narsalardan foydalanish lozim.

Tabiatshunoslik tushunchalarni shakllantirishda har xil operatsiyalar: sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirishdan foydalanishga alohida ahamiyat berilish kerak.

Yakka tushunchalar – bu yoki boshqa narsalarga, hodisalariga xos bo'lgan yakka belgilardir. Agar umumiy tushunchalar atamalar bilan mustaxkamlansa, yakka tushuncha nomlar yoki shaxsiy ism bilan ifodalanadi, chunki uning nomida boshqa ob'yekt bo'lmaydi. Yakka tushunchalarini shakllantira borib, umumiy tushunchani ochishga alohida e'tibor berish lozim.

Tabiatshunoslik darslarida yakka tushunchalardan tashqari yig'ma tushunchalar ham shakllanadi. Ular umumiy belgilarga ega bo'lgan yakka tushunchalardak tarkib topadi. Yig'ma tushunchalarga kiradigan har bir yakka tushuncha o'zining individual hususiyatini saqlaydi. Tabiatshunoslik tushunchalari bevosita qabul qilish- kuzatishlarga asoslanib, o'rganilayotgan narsa yoki hodisa to'g'risida aniq va ravshan tasavvur hosil qilingan sharoitda to'g'ri bo'lishi mumkin. Tushunchani birlamchi tarzda hosil bo'lishida ob'yektlar va kurgazma materialning har xil turlari katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirmasdan, ularni fikrlash ishiga jalb qilmasdan turib tushunchalarning o'zlashtirilishiga erishish mumkin emas. Tabiatshunoslik tushunchalarni o'zlashtirishda predmetlararo bog'lanishlar (musiqa, o'qish, matematika, ona tili, mehnat, rasm) katta ahamiyatga ega.

Predmetlararo aloqalardan muntazam ravishda foydalanish bolalarning ilgari olingan bilimlarni qo'llanishiga, o'quv faoliyatning barcha turlaridan mantiqiy bog'lanish o'rnatishga o'rgatadi.

O'qituvchi tushunchalar tarkibini bilib, ularni tashkil qiluvchi elementlari bo'yicha o'quvchilar bilimini ob'yektiv baholashi mumkin. Tushunchalarni o'zlashtirishning qadriini bilish o'qituvchiga o'qitishning borishini fahmlashga, bilimni o'zlashtirish jarayoniga to'g'ri rahbarlik qilishga yordam beradi. Tushunchalarni ajratib o'qituvchi tegishli metodik uslublarni tanlaydi va qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Nuritdinova "Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi" T., 2005 yil.
2. V.M. Pakulova, V.I.Kuznetsova. "Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi". – M., Prosveteniye, 1990.
3. Petrosova R.A., Golov V.P., Sivoglavov V.I. Metodika obucheniya yestestvoznaniyu i ekologicheskoe vospitanie v nachalnoy shkole. – M., 1999.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MA’NAVIV AXLOQ- TARBIYASIDA SHAKLLANTIRISH

Yuldasheva Feruza Allaberganovna
Xorazm viloyati Shivot tumani
42-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang‘ich sinflarda dars o‘tish jarayonlarida ma’naviy axloq-tarbiyasida shakllantirishning o‘ziga xos fazilatlar va mohiyati keng yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: Ta’lim-tarbiy, qadriyatlar, axloqiy odob axloq.

Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e’tiborga olib ta’lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bugungu xalq og‘zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma’rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga odob-axloqqadoir g‘oyalarni o‘rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. ”Kelajak bugundan boshlanadi”- deydi dono halqimiz. Yosh avlodni kelgusu hayoti uni inson qilib ko‘rsatuvchi ruhiy va ma’naviy jarayonining mezonini belgilaydi. Bu borada ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari daraasiga olib chiqish ta’limni ilg‘or darajalar asosida boyitib borish yangi pedagogic tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir. Xalq musiqasi o‘zgacha ijodiyoti an‘analari, urf-odatlar asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko‘proq o‘z millatini sevisgga, g‘ururlantirishga, sharqona g‘oya va ta’limotlarini o‘rganib ularni kelajakka tatbiq etishga zamin yaratiladi.

Mustaqil Respublikamizda milliy-madaniyatimizni o‘ziga hosligini tiklash, umumta’lim maktablarida o‘qituvchilarni badiiy, axloq-tarbiyalash va kamol topish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma’naviy yetuk millat qadriyatlarini to‘g‘ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Demak, jamiyat ma’naviyatining o‘sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Qadriyatlar ta’rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta’riflash mumkin.

Umuminsoniy qadriyatlar- millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va hususiyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar-aqliy tarbiyaning shakllantirishining mazmun-mohiyatidir.

Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘la qonli anglash va ularni bajarishga nisbatan ma’suliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan ro‘yxatga o‘zlashtirilishi muhim rol o‘rin tutadi.

Shaxsning ma’naviy axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari uning uchun ustivor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. Oz navbatida dunyoqarashining boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining toboro barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida nomoyon bo‘layotgan ijodiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Xulosa qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini odob-axloq qoidalari va ma’naviy-axloqiy tarbiyalarni dars o‘tish jarayonlarida muntazam berish borish kerakliklarini doimo yodda tutishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ”Boshlang‘ich ta’lim jurnali” 2015-yil
2. Internet tarmoqlaridan



EKSKURSIYA – BIOLOGIYANI O‘QITISHNING MUHIM SHAKLI

*Азизова Маърифат
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим
мактабининг биология фани уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiya darslarida ekskursiyaning o‘rni va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekskursiya, biologiya, sinf, fan, dars, jarayon, talim.

Biologik ekskursiyalar – sinf yoki muayyan o‘quvchilar guruhi bilan o‘quv dasturiga muvofiq, o‘qituvchi tomonidan maktabdan tashqarida tabiiy muhit yoki sun‘iy yaratilgan sharoitda ob‘ektlarning yashash muhiti va unga bog‘liq holda o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv-tarbiya jarayonining muhim shakli sanaladi. Ma‘lumki, biologiya o‘quv fani sifatida o‘quvchilarni tabiat, tabiatning anorganik tarkibiy qismlari, ulardagi o‘zgarishlar va tirik organizmlarning o‘ziga xos hayotiy jarayonlari, yashash muhitiga moslashishi, ekologik jamoalar, ularda modda va energiya almashinuvining xususiyatlari bilan tanishtiradi.

O‘qituvchi rahbarligida tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatish, tirik organizmlarning xilma-xilligi, yashash muhitiga moslashishi, ular o‘rtasidagi biotik aloqa formalarini o‘rganish, o‘quvchilarda olamni yaxlit tasavvur qilish, tabiiy jamoalarning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqadorlik haqidagi bilimlarni shakllantirish, tabiiy muhitda tirik organizmlarning yashash sharoiti bilan tanishish maqsadida ekskursiyalar tashkil etiladi. Ekskursiyaning turlari. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko‘ra bir soatlik, bir kunlik va ko‘p kunlik bo‘lishi mumkin. Bir soatga mo‘ljallangan ekskursiya – maktab hovlisida yoki o‘quv tajriba maydonchasida o‘tkaziladi. Bir kunga mo‘ljallangan ekskursiya tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo‘jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog‘iga, baliqchilik yoki parrandachilik xo‘jaligiga uyushtiriladigan ekskursiya rejasi maktab o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Ko‘p kunlik ekskursiya o‘quv yilining oxiridagi kompleks ekskursiya deb, bunga tarix, geografiya, til adabiyot, jismoniy tarbiya yoki harbiy ta‘lim fani o‘qituvchilari bilan birgalikda o‘tkaziladi. Ko‘p kunlik ekskursiya rejasini pedagogik kengashda tasdiqlanadi. Ekskursiya biologiyani o‘qitishning muhim shakli bo‘lib, u quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi: tirik organizmlarning tuzilishi va organlarning funksiyalaridagi o‘ziga xos xususiyatlarni yashash muhitiga bog‘liq holda o‘rganilishi o‘quvchilar tomonidan biologik qonuniyatlarni “tabiat-inson-jamiyat” munosabatlari nuqtai nazaridan o‘rganishga imkon yaratadi; o‘rganilayotgan mavzu mazmuniga bog‘liq holda samarali tashkil etilgan ekskursiyalarda o‘quvchilarda biologik ob‘ektlarning tuzilishi, rivojlanishi va hayotiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish imkonini beradi; tirik organizmlarning jamoalari, ularning tarkibi, oziq zanjiri, energiya sarfi, biosferadagi modda va energiya almashinuvini tasavvur qilishga zamin tayyorlaydi; o‘qitishning asosiy shakli bo‘lgan darsda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni orttirish, ularni amaliyotga qo‘llash, tabiatga nisbatan ongli munosabat, kuzatish, o‘quv va amaliy mehnat ko‘nikmalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi; o‘qitish davomida alohida organizmlar va hodisalar haqida ilk bor shakllangan tushunchalar kengaytiriladi, boshqa tushunchalar bilan birikib, murakkab tushunchalarning hosil bo‘lishiga olib keladi; tabiat hodisalarini kuzatish olamning moddiyligi, tabiatdagi o‘zaro bog‘lanish va rivojlanish, tabiiy boyliklarning inson hayoti va xalq xo‘jaligida tutgan o‘rni, ularni muhofaza qilish tadbirlari bilan tanishtirish orqali Ona Vatan tabiatiga mehr-muxabbat uyg‘otish, ekologik, estetik, iqtisodiy va gigienik tarbiya berish imkoniyati vujudga keladi.

Adabiyotlar:

1. G‘ofurov A. va boshqalar. Biologiya. O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi uchun darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2018 y.

2. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E., Axmadaliyeva B.SH. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi) O‘quvslubiy qo‘llanma. “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti. Toshkent-2017 y.



ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В 5 КЛАССЕ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ОБУЧЕНИЯ

Бозорова Хилола Турмухаммедовна
учитель русского языка и литературы школы №1
Навоийской области Кизилтепинского района
tel:906198035.xilola.bozorova.@mail.ru.

Аннотация: Статья посвящена актуальному вопросу активизации интереса школьников к изучению русского языка. Игровые технологии, их элементы на уроках русского языка позволяют привлечь внимание учащихся к предмету, сделать процесс обучения более интересным для них.

Ключевые слова: повышения, мотивация, метод, игры, технология, эффективность

Как элемент любого урока, метод обучения русскому языку, как прием активизации учебного процесса и воспитания интереса к изучению русского языка на уроках - я использую игры. В этом и могут помочь дидактические игры, их периодическое использование на уроках. У учителя есть возможность выбрать методы и технологии обучения, которые, по его мнению, наиболее оптимальны для построения и конструирования учебного процесса. Любая технология обладает средствами, активизирующими деятельность учащихся, в некоторых технологиях эти средства составляют главную идею и основу эффективности результатов. К таким технологиям можно отнести игровые технологии. Их задача сделать процесс обучения занимательным, создать у детей бодрое, рабочее настроение, облегчить преодоление трудностей в усвоении нового материала. Игровые технологии я использую в основном в 5-ых классах. Это связано с тем, что пятый класс - переходный этап в жизни детей: из начальной школы - в среднюю, в мир новых учителей, новой программы, новых предметов. Задача учителей в это время - сделать так, чтобы встреча с незнакомым не испугала, не разочаровала, а, наоборот, способствовала возникновению интереса к учению. Мне как учителю русского языка и литературы приходится решать такую задачу почти каждый день. Я убедилась, что на таких уроках ученики работают более активно. Особенно радует, что те ученики, которые учатся неохотно, на таких уроках работают с большим увлечением. Если же урок построен в форме соревнования, то, естественно, у каждого учащегося возникает желание победить, а для этого они должны иметь хорошие знания. После каждого подобного урока я слышу от детей фразу: „Давайте ещё поиграем“, что свидетельствует об успешности урока. Это оправдывается, когда учитель увидит, с каким азартом работают дети. Уроки, проводимые в игровой форме или с элементами игры, дают возможность учителю вовлечь в работу одновременно всех учеников, создать благоприятную атмосферу на уроке, а использование. При изучении раздела „Фонетика“ в 5 классе использую элементы игры, что очень нравится ребятам и способствует лучшему запоминанию изучаемого материала, т.к. количество часов ограничено. Вот пример фонетической игры.

Игра „Салат“. В огороде выросли следующие овощи: морковь, капуста, репа, редька, укроп, картофель, огурцы, помидоры, свекла, лук, петрушка, салат, горох, перец, чеснок. Хозяйка для приготовления салата взяла следующие овощи: 1 - в слове 2 слога, 7 букв, бзвук (морковь); 2 - в слове 2 слога, ударение падает на первый слог, 2 согласных звука мягких (перец); 3-в слове 1 слогу все согласные звуки твердые (лук); 4 - в слове 4 слога (помидоры). В результате дети получают предложение. Для приготовления салата хозяйка взяла помидоры, морковь, перец, лук.

Игра „Новоселье“. Звери и птицы построили многоэтажный дом. Когда же стали заселяться, то начались споры, кому, где жить. И тогда решили: те животные, чьи названия состоят из одного слога, пусть живут на первом этаже, чьи названия из двух слогов - на втором этаже и т. д.

Учитель называет животное, дети отвечают, на каком этаже будет жить то или иное животное. Примеры животных: ласка, еж, барсук, енот, куница, лось, лиса, заяц, бобр, косуля, волк, росомеха, рысь, медведь, горностай.

Игра „Чей букет лучше?“ Соберите в букет цветы, в которых есть хотя бы один мягкий звук. (Цикорий, гладиолус, гвоздика, роза, ромашка, сирень, ландыш, астра, нарцисс, на-



стурция, шиповник, колокольчик, лютик, георгин, фиалка, петунья, календула, бархатцы, василёк, жасмин).

Слова на листочках напечатаны заранее, „букет“ нужно собрать в тетрадь. Этот игровой момент помогает ребятам лучше запомнить твёрдые и мягкие звуки. В 5-ом классе при закреплении темы „Фонетический разбор слова“ провожу игру „Найди лишнее“. Ребятам нужно отгадать слова и выбрать лишнее слово. Например: Аалтрек, лажок, раукжк, зоонкв. (тарелка, ложка, кружка, звонок) Рекомендую использовать и другие игровые формы на уроках русского языка: игровые задания, направленные на отработку орфографических и пунктуационных норм: „Третий лишний“; „Я работаю волшебником“; „По щучьему велению“; „Справочное бюро“; „Словарный диктант“; „Диктант-шутка“; „Диктант-молчанка“; „Цифровой диктант“; „Найди пару“; „Умный редактор“; „Отними букву“; „Вставь букву“; „Замени букву“; „Возвратная форма“; „Поставь ударение“; „Двойное ударение“; „Добавь мягкий знак“.

Анализируя результаты уроков, на которых проводились игровые технологии, можно сделать вывод о том, что игровые технологии положительно влияют на повышение знаний русского языка. Игровые технологии на уроках русского языка создают ситуацию успеха для слабых учеников, они позволяют раскрыться таким ученикам. Игры создают условия для развития творческого мышления, смекалки, находчивости, сообразительности. Таким образом, используя игровые технологии на уроках русского языка, я убедилась, что познавательная и творческая активность учеников повышается, появляется интерес к русскому языку, желание узнать новое, победить. И как следствие этой работы - успехи в конкурсах и олимпиадах.

Используемая литература:

1. Бройде М. Русский язык в упражнениях и играх. / М. Бройде. - М., 2017
- 2 .Г. Граник и другие „Секреты орфографии“, „Просвещение“, Москва, 2016г.
3. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. М.,2017



МАТЕМАТИКА О‘ҚИТИШДАГИ ИЛМИЙ ИЗЛАНИШ МЕТОДЛАРИ

*Гапурова Нилуфар Махаммадовна
Наманган вилояти Наманган шаҳар
Солих Салоҳиддинов номидаги
4 -умумий урта таълим мактабининг
математика фани уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada matematikani o‘qitishdagi ilmiz izlanish metodlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, fan, metod, tajriba va kuzatish metodi, taqqoslash metodi.

Ma'lumki, matematika fanini o'rganadigan obyekt materiyadagi narsalarning fazoviy shakllari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Ana shu shakllar orasidagi miqdoriy munosabatlarni aniqlash jarayonida matematiklar izlanishning ilmiy metodlaridan vosita sifatida foydalanadilar. Matematikadagi izlanishning ilmiy metodlari bir vaqtning o'zida matematikani o'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari vazifasini ham bajaradi. O'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari quyidagilardan iboratdir. 1. Tajriba va kuzatish. 2. Taqqoslash. 3. Analiz va sintez. 4. Umumlashtirish. 5. Abstraksiyalash. 6. Aniqlashtirish. 7. Klassifikatsiyalash. Tajriba va kuzatish metodi. Matematik obyektidagi narsalarning xossalari va ularning o'zaromunosabatlarini belgilovchi metod kuzatish deyiladi. Misol. IV-V sinf o'quvchilariga bir necha figurani ko'rsatib, bu figuralar ichidan o'q simmetriyasiga ega bo'lgan geometrik figuralarni ajratib deb buyursak, o'quvchilar barcha figuralarni ko'rib chiqib quyidagicha xulosaga kelishlari mumkin. Figuralar ichida o'zidan biror o'qqanibatan ikki qismga ajragan figuralar bo'lsin hamda ularni ana shu o'q bo'yicha buklaganda qismlar ustma-ust tushsa, bunday figuralar simmetrik figuralar bo'ladi. Ammo boshqa figuralarda o'zlarini teng ikkiga bo'luvchi to'g'ri chiziqlar bo'lmasligi mumkin. U holda bunday figuralar nosimmetrik figuralar bo'ladi. Biz figuralardagi bunday xossa va ular orasidagi munosabatlarni kuzatish orqali figuralarni simmetrik va nosimmetrik figuralarga ajratildi. Matematik obyektidagi narsalarning xossalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni sun'iy ravishda bo'lak (qism)larga ajratish yoki ularni birlashtirish tajriba metodi deyiladi. Misol. O'quvchilarga natural sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratish o'rgatiladi:

$1=1$, $2=2-1$; $3 = 3-1$; $4 = 4-1$; $5 = 5-1$; ... O'quvchilarda ixtiyoriy natural sonlarni misolda ko'rsatilganidek, tub ko'paytuvchilarga ajratish jarayonida tajriba hosil bo'lib, ular natural sonlar to'plamida tub va murakkab sonlar mavjud ekanligini tushunib yetadilar. Murakkab natural sonlarni ham tub ko'paytuvchilarga ajralishini, ammo ularning ko'paytuvchilari kamida uchta va undan ortiq bo'lishini tajriba orqali tekshirib ko'radilar. Masalan: $4=2*2-1$; $6 = 3-2-1$; $25 = 5-5-1$; $36 = 3-3-2-2-1$. Kuzatish va tajriba natijasida tub hamda murakkab sonlarni qonun va qoidalari o'quvchilarga tushuntiriladi. Taqqoslash metodi. O'rganilayotgan matematik obyektidagi narsalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlovchi metod taqqoslash metodi deyiladi. Taqqoslash metodi ham ilmiy izlanish metodlaridan biridir. Taqqoslash metodini matematika darslarida o'rganilayotgan mavzu materiallariga tatbiq qilishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi: 1) taqqoslanayotgan matematik tushunchalar bir jinsli bo'lishi kerak; 2) taqqoslash o'rganilayotgan matematik obyektidagi narsalarning asosiy xossalari nisbatan bo'lishi kerak.

Misol. Uchburchak figurasi bilan to'rtburchak figurasi taqqoslanganda ularning o'xshash tomonlari: uchlari, burchaklari; ularning o'zaro farqli tomonlari: a) uchburchakda uchta uch va uchta tomon; b) to'rtburchak to'rtta uch va to'rtta tomondan iboratligi aniqlanadi.

Bu misolda taqqoslashning ikkala prinsipi ham bajarildi, ya'ni uchburchak va to'rtburchak figuralari bir jinsli tushunchalar bo'lib, ikkalasi ham ko'pburchakning xususiy hollaridir hamda taqqoslash metodi ikkala figuraning asosiy xossalari nisbatan amalga oshirildi.

Adaboyotlar:

1. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi». T., «O'qituvchi» 1992.
2. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi» Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 va boshqalar elementar matematikadan masalalar.



МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИНТЕРФАОЛ ЎҚИТИШ УСЛУБЛАРИДАН Фойдаланиш истиқболлари

Жўраева Нигора Эсановна
Қашқадарё вилояти Миришкор тумани
17-мактаб биология ўқитувчиси
Телефон: +998(97) 5852281
Jurakulova_N@bk.ru

Бозорова Гулноз Раджабовна
Қашқадарё вилояти Яккабоғ тумани
55-мактаб биология ўқитувчиси
Телефон: +998(99) 9598481
Bozorova_G.R@bk.ru

Хушматов Шунқор Садуллаевич
биология фанлари доктори,
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлиги бўлим бошлиғи,
Телефон: +998(93)5870456
Khushmatov_Sh.S@bk.ru

Аннотация: Мақолада Республикамизда педагогика тизимида амалга оширилаётган ислохотлар ва мактаб таълим тизимида интерфаол ўқитиш услублари истиқболлари муҳокама қилинган.

Калит сўзлар: Мактаб таълим тизими, интерфаол ўқитиш услублари, «Мияга ҳужум», «Микрофон».

«Қизиқарли дарс – энг тўғри дарс»
А.Эйнштейн

Республикамизда мактаб таълим тизимида кенг кўламдаги ислохотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги «Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ПҚ-4884-сонли Қарори, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 августдаги «Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4805-сонли Қарорида мактаб таълим тизимида фанларни, жумладан кимё, биология фанларини ўқитиш сифатини ошириш, ўқитиш методологиясини замон талабларига мослаштириш юзасидан аниқ вазибалар белгиланган [1, 2].

Мактабда замонавий таълим жараёни дарс ўтиш жараёнига ижодий ёндашувни талаб этади. Замонавий инновацион технологиялар, компьютер-коммуникация воситалари ўқувчиларга уларнинг истеъдоди, билимларни ўзлаштириш даражасига кўра, дифференциал таълим бериш, ўз навбатида жараён интенсификацияси, самарадорлиги даражасини ошириш имконини беради. Айниқса, бунда интерфаол (*interact* – *ўзаро муносабат, act* – *ҳаракат, фаолият* деган маънони англатади) дарс услубларидан фойдаланиш ўқувчиларда назарий-амалий билимларнинг тез ўзлаштирилиши, кўникма ва малакаларнинг барқарор шаклланишида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Мактабда биология дарсини ўтишда «Аквариум», «Ғоялар доираси», «Мияга ҳужум», «Пресс», «Микрофон» каби интерфаол таълим услублари ўқувчиларда фақат маъруза шаклидаги анъанавий дарс услубига нисбатан билимларни ўзлаштиришда юқори самара бериши қайд қилинади [3].

Мактабда биология фани ўқувчиларда атроф-олам ҳақида илмий тасаввурлар шаклланиши, одам организмнинг тузилиши ва функцияси, гигиена қоидалари, табиатга онгли муносабатда бўлиш, экологик онг шаклланишида муҳим ўрин тутди.

Интерфаол дарс услубларининг мақсади – ўқувчиларда ўз-ўзини англаш, ижодий ёнда-



шувларни ривожлантириш, амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, билимларни ўзлаштиришда фаоллик, ўз фикрини тўғри билдира олиш, коммуникацион жиҳатларни ривожлантиришга йўналтирилади.

Интерфаол дарс ўтиш услубининг муҳим жиҳатларидан бири – бу, ўқувчиларда билимларни фаоллаштиришни тўғри ташкил этиш, муаммоли мавзуни тўғри танлаш, ўқувчилар дарс жараёнида фақат ноофаол тавсифдаги «тингловчи» эмас, балки «фаол шитирокчи» сифатида ўрин тутишига эришишдан ташкил топади.

Ўқувчилар интерфаол дарс давомида ўзаро ва ўқитувчи билан фаол тарзда муносабатда бўлиши орқали уларда жамиятда одамлар билан ўзаро муносабатларга кириша олиш кўникма ва малакалари ривожланади.

Масалан, «Мияга хужум» (*brainstorming*) услубида ўқитувчи томонидан ўртага ташланган муаммоли мавзу ўқувчилар томонидан фаол муҳокама қилиниши, турли хил жавоб вариантлари ишлаб чиқилиши (*фикрлар генерацияси*) орқали уларда ижодий ёндашув фаолияти шаклланиши ва ривожлантирилиши имконини беради. «Микрофон» услубида эса, биология фани дарсларида «Қоннинг таркиби қандай тузилган?» каби саволларга ўқувчилар навбат билан жавоб бериши орқали уларда ўзаро фикрлар алмашинуви, фаоллик даражаси оширилади.

Айниқса, кичик синфларда биология дарсларини ўтишда интерфаол дарсни «ўйин» шаклида ташкил қилиш билим бериш жараёни самарадорлигини сезиларли ошириши қайд қилинади. Шунингдек, мактабда биология дарсларини ўтишда замонавий компьютер технологиялари муҳим ўрин тутди [4].

Шундай қилиб, интерфаол дарс ўтиш – бу, билим олиш фаолиятининг ўзига хос, педагогик жараён самарадорлигини оширишнинг потенциал имкониятлари юқори услуби ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги «Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ПҚ-4884-сонли қарори // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://lex.uz/docs/5085887> Дата обращения: 14.12.2020 г.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 августдаги «Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4805-сонли Қарори // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://lex.uz/ru/docs/4945470> Дата обращения: 14.12.2020 г.

3. Никишина И.В. Инновационные педагогические технологии и организация учебно – воспитательного и методического процессов в школе: использование интерактивных форм и методов в процессе обучения учащихся и педагогов // Волгоград. – Изд-во «Учитель», 2007. – С.91.

4. Пасечник В.В. Компьютерная поддержка урока биологии // Биология в школе. – 2002. – №2. – С.30-34.



ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАР ВА УРФ-ОДАТЛАРНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ

А.С.Исмаилов

Ажиниёз номидаги НДПИ тадқиқотчиси
Телефон: 905931147. эл почта: qr_azik@mail.ru

Аннотация: Халқимизнинг миллий анъаналар, урф-одатлари ҳақида сўз юритилди. Умуман маданий меросларни баҳолаш қадимий дастурлар билан урф-одатлармизни насихатлаш масалалари ўз олдига қўйган мақсадига эришиш йўлида, шу билан бирга шу йўлда одамларни айниқса ўқувчи ёшларга миллий тарбия бериш, маънавий ва одоб-охлоқ томондан тарбиялаш ҳақида ёшларимиз маълумот олиши мумкин.

Калит сўзлар: миллий анъана, урф-одат, миллий таълим-тарбия, одоб-ахлоқ, маънавият, насихат.

Юртимизда ишлаб чиқаришнинг барча соҳаларида юз бераётган ўзгаришлар, баҳс-мунозаралар, ҳар хил фикр ва тушунчалар мактаб ҳаётида, хусусан, ёшларни тарбиялаш борасида ўз таъсирини кўрсатмоқда.

Ҳозирги вақтда ёш авлодга таълим-тарбия берувчи устоз-муаллим олдида маънан етуқ, комил инсонни тарбиялаш вазифаси турибди. Бу талабни муваффақиятли амалга оширишда халқ педагогикасининг тутган ўрни бекиёс. Бизнинг халқимиз ўз ҳаёти давомида «намунали ул (ўғил), қирмизи қиз» ўстирган. Халқимизнинг ўз тарихи, маданияти, урф-одати, миллий маънавияти, бетакрор – миллий анъана ва қадриятлари, дастурлари бор. Унутилиб бораётган, бироқ таълим-тарбия фаолиятида ўрни бекиёс қорақалпоқ халқ миллий дастурларини ёш авлод онггу-шуурига сингдириш, мактабда таълим-тарбия жараёнларини ташкил этишда қорақалпоқ халқ педагогикасининг энг яхши миллий дастурларини ўргатиб бориш мактаб таълим-тарбиясида кенг татбиқ қилиниши лозим.

Қайси халқ бўлмасин, у ўз авлодларига тарбия жараёнида миллий маънавий қадриятларни, миллатга хос барча эзгу фазилатларни таълим-тарбия мезонлари асосида етказиб боришга интилади, «Ўз элининг миллийлигини кўз қорачиғидай сақлашни, хусусан, ёшлар билимли, ҳунарли, маданиятли қобил фарзанд бўлиб вояга етса экан дея армон қилади».

Ёшларни миллий анъаналар ва урф-одатлар асосида тарбиялашда, халқимизнинг меҳр-муруввати, шафоати, тажрибаси, аждодларга ҳурмат, ёши улуғларни сийлаш ва ғамхўрлик қилиш, асраб-авайлаш, одоб-ахлоққа риоя қилиш каби урф-одат ва қадриятларимизни ўргатиш лозим.

Урф-одат, анъана ва дастурлар маълум даражада таълимий-тарбиявий аҳамиятга эга. Булар ҳар бир халқ ҳаётидаги ютуқларни умумлаштирувчи, янги авлодни кекса авлодлар билан боғловчи кўприк, эски турмуш сарқитларини ўзида жо қила олган, ўзининг тарихий воқеликка хизмат қилувчи, жамиятнинг маданий ва маънавий тараққиётига тўхтовсиз таъсир этувчи куч бўлиб саналади. Унинг ички мазмунида халқнинг, миллатнинг, инсониятнинг ҳаётий зарурати акс эттирилиб, янги авлоднинг маънавий шаклланишини рўйи-рост кўрсата оладиган мураккаб ижтимоий муносабатлар жамланган. Урф-одат ва анъаналар ижтимоий маънавий ҳаётнинг ҳар бир босқичидаги халқларнинг тарихий, иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий аҳамиятини акс эттирувчи, атроф муҳитга муносабатини тартибга солувчи қудратли куч саналади. Ҳақиқатан, халқнинг ўзига хос рамзлари билан кўзга ташланиши, бошқа халқлар томонидан тан олинishi ва эътирофга сазовор бўлиши, энг яхши урф-одат ва анъаналари, қадриятлари халқ педагогикаси мазмунини белгилаб беради.

Ёшларни халқимизнинг миллий анъаналари ва урф-одатлари асосида тарбиялашда, ўқувчиларга шу асосда тўлиқ маълумот берилади. Унинг тарбиявий аҳамияти кенг татбиқ қилинади. Шу орқали таълим-тарбия соҳасида кўндаланг турган вазифаларни амалга ошириш кўзда тутилади. Буни амалга ошириш учун ўқувчилар билан «Халқимизнинг миллий анъаналарини биласизми?», «Бешик қўшиғи (алла)» – бола тарбиясининг дастлабки босқичи» деган мавзуларда дискус дарслар, фикр алмашувлар, амалий машғулотлар ўтказиш мақсадга мувофиқ.

Қорақалпоқ халқ миллий анъаналари билан ўқувчиларни таништириш мақсадида болалар боғчасида, мактабларда тарихий этнографик музейлар ташкил қилинса, экспонатлари



таълим-тарбия фаолиятида фаол фойдаланилса, айти муддао бўлар эди.

Халқимиз ҳамиша жамият ва ҳаётдаги муҳим воқеалар тафсилотини тантанали равишда нишонлаб асрлар давомида ўз анъаналарини, урф-одатларини, миллий қадриятларини шакллантирди ва уни ижтимоий ҳаёт элагидан ўтказди.

Миллий анъаналаримиз – халқимизнинг руҳий ўзига хослигини, миллий маданий тараққиёт даражасини юксалтириш орқали бошқа халқлардан ажратиб турадиган хусусиятига эга. Болаларни қорақалпоқ халқ маданияти, халқимизнинг миллий анъаналари, урф-одатлари, миллий тафаккури билан мунтазам таништириб, ўргатиб бориш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алеуов У. Қарақалпақстанда талим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиўи хәм раўажланыўы.- Нөкис: Билим, 1993. – 503 б.
2. Есбергенов Х. Қарақалпақлардың гейпара дәстүрлери ҳаққында. –Нөкис. «Қарақалпақстан». 1964 ж.
3. Пазилов А. Миллий тәрбия ҳаққында ойлар–Нөкис, «Қарақалпақстан», 2000, 56 б.
4. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық 77-87-томлар. Нөкис «Илим» 2014-ж.



МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИ ЎҚИШГА БЎЛГАН ҚИЗИҚИШНИ ШАКИЛЛАНТИРИШДА КЎРГАЗМАЛИЛИК МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Рўзиева Назира Ёдгоровна
ТДТУ Термиз филиали ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада Мактабгача таълим муассасаси тарбияланувчилари-нинг ўқишга бўлган қизиқишини шакиллантиришда кўргазмалилик методидан фойдаланиш болаларнинг манавий бой, ахлоқий етук, зийрак, топқир, интеллектуал ривожланган, юқори билимли, бўлиб шакилланишида кўргазмалилик методининг ўрни ғоят катта эканлиги баён этилган.

Калит сўзлар: Мактабгача таълим, Тарбиячи, тарбияланувчи, тафаккур, кўргазмали-образли, кургазмали характерли, теварак-атроф.

Мамлакатимизда таълим тизимини такомиллаштириш, Ватан равнақини таъминлай-диган ёш авлодни тарбиялаб вояга етказиш масалаларига жиддий эътибор берилмоқда. Жамият ривожланишининг ҳозирги босқичида баркамол авлодни тарбиялаш энг асосий, кечиктириб бўлмайдиган муҳим вазифалардан биридир. Шундай экан мактабгача ёшдаги болаларнинг ўқишга бўлган қизиқишини шакиллантиришда ўқув машғулотларида тур-ли хил усул ва методлардан фойдаланиш ёш авлодни тараққий эттиришда муҳим восита ҳисобланади.

Таълимнинг кўргазмалилик методи. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларнинг тафак-кури кўргазмали–образли, кўргазмали–характерли хусусиятга эга.

Тарбиячи бирор нарса ҳақида гапирётганда уни буюм, ҳодиса, ўйинчоқ ва суратларни кўрсатиш билан тўлдириб борса, болалар уни тез ва яхши тушуниб оладилар ҳамда яхши эслаб қоладилар. Шунинг учун болаларнинг тэварак – атрофдаги дунё ҳақидаги билим-ларни онгли равшда ўзлаштириб олишлари учун турли хил идроклардан, кўриш эшитиш сезиш, таъм билиш ва ҳокозалардан фойдаланиш лозим. Масалан кичкинтойларни ме-валар билан таништираётганда тарбиячи меваларни кўрсатади, болаларнинг диққатини уларнинг ранги, шаклига қаратади, ушлаб (олма қаттиқ, силлиқ ва ҳ. к.) ҳидлаб кўришга беради. Машғулот охирида эса таъмини татиб кўришга рухсат беради. (олма серсув, ши-рин ёки сал нордонроқ, мазали). К.Д.Ушенский мактабгача тарбия ёшидаги болаларнинг хусусиятлари ҳақида тўхталиб шундай деб ёзган эди. “Болалар табиати кўргазмалиликни талаб этади. Боланинг ўзига номальум бўлган қандайдир бешта сўз ўргатиш. У буларни ўрганиши учун узоқ ва беҳуда азоб чекади, лекин шундай сўзлардан

ийгирматасини суратлар билан боғланг– бола уларни бир зумда ўзлаштириб олади. сиз болага энг оддий сўзларни тушунтираяпсиз, бола эса сизни тушунмаяпти. Сиз худди шу болага мураккаб суратни тушунтирсангиз, у сизни тезда тушунади”

Болалар билиб олаётган нарсаларини ҳиссий идрок этишлари учун уларни кузатувчан-ликка ўргатиш керак.

Таълимнинг системалилиги ва изчиллиги. Болалар боғчасида таълим-тарбия дастури-да материал мантиқий изчилликда. Боғлиқликда тавсия этилади. Билимларнинг ҳажми ва мазмуни мактабгача тарбия ёшидаги болаларнинг ёш хусусиятини ҳисобга олган ҳолда белгиланади.

Агар болалар бундан олдинги машғулотларда ўтилганларни ўқиб олмаган бўлсалар, бундан кейинги машғулотда таништириладиган нарсаларни онгли суратда ўзлаштириб ололмайдилар. Шунинг учун дастур материали аста-секин мураккаблаштириб борилади.

Системалаштириш – нарса ва буюмларни, воқеа – ҳодисаларни муҳим сифати ва ху-сусиятига қараб гуруҳлаштириш демақдир. Болалар боқчасининг кичик гуруҳи дастурига – нарса ва буюмларнинг ранги, шакли, Катта- кичиклигига қараб гуруҳлаштириш кири-тилган; каттароқ гуруҳларда эса материалнинг белгисига қараб гуруҳлаш (ёзда, баҳорда. боғда, далада полизда, ўтлоқда нималар ўсади),уй ҳайвонлари. Учуб келувчи қушлар. Озиқ-овқат маҳсулотлари, ташқи белгилари ва шунга ўхшашларга қараб гуруҳланади.

Сурхондарё вилояти Териз шаҳридаги 9-сонли Мактабгача таълим муассасасининг тайёрлов гуруҳи тарбияланувчиларида кўргазмалилик методидан фойдаланиб машғулот



ўтказилганда юқори даражаларга эришдилар яни фасиллар тасвирланган кўргазмалардан фойдаланиб машғулот олиб борилганда болалар фаол иштирок этишдилар.

Хулоса қилганимизда кўргазмалилик методи болаларнинг онгини, диққатини, хотирасини, тафаккурини ўсишида муҳим рол ўйнайди

Адабиёт

1. П.Юсупова “Мақтабгача тарбия педагогикаси” Тошкент “ ўқитувчи” нашрети 1993й.



БО‘Г‘ИН USTIDA ISHLASH

*Собирова Муножат Жалолитдиновна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим
мактабининг бошланғич таълим уқитувчиси*

Annotatsiya; ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda bo‘g‘in tushunchasi bilan ishlash va uni o‘quvchilarga o‘rgatish tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘g‘in, ona tili, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, ta‘lim

Bo‘g‘in murakkab tushuncha bo‘lgani uchun boshlang‘ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko‘ra, o‘quvchilarda so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. O‘quvchilar so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lishda so‘zda nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o‘rgatish davridayoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so‘zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so‘zda nechta unli bo‘lsa, uni shuncha qism (bo‘g‘in)ga bo‘ladilar.

1-sinfda o‘quv yilining birinchi yarmida og‘zaki va yozma tarzda bo‘g‘inlarga bo‘lish, shuningdek, o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra, muayyan bo‘g‘inli so‘z tanlash mashqlari har darsda o‘tkaziladi. So‘zni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri va tez bo‘lish ko‘nikmasini hosil qilish 1-sinfda o‘tkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi. O‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini egallashda mana shu ko‘nikmaga tayanadilar. O‘zbek grafikasida bo‘g‘in tamoyili yetakchi tamoyil hisoblanadi. O‘quvchi so‘zni to‘g‘ri yozish uchun uni avval bo‘g‘inlarga bo‘ladi. Bo‘g‘inlardagi tovushlarning o‘zaro bir-biriga ta‘sirini aniqlaydi, undosh va unli tovushlarni ifodalash uchun zarur harflardan foydalanadi. O‘quvchi quyidagicha muhokama yuritadi:

— „Vatan” so‘zida ikki bo‘g‘in bor. Birinchi bo‘g‘inga va; ya‘ni v, a harflarini yozaman, ikkinchi bo‘g‘inga tan: ya‘ni t, a, n harflarini yozaman. O‘quvchi so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish, bo‘g‘indagi har bir tovushning o‘rnini, tartibini aniq ko‘z oldiga keltirib, bo‘g‘inlab aytish ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, so‘zdagi harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay yoza oladi. Shuning uchun bo‘g‘in ustida ishlashga so‘zni bo‘g‘inlab ko‘chirib yozish. bo‘g‘inlab diktovka bilan yozish (bo‘g‘inlab izohlab yozish) mashqlarini ham kiritish lozim. Ikkinchidan, so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasi o‘quvchilar uchun so‘zning oldingi qatorga sig‘may qolgan qismini keyingi qatorga bo‘g‘inlab to‘g‘ri ko‘chirish uchun zarur. O‘quvchilar „So‘zlar bir yo‘ldan ikkinchi yo‘lga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi” va „Bir harfdan iborat bo‘g‘inni oldingi yo‘lda qoldirib yoki keyingi yo‘lga ko‘chirib bo‘lmaydi” degan asosiy bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini I sinfdayoq o‘rganadilar. Oddiy tuyulgan birinchi qoida ham so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga mos keladigan maktab, Ra‘no, singil kabi so‘zlar misolida juda ko‘p mashqlar bilan mustahkamlashni talab etadi. Bolalar, ayniqsa, singil, ko‘ngil, tongi kabi so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lishda qiynaladilar, chunki bu so‘zlarda bitta jarangli undosh tovaish ng harf birikmasi bilan ifodalanadi. Bu so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lishda bu ikki harf sing-lim, ko‘ng-lim, tong-gi so‘zlaridagi kabi oldingi bo‘g‘inda qolishi, yoki si-ngil, ko‘-ngil, to-ngi so‘zlaridagi kabi keyingi bo‘g‘inga ko‘chirilishi kerak (Bir tovushni ifodalagan harfni ikkiga bo‘lib bo‘lmaydi). Keyingi qoida esa aka, ota, oila, mudofaa, mutolaa kabi so‘zlar misolida yanada ko‘proq mashq bilan o‘rgatish va mustahkamlashni talab etadi. Bu qoidalar keyingi sinflarda yangi murakkabroq so‘zlar misolida mustahkamlab boriladi.

Dasturga ko‘ra, tutuq belgisi {m a‘no, sun‘iy kabi) so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish va ko‘chirishda tutuq belgisi har doim birinchi bo‘g‘inda bo‘lishi, katta, ikki kabi ikkita bir xil undoshli so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lganda ikkita bir xil undoshning biri oldingi bo‘g‘inda qolishi, ikkinchisi keyingi bo‘g‘inga o‘tishi (kat-la, ik-ki kabi) o‘quvchilarga 2-sinfdayoq o‘rgatiladi.

Adabiyotlar:

1. Q. Abdullayeva. Birinchi sinfda nutq o‘stirish. — T.: 1980.
2. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova. „Ona tili darslari 41 (1 -sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma). - T.: 1999



РАЗВИТИЕ СВЯЗНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Тургунов Мусохон Гофурович
Учитель русского языка и литературы
общеобразовательной школы
№ 7 Уйчинского района Наманганской области

За термином «связная речь» в методической литературе закрепилось два основных значения. Под связной речью понимается процесс, деятельность говорящего (пишущего), «длительное, последовательное, связанное изложение системы мыслей, знаний одним лицом» (С. И. Львова, В. И. Капинос, М. Т. Баранов). Связной речью называют также продукт этой деятельности — высказывание, которое предполагает наличие определенной внутренней (смысловой) и внешней (языковой), конструктивной (структурной) связи отдельных его частей.

Значение работы по развитию дара слова для жизни, для раскрытия умственных и творческих способностей детей, для решения задач воспитательного характера всегда осознавалось методистами. Не случайно по вопросам развития речи существует богатая литература. При этом большое внимание уделялось разработке средств обучения изложениям и сочинениям, которые еще Ф. И. Буслаев относил к упражнениям «высшего порядка». Однако как самостоятельная область со своим содержанием работы раздел «Развитие связной речи» стал складываться только в то время, когда в психологической науке появилась теория и письменной речи детей, а также наблюдения за тем, что их затрудняет при развертывании (оформлении) высказывания и что помогает преодолевать эти трудности. Несмотря на сравнительно большое количество литературы, посвященной изучению речи детей, становление, формирование у них именно связной речи исследовано недостаточно. Обычно отмечается, что развитие связной речи идет от диалога к монологу, от ситуативной речи, состоящей из отдельных, не связанных друг с другом предложений (понятных в определенных ситуациях), к контекстной речи (когда высказывание понятно вне ситуации, в которой оно имеет место). Как правило, в детских высказываниях анализируется их содержательность, последовательность, особенности речевого оформления. При этом используются следующие критерии: 1) объем высказывания, который чаще всего устанавливается через подсчет слов и предложений; 2) словарное богатство высказывания, которое устанавливается по отношению словарных единиц к общему количеству слов в высказывании; 3) количество микротем (смысловых единиц) и их развернутость; 4) среднее количество слов в предложении; 5) количество лексических, стилистических и других ошибок на определенный отрезок текста; 6) наличие (частота употребления) определенных языковых средств (например, оценочных слов и др.). О содержании работы по развитию связной речи. Вопрос о содержании работы по развитию связной речи является наименее исследованным в методике. Традиционными видами письменных высказываний, предназначенных для развития связной речи учащихся, являются изложения и сочинения, которые вместе с тем представляют богатые возможности для осуществления различных воспитательных и образовательных целей. Действующая сегодня программа предусматривает целенаправленное формирование умений, необходимых пишущему для того, чтобы он смог построить текст. Умения, которыми должны овладеть школьники, соотносятся с тремя основными и взаимосвязанными этапами работы над самостоятельным текстом: процессом подготовки сочинения, процессом непосредственной работы над текстом (написание сочинения, изложения) и процессом совершенствования написанного. процессом совершенствования написанного. Чтобы оценить практическое значение этих умений, нужно принять во внимание то обстоятельство, что, овладевая письменной речью, школьники овладевают новым средством общения, что они должны научиться писать с ориентацией на восприятие читателя, научиться передавать читающему средствами письменной речи свои мысли и чувства. Такой подход к определению содержания работы по развитию связной письменной речи позволил решить вопрос о том, чему надо учить, имея в виду связную устную речь. Исходя из того, что между устной и письменной формой речи (с лингвистической и психологической точек зрения) имеется много общего, в основу работы по развитию устной речи можно положить те умения, которые являются общими для



устной и письменной связной речи. Однако эти умения следует конкретизировать применительно к специфическим задачам работы по развитию связной устной речи, к которой относится обучение свободной (с элементами словесной импровизации), правильной и выразительной устной речи. Правильность устной речи предполагает соблюдение норм орфоэпии, выразительность устной речи – умение пользоваться средствами звуковой выразительности, а также жестом и мимикой. Задачи обучения свободной устной речи также требуют особой работы: надо научить школьников пользоваться различными приемами подготовки к устным высказываниям, строить различные в композиционном отношении устные высказывания. Под этим углом зрения рассмотрим основные умения связной речи (их называют также коммуникативными) более подробно. Умение раскрывать тему и основную мысль высказывания. С обдумывания найденной самостоятельно или заданной темы начинается общение пишущего (говорящего) с читателем (слушателем): формулировка темы дает автору представление о том, с какой установкой будут воспринимать его высказывание те, кому оно адресовано.

Литература

1. Гальперин, И. Р. Текст как объект лингвистического исследования / И. Р. Гальперин. – М. : Наука, 1981.
2. Жинкин, Н. И. Речь как проводник информации / Н. И. Жинкин. – М. : Наука, 1982.



МАКТАБ ГРАММАТИКАСИ ВА ИЛМИЙ ГРАММАТИКА. ГРАММАТИК ТА'РИФ ВА ТЕРМИНОЛОГИЯ

*Турсунова Гулбахор Дедашбоевна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим
мактабининг она тили ва адабиети фани уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab grammatikasi va ilmiy grammatika taqqoslangan va tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: grammatika, grammtik taʼrif, terminologiya, dars, ot, sifat, son.

Maktabda grammatika oʻqitishning maqsadi oʻquvchilarga soʻz tuzilishi va gap qurilishi haqidagi qonun-qoidalarni oʻrgatishdan iborat boʻlib, u ona tili kursining boʻlimlarini (orfografiya, punktuasiya, stilistika) oʻrgatishni koʻzda tutadi. Bu esa fikrni toʻgʻri, ravon, aniq ifodalash imkonini beradi.

Grammatika oʻqitish oʻquvchining umumiy bilim doirasining kengayishiga yordam beradi. Grammatika oʻqitish jarayonida oʻquvchining til sezgirligi oshadi. Bu holat ularda soʻz tanlash, soʻzni oʻrnida ishlatish, gapni toʻgʻri tuzish malakalarini hosil qiladi. Quyidagi gaplarni taqqoslaylik: Temir yoʻlda yotibdi.

Temir yoʻlda yotibdi. (bir bosh boʻlakli shaxsi aniq gap)

Uzoqdan uch gul koʻtargan qiz koʻrindi.

Sharqqa Uzoq joʻnatildi.

Uzoq Sharqqa joʻnatildi.

Demak, grammatikani yaxshi bilish boshqalarning fikrini ham toʻgʻri tushunishga, aniq anglab olishga yordam beradi. Toʻgʻri soʻzlay olish, xatosiz yozish uchun grammatikadan olgan bilimlarini amalda qoʻllay olmagan oʻquvchi toʻgʻri yozish qoidalarini ham ongli oʻzlashtira olmaydi. Hozirgi kungacha tilshunoslikning dolzarb mavzulariga doir oʻnlab yirik ishlar yuzaga keldi. Bunga A. Gʻulomovning morfologiyaga oid, G. Abdurahmonov, M. Asqarovalarning qoʻshma gap sintaksisiga oid va boshqa bir qator olimlarning soʻz turkumlariga oid ishlari oʻzbek tilshunosligining katta yutuqlaridan sanaladi. Maktab dasturi va darsliklarida katta hajmdagi hamda chuqur lingvistik xulosalarning hammasini berib boʻlmaydi. Bu ilmiy xulosalardan oʻquvchilar yoshiga, qabul qila olish darajasiga mos keladigan, shu bilan birga, juda katta amaliy ahamiyat kasb etgan, hayotiy tomonlari bilan ajralib turadigan oʻrinlarini sinflar boʻyicha taqsimlab beriladi. Masalan: qaratkich kelishigi qoʻshimchasi orqali oʻnlab maʼnolar ifodalanadi. Lekin maktabda uning qarashlilik yo xoslik bildirishigina oʻrgatiladi. Dastur va darsliklarida oʻzbek tilshunosligi berayotgan ilmiy xulosalardan maktab uchun mos qoidalar, tushunchalar kiritiladi va oʻqitiladi. Ilmiy va maktab grammatikasi orasidagi uzviy bogʻlanish va ularning oʻziga xos xususiyatlari mana shu oʻrinda namoyon boʻladi. Demak, maktabda ona tili fani oʻzbek tilshunosligida qoʻlga kiritilgan yutuqlarga tayanadi. Ammo tilshunoslikdagi ayrim notoʻgʻri talqinlar darsliklarda ham oʻz ifodasini topgan. M. U kelgach, men ketdim. v- li va v- siz toʻldiruvchilar kabilar. Morfologiya va sintaksisni bogʻlab oʻrgatish yoʻllari. Oʻzbek tili nihoyatda soʻzga va maʼnoga boy boʻlib, soʻzlarning asl maʼnosi gap ichida ochiladi. Shuning uchun ham maʼnodosh soʻzlar yoki qoʻshimchalarning anglangan maʼnosi hamda qaysi soʻz turkumiga oidligi soʻz birikmasi va gap orasida tushuntirilsa, oʻquvchilar ongiga yetib boradi.

Oʻzbek tilining morfologiya boʻlimida ot turkumi oʻrganiladi. Ot turkumiga oid soʻzlar nutqimizda eng koʻp qoʻllanadi. Bunda tovush jihatidan har xil boʻlgan soʻzlar ot, yosh, ter, koʻk kabilarning bir necha maʼnoda qoʻllanishi faqat gap ichidagina aniqlash mumkin. M:

Qoʻlingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasixatim yod qilib ol, farzandim.

Yolgʻiz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Bu toʻrtlikdagi “ot” soʻzi “nom”, “uloqtir”, “hayvon” maʼnolarida ishlatilgan. (Bu soʻzlar morfologik tomondan bir soʻz turkumiga oid emas.) Grammatikaning teng huquqli boʻlimlari morfologiya bilan sintaksis doim bir-biri bilan bogʻliqdir. Mustaqil soʻz turkumlari-ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish kabilar gapda maʼlum bir sintaktik vazifani bajaradi, ular gapning



biror bo‘lagi bo‘lib keladi. O‘quvchi sintaksisni o‘rganib, ayrim so‘z turkumlarining morfologik belgilarini ularning sintaksis xususiyati bilan solishtirib, til hodisalarini ongli tushuna boradi. M: sifat turlanmaydi, gapda, odatda, aniqlovchi yoki kesim bo‘lib keladi. Lekin sifatlar ba’zan ot kabi qo‘llanib, gapda ot bajaradigan vazifalarda keladi. Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin. Bunday paytda ular turlanadi. yaxshilarni yaxshilarga O‘quvchilar bunday hodisalarni anglay borib, morfologiya bilan sintaksisning aloqasini, so‘z turkumlarini, uning tabiatini bila boradilar.

5-7-sinflarda sintaktik tushunchalar hosil qilish uchun alohida dars soatlari ajratilmagan, balki morfologik mavzularni o‘rganish bilan birgalikda olib boriladi. Yangi sintaktik vazifalarni aniqlash morfologiyadan nazariy ma’lumotlarni mustahkamlash maqsadida bajariladigan mashqlarni to‘ldirish uchun ko‘maklashadi. Ko‘pincha, otning gapdagi sintaktik vazifasini to‘g‘ri aniqlay bilmaslik, gapning sintaktik qurilishini tushunmaslik o‘quvchilarning tipik xatolarga yo‘l qo‘yishlariga sabab bo‘ladi. Bosh kelishik shaklida kelgan har qanday so‘zni o‘quvchilar bosh kelishikda deb qabul qilaveradilar. Natijada kelishik qo‘shimchasiz, ya’ni belgisiz kelgan qaratqich va tushum kelishigidagi so‘zlarni ham, undalmani ham ega sanab, sintaktik hodisalarga qorishtirib yuboradilar. M. U o‘zini tol(ning) tanasiga oldi. Elga shodlik(ni) olib keladi. (X.O.) Otning to‘ldiruvchi va xol vazifasida kelishi ham, kupincha so‘z birikmasi yoki gap ichida aniqlanadi. Grammatik tushunchalar turli grammatik ta’rif yo qoidalar orqali izohlanadi. Grammatik ta’riflar u yoki bu til hodisasining mazmunini, asosiy xususiyatlarini, belgilarini o‘zida ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X., Rafiyev M., Shodmonqulov D. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1993 yil.
2. A’zamov S. Maktab grammatikasi va ilmiy grammatika xususida. “Til va adabiyot ta’limi”, 1992 yil, 2-son



ОНА ТИЛИ О‘ҚИТИШ МЕТОДЛАРИ

*Турсунова Зулфия Исраилжановна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий ўрта таълим
мактабининг она тили ва адабиети фани уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili fanini o‘qitishdagi metodlar bayon etilgan. Turli metodlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, metod, sayohat metodi, dars, o‘quvchi, bilim, mashqlar metodi, suhbat metodi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarga beriladigan bilimlar keyingi yillarda asosan nazariy asosga qurilayotganligi amaliy malakalarning sayozlashuviga olib kelmoqda. Darsda asosan o‘rganilayotgan qoidani yod oldirish va unga darslikdan misol keltirish va mashq ishlash bilan cheklanilmoqda.

Dars davomida faqat darslik bilan ishlanmoqda. Oqibatda o‘qituvchi darslik o‘qituvchisi, o‘quvchi darslik o‘quvchisi bo‘lib qolmoqda. Shu sababli o‘quvchilar darslikdan tashqari talablarni bajara olmayaptilar, hayotning o‘zi misol va qoida ekanligini anglab yetmayaptilar. Shunday ekan, amaliy bilimni shakllantirish asoslarini ishlab chiqishga diqqat qaratish lozim. Buning uchun darsda faqat mashqlar bilan cheklanmay, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, lug‘at ustida ishlashga o‘rgatish, ularda to‘g‘ri talaffuz normalarini shakllantirish hamda fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berish kerak. Hozir o‘quvchilarni har bir darsda faol ishtirok etishga undovchi noan‘anaviy dars metodidan foydalanilyapti. Bu dars metodi hozirda turli joylarda o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatyapti.

Ona tili darslarida eng ko‘p qo‘llanadigan metod o‘qituvchining bayoni metodi hisoblanadi. Bayon yordamida murakkabroq, ayniqsa, o‘quvchilarga oldindan ma‘lum bulmagan mavzular izohlanadi. Shuningdek, grammatik ta‘rif mohiyatini tushuntirish, o‘quvchilarga qo‘shimcha ma‘lumot berish, ularning savollariga javob berishda bayon metodidan foydalaniladi. Ona tilidan o‘rganiladigan material o‘quvchilarga qisman oldingi sinfdan tanish bo‘lsa yoki yangi mavzu biror tomoni bilan oldin o‘tilgan materialga bog‘lansa, darsda suhbat metodidan foydalaniladi. Suhbat o‘quvchilar faolligini oshiradi. Ular o‘qituvchi rahbarligida berilgan dalillarni kuzatadilar, o‘zaro qiyoslaydilar va muhokama qiladilar, so‘ng umumlashgan xulosa chiqaradilar. Suhbat o‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirishda muhim omillardan biridir. Suhbat 3 xil bo‘ladi: axborot xarakteridagi suhbat, evristik suhbat, o‘tilgan temani mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladigan suhbat. O‘tilganlarni mustahkamlash darslarida ko‘proq bir bo‘lim o‘rganilsa yoki chorak yakuni, yil yakunida, ko‘proq o‘quvchilarning o‘zlari ishlagan holda darslarni tashkil qilinadi.

O‘tilganlarni mustahkamlash maqsadida test savollarini yechish ham aytiladi. Yil yakunidagi takrorlash darsida deyarli barcha o‘quvchi test savollari va o‘zaro savollar tuzadilar. Dars yanada jonli, qiziqarli chiqadi. Til dalillarini kuzatish metodida grammatika, orfografiya yozuvchi tilini o‘rganishda ko‘p foydalaniladi. Til faktlarini tahlil qilinganda, uch yo‘nalish asos qilib olinadi. 1. Til dalillarini kuzatish. O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar til hodisalarining biror tomoni bo‘yicha muayyan reja asosida kuzatish ishlari olib boradilar.

Mashqlar metodi.

O‘quvchilarning ona tilidan olgan bilim-malakalari turli mashqlar orqali mustahkamlanadi. Natijada o‘quvchilar:

- a) bilimlarni ongli o‘zlashtira boradilar;
- b) bilimlarni amalda qo‘llay oladigan bo‘ladilar;
- v) fikrlash malakalari ham orta boradi, mashq davomida til dalillarini ko‘proq kuzatadilar, solishtiradilar, umumlashtiradilar;
- g) o‘z nutq madaniyatini takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Mashqlar o‘quvchilarning anglash va bora-bora o‘quv faoliyatlarini yaxshilaydi: ayrim dalillarni yodlab olish yo‘li bilan ham puxta o‘zlashtira boshlaydilar. Shunday ham bo‘ladiki, ko‘p yozish yo‘li bilan ko‘p yozish tufayli o‘quvchida ayrim so‘z shakllarini yoki tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llab ketaverish ko‘nikmasi shakllanib qoladi. Mashqlar qat‘iy bir tizim asosida o‘tkaziladi.



Dastlab, o‘quvchilar matn ustida ishlaydilar, so‘z va gaplarni guruhlaydilar. Bular grammatik shakllarni anglash mashqlari hisoblanadi. Maktablarda bunday mashqlarning misollar tanlash, chizmalar ustida ishlash, matnni shaklan o‘zgartirish kabi turlari o‘tkaziladi. **“Sayohat” metodi.**

Sayohat metodi ko‘proq tarix, geografiya, biologiya, adabiyot fanlarida ko‘proq qo‘llanib, ona tili o‘qitishda nisbatan oz qo‘llansa ham mohiyat e‘tibori bilan ona tili o‘qitishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Sayohat ko‘proq insho yozish uchun material beradi, shuning uchun o‘quvchi, masalan, muzeyda insho mazmuniga mos bo‘lgan predmet va uning belgilariga alohida e‘tibor beradilar, ana shu tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni yozib olish lozim. 5-sinf o‘quvchilari bilan “Shevaga xos so‘zlar” mavzusini o‘rganishda sayohat metodidan foydalanish mumkin. Har bir o‘quvchi bilan alohida ishlash natijasida o‘rganilganlarni ko‘proq takrorlash va mustahkamlash mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiy masalalari. Toshkent, “Tafakkur”, 1998 yil.
2. Yangi pedagogik texnologiyalarning yo‘nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.
3. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil
4. I.Holmurodov. Ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. «Til va adabiyot ta’limi» jurnali, 2006 yil, 2-son,



ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКОВОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ КУРСАНТОВ ТАМОЖЕННОГО ИНСТИТУТА

*Ахмедова Нилуфар Яхияевна
Старший преподаватель
Таможенного института
Телефон: +998(90)168 17 73
nilufar.axmedova.77@mail.ru*

Аннотация: предметом статьи является процесс языковой подготовки курсантов военного вуза; раскрываются основные этапы профессионально-ориентированного обучения курсантов русскому языку.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, языковая подготовка, мотивация, иноязычная речевая деятельность, коммуникативная компетенция.

В настоящее время наблюдается необходимость совершенствования учебного процесса в обучении иностранным языкам в военных вузах, в связи с этим уделяется огромное внимание к языковой подготовке курсантов. Языковая подготовка подразумевает под собой следующие понятия: содержание обучения и особенности его организации, личностно-ориентированное обучение, иноязычная речевая деятельность. Н.Д. Гальскова утверждает, что в содержании обучения и его организации отражается необходимая информация, которая составляет ориентировочную основу (специфическая лексика, языковые и речевые клише, правила их употребления, грамматический материал) [1, с. 67].

Языковая подготовка таможенных специалистов направлена на приобретение лингвистических и социокультурных знаний, а также на формирование мыслительных, интеллектуальных способностей, позволяющих осуществлять коммуникативные, профессиональные задачи с помощью средств иностранного языка.

На первом этапе обучения курсанты осваивают вводно-корректировочный курс, являющийся основой формирования необходимых языковых знаний. В Таможенном институте отсутствует вступительный экзамен по дисциплине «Русский язык», что ведет к необходимости подготавливать вариативный учебный процесс для курсантов с разным уровнем языковой подготовки, в связи с этим в начале учебного года мы подразделяем курсантов с разным уровнем владения языком на языковые группы: начальный, средний и продвинутый.

Основной курс обучения русскому языку является вторым этапом в языковой профессиональной подготовке курсантов. Данный этап включает в себя две части. В первой части курса вводится общеупотребительная лексика, общепринятые грамматические и речевые структуры в виде клише. На втором этапе учебный материал занимает профессионально-ориентированная лексика. Формирование навыков устной профессиональной речи в монологической и диалогической форме осуществляется с помощью речевых, языковых упражнений, ответов на вопросы, пересказа, составления мини-диалогов и мини-монологов. Использование ролевых игр, деловых ситуаций, традиционных и инновационных технологий обучения при проведении практических занятий помогает активизировать учебный процесс. Внеаудиторное чтение является обязательным компонентом курса обучения русскому языку. Цель данной деятельности – приобретение навыков самостоятельной работы с русским текстом, совершенствование навыков чтения с извлечением необходимой информации, расширение словарного запаса и закрепление изученных грамматических конструкций.

Важное место в повышении качества обучения занимает самостоятельная работа курсантов, которая является важной составляющей учебного процесса и имеет целью закрепление и совершенствование полученных знаний и навыков. Личностно-ориентированный подход в обучении русскому языку осуществляется с помощью новых информационных технологий, Интернет-ресурсов, которые позволяют учитывать способности курсантов, их языковой уровень.

Другим компонентом языковой подготовки курсантов является развитие иноязычной речевой деятельности, которая предполагает процесс формирования речевой деятельности,



в ходе которой отработка речевых действий приводит к формированию коммуникативной компетенции, что в свою очередь повышает качество образования. П.И. Образцова и О.Ю. Иванова полагают, что коммуникативная компетенция позволяет понимать нам данный термин как способность соотносить языковые средства с условиями и задачами коммуникативного общения с учетом социальных норм поведения и коммуникативной целесообразности высказывания [3, с. 51].

Специалист таможенного дела в наши дни должен уметь осуществлять профессиональную речевую деятельность на русском языке для участия в международных проектах, совместных учениях, ведения служебной переписки с зарубежными коллегами, при осуществлении устного опроса на приграничных таможенных постах. Знание русского языка необходимо также и для ознакомления с современными зарубежными достижениями в таможенной сфере. Обучение в военном вузе отличается строгой регламентацией всех сторон жизни и учебного процесса курсантов. В данной ситуации задача преподавателя русского языка – заинтересовать курсантов, создать условия для реализации познавательной и творческой деятельности каждого обучающегося на практических занятиях и в процессе внеаудиторной самостоятельной подготовки. Вышеперечисленные условия могут быть организованы при наличии учебной мотивации у курсантов. Э.Ф. Зеев, А.М. Павлова, А.М. Сыманюк выделяют следующие положения, влияющие на мотивационную сферу обучающихся [2, с. 47]:

- профилизация обучения иностранному языку;
- наличие информативных, актуальных, современных учебных материалов;
- применение различных форм внеаудиторной деятельности: студенческие научные конференции, конкурсы и олимпиады по русскому языку, научно-исследовательские семинары.

Учет данных особенностей в обучении русскому языку курсантов Таможенного института позволяет развивать положительную мотивацию, творческие способности обучающихся, кроме того повысить статус предмета русского языка в неязыковом вузе. Особенности организации практических занятий по русскому языку в Таможенном институте являются:

- использование профессионально-ориентированных учебных текстов, аудио и визуальных материалов в процессе прохождения дисциплин «Русский язык» и «Русский язык в служебной деятельности таможенных органов»;
- изучение таможенной лексики;
- создание на занятиях учебных речевых ситуаций, характерных для деятельности специалистов в таможенной сфере.

Методика обучения русскому языку в Таможенном институте построена с учетом оптимального соотношения чтения, говорения, письма и аудирования на разных этапах обучения, профессионально-ориентированного обучения и индивидуализации обучения, что предполагает определенную последовательность поэтапного становления языковых навыков и умений. Через изучение русского языка идет уточнение терминологического содержания специальных дисциплин, что способствует лучшему усвоению профильного материала и развитию профессионального интеллекта будущего офицера.

Использованная литература:

1. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика / Н.Д. Гальскова. – М. : Академия, 2004. – С. 65–68.
2. Зеев Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход / Э.Ф. Зеев, А.М. Павлова, Э.Э. Сыманюк. – М. : Моск. психолого-соц. ин-т, 2005. – С. 123–130.
3. Образцов П.И. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку на неязыковых факультетах вузов / П.И. Образцов, О.Ю. Иванова. – Орел : Изд-во Орл. гос. ун-та ОГУ, 2005. – С. 49–52.
4. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: продвинутый курс / Е.Н. Соловова. – М. : АСТ : Астрель, 2008. – С. 34–37.



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI FANIDAN SON-SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH USULLARI


*Jo'rayeva Hidoyat ,
Navoiy viloyati Navbahor tumani
16- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida son so'z turkumini o'qitishdan maqsad o'quvchilarni narsa-buyumning son-sanog'ini ifodalovchi so'zlar olamiga olib kirish, ulardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalana olish imlo savodxonligini oshirish va talaffuz me'yorlarini shakllantirishdir. Avvalo, shuni ta'kidlash kerak-ki, o'quvchilar son yuzasidan boshlang'ich sinfda zaruriy ma'lumotlar bilan qurollantiriladi.

Keyinchalik o'quvchilar nutqiy faoliyatida foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Shuning uchun izchil ravishda bu so'z turkumidan o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar silsilasi uncha ko'p emas. Ular asosan, oldin so'z turkumlari bo'yicha egallagan bilimlarni takrorlaydilar, hamda son so'z turkumi, uning ichki ma'no guruhlari, qo'shma va juft sonlar, ularning imlosi va talaffuziga oid zaruriy ma'lumotlarni egallaydilar. Takrorlash va oldingi sinflardan egallangan bilimlarga asoslangan holda o'quvchilarni miqdor va tartibni bildirib, Necha?, Nechanchi?, Qancha? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar sonlar ekanligi, sonlar sanoq, dona, taqsim, Chama, jamlovchi, kasr, tartib sonlar kabi ma'noviy guruhlarga bo'linishi xususida xulosaga keladilar. Ta'lim jarayonida bugun o'qituvchilar dars davomida interfaol usullardan keng foydalanishmoqda. Bu usullarning qulayligi bir soatlik dars davomida barcha o'quvchilarni darsga qiziqitira olish, ularga kerakli ma'lumot va bilimlarni bera bilish va barchani baholash imkoniyati mavjud. Ma'lumki, ona tili va o'qish darslarida yangi mavzu bo'yicha nazariy tushunchalar shakllantirilib, muayyan ko'nikmalar hosil qilinadi. So'ng o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish bosqichiga o'tiladi. «Diagramma Vena» Bu usuldan ham boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida foydalanish mumkin. Bu metodda ikkita oval figuralarning kesishmasidan foydalaniladi. Doirachalar uchta bo'lib, bunda birinchi va uchinchi doirachalar ichiga berilgan berilgan topshiriqning farqli jihatlari yoritilsa,

o'rtadagi doirachaga ularning umumiy o'xshash tomonlari yoziladi. Bu usulni asosan ikki toifadagi narsalarni farqlash uchun yoki xususiyatlarni ajratishni o'rganib oladilar. Bu usul yordamida o'quvchilar mavzuga oid alohida sifatlarni, xususiyatlarni ajratishni o'rganib oladilar. Masalan, ona tili darsligidagi son-so'z turkumining ma'no turlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Bu darsda biz «Diagramma Vena» usulini quyidagi tartibda qo'llash mumkin:



1. Birinchi yarim doira ichiga sanoq sonlar haqida.

2. Ikkinchi yarim doirachaga tartib sonlar haqida.

3. Ularning o'xshash tomonlarini 3-doira ichiga yozing, deb topshiriq berish mumkin. Bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga vaqt beriladi va vaqt tugashi bilan har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, yozganlari bilan boshqa guruhdagi o'quvchilarni tanishtiradi. O'quvchilar rag'batlantiriladi. Qarorlar shajarasi - usuli asosan o'tilgan mavzularni takrorlash hamda umumlashtirish maqsadida

foydalaniladi. Unda bolalar kichik guruhlarga bo'linadi, har bir guruh birorta mavzudan (misol uchun, —Sonlarni yozilishi) tushgan masala bo'yicha belgilangan vaqt davomida (3-5 daq.) topshiriq bajaradi. So'ng 1-guruh, 2-guruhga, 2-guruh 3- guruhga, 3-guruh 4-guruhga o'z topshiriqlarni davom qilish uchun beradi. Bunday harakat har bir guruhga o'z topshirigi aytguncha bajariladi. Keyin guruhlar o'z masala bo'yicha berilgan topshiriqni navbati bilan taqdim etadi va baholanadi.

“Aql charxi” usulida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bu o'yinda ikki yoki uchta o'quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o'quvchi mavzuga doir terminlardan



birini aytadi. Ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchi aytgan terminni qaytaradi va o‘zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o‘quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo‘shib aytadi. Yana birinchi o‘quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta terminni qaytaradi va o‘zi bitta termin qo‘shib aytadi. Qaysi o‘quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminiarni qaytarib aytsa, o‘yindan chiqadi. Shu tariqa o‘quvchilar guruhi davom etadi o‘yinni tashkil etishda maqsad aniq bo‘lishi va o‘quvchilarning qaysi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga e‘tibor qaratilishi uhim. Masalan; son -so‘z turkumiga tegishli so‘zlarni ayting:

1-o‘quvchi: ikki

2- oquvchi: ikki - uch

3- o‘quvchi: ikki – uch, olti

1- o‘quvchi: ikki – uch, olti, o‘n sakkiz,..... O‘quvchi so‘zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo‘l qo‘ysa, o‘yindan chiqadi. Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Chunki motiv o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishiga, bilimlarni Sanoq sonlar . Tartib sonlar puxta egallashga undaydi. Interfaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

“Baxtli tasodif” usuli.

Bu usul orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog‘li o‘rganilganligini aniqlash oson bo‘ladi. Buning uchun qog‘ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo‘yiladi. Faqat bitta kartochkaga “Yutuq “5” baho” deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga nasib qilsa, “Baxtli tasodif” sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o‘quvchilar ham savollarga bergan javoblari asosida baholanadilar. bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi. Xulosa qilib aytganda, interfaol usullar darsning qiziqarliligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol subyektlariga aylantiradi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Akramova B., G‘ulomov H., Yuldasheva SH., Shodmonqulova D. 4-sinf ona tili darslari.
2. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. 2003 yil . Toshkent.
3. Ibragimov X.I., To‘raqulov X.A. Ta’limni texnologiyalashtirish va undagi sama radorlikni aniqlash // Uzluksiz ta’lim. 2004.- № 6.-B. 15-30.



О‘QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUV TEXNIKASIGA O‘RGATISH

*Kenjayeva Rizqiniso Komilovna
Navoiy viloyat Karmana tuman
32 – umumta’lim maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Husnixat va uni o‘qitish metodikasi pedagogik fan. Inson o‘z fikrini boshqa kishilarga og‘zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu shaklining o‘xshash va farqlash tomonlari mavjud bo‘lib ular o‘z o‘rnida afzalliklarga ega. Og‘zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshutilish uchun mo‘ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog‘och, teri, metall, qog‘oz kabilarga ko‘rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo‘yiladi. Yozuv kishilarning o‘zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog‘laydi, uzoq saqlanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo‘lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixatga o‘rgatish extiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixat bilan yozishga o‘rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini o‘qitish usullarini yozuviga o‘rgatishning gigeyenik shartlarini, o‘quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

Demak yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Yuqoridagi talab asosida yozishga o‘rganishi boshlang‘ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o‘quvchilarini chiroyli yozishga o‘rgatish uchun o‘qituvchining o‘zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o‘quvchilarni chiroyli yozishga o‘rgata olishi kerak.

Husnixat va uni o‘rgatish fani amaliy fan bo‘lib u chiroyli yozishga o‘rgatish bilan bir qatorda o‘qitish tarbiyalash, vazifalarini bajaradi. Bunday vazifalardan biri o‘quvchilar husnixatining talab darajasida bo‘lishidir. Psixologiyada shunday yo‘nalish borkii, kishilarning qo‘ygan imzosiga, yozuviga qarab uning qanday kishi ekanligi haqida ma‘lumot bera oladi. Biz o‘qituvchilar ham o‘quvchining yozgan yozuviga qarab u haqida yaxshi fazilatlar: tartibli, mehnatsevar, didli, farosatli ekanligini yoki aksincha erinchoq, shoshqaloq yoki e‘tiborsiz kabi yomon illatlar egasi ekanligi haqida ham ayta olamiz. Hayotda shunday o‘quvchilar borki, barcha fanlardan yaxshi bilsa ham yozuvda husnixat qoidalariga amal qilmaydilar. Ularga erinchoqlik, shoshqaloqlik yoki e‘tiborsizlik ustunlik qiladi. Bunday o‘quvchilarning husnixatini yaxshilash uchun avvalambor ularni bu yomon illatdan xolos qilish kerak. Buning uchun ayniqsa, biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari har kuni qolaversa, har soat o‘quvchiga eslatma berib, kezi kelganda o‘quvchini maqtab, qolgan o‘quvchilarga namuna qilib ko‘rsatib o‘ziga ishonch paydo qilishimiz zarur.

Shundagina o‘quvchi husnixatiga o‘zgartirish kirita olamiz.

Chiroyli va to‘g‘ri yozish san‘atdir. Bunga erishish uchun yozuv qoidasiga rioya qilish kerak. Yozganda to‘g‘ri o‘tirish kerak. Engashib yoki gerdayib yozish yaramaydi. Engashganda ko‘z toliqib qoladi. Gerdayib yozganda ham ko‘zning chamalashi susayadi. Ruchkani uchta barmoq bilan to‘g‘ri ushlash lozim. Daftari chizig‘iga rioya qilib, harflarni dona-dona qilib yozish zarur. Shunda xat chiroyli chiqadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarni chiroyli yozishga o‘rgatish uchun ularni maktabga kelgan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishga o‘rgatish zarur.

1. Yozuv vaqtida partada to‘g‘ri o‘tirish.
2. Yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish.
3. Daftardan to‘g‘ri foydalanish.
4. Yozma shakldagi harf va uning unsurlari bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo‘g‘in so‘z va gaplar yozish.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to‘g‘ri tasavvur qilishga, bir xil qulaylik (75 gradus) da yozishga harf unsurlarini bir biriga to‘g‘ri bog‘lab yozishga, so‘zlarda harflarni to‘g‘ri bog‘lashga so‘zlarni qatorlarga to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatish zarur.

Harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to‘g‘ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to‘g‘ri chamalab yozishga o‘rgatish lozim.

Bu sinfda umumiy didaktik qoidalar, takroriylik, ko‘rgazmalilik, ongillik husnixat qoidalarini



amalga oshirishda juda muhimdir.

Ayniqsa, ko'rgazmalilik chiroyli yozuv malakasini singdirishda kata ahamiyatga ega. Endigina maktabga kelgan o'quvchiga biror bir harfning shaklini tushuntirishda u yoki bu harfning yozilishini, ularning bir –biriga bog'lanishini, kichik va bosh harflarning bir –biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, ruchkani ushlab va to'g'ri o'tirish qoidalarini yaxshi tushuntirish lozim. Bu davrda olingan bilim va malakalar o'quvchilar uchun doimiy qoida bo'lib qolishi kerak.

Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishda birinchi navbatda gigiyena talablariga rioya qilish muhim. O'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etishini ko'ramiz. Bu bog'lanishlar miyada mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu hol o'quvchiga idrok etgan va sezgan narsalarini xotiraga muhrlash imkonini beradi.

Bolalar maktabga qadam qo'ymasdan oldin qo'liga qalam olib turli shakllarni chiza boshlaydi, ammo bu chiziq harf chiroyli yozuv talablariga to'g'ri kelmasa-da ulardagi ayrim malakalarning (ruchka, qalam ushlab) shakllanishiga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning barmoq mushaklari yaxshi rivozlanmaganligi uchun ularga surunkali yozdirish, mashq qildirish yozuvning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo'r) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishga qarab qo'l harakatlari shunga moslashtiriladi. O'quvchini chiroyli yozuvga o'rgatish uchun birinchi navbatda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurolidan to'g'ri foydalanish.
2. Parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish.
3. Yozayotganda gavadani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish.
4. O'z yozuvini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rgatish.
5. Bosma harflarni yozma shaklga aylantirishga o'rgatish.
6. Harflarni bir- biriga bog'lab yozishga o'rgatish.
7. Harflarni bir xil balandlikda va tekis yozishga o'rgatish.
8. Harflar qiyaligini to'g'ri saqlash.

Yozuv malakasi 6-7 yoshli bolalar uchun o'qituvchi tomonidan bevosita kuzatib borilish zarur bo'lgan qiyin jarayondir. Xuddi shu davrda o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlar kelgusi uchun muhim ahamiyatga ega deb o'ylayman.

O'quvchining dastlabki yozgan harf yoki usurlarini yuqori baholab uni rag'batlantirib borish yaxshi natija beradi. O'quvchi ruhlanadi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va qiyinroq harflarni yozishdan cho'chimaydi. Ko'proq ularning irodasini mustahkamlashga harakat qilishimiz zarur. Buning uchun o'quvchilarga bemalol mustaqil bajara oladigan topshiriqlardan tez –tez berib turish kata rol o'ynaydi. Bu davrda bolalardagi psixologik xususiyatlarni tarbiyalash hamda ularning fiziologik o'sishlarini hisobga olish biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muhim vazifamizdir. Dastur talablari bo'yicha 1-sinf o'quvchilari "Alifbe" kitobiga ilova tariqasida chiqarilgan "Yozuv daftari" dan foydalanishlari lozim.

"Yozuv daftari" sifatli qog'ozdan ishlangan, silliq va chiziqlari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi lozim. Daftardagi qiya chiziqlar oralig'i 25 mm, qiyaligi 75 gradus, kichik harflar yoziladigan satr chizig'i oralig'i 5 mmga teng bo'lishi lozim.

O'quvchilar uchun tavsiya etiladigan ruchkaning yog'onligi ularning qo'l barmog'iga mos bo'lib, uzunligi 130 mmdan oshmasligi lozim. O'quvchilar yozuvining sifati ko'p jihatdan yuqorida ko'rsatib o'tilgan yozuv qurollariga ham bog'liq. O'quvchilar husnixatini yaxshilash uchun ulardan tez -tez diktant olib turish zarur. Negaki, o'quvchi diktant yozish jarayonida bor diqqatini ana shu yozuvga qaratadi. Bu jarayonni savod o'rnatish davridan (2 ta harf o'rgangandan keyin) boshlash yaxshi samara beradi. Diktant yozish jarayonida o'quvchini doimiy nazorat qilish, husnixat qoidalariga amal qilgan o'quvchilar yozuvini maqtab, ularni rag'batlantirib borish, qolganlarga namuna qilib ko'rsatib o'quvchini ruhlantiradi va chiroyli yozishga undaydi. Qolgan o'quvchilar ham ularga o'xshashga harakat qiladi.

O'quvchilar husnixatdan tashqari imloviy xatolarga ham yo'l qo'yadilar. O'quvchilar tomonidan yozilgan diktantlarni tekshirish va baholash to'liq oqilonalikka, obektivlikka asoslanishi kerak. Diktant yozishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchilar bilan alohida ishlash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Husnixat o'qitish metodikasi" TOSHKENT – 2006
2. "Savod o'rgatish darslari" o'qituvchi kitobi TOSHKENT–2012yil "Tafakkur" nashriyoti



CHET TILLARNI ONLAYN (MOBIL) O'RGANISH BO'YICHA ZAMONAVIY YONDOSHUV

Najimova Firuza Sa'dullayevna
Navoiy shahar 10-umumiy o'rta ta'lim
maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Biz bu maqolada hozirgi zamon pedagogikasida tub burulish yasagan onlayn bilim olishning samaradorligi, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari haqida atroflicha o'rganib chiqamiz. Bizga ma'lumki, mashhur badiiy asarlar, ma'lumotlar va til o'rganishni targ'ib qiluvchi materiallarni Ingliz tilida topish hech qanday muammo tug'dirmaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularni biz "Dunyo to'ri" dan istagancha yuklab olish imkoniyatiga egamiz. Mobil telefonlar esa biz uyda yoki maktab, ofisda bo'lmay turib ham vaqtimizni to'g'ri taqsimlagan holda foydalanish imkoniyatini beradi, bu vaqt va makon tanlamaydi. Asosiy muammo ulardan samarali foydalana olishimizdadir. Bunda bizga onlayn repetitor kerak bo'ladi.

Kalit so'zlar: Onlayn ta'lim, "Dunyo to'ri", onlayn repetitor, intensiv, chet til, audio lug'atlar

Davlatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, ilm-fan va texnikaning jadallashuvi yoshlarimizning dunyo maydonida raqobatbardosh bo'lishi uchun bir nechta chet tillarni mukammal bilishni taqazo etadi. Uni o'rganish va u orqali o'z sohamiz bo'yicha muvaffaqiyatga erishishimizga imkon ham yaratmoqda. Buning uchun keng baza- internet olami mavjud. Biz undan o'zimizga qulay bo'lgan joydan turib, katta sarf-harajatsiz til o'rganish imkonini topamiz.

Buning uchun birinchi bosqichda mobil telefon yoki internet tarmoqlaridan foydalanishni, o'zingizga kerakli dasturlarni (Google play dan yoki App Store bo'limidan olishingiz mumkin) yuklab olishdan boshlasangiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Undan siz keraklicha materiallarni topishingiz va o'zingizning darajangizga qarab tanlashingiz mumkin.

Ikkinchi bosqichda siz onlayn repetitor topib u bilan birga ishlashingiz mumkin. Onlayn repetitor bu o'qituvchi yoki biror bir sizdan bir pog'ona yuqori darajada til biluvchi bo'lishi ham mumkin. Bunda siz o'z bilimingizni muntazam oshirib borasiz va o'z olgan bilimlaringizni tekshirib borish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Keyingi pog'onada leksik birlik-so'z yodlashingiz kerak bo'ladi. (So'z yodlashning intensiv usullaridan foydalanish tavsiya etiladi, audio lug'atlar va b.)

So'z va iboralarni bilmay turib siz erkin muloqotga kirisha olmaysiz. Dunyo ta'lim tajribasida, xususan o'zbek o'rganuvchilar orasida mustaqil yoki onlayn tilni o'rgangan kishilar ham bor. Bunga misol qilib Kolumbiya universiteti ilk o'zbek professori Aziza Shonazarovani aytishimiz mumkin. Undan tashqari siz erkin muloqotni amalga oshirib borasiz. Bunda sizga o'zingizning darajangizdagi o'rganuvchilar yordam beradi. Bular yuqorida aytib o'tilganidek hech qanday qo'shimcha mablag' talab qilmaydi. Bu ota-onlarga ham qo'l keladi. Chunki ular farzandlari bilan uy vazifalarini tayyorlashda tillardan qiyinchilikalarga duch kelishadi. Undan tashqari OTMlarga kirishga, chet davlatlarda o'qishni davom ettirish istagidagi kishilarga va boshqa qiziquvchilarga birdek asqotadi.

Ko'pgina davlatlarda til bilishning ma'lum bir meyorlari va qoidalari, normalari ishlab chiqilgan. Bu borada O'zbekistonda ham bir qancha amaliy ishlar allaqachon boshlab yborilgan.

Chet til ta'limida integrativ yondoshuv (ta'lim oluvchining faoliyat doiralaridan olingan manbalardan ta'lim jarayonida keng (proporsional) foydalanish) til va nutq materialining teng nisbatda bo'lishi nutq faoliyatining 4 ta tur bo'yicha ya'ni tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish (listening, reading, writing and speaking) nutqiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar darjasini o'zaro bog'liq holda shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu borada so'ngi yillarda o'zbek tili uchun ham xalqaro tajribalarni o'rgangan holda me'yor ishlab chiqish ustida ham amaliy ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizga shu yillar ichida British Council (Britaniya Kengashi) amaliy yordamini ayamay kelmoqda. Xalq talimi vazirligi va Amerika kengashlari bilan hamkorlikda "English speaking nation: Secondary Reacher Training (ESN: STT)" dasturi ham ish boshlash arafasida.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davr o'rganuvchidan ko'proq yozma nutqqa qaraganda og'zaki nutqni ko'proq shakllantirish ustunroq ekanligiga tayanmoqda.

Chunki chet til bu ko'proq amaliy ko'nikmalar orqali o'rganiladi va ishlatiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Yevropa Kengashining “Chet tilni egallashning umumiyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish, baholash” to‘g‘risidagi hujjati (CEFR).
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori.
4. Jalolov J. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent “O‘qituvchi” 1996
5. Chet tillarni o‘qitishning zamonaviy texnologiya masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari- Toshkent 2007

Internet resurslar

1. [www. British Council.org](http://www.BritishCouncil.org)
2. [www. Learn English.com](http://www.LearnEnglish.com)
3. <http://www.ziyonet.uz>



TEACHING WRITING FOR STUDENTS

*Oltinova Gavkhar Bakhtiyorovna,
The English teacher of the secondary school №29
Navai region Navbakhar district*

Importance of Teaching Students How to Write. Good writers are good readers. Writing gives voice to our inner thoughts and allows us to share them. Writing focuses students on phonics, comprehension, mechanics, developing

their voice or perspective, and communicating this perspective to others.

Writing Skills-What are they?

At first, many parents think that “learning to write” is primarily a question of grammar. They first think of teaching proper sentence construction, appropriate use of tenses, and punctuation. It’s true that grammar is an important component of teaching writing. There are sometimes problems about longer pieces of writing. Children may have very complicated scenarios in their mind’s eye which would take a whole novel or feature film to narrative. Others may not know what to write. Starting from images can help generate ideas for uncertain writers and give focus to those who have vast landscapes of possibilities seen as pictures in their heads. Planning certainly gives shape to a narrative. There are many different structures, and one starting point can be to read short stories.

Improving of writing: the routines that help organize and support a workshop mini-lessons on the conventions of writing ideas for implementing portfolio assessment read books: stories, fairy –tales read others’ writing write down the words and expressions that students consider valuable because of their meanings and examples. Setting the stage for writing. Anyone who has ever tried to record personal thoughts on paper for others to read knows that the sense of risk that writing involves. To writes honestly about what they know, all writers, especially youngsters, need to know that they have something of value to say. They also need to know that their ideas will be received with respect by a supportive community. Therefore, in the first weeks of the school year, the students create projects and crafts that invite them to share personal interests and experiences. After these activities, they are ready for writing notebooks , in which they will write about memories, experiences, opinions, words, and ideas. The content of these notebooks will produce many seeds for writing topics throughout the school year.

There are many ways of teaching writing. They are “Paper People” “Partner interview”, “What’s on your mind”. What’s on your mind? Provide all of your students with a “What’s on your mind” form.

Ask them to write their responses to the questions. They may write about people, things, or events in their life.

Paper People.

Give your students pieces of mural paper that match their heights. Then have them work in pairs to trace the outlines of their bodies

After drawing and coloring in hair , clothing, and features, they should cut out the paper dolls. When your students are ready to introduce their cutouts to classmates, they should describe the special interests they outlined on their interest inventory forms. If you teach young children, you may want to invite upper grade students, or parents, to do the tracing, cutting, and interviewing for this activity.

Types of writing.

There are many types (or models) of writing such as descriptive writing, persuasive writing, informative writing, narrative writing, and creative or fiction writing. Many students are familiar with the basic writing assignments such as book reports, social studies reports, short stories, and essays on different topics. But these writing assignments should be thought of as applications of basic writing models. For instance, a book report is usually a type of descriptive writing, and an essay on dinosaurs might include both informative and perhaps persuasive writing.

Writing process:

Pre-writing –Whatever type of writing a student is attempting, the prewriting stage can be the most important. This is when students gather their information, and begin to organize it onto cohesive unit.



This process can include reading, taking notes, brainstorming, and categorizing information . Prewriting is the most creative step.

Writing –The actual writing stage is essentially just an extension of the pre- writing process. The student transfers the information they have gathered and organized into a traditional format.

How to generate writing ideas.

1. Brainstorming. Brainstorming is an activity with which most people are familiar.
2. Free writing. Free writing is an individual activity for getting thoughts from your head onto paper .
3. Journalistic Questions.
4. Cluster Mapping.
5. Flow charting.
6. Double/Triple Entry

Used literatures:

1. Harmer Jeremy. How to Teach Writing.
2. <https://books.google.co.uz/books> Teaching writing: A Workshop Approach.
3. <https://busyteacher.org> How to teach writing: 6 Methods For Generating writing Ideas.
4. Effective Academic writing 1.



INGLIZ TILI DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI.

*Tosheva Maftuna Nurullo qizi,
Buxoro viloyati Shofirkon tumani 42-maktab,
ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar bilimini oshirishda ingliz tili darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning o'rni va manbalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyasi, multimediya, kompyuter, elektron darsliklar.

“Axborot texnologiyalari asri” deb atalgan XXI asr, yangi ming yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga jadal kirib keldi. Ta'lim sohasi ham bu jarayondan chetda qolmadi. O'qitishning zamonaviy interaktiv vositalari, multimediyaviy ta'lim mahsulotlari va multimediya ilovalarining chet tillarini o'qitishda qo'llanilishi o'zining samarasini bermoqda. Multimediyaning o'zi nima? Multimediya–interaktiv tizimli, ovoz bilan bir qatorda, animatsion kompyuter grafikasi, video, statik tasvirlar va matn namoyishi hisoblanadi. Ilgari darslarda slayd va magnitafon tasmalaridan foydalanilsa bu dars multimediyalik hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda bu dars multimediyalik hisoblanishi uchun unga maxsus kompyuter dastur, proektor, video va boshqa interaktiv vositalardan foydalanishni o'z ichiga olish kerak bo'ladi. Multimediya talim oluvchilar uchun eng samarali usullardan hisoblanadi.

U ta'lim jarayonini boyitib uning samaradorligini oshiradi, til o'rganuvchilarning faolyatini oshiradi, yangi ma'lumot olishni bir necha bor tezlashtradi. Hozirgi kunga kelib, o'qituvchi dars jarayonini bu kabi vositalarsiz tasavvur qila olmaydi. Dars shakli ham bu texnologiya tasirida o'zgarib ketadi. Ilgari dars jarayonida o'qituvchi faol rolni o'ynagan bo'lsa, hozirgi kunda o'quvchi o'qituvchi bilan bir qatorda hatto bazi holatlarda o'qituvchi passiv rolni o'ynovchi shaxs bo'lib hisoblanmoqda. O'qituvchi faqat bilim beruvchi bo'lib hisoblangan bo'lsa, hozirda u yo'l ko'rsatuvchi, yo'nalish beruvchi kishi sifatida faolyat yurutmoqda. Multimediya darsining asosiy vazifalariga barcha o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish, ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish, berilgan yangi darsni o'quvchilarga turli hil vositalar orqali chuqur singdirish va ularda tilga bo'lgan ko'nikmalarini shakllantrish sanaladi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida xorijiy tillar o'quv xonalari zamonaviy axborot kommunikatsiya va o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlanganligi dars sifatini oshirishda, o'quvchilarni chet tiliga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirishda, shuning bilan birga pedagoglar ham yaratib berilgan shart sharoitlardan unumli foydalangan holda o'zlarining bor pedagogik kasb mahoratini ishga solib, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda sifatli dars mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatiga egalar. Chet tilini o'qitishda texnika vositalaridan foydalanishning asosiy maqsad:

- * Ko'rgazmalilikni kuchaytrish;
- * Muammoli ta'limni amalga oshirish;
- * O'quvchilarni so'zlovchining nutqini eshitishga va tushunishga o'rgatish;
- * Og'zaki nutq tezligini o'strish;
- * O'rganilayotgan til materyallarini hayotga bog'lash;
- * O'quvchilarni g'oyaviy syosiy va ahloqiy tarbyalash;
- * O'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishdan iborat.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarimizda yangi elektron darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yetarlicha. Ular o'quvchilar savodxonligini oshirish, nutqini o'stirish aqliy qobiliyatini o'stirish va rivojlantirish, mantiqiy fikrni takomillashtrish, ijodiy fikrlay olish hamda ta'lim tizimlari orasidagi uzviylikni taminlashga qaratilmoqda. Ma'lumki ta'lim jarayonini Kompyuterlashtirish nafaqat ta'limiy axborotlarni yaxshilash balki, yangi axborot texnologiyalari elementlarini ham o'zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa chet tillarini o'rganishda kompyuterlar o'qituvchining mehnatini onsonlashtirib, dars jarayoni samaradorligini oshirishini alohida takidlash zarur. Yaxshi multimediyali dasturlarni to'g'ri maqsadga yo'nalgan bo'lishi kerak, chunki o'quv materialini aniq bir mavzuni yoritib olishi, dastur o'quv jarayonining barcha komponentlarini qamrab olishi shart. Zamonaviy texnik vositalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilarni chet tillarni zamonaviy texnik vositalar



orqali o'rganish ularning oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishda intensiv vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kun o'quvchilari ta'lim beruvchining ma'lum bir ma'lumotni tayyorlab ularning e'tiboriga yetkazishini passiv holda kutib o'tirmaydi, aksincha u bu ma'lumotni ta'lim beruvchidan avvalroq egallab olgan bo'lishi ehtimoli yo'q emas, shuning uchun pedogog darsga krishdan avval har tomonlama tayyorgarlik ko'rib, yangi innavatsion texnologiyalarni mukammal egallagan bo'lmog'i darkor.

Pedogogning zamonaviy tayyorgarligi nafaqat davr talabiga, shuningdek fan texnika taraqqiyoti bilan hamohang bo'ladigan istiqboldagi ta'limga ham mos kelishi kerak. Ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra ta'lim samarasiga o'quv dasturlari va darsliklardan ko'ra pedogogning tayyorgarligi darajasi ko'proq ta'sir o'tkazadi. Dars davomida oddiy rasmlarni qo'lma-qo'l tarqatgandan ko'ra videolavhadan foydalanish o'z maqsadlarimizga erishishda intensiv yordam beradi va ta'sir darajasi ham samaraliroqdir. Bir vaqtning o'zida turli bilim saviyasiga ega bo'lgan o'quvchilarga tayyor testlar berilishi, yangi mavzuni tushuntrishda dars sifatini fotosuratlar, videolavhalar orqali oshirish, masalan, o'quvchilar kitob matnidan turli xorijiy davlatlar haqida oddiy ma'lumot olibgina qolmay, shu davlatlarga virtual sayohat, chet davlatlarning an'ana va urf-odatlarini haqida videolavhalar, qo'shiqlar kliplar tomosha qilishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan o'quv adabyotlarni Axborot kommunikatsiya texnologiyaning dasturiy vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish berilayotgan o'quv materyallarini oson va qulay o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchilar multimediyali elektron darsliklardan ta'lim muassasalarida bilim olish bilan bir qatorda ulardan mustaqil ravishda uyda, masofadan turib ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday imkoniyatning yaratilishi ingliz tilini o'rganishda dars jarayonini jonli tarzda tashkil qilish, yangi mavzularni o'zlashtirishni jadallashtiradi va bilim, malaka hamda ko'nikma hosil qilish bosqichlarini to'la qamrab oladi.

Til o'rgatishda quyidagi kompyuter dasturlarini qo'llash mumkin:

1. Taqdimot texnologiyasi, ya'ni mashg'ulotni ko'rgazma sifatida o'tkazish, darsda kompyuterdan foydalanishning eng oson usulidir. Buning uchun o'qituvchiga birgina kompyuter va multimedia proektori kerak bo'ladi. MS Power Point dasturi yordamida o'tilajak dars uchun kompyuterda o'qituvchining o'zi slaydlar yaratadi va o'rgazmalar paketini tayyorlaydi.

2. Elektron multimedia darsligi– aynan kompyuter vositasida o'quv kursini yoki uning bitta katta bo'limini o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi dasturiy-metodik kompleks.

3. Elektron ensiklopediya– kuchli qidiruv tizimiga ega bo'lgan ma'lum yo'nalishdagi illyustratsiyali maqolalar, elektron xaritalar, fotosuratlar, giperhavola (gipermurojaat)lar, audio va videoizohlar, xronologik ro'yxat, foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va hokazolardan iborat bo'lgan katta hajmdagi elektron dastur.

4. Elektron lug'at– odatdagi lug'atlar asosida tuzilgan, multimedia vositalar bilan boyitilgan dastur. Elektron lug'at turli yo'nalishda tuzilishi mumkin, undan o'quvchining so'z boyligini oshirish, tarjima qilishda foydalaniladi.

5. O'rgatuvchi audiodasturlar, ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun nihoyatda samarali ta'lim texnologiyalaridir.

6. Universal test dasturi muayyan fanning biror yirik bo'limi bo'yicha test opshiriqlari va reyting tizimidan iborat bo'lgan kompyuter dasturidir. Uning qulayligi shundaki, birgina dasturiy ta'minot asosida turli xil test sinovlarini o'tkazish, ya'ni faqat matnni o'zgartirib, dasturni har xil mavzularda qo'llash mumkin.

7. Elektron virtual kutubxona–multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan yana biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan kutubxona.

8. Masofaviy ta'lim– bu masofadan Internet tarmog'i orqali o'qitish usuli bo'lib, uning asosida respublikamizda ma'lum sohalar bo'yicha test-tajribalar o'tkazildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki COVID-19 pandemiyasi sababli ko'p mamalakatkatlarda karantin e'lon qilinishi natijasida turli sohalarida jumlada ta'lim sohasida xam ish faoliyati to'xtatildi. Maktabda o'quv jarayonlari nihoyasiga yetmasdan ta'til e'lon qilindi. Ushbu xolat bizni davlatimizni xam chetlab o'tmadi.

Lekin Respublikamizda pandemiya sharoitida xam Xalq Ta'limi Vazirligi tashabbusi bilan o'quvchilarimizni ta'lim olishlari to'xtab qolmasligi uchun kerakli sharoit yaratildi. Texnik vositalardan unumli foydalangan xolda onlayn darslar tashkil etildi va o'quvchilarga televideniya va internet saytlari orqali yetkazib berildi. Mana shu jarayonda ta'lim sohasida



axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, internet veb saytlaridan va dasturlaridan foydalanish va ularda ishlay olish qanchalik muhim ekanligi isbotladi. Respublikamizda masofaviy ta'lim berish ota –onalar va o'quvchilar tomonidan yashi kutib olindi va muvofaqiyatli natijalarga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Hoshimov O', Yoqubov I. "Inliz tili o'qitish metodikasi", Sharq nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent-2003
2. Jalolov J.J, S.T Mahkamova, Sh.S Ashurov "English language teaching methodology" Toshkent-2015 "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. Tolipov O'. Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.- T . "Fan" nashriyoti, 2006



О‘QUVCHILARNING LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISHDA OG‘ZAKI NUTQNING TUTGAN O‘RNI

*Berdiyeva Sohiba Boboqulovna,
Navoiy shahar 12-DIUM
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Men ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida lug‘at ustida ishlashda ularning nutq boyligini oshirish maqsadida qanday ma‘lumotlar kerakligini yoritishga harakat qildim. Lug‘atni hayotdagi turli muomaladagi o‘rnini, darslarda olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishlarini tushuntirishga harakat qildim. Lug‘atdan to‘g‘ri foydalanishni bilgan o‘quvchi uni hayotda to‘ri qo‘llay oladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni xalqimizning ma‘naviy me‘rosi bo‘lgan ona tilimizni sevishtirishga, uni doimo asrab-avaylashga o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: lug‘at, o‘quvchi, nutq, bolalar, ona tili, matn, guruhlar.

Og‘zaki nutq madaniyatini egallash, unga xos xususiyatlarni bilish; o‘quvchidan gap va nutqni grammatik, orfografik, stilistik jihatdan adabiy til

me‘yorlariga rioya qilgan holda tuzishga o‘rgatish. Og‘zaki nutqni rivojlantirish ushun o‘quvchi lug‘at boyligini izchil oshirib borish, gapning sintaktik tuzilishiga oid bilimlarni amaliy jihatdan egallash, nutq birliklari o‘rtasidagi mantiqiy uyg‘unlikni ta‘minlashga oid malakalarni rivojlantirish, yangi harf - tovushga bog‘lab tavsiya etilgan so‘zlar ma‘nosini o‘quvchiga to‘liq anglashga erishish, rasm asosida o‘zaro bog‘langan kichik hikoyachalar tuzishga o‘rgatish.

O‘quvchining bog‘lanishli nutqini o‘stirishga oid ta‘limiy ishlarni amalga oshirish.

1. Rasmlar asosida hikoya tuzish;
2. Rasm mazmuniga mos sarlavha topish;
3. Darslik va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘rganilgan o‘quv materiallarini qayta hikoyalash;

4. Savollarga to‘liq va burro javob berish;

5. Adabiy nutq me‘yorlarini amaliy jihatdan o‘rgatishga e‘tibor qaratish (bu sohada o‘qituvchi nutqi o‘quvchiga namuna bo‘lishi kerak);

6. Topishmoq, maqol, hikmatli so‘zlar ustida ishlash (darslik materiallari va sinfdan tashqari o‘qish ushun tanlangan o‘quv materiallari asosida);

7. Kichik guruhlar bilan ishlashda o‘quvchilarni aqliy - intellektual jihatdan teng guruhlariga taqsimlash, guruhlariga bog‘lanishli matn tuzishga oid muammoli topshiriqlar berish, guruhlar javobini sharxlash asosida g‘olib guruhni rag‘batlantirish;

8. Yakka tartibdagi (individual) ishlarda o‘quvchida o‘z nutqini rivojlantirib borishga ishtiyoq uyg‘otish (lug‘at daftari, yangi she‘r, hikoya, ertak mutolaasi asosida);

9. So‘zlarni yaxlit, gaplarga ifoda mazmuniga (darak, buyuruq, so‘roq) mos ohangda o‘qishga erishish qahramon harakterini ohang orqali ifodalash;

10. Matn ishida qo‘llanilgan tinish belgilariga rioya qilish malakasini shakllantirish;

11. 4 va 8 misrali she‘rlarni yod oldirish

12. O‘quvchi nutqini boyitish, ular nutqida kam qo‘llaniladigan so‘zlarni alohida yozdirib borish, dars jarayonida lug‘at daftaridagi so‘zlarning ishlatilishiga e‘tibor berish.

13. Darslarda berilgan lug‘atchadan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutqni rivojlantirish – bolaning yakka tartibdagi psixologik rivojlanishida markaziy o‘rin tutadigan ijtimoiy tarixiy tajribani o‘zlashtirishdagi o‘ta murakkab, ko‘p omilli jarayondir. Bu ijtimoiy jarayon emas. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni o‘zida bolalarga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirgan yaxshi nazariy hamda amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassis tashkil qilishi va amalga oshirishi lozim.

Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishni ko‘zda tutadi:

- * turli yosh bosqichlarida bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlarini ko‘ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;

- * nafaqat bola yoshini, balki uning o‘ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olgan holda uning nutqiga ta‘sir ko‘rsatish va u bilan hamkorlik qilishning eng samarali yo‘lini to‘g‘ri tanlashii o‘rgatish hamda olingan natijalarni tahlil qilish;

- * bolalar nutqini turli qirralarini rivojlantirishning aniq metodlari va usullariga doir bilimlar



hamda ularni didaktik nutqiy muloqot vaziyatlarida qo'llash, o'zlashtirishini ta'minlash;

* o'quv metodik qo'llanmalarni tanqidiy tahlil qilishga tayangan holda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar nutqiga ta'sir ko'rsatish borasida o'zining original usullari va yo'llarini yaratishga intilishni rag'batlantirish;

* kursni o'rganish jarayonida talabalar nutqini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari va bolalarga ona tilini o'qitishning psixolingvistik asoslari kabi tushunchalarni o'zlashtirishlari darkor;

* zamonaviy o'zbek tilini ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlari, ona tilini o'qitishning psixolingvistik, lingvodidaktik asoslarini bilish asosida ularni amaliyotda qo'llash metodikasi asoslarini o'zlashtirish;

* o'qishda va nutqda mantiqiy hamda emosional obrazli ifodalilikni o'rganish qobiliyati va ko'nikmalarini egallash, badiiy asarni tahlil qila olish va uni ijro etishni bilish bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish, talaffuz ko'nikmalarini grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish maqsadida ularning nutqiy faoliyatini yo'lga qo'yish hamda bolalarning bir-birlari bilan hamda boshqa shaxslar bilan muloqotlarini tashkil etish ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Til aqliy faoliyatni rejalashtirish imkonini yaratadi. Bu jarayonda tilning muhim vazifasi insonning xulq-atvorini boshqarish vazifasi paydo bo'ladi.

Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. Alifbega asoslangan holda qisqa muddatda o'quvchilar o'qishga, yozishga o'rgatiladi, so'ng o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi, bora— bora malakaga aylantiriladi

O'qish va yozish malakasi nutq faoliyatining boshqa turlari bilan ham bog'liq.

Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva K va boshqalar. —Savod o'rgatish darslari. T., «O'qituvchi» 1996
2. Ma'qulova B. va boshqalar. «Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari». T. «O'qituvchi» 1996
3. Umarova M, Hudoyberganov M. —Bayonlar to'plami. T. «O'qituvchi» 1992
4. S. Xudoyberganova M. —Ona tili 3-sinf uchun. T., —O'qituvchi» 2003
5. Ikromova R. —Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T. «O'qituvchi» 2003
6. Ikromova R. —Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T. - «O'qituvchi» 1993
7. Qosimova K. —Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T. «O'qituvchi», 1985



INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA O‘QUVCHILAR TOMONIDAN ENG KO‘P UCHRAYDIGAN XATOLAR

Jumayeva Dilfuza Sharofiddinovna
Navoiy viloyat Qiziltepa tumani 38-maktab
ingliz tili o‘qituvchisi

Ingliz tilini o‘rganish – bir qarashda juda murakkab va uddalab bo‘lmas vazifa bo‘lib tuyulishi mumkin. Ammo aslida esa bunday emas. Muvaffaqiyatga erishishning garovi - bu o‘rganish jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish va keng tarqalgan xatolarga yo‘l qo‘ymaslikdir. Ushbu maqolada hattoki eng tirishqoq o‘quvchilar ham yaxshi natijalarga erisha olishmaganliklari sabablarini ko‘rib chiqamiz

Katta umidlarning qo‘yilishi.

Afsuski, hozirgi kunda hammamiz uchun aql bovar qilmas reklamalar salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Sizning shahringizda “Ingliz tilini 3 oyda o‘rgatamiz” deb va‘da qiluvchi markazlar ochilib, sizga ingliz tilini bir necha haftada o‘rgatamiz deb va‘da qilishdimi? Bunday cho‘pchaklarga ishona ko‘rmang: qisqa muddat ichida siz na ingliz tilini, na nemis tilini, na yapon tilini o‘rgana olmaysiz. Til o‘rganishni boshidan boshlab uni ma‘lum bir darajaga yetkazish uchun kamida 1 yil astoyidil mashq qilishingiz kerak

Maqsadning noto‘g‘ri qo‘yilishi

Agar siz ingliz tilini bu zamonaviy til bo‘lgani uchun yoki shunchaki o‘rganayotgan bo‘lsangiz, sizda kuchli motivatsiya bo‘lmaydi. Borini ham tez orada yo‘qotasiz. Asosiy maqsad – zamonaviy va kelajagi bor kasbni egallash, malaka oshirish, nufuzli oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirish (chet elda bo‘lsa ham), sayohat qilish kabilar bo‘lishi kerak. Siz o‘rganayotgan xorijiy tilingiz qanday foyda olib kelishini aniq bilishingiz kerak.

Barcha e‘tiborni grammatikaga qaratish

Bu eng mashhur va qo‘pol xatolardan biridir. Tadqiqotlarga ko‘ra, grammatikaga haddan ziyod urg‘u berish sizning so‘zlashuv ko‘nikmalingizga salbiy ta‘sir qiladi. Nega deysizmi? Ingliz tili grammatikasi mantiqan tushunish uchun qiyin, real vaqtda so‘zlashuv esa yuqori tezligi bilan ajralib turadi. Ko‘rinib turibdiki, so‘zlashuv jarayonida fikringizni ifodalash uchun siz yod olgan yuzlab qoidalarni eslash uchun vaqt yetmay qolishi mumkin. Grammatikani ongliz va intuitiv tarzda o‘rgangan ma‘qul. Buning eng zo‘r yo‘li – xorijliklar bilan aktiv suhbat yoki ingliz nutqini tinglashdir.

Kitoblar asosida rasmiy ingliz tilini o‘rganish

Bu usul agar siz xalqaro test topshirmoqchi bo‘lsangiz samara beradi. Agarda siz tilni bilish qobiliyatingizni sezilarli darajada o‘stirmoqchi bo‘lsangiz, boshqa metodlarni ham sinab ko‘ring. Ingliz tilida so‘zlashuvchilar siz darslikda o‘rgangan ibora va so‘zlarni qo‘llamasliklari ham mumkin. Shuning uchun iboralar, frazal fe‘llar, turg‘un iboralar hattoki slenglarni (shevalar) ham o‘rganib turing.

Ideallikka haddan ziyod intilish

O‘qituvchilar va o‘quvchilar ko‘pincha xatolarga ko‘proq urg‘u berib, ko‘ngillari to‘lmasligi mumkin. Afsuski, ideal bo‘lishga intilarkanmiz, hattoki inglizabon aholi ham xatolarga yo‘l qo‘yishlarini inobatga olmaymiz. Salbiy tomonga urg‘u bergandan ko‘ra, suhbat va til o‘rganish jarayoniga ko‘proq ahamiyat bering. Sizning maqsadingiz – yon atrofingizdagi odamlarga o‘z fikringizni tushunarli qilib yetkazishdir. Vaqt o‘tib siz oldingi xatolarga yo‘l qo‘ymaysiz.

Maktab va repetitorlarga umid qilish

Ko‘pchilik ingliz tilini o‘rganuvchilar ingliz tili darslariga va o‘qituvchilarga ishonib qolishadi va ma‘suliyatni ularning zimmasiga yuklashadi. Bu noto‘g‘ri fikr. Birinchi navbatda, barcha narsa sizga bog‘liq. Yaxshi repetitor sizga yordam va motivatsiya beradi. Ustozlaringiz sizga vazifa berishmaganda ham, siz har kuni shug‘ullanishingiz lozim. Tilni jiddiy o‘rganishga o‘zingizni faqat o‘ziz majburlay olasiz

O‘rganilgan materialni yetarli darajada mustahkamlamaslik

Istalgan tilni o‘rganishda miqdorga emas sifatga ko‘proq e‘tibor berish kerak. Oz bo‘lsin – soz bo‘lsin. Agar siz kecha o‘rgangan iborangizni bir oydan keyin eslay olaman desangiz, siz adashgan bo‘lasiz. Ishlatilmaydigan va talab qilinmaydigan ma‘lumotlardan bizning miyamiz tez xalos bo‘ladi. O‘rganilgan materialni bir necha bor ma‘lum muddatlar oralig‘ida takrorlasb turish



kerak. Masalan, takrorlash mashqini bir kundan keyin, 3-4 kundan keyin va 1 haftadan keyin o'tkazib turing. Bu metodika kerakli bilimlarni uzoq muddatli xotiraga joylaydi hamda kerakli vaqtda u yerdan "olish" imkonini beradi

Tartibsizlik

Mashg'ulotlarni o'tkazib yuborish, ma'lum bir metodikaning yo'qligi, tez-tez repetitorning almashtirilishi – bu faktorlar bilan siz tez va sifatli tarzda ingliz tilini o'rgana olmaysiz. Birinchi navbatda siz o'z vaqtingizni to'g'ri taqsimlay olishingiz kerak. Agar siz tilni mustaqil o'rganmoqchi bo'lsangiz, haftada 3-4 marotaba, iloji bo'lsa har kuni shug'ullanishingiz kerak. Har bir darsdan oldin o'zingiz uchun shu dars oxirida erishishingiz lozim bo'lgan maqsadlarni qo'ying. O'rnatilgan tartibga rioya qiling va darslarni o'tkazib yubormang.

Talaffuzga e'tibor berilmaslik

Ingliz tilida ba'zi so'zlarning talaffuzi qiyinligi, yoki faqat shu tilga oid talaffuz qoidalari borligi hammamizga ma'lum. Siz grammatikani yaxshi bilishingiz, so'z zahirangiz katta bo'lishi, egallagan bilimingizni amalda qo'llay olishingiz mumkin, lekin so'zlashganingizda sizni aksentingiz noqulay ahvolga solishi mumkin. Buning sabablari turlicha: so'zlashuvning yetarlicha darajada mashq qilinmaganligi, audio kurslardan voz kechish, real hayotda ingliz tilida suhbatlashmaslik, o'qituvchi tomonidan noto'g'ri ta'lim berilishi. Asosiy muammo shundaki, bora-bora siz talaffuzdagi xatoliklardan qutula olmasligingiz mumkin

Ingliz tilidagi adabiyotlarni o'qimaslik.

Xorijiy gazeta, jurnal va kitoblarni o'qish – qiyin albatta. Ammo asosiy maqsad ulardagi har bir so'z ma'nosini bilish emas. Asosiysi matnning umumiy ma'nosini anglash va notanish so'zlarning tarjimasini kontekstdan aniqlash. Ingliz adabiyotlarini muntazam o'qish sizning lug'at boyligingizni oshirib, nutqni to'g'ri tuzishga ham o'rgatadi. Siz o'zingiz sezmagan holda bir nechta ingliz grammatikasi qoidalarini ham anglab olasiz. Bu qulay hamda arzon amaliyot turini qo'ldan boy bermang.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

*Kenjayeva Hamida,
Navoiy viloyat Qiziltepa tumani
27-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularni ahamiyati, darslardagi samarasi hamda qo'llash yo'llari berilgan. Shu asosda bir soatlik dars ishlanmasi taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: ilg'or pedagogic metodlar, zamonaviy pedagoglar, boshlang'ich sinf, ta'lim – tarbiya

Hozirgi kunning talabi barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, o'quvchilar bilan ishlashning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish va noan'anaviylikka intilishni taqazo etadi. Shunga ko'ra, kichik yoshdagi o'quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maqsad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta'lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo'lishini talab etadi. Ana shunday yangi texnologiyalardan biri o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishdir.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish davr talabidir.

Bugungi o'quvchilarga ta'lim berish ularni tarbiyalash o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu esa pedagogdan talabchan, o'z ustida ishlash, o'ta mas'uliyat bilan faoliyat yuritishni taqozo etadi. Pedagogning faoliyat shakllari- darsni amaliy mashg'ulot, hikoya, suhbat, savol-javob, bahs-munozara, darslarida namoyon bo'lib undan unumli va o'rinli texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi.

O'quvchilar zamonaviy dars jarayonida o'ziga nisbatan talabchanlikni oshiradi, muammoni esa yechimini, oson, qulay usullarini topishni, taqqoslashni, qiyoslashni o'rganadi. O'tilgan mavzuga mustaqil munosabat bildirish malakasi oshadi. Har bir o'qituvchi darsda qaysi usulni qo'llashidan qat'iy nazar talabchanlikni, faollikka, mustaqil fikr yuritishga erishishni maqsad qilishi kerak.

O'qituvchining nutq madaniyati ham dars jarayonini muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Notiqlik mahorati faolligini oshirib, ishga ijobiy yondashuvini ta'minlaydi. Dars davomida zamonaviylikka erishishda barcha usullarni o'rinsiz, ko'p foydalanish ham yaramaydi. Zamonaviy, noan'anaviy dars shakli va uni tashkil etishdan maqsad - o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirilish darslarni samarali natijalariga erishish yo'llaridan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiya o'quv jarayonlarini harakatga keltiradi. O'qituvchi belgilangan maqsadga erishmoqchi bo'lgan yo'lidan og'ishmay borishni undan kuchli kasbiy mahorat talab etishi hammamizga ma'lum, chunki dars asosda shaxs sifatini shakllanishiga pedagogic ta'sir etishini to'g'ri tashkil etiladi.

Boshlang'ich ta'lim darslarida pedagogik mahoratning siri ona tili, matematika va o'qish darslarida o'zgacha namoyon bo'ladi. Masalan, o'qish darslarida o'quvchilarning his qilish, tasavvur etishi kuchayadi. Unda muallifning orzu-istaklari ifodasi orqali insonparvarlik, odamiylik, mehribonlik, vatanparvarlik hissi uyg'otiladi va o'stiradi. O'quvchilar ma'naviy merosimizning, o'z-o'zini anglashni, ajdodlar ila faxrlanishni avlodlarga bo'lgan chuqur ishonchni anglab yetadi.

Ta'lim bilan tarbiyani hamohangligi natijasida og'zaki nutqi ravon, o'z so'zlash nutqiga ega, mantiqiy fikr yurita oladigan barkamol shaxs kamolga yetadi. Ona tili darslarida esa o'quvchining yozma nutqi, husnixat malakasi o'sib boorish barobarida qalbini uyg'otuvchi teran fikrlarini bayon etadigan o'quvchilar tarbiyalanadi. So'z boyligiga ega, o'z qarashlarini yozma nutqda mukammal bayon etishga qodir o'quvchilar imkoniyati darslarda va aynan yangi zamonaviy dars, pedagogik texnologiyalarni to'g'ri joriy qilish natijasida o'z samarasini beradi.

Qaysi sinfda dars tashkil etishimizdan qat'iy nazar u ilmiy bo'lishi, mazmun va izchillik yo'qolmasligi, ta'lim va tarbiya uzviyligi, onglilik, ko'rgazmalilikda o'quvchiga xos xususiyatlar hisobga olinishi muhimdir.

Demak o'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, o'qituvchi oldida turgan eng muhim vazifa dars jarayonida ko'zda tutilgan. Ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlay olishi kerak. Dars maqsadi, vositalari, pirovard natijasi oldindan belgilanib, unga erishish kafolatlanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. О'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim, II modul. –Toshkent 2013-yil.
2. Umumta'lim o'qituvchilari uchun o'quv modullari. 1-modul: O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'natirilgan ta'lim. 2013-yil.
3. T. G'afforova va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. -Toshkent. "Sharq" 2017-yil.
4. M. Umarova va boshqalar. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. -Toshkent. "O'qituvchi" 2017-yil.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

*Qo‘shshiyeva Kumush Hazratovna,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
26- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda o‘quvchilarning bilim olish saviyalarini shakllantiribgina qolmay ularning barcha fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantiradi.

Hozirgi kunda ta‘lim sohasida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Bugungi kunumizda yana ham e‘tibor axborot texnologiyalarga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlantirish texnologiyasida bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va berilgan vazifalarni ijodiy yondashgan holda bajaradi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Boshlang‘ich ta‘limning samaradorligini ta‘minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun umumta‘lim maktablarida ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda malakali kasb egalarini tayyorlash, ularni mustaqil fikrlash, ijodkorlikka o‘rgatishda zamonaviy o‘qitish metodlari -interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Demak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogik jarayonni to‘g‘ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi ko‘p jihatdan o‘quvchi uchun o‘rnakdur. Shuning uchun u birinchi navbatda o‘z ish faoliyatida pedagogik va AKT dan mustaqil, faol foydalana olib ularni o‘ziga jalb eta olishi kerak. Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda o‘quvchilarning bilim olish saviyalarini shakllantiribgina qolmay ularning barcha fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantiradi. Ma‘lumki barcha fanlarni bir-biriga bog‘lab olib borishni amalga oshirishimiz mumkin. Eng muhimi shundaki har bir matnda fikr nima haqida berilayotganini aniqlab olish va matn nazmunini to‘liq tushunib yetish imkonini beradi. Boshlang‘ich ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu sababdan boshlang‘ich sinf darslarini o‘rganishda rivojlantiruvchi muammoli hamda pedagogik texnologiyalarni asosiy jihatlarni o‘zida ifodalovchi “Multimedia- dars”, “Slaydli dars”, “Seminar dars” kabilarni qo‘llash tavsiya etiladi. Masalan: 3-4-sinflarda Seminar darslar vositasida ham axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash mumkin. Bunda o‘qituvchi muayyan mavzu doirasida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishiga mo‘ljallangan qismlarni rejasi bilan birga o‘quvchilar e‘tiboriga havola etadi. Ularga maktab kutubxonasidagi mavjud adabiyotlarni yozdiradi hamda bolalar uchun mo‘ljallangan internet saytlari bilan tanishtiradi. O‘quvchilar aka-opalari yordamida yoki o‘zlari izlanib mavzu yuzasidan tayyorlanib keladilar. Seminar dars o‘quvchilarning mustaqil chiqishlarini jamlovchi, lozim topilgan paytda munozaraga asos yaratuvchi dars hisoblanadi. Bunday darslarda o‘qituvchi boshqarib, yo‘naltirib turish vazifasini bajaradi, o‘quvchilar esa mustaqil ijodiy ishlovchi o‘z fikriga ega shaxs sifatida o‘quv faoliyatiga kirishadilar. “Multimediali darslar”dan foydalanish ham boshlang‘ich ta‘lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi:

- o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etadi;
- yangi materialni jadallik bilan yetkaza biladi;
- axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko‘magida boshqara oladi;

O‘quvchilarda esa “multimediali dars”lar fanga bo‘lgan qiziqish uyg‘otish, o‘z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o‘rganishda o‘zi uchun qulay bolgan tezlik va o‘zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi. Interaktiv doska ta‘lim jarayoniga elektron o‘quv va multimedia materiallarni olib kirish uchun samarali vositadir. Katta ekranga ya‘ni elektron doskada axborotlarni yaxshi qabul qilishlari hisobiga o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati oshadi. O‘quvchilar mustaqil ishlaydilar, sinfdoshlari va o‘qituvchilari bilan birga fikrlaydilar.



Dars jarayonidagi ushbu hamfikrlilik muhiti o'quvchilarning sinfdoshlari orasida mavqei va o'ziga nisbatan ishonchining ortishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarning fanga qiziqishlari kuchayib, o'quv materiali tez yodda saqlanadi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida dars o'tish ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarda barcha o'qitiladigan fanlarda turli xil ko'rgazmalardan texnik vositalardan foydalana olish darsning samaradorligini oshiribgina qolmay ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantiradi. Bu jarayonda barcha darslarida ko'rgazmalilikning o'zni ahamiyatli hisoblanadi. Bu o'z navbatida ularga fikr va mulohazalarini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farzandlari sog'lom mamlakatning kelajagi buyukdir. O'zA maqolasi - "Xalq so'zi" gazetasi, 2014-yil 22-fevral soni.
2. Mavlanova R. va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: Fan va texnologiya. 2010



OILADA MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING VAZIFALARI

*Samadova Hilola,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Oilaning asosi er-xotin yoxud ota-onadir. Modomiki, er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga mas'ul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiyinchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda, oilani idora etishda, farzand tarbiyasida mas'uldirlar. Er-xotin o'rtasidagi o'zaro muhabbat, ishonch, hamkorlik va hamfikrlik, izzat-ikrom, munosabatlar samimiyligi-oila mustahkamligini ta'minlash uchun zamindir-farzand uchun namuna maktabidir. Tabiatan erkak va ayol jinsiga xos xususiyatlar bo'lgani kabi, oilada ular bajarishi lozim bo'lgan mehnat turlari, farzand, oila, qarindosh-urug', jamiyat oldidagi burch va vazifalari mavjuddir. Er-xotinning oqilligi o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishi oqibatida boshqariladigan oilada moddiy va ma'naviy barqarorlik, tinchlik, sog'lom ma'naviy muhit hukmron bo'ladi, XX asr Turkiston jadidchiligining ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat aytganlaridek: "Er-xotin mushkulotdan iborat bo'lgan hayot safarida birga bo'lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg'u va umidsizlik damlarida g'amxo'r, saodat va baxtiyorlik chog'ida bir-birlariga hamdam bo'lishlari lozim. Shunday ekan, ular albatta, eng avvalo, bir-birlarini kamoli diqqat va tajriba yuzasidan imtihon qilishlari zarur".

Ota-onaning tinch-totuvligi va o'zaro mehr muhabbati ularning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasi, qiziqishi, e'tiqodi, moddiy tengligi, jamiyatdagi mavqei, husn-latofati, qalblarining moyilligiga bog'liqdir. Ushbu xususiyatlari bir-birlariga monand er-xotin tarbiyalangan farzandlar go'zallikka ishtiyoqmand, ruhiy tetik, bag'ri butun, huyotga qiziquvchan, tinch-totuv oilaviy hayot kechirishga tayyor bo'lib o'sadilar. Aks holda ota-ona va farzandlar o'rtasida mehr-oqibatsizlik, o'z hayotidan, jamiyatdan norozilik, oilada notinchlik, hech narsaga qiziqmaslik, beparvolik, loqaydlik, jizzakilik holatlari hukm suradi. Bu esa oilaning inqirozi uchun zamin hisoblanadi. Bunday nosog'lom muhitda dunyoga kelib, tarbiyalangan bolalarda xiyonatga, turli noaxloqiy xatti-harakatlarga (ichish, chekish, o'g'rilik qilish, jinoyatchilik, giyohvandlik va boshqalar) ruhiy tanglik holatlariga moyillik kuchli bo'ladi. Shuning uchun er va xotinning bir-biriga mosligi oila barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy aytganidek: "...Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur. Uy bezagi undan va va uylanganning tinchligi undan.

Husni bo'lsa, ko'ngliga yoqimli bo'lur, yaxshilig'i bo'lsa jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak-yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi.

... Nosoz juft uy uchun ham achchiq va yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngil undan ozorlanadi, yaramas bo'lsa, ruh undan azob tortadi. Tili yomon bo'lsa, kuyovning ko'ngli yaralanadi. Yomon ishlik bo'lsa, erga yuz qoralik keladi.

"Mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi va buzuqi bo'lsa, uy ichi rasvogarlikka aylanadi".

Shunday qilib, yigit va qizning o'zlariga har tomonlama mos turmush o'rtoq tanlashi oilaning baxtidir. Bir-biriga nomunosib er yoki xotin-oilaning tanazzuli omilidir.

Ota-onaning oiladagi o'z vazifa va amallari bo'lib, ularga to'liq amal qilgan er-xotin ahil, inoq, baxtli turmush kechiradi. Oilada ota-onaning vazifasi - ota-onasi, turmush o'rtog'i va farzandlari o'rtasidagi munosabatlarni samimiy bo'lishini, turli nizolarni bartaraf etish yoki oldini olish chora-tadbirlarini belgilaydi. "Onangni bir qo'lingda, xotiningni esa ikkinchi qo'lingda ko'targin", degan bu hikmat maqolning mazmuniga ham erkak kishining ota-ona va xotining munosabatda bir xilda bo'lishi lozimligiga ishora etiladi.

Ota-oilaning moddiy ta'minotchisi. Yerning topganini isrof qilmasdan, rejali, tejab sarflash xotinning vazifasidir. Oilada otaning halolligi, rostgo'yligi, adolatligi, tadbirkorligi, bola tarbiyasida qattiqo'lligi esa bu oilada tartib-intizom mezonidir. Oilani moddiy tomondan ta'minlay olmaydigan erkaklarning xotini, farzandlari, hatto qaynota-qaynonasi oldida ham obro'-e'tibori past bo'ladi. Ba'zi oilalarda xotin kishining barcha masalalarda "ovozi"ning balandligiga sabab ham uning toparman-tutarmonligidandir. Lekin, oilani moddiy barqaror qilaman deb, turli



yomon yo‘llarga kirgan ayllar ham onda-sonda bo‘lsa-da, uchrab turadi. Bunday ayol er sha‘nini toptaydi, muqaddas oilaga xiyonat, farzandlar boshini esa ham qiladi, avlod-ajdodlariga isnod keltiradi. Muqaddas ayol, ona degan sharafli nomga dog‘ tushuradi. Shuning uchun oilaning moddiy ta‘minoti erkak zimmasida bo‘lmog‘i zarur.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma‘naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta‘siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini tabiati va dunyoqarashi belgilaydigan ma‘naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarni poydevori oila sharoitida qaror topadi. Oila muhitida ota-onaga hurmat ular oldidagi umrbod qarzdorlik burchini anglash har bir insonga xos odamiylik fazilatlarini ma‘naviy olamni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cho‘lpon “Ajdodlar o‘giti” hikmatlar, hikoyatlar, tamoyillar T.: “O‘zbekiston” 1991.-136 b.
2. Qur‘oni Karim. - T.: “Cho‘lpon”, 1993.-560 b.
3. Imom al-Buxoriy. Hadislar 4-jild –T.: 1997 y.
4. Imom Ismoil al-Buxoriy Hadis 1-4 tom T.: “Qomuslar bosh tahririyati” 1991
5. Kaykovus “Qobusnoma” T.: “Meros” 1992



МАТЕМАТИКА ДАРSLARINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

Siddiqova Gullola
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15 - umumiy o'rta ta'lim maktabi
matematika fani o'qituvchisi

Annotasiya: maqolada o'zaro dars kuzatuv va tahlil qilishning metodologik ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Darsni kuzatish va tahlil qilish, ochiq, ko'rgazmali, namunaviy, hisobot darslari, darsni baholash mezonlari, darsini didaktik va uslubiy tahlil qilish.

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da yuqori malakali, erkin va mustaqil fikrlaydigan, chuqur nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo’lgan, olgan bilim va ko’nikmalarini amaliyotda qo’llay oladigan, jahon andozalariga mos mutaxassislarini tayyorlash vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish va bu boradagi qator muammolarni hal etishda umumiy o’rta ta’lim maktablari o’qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati muhim ahamiyatga ega.

O’qituvchi tomonidan olib borilayotgan mashg’ulotlar mazmuni yuqori saviyada bo’lishi, fan bo’yicha belgilangan Davlat ta’lim standartlari va tegishli fan dasturlariga mos kelishi shart. O’qituvchining har bir darsi o’quvchilarda shakllanayotgan bilim va ko’nikmalar qamrovini bosqichmabosqich kengayishiga xizmat qilishi, ularning mazkur fanga bo’lgan qiziqishlarini yanada ortishiga xizmat qilishi zarur.

Pedagogik faoliyatda amalga oshirilgan ko’p yillik ish tajribalari va kuzatishlar o’qituvchi hamisha o’z ustida ishlashi, bilim, ko’nikma va malakalarini

Takomillashtirib borishi kerakligini ko’rsatmoqda. O’qituvchi pedagogik mahoratining kundan kunga o’sib borishi, yangi pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llay olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Darsni turli shakllarda o’tish mumkin, ammo o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini shakllantirish uchun ayrim talablarga rioya etish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilar:

- o’qituvchi darsning mavzusi va maqsadini aniq belgilashi shart;
- har bir dars ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasiga ega bo’lishi kerak;
- dars jarayonida o’quvchilarning yakka holda, guruh va jamoa bo’lib ishlashlari talab etiladi;
- dars o’quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda o’qituvchi tomonidan maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi;
- o’qituvchi o’tiladigan mavzuni dars davomida o’quvchilar tomonidan to’liq o’zlashtirib olishlarini ta’minlaydi;
- darsda sanitariya-gigiena talablariga rioya qilinadi.

O’qituvchi faoliyatining qanchalik samarali ekanligi va pedagogik mahoratini uning o’tayotgan darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali bilish mumkin.

O’qituvchining darsini kuzatish va tahlil etish mo’ljallangan bo’lsa, o’qituvchilik kasbi odobiga ko’ra uni darsga kirish oldidan ogohlantirish lozim. Darsni kuzatishda bir kishi, agar imkoniyat bo’lsa, 2-3 kishi bo’lib dars kuzatilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu o’z navbatida, har xil anglashilmovchiliklar va psixologik to’siqlarning oldini olishga yordam beradi.

Kuzatuvchilar birgalikda darsga kirib kelib, orqa o’rindiqlarni egallashgandan so’ng dars boshlanadi. O’qituvchi darsga kirganda qo’li (yoki o’quv xonasi)da guruh jurnali, o’quv dasturi, kalendar-mavzu rejasi, dars ishlanmasi(konspekti) bo’lishi kerak. Dars uchun kerakli jihozlar va ko’rgazmali qurollar oldindan tayyorlab qo’yilgan bo’lishi lozim.

Dars boshlangandan so’ng hech kimning ushbu jarayonga xalaqit berishiga yo’l qo’yilmaydi.

Xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish tuman, shahar mudirlari, o’rinbosarlari, metodistlari tomonidan haftasiga kamida 2 soat, ta’lim muassasalari direktorlari, ularning o’rinbosarlari tomonidan 4 soat, fan metodbirlashma rahbarlari tomonidan 2 soat, o’qituvchilar tomonidan 1 soat o’qituvchilar darslarining kuzatilishi va tahlil qilinishi talab etiladi.

O’qituvchining darsini kuzatib, uni tahlil etishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga



muvofig:

- o'qituvchining darsga qanday tayyorgarlik ko'rganligi?
- o'qituvchida darsning o'quv rejası va mavzu bo'yicha turli ishlanmalarning mavjudligi;
- turli didaktik tarqatma material va ko'rgazmali qurollarning tayyorligi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligini butun mashg'ulot davomida kuzatish va tahlil etish lozim.

Kuzatilgan darsni tahlil qilish jarayonida birinchi bo'lib darsni o'tgan o'qituvchi o'zining darsiga munosabatini bildirgani ma'qul.



INGLIZ TILINING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI

Aminov Elbek
Navoiy shahar 6-umumta’lim maktab
Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ingliz tilini hayotimizdagi o‘rni judayam katta. Dunyo miqyosidagi talabga javob beruvchi, hamma uni birdek qo‘llay oladigan til.

Kalit so‘zlar: Ingliz tilining samaradorligi, insonlarga beradigan foydasi, Noa Uebster lug‘ati.

Ingliz tilining hayotimizdagi o‘rni shundan iboratki o‘z til boylimizga erishamiz, bilim, ta’lim-tarbiya, dunyoqarash, fikrlashlarimiz tovoba o‘zgarib boradi. Oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishamiz. Eng muhimi savod chiqaramiz. Hech kimni oldida uyaliq qolmaymiz. Dunyo qarashimiz tubdan o‘zgarib, orzularga maqsad bilan kirishamiz. Ushbu ikki mamlakatning o‘rtasida hanuzgacha jamiyat uchun tushunarsiz bo‘lib kelayotgan til munosabatlari shakllangan. Ular orasidagi nizolar allaqachonlardan beri vujudga kelgan. Har bir mamlakat bu tilga o‘zi tomondan yangiliklar kiritishga harakat qiladi. Amerikaning yosh avlodiga taniqli bo‘lgan Noa Uebster lug‘atning o‘zi kashf etgan variantini o‘rganishni taklif qilgan. Shunday payt ham bo‘lganki bu tilda gapirish taqiqlangan. Bunday qonun 1969 yilda AQSHning Illinoys shtatida chiqqan. Ularning rasmiy tili amerika tili deb tan olingan. Birinchi qarashda ularning orasida hech qanday farq ham yo‘qday tuyuladi, ammo aslida esa ingliz tilining 24 shevasi mavjud. Bu turli asarlarning mualliflari bo‘lgan yozuvchilar uchun mislsiz qiyinchiliklar tug‘diradi. Mana, masalan mashhur qahramon Garri Potter to‘g‘risidagi kitob. Uni butun Amerika aholisi bemalol o‘qiy olishi uchun ingliz tilidan Amerikacha ingliz tiliga tarjima qilishga to‘g‘ri kelgan.

Ingliz tili bugungi kunda dunyo bo‘yicha eng ko‘p so‘zlashuvchi soniga ega bo‘lgan birinchi raqamli til xisoblanadi. Uni o‘rganishimiz hammamiz uchun foydali ekanligini juda yaxshi bilamiz. Ammo hamma ham ingliz tilini o‘rganish juda zaruriy ekanligini to‘liqligicha tushunib yetmaydi. Nega ingliz tilini mukammal darajada o‘rganishingiz kerak? Quyida ingliz tilini o‘rganishingizga eng asosiy 5 tasababni keltirib o‘tmoqchiman. Ingliz tilini mukammal darajada o‘rganishingiz juda muhim, chunki.

1. INGLIZ TILINI MUKAMMAL DARAJADA BILISH KASBIY RIVOJLANISHINGIZDA MUHIM AHAMIYATGA EGA.

Qaysi kasb egasi bo‘lishingizdan qat’iy nazar ingliz tilini bilmasdan o‘z sohangizda mukammallikka erisha olmaysiz. Ingliz tilini bilishingiz Sizning kasbiy rivojlanishingizda dunyo eshiklarini ochadi. Amerika va Buyuk Britaniyadan tashqari Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada, Afrikaning ba’zi qismlari, Hindiston va bir nech orol davlatlar ingliz tilini birinchi til sifatida gapirishadi. Bundan tashqari Germaniya, Norvegiya, Shvetsariya, Daniya va Niderlandiyada bu til ikkinchi til sifatida barcha fuqarolar tomonidan erkin tarzda ishlatiladi. Siz ingliz tilini yaxshi bilgan holda shu kabi boshqa xorijiy davlatdagi hamkasblaringiz bilan bemalol, bevosita muloqotga kirishish, fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Ingliz tili zamonaviy, rivojlangan texnologiyalar tili bo‘lganligi sababli bu tilni yaxshi bilishingiz har qanday yangi texnologiyadan samarali foydalana olishingizga imkon yaratadi. Ingliz tilini yaxshi bilgan kishi zamonaviy aloqa vositalaridan unumli foydalanib dunyoning boshqa nuqtalaridagi hamkasblari bilan hech qanday qiyinchiliklarsiz aloqaga chiqa oladi. Bu esa uning bir yo‘nalishda ishlayotgan boshqa kishilarga nisbatan ancha ustunlikka ega ekanligini anglatadi. Hozirda dunyo bo‘yicha barcha xalqaro malaka oshirish, sammitlar, konferensiyalar va rasmiy yig‘inlar ingliz tilida olib boriladi. Har qanday kasbning xalqaro vakillari bir joyda yig‘ilsa, yig‘ilish joyi Moskva, Budapesht, Rio yoki Toshkent bo‘lishidan qat’iy nazar ularning barchasi ingliz tilida o‘zaro muloqot qilishadi..

2. INGLIZ TILINI BILISH DUNYO HAMJAMIYATIDA O‘Z O‘RNINGIZNI TOPISHINGIZDA AHAMIYATLI.

Ingliz tili nafaqat biznes yoki boshqa biror rasmiy yig‘ilishlarda, balki xorijiy davlat fuqarolari bilan norasmiy muloqotda ham ishlatiladi. Oddiy internet orqali ingliz tilini bilgan holda butun



dunyo davlatlari vakillari bilan erkin muloqotga kirisha olasiz. Bu esa Sizga jahonda yuz berayotgan eng muhim yangiliklar, o'zgarishlardan o'z vaqtida xabardor bo'lish, ularga nisbatan o'z fikringizni bildirish imkoniyatini beradi. Ingliz tilini mukammal bilish yer sayyorasining to'la huquqli fuqarosiga aylanishingizda muhim ahamiyatga ega.

3. INGLIZ TILINI MUKAMMAL BILISH YAXSHIROQ MA'NAVIY OZUQA OLISHINGIZGA YORDAM BERADI.

Dunyoning eng taniqli asarlari, kitoblari, maqolalari va video manbalari ingliz tilida tayyorlangan. Bu tilni mukammal bilsangiz o'zingiz sevgan qaysidir xorijiy asarning tarjimasini qidirishingizga hojat qolmaydi. Dunyo yangiliklariga qiziqsangiz, ingliz tilida gaplashiladigan mamlakatlarda sodir bo'layotgan voqealar rivojini birinchi manbadan bilib olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Tilni yaxshi bilgan holda sevimli xorijiy filmlaringizni original, tarjimasiz holda ko'rishingiz va tushunishingiz mumkin bo'ladi. Ko'proq manbalar asosida ko'proq ma'lumotga ega bo'lasiz va natijada bilimingiz ham bir necha barobar oshadi. Bundan tashqari o'rganganlaringiz Sizni boshqa xalqlar madaniyatini yaxshiroq tushunadigan, keng fikrlaydigan va ular tajribalarini o'rganish asosida uzoqni ko'rib ish qiladigan shaxsga aylantiradi. Ingliz tilini bilish ma'naviy va madaniy rivojlanishingizda muhim ahamiyatga ega.

4. XORIJIY DAVLATLARDA TA'LIM OLISHINGIZ MUMKIN.

Dunyo bo'yicha 2000 dan ortiq universitetlar har yili 400 milliard pulni xorijiy davlatlardan keluvchi talabalarni o'qitish uchun sarflaydi. Grant dasturlariga ajratilayotgan bu pullar evaziga dunyoning nufuzli universitetlarida o'qish uchun imkoniyatini birinchi navbatda ingliz tilini mukammal darajada bilganlar qo'lga kiritishi mumkin. Ushbu xorijiy tilni bilishingiz xorijiy davlatlarda o'qishingizni davom ettirishingiz, yanada mukammalroq bilim olishingizga yordam beradi.

5. INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANA OLADIGAN BO'LASIZ.

Zamonaviy dunyoni internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internetning asosiy tili ingliz tili hisoblanadi. Internetdan ko'ngilochar maqsadda foydalanisizmi, u orqali ishlaysizmi, ma'lumot olasizmi yoki pul ishlab topasizmi – ahamiyatsiz, barcha yo'nalishda ingliz tilini bilishingiz eng ko'p foyda beradi. Ingliz tilini yaxshi bilishingiz internetdan foydalanishda faqat o'zbek yoki rus tilidagi saytlarga suyanib qolishingizning oldini oladi. Vaqtingizni tejab, tarmoqdagi eng sara ma'lumotlarni ajratib olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ingliz tili bizning faoliyatimizni, nutqimizni, bilmimizni har tomonlama kuchaytiradi. Aqlan barkamol inson bo'lishimizga imkon beradi. Hozirgi kundagi o'rni ahamiyati ham shunda deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika fanidan ma'ruzalar matni. Axmedjonov M.M, Boqiyeva S.N,
2. Xorijiy ta'lim tajriba kursi bo'yicha metodik qo'llanma. Nutfullayeva Sh.N
3. Pedagogika Maxmudov M.X, Adizov B.R, Olimov Sh.Sh www.ziyounet.uz



BOSHLANG‘ICH MAKTABDA INTEGRATIV TA’LIM JARAYONINING USLUBIY JIHOZLANISHI

*Eshonqulova Xolida,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15 umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotasiya: maqolada integratsiya tushunchasi, integratsiyaviy ta’lim va uning elementlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, ta’lim, tarbiya, samaradorlik.

Hozirgi kunda lug‘atlarda integratsiya so‘zining uslubiy ma’nosi ko‘rsatilmagan. Lekin hammaga ma’lum lotincha so‘z “Integratio” tiklanish, to‘ldirish, “integrir” - bir butun ikki ma’noda foydalanishga qabul qilingan.

1. Qandaydir qismlar elementlarni bir qilib birlashtirish.

2. Ikki yoki undan ko‘p davlatlar bir turdagi ijtimoiy tuzimga ega bo‘lgan bo‘lsa, iqtisodiy yoxud madaniy jihatdan uyg‘unlashtirish jarayoni. Bir turdagi qism yoki elementlar mavjudligi va ularning bir maqsadga tabiiy bo‘ysundirish imkoni va bir qator o‘quv fanlari uslubidagi yaqinlik integratsiya atamasini aniqlashga asos beradi, ya’ni o‘qitish, tarbiya qilish va o‘quvchilarni ma’lum o‘quv fanlarini o‘zlashtirishni uyg‘unlashtirish usullari haqidagi fan. I.Kalojvari va L.Pechnikova ta’kidlashlaricha: «Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul natijasida o‘quvchilar ongida olamning faol va ko‘p tomonli tasviri shakllanadi. O‘quvchilar olgan bilimlarini amalda faol foydalanishga boshlashadi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o‘zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo‘lgan munosabatini ravshanlashtiradi».

Maktabda mavjud hamma fanlar o‘ziga xos integratsion imkonga ega. Lekin ularning bir-biriga mos bo‘lishi integrirlangan kurslarning samaradorligi ko‘p sharoitlarga bog‘liq. Shuning uchun yangi dastur yaratishdan oldin pedagoglar va uslubchilarga integratsiyaning imkoniyati va zaruriyati xulosa ishiga yordam beradigan vaziyatlarni hisobga olish kerak. Buning uchun o‘qituvchi sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasini oldin tahlil qilishi, ularning ma’naviy xususiyatlarini, o‘rganishga qiziqishlarini o‘rganadi.

O‘quv faoliyatida mavjud bo‘lgan qiyinchiliklar integratsiya usulidan foydalanish sabablaridan biri bo‘lishi mumkin. Ba’zi o‘quvchilarning bir fandagi

Muvaffaqiyati ikkinchi fandan olgan bilim va ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan: o‘quvchi savodli va tez matn ko‘chirishga tez va to‘g‘ri o‘qishi bog‘liq. Lekin agar aniq bo‘nday hamkorlik ko‘rsatilmasa ham yoki umumiylik bo‘lmasa bir fan rejasidagi mazmunga to‘g‘ri baho bersa o‘qituvchi alohida dars berishini etarli emasligini ko‘rish mumkin. Biz bilamizki, dunyo bir, u sanoqsiz ichki aloqalar bilan bog‘langan, shuning uchun bitta muhim masalani, boshqa ko‘pgina masalalarga tegmasdan echish qiyin. Shunga o‘xshash solishtirishlar integratsiya ga asos bo‘la oladi. Bir qator fanlarning dasturlarida «chorrahalar» bor, ya’ni umumiy muomala va masallar bilan bir bo‘lgan, tez-tez bir hodisa, ya’ni boshqa-boshqa nuqtalardan bir ob’ektni o‘rganiladi. Bularning barchasi integratsiyaga talabnoma. Lekin birlashtirish asosi juda chuqur. Agar o‘qituvchi o‘zi dars berayotgan fandan shunday o‘zaro muloqotga oid joylarini aniqlasa ular o‘z navbatida o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam berish mumkinligini aniqlasa qo‘yilgan maqsadga erishish uchun uning texnologiyasini ishlab chiqish kerak. O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining tashkillanishini hisobga olsak integrirlangan dars sharoitida u tez-tez bahs va kelishmovchilikka sabab bo‘ladi.

Tabiiyki, har bir sinfdagi o‘quvchilar guruxdari bor. Ular bir-birlaridan xotira turlariga ko‘ra farq qilishadi, qabul qilish, diqqat jihatidan farqlanadi. Ularning ba’zilari o‘qituvchi olib borgan dars tezligi qoniqtiradi, kimgadir tezlik qiladi. Kimgadir darsda ishlatilgan jadval tushunarli, boshqalari qayta-qayta izohlagandan keyin tushunadi. Lekin integrirlangan dars tushunchasi hamon bahsli bo‘lib qolmoqda. Integratsiyalangan darsning belgi-alomatlari qanday?

1. Integrirlangan kursning o‘zi yangi murakkab birlik bo‘lib, umuman boshqacha shaklda bo‘ladi hamda masalalarni aniq va samarali echishga qaratiladi.

2. Ular 2 yoki 3 ta fan asosida rejalashtiriladi. Shuning uchun bir nechta o‘qituvchi yoki bir



nechta o'quv fanlari materiali mexanik usulda birlashtiriladi.

3. O'rganishga qiziqish jarayonini faollashtirishning usullari, malaka va ko'nikmalari ishlab chiqiladi.

O'qituvchilar darsni birga yoki alohida o'tkazishlari mumkin, lekin natijalar umumiy harakatlar orqali echiladi. Ko'pincha 5-sinfda yangi o'qituvchilar kirishadi va o'quvchilarga turlicha talablar qo'yishadi, ancha vaqt qiynalishadi. Bundan ko'rinadiki, maktablarimizda pedagoglarimiz umumiy ta'lim siyosatiga ega emaslar, bir jamoa bo'lib harakat qilishmaydi. Integriirlangan darsning chegarasida o'qituvchilar oldindan nima muhim, nima ikkinchi darajali ekanini aniqlashlari lozim. O'quvchilar bu darsda o'z ishlarini lo'nda va aniq ifoda etishni, og'zaki savollarni to'g'ri tuzishni, o'z-o'zini nazorat qilishni, o'ziga baho qo'yishni o'rganishi kerak. O'qituvchilar ana shunday hamkorlik asosida tuzilgan darslar integriirlangan bo'ladi, lekin ular asosida o'rganilgan material bir – biri bilan hamohang bo'lmaydi. Bunday darslarni integratsiyaning 1-darajasiga kiritish mumkin. 2- va 3-darajali integratsiyali eng keng tarqalgan darslar. 2-daraja deb tushuncha ma'lumotli o'quv fani Masalan: Takrorlash darslariga qo'shimcha kiritish, mavzuga qo'shimcha material tanlash. 3-darajada solishtirish umumlashirishda gap materialni o'rganish masalalari bilan bog'liq. O'quvchilar hodisa va ob'ektlarni solish tirish va taqqoslash bilan bog'laydilar. Bunday darsda 2 ta o'qituvchi ishtirok etishi mumkin. Eng chuqur deb integratsiyaning 4-darajasi olinadi.

O'quvchilar faktlarni solishtira boshlashdi, bitta hodisani, voqeani muhokama qilishadi, ular orasidagi aloqalarni aniqlashadi, hamkorlikda o'quv ko'nikmasini birgalikda ishlab chiqishadi.



ТА'ЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ О'РНИ ВА АҲАМИЯТИ

*Eshova Sanobar Raxmonovna,
Navoiy viloyat Navbahor tuman
5-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Xojiyeva Dilshoda Furqatovna,
Navoiy viloyat Navbahor tuman
5-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, ta'limda audiomateriallardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: slaydlar, videolavhalar, audiovositalar, multimediya, elektron doska

O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi-pedagoglarning tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo'llarini ochib beradi va ta'limni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Texnika shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda respublikamizda o'quv jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron darsliklar, multimediya hamda elektron doskalarni keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, multimediya, elektron doska orqali mashg'ulotlarni tashkil etish darsni yanada qiziqarli, o'rganilayotgan materialning oson o'zlashtirilishiga olib keladi.

O'quvchilarga fanni o'rgatishda axborot texnologiyalardan foydalanish darsni an'anaviy tarzda emas, balki jahon andozalari darajasida zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish darsda o'quvchilarni faollashtirishga, fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Bu esa yuqori samaradorlikka ega yangiliklarni tatbiq etish, insonning yangi yoki avvalgilaridan sifatliroq bo'lgan ko'rinishdagi intellektual faoliyati, fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotining yakuniy natijasi hisoblanib, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim jarayonini axborot texnologiyalari asosida rivojlantirish o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U umumta'lim maktablarida yuzaga kelgan ilg'or pedagogik tajribalar, ilmiy izlanishlar, ta'limdagi vaziyatlarni o'zgartirishga bo'lgan davlat ehtiyoji, ijodkor rahbar va pedagogning ta'lim xizmatlari, fan yutuqlari va yangiliklari, pedagogik jamoaning yangicha ishlashga bo'lgan ehtiyoji natijasi hisoblanadi.

Bundan tashqari ta'limda audiomateriallardan foydalanish ham ta'lim samaradorlini oshirishda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda slaydlar, videolavhalar, multimediya, elektron darsliklar va qo'llanmalardan foydalanishni yo'lga qo'yish davr talabiga aylandi. Videolavhalar va audiomateriallar, multimediya o'quvchiga matnni bir yo'la harakatlarni ko'rish va ovozli so'zlar, gaplar, kuy va qo'shiqlarni eshitish orqali qabul qilish imkonini beradi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etiksh, mashg'ulotlarni tashkil etishda, darsdan tashqari mashg'ulotlar, tadbirlarni o'tkazishda ko'rsatmalilik: slaydlar, videolavhalar, audiovositalar, multimediya, elektron doskalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga harakat qiladi.

Ta'limda o'quvchilarga o'rgatilishi kerak bo'lgan nutqiy mavzular asosida darslik materiallaridan tashqari videofilmlar, audivositalar, multimediya, qolaversa, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan unumli foydalanishdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilar:

- ta'lim sifati va samaradorligini yuqori bosqichga ko'tarish;
- o'quvchilarning savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarda erkin fikrlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish;
- o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- o'quvchilarda ma'lumotlarni mustaqil qabul qilish va tahlil qilish, mustaqil ravishda yangi ma'lumotlar bilan boyitish ko'nikmalarini shakllantirish;
- videolavhalar yordamida matn mazmunini his qilish voqea-hodisalar, asar qahramonlariga munosabat bildirish, o'zaro bahs-munozaraga kirishish;
- darslik bilan chegaralanib qolmaslik;



- topshiriqlarni qisqa muddatda sifatli bajarish;
- fan va amaliyotning yangi yutuqlaridan foydalanib o'quvchilarda faoliyatni motivatsiya qilish ko'nikmasini rivojlantirish;
- o'quvchilarni qobiliyatini maksimal darajada ochish va ularni har tomonlama rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Xullas, ta'limga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi, yoshlarning bilim olish doirasini sezalarli darajada kengaytirdi, ularning mustaqil o'qib-o'rganish va izlanishlari uchun yo'l ochib berdi. Bu esa yurtimizda ta'lim sohasiga katta e'tibor berilayotganligi va uning to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolatdir.



HOW TO ENCOURAGE YOUNG LEARNERS TO BE CREATIVE

Haydarova Dilafruz Burkhanovna
An English teacher at 7th secondary school, Navai

Annotation: This article discusses the encouragement to be creative of young learners as one of the crucial part of their personal development and the role of teacher in the classroom. It provides some guidelines how to fulfill the children to be able to express themselves openly and without judgment.

Key words: Creativity, freedom, talent, health, happiness, independence, encouragement, musical expression, emotional intelligence, technological advances

Many people assume that creativity is an inborn talent that their kids either do or do not have: just as all children are not equally intelligent, all children are not equally creative. But actually, creativity is more skill than inborn talent, and it is a skill parents can help their kids develop. Because it is a key to success in nearly everything we do, creativity is a key component of health and happiness and a core skill to practice with kids. Creativity is not limited to artistic and musical expression—it is also essential for science, math, and even social and emotional intelligence. Creative people are more flexible and better problem solvers, which makes them more able to adapt to technological advances and deal with change—as well as take advantage of new opportunities. Many researchers believe we have fundamentally changed the experience of childhood in such a way that impairs creative development. Toy and entertainment companies feed kids an endless stream of prefab characters, images, props and plot -lines that allow children to put their imaginations to rest. Children no longer need to imagine a stick is a sword in a game or story they’ve imagined: they can play Star Wars with a specific light -saber in costumes designed for the specific role.

Creativity involves the use of imagination and ideas to come up with something of value; a physical invention, piece of art or a solution to a problem. Throughout our education, life and working careers, creativity may play a significant role in development and success. Creativity can be nurtured and it is often a way of thinking rather than an innate talent. Most of the people we might describe as creative are probably individuals who have worked incredibly hard at their craft and practiced specific skills.

The famous Picasso quote goes, —Every child is an artist. The problem is how to remain an artist once he/she grows up. There are some that hold the view that schools somewhat dampen creativity in the pursuit of academic success. The famous Ken Robinson TED talk Do schools kill creativity, one of the most viewed TED talks of all time, supports this notion: —Creativity is the freest form of self-expression.

Creativity is sometimes seen as an innate ability – we’re either born creative or we’re not. But this just isn’t true. Sure, some people are perhaps born with traits that lend themselves well to developing certain skills, and individuals have different capacities for processing information and learning, but this shouldn’t act to deter the development of creativity. There exist some ways to cultivate and develop creativity in children:

NO IDEA IS A BAD IDEA

Children are full of ideas. Ideas are a manifestation of creativity. To dismiss or even ridicule an idea is to discredit the creativity involved in coming up with it. Of course, children will no doubt come up with bad ideas, but often parts of their thought process or rationale have merit. Try and tease out the good bits and help them understand what more they need to consider about the implementation of such an idea. Children who are afraid of making mistakes typically think less creatively. This means you need to create an environment in which kids are creative, can make a mess and feel like it’s okay to make mistakes.

AVOID LABELLING KIDS AS EITHER CREATIVE OR UNCREATIVE

Children can take labels and names very seriously, whether consciously or not. Labelling anyone as —uncreative or —better at maths and science, for example, might well discourage them to try their best in creative subjects in school, or more creative hobbies. Instead, explore lots of different subjects and activities with equal encouragement and without judgment.



PRACTICE CREATIVITY

The people who we most associate with being the most creative tend to be artists. They're painters, sculptors, musicians and, sometimes, sportspeople. But these individuals have worked at their craft to become the masters we know today. They weren't born with these skills, they had to practice; many of them for hours and hours a day, every day, for decades. There's no escaping practice in the pursuit of skill development and these skills include those that we associate with creativity.

ALLOW THEM FREEDOM AND INDEPENDENCE

When children are left to their own devices, all they have is their imagination and their resources at hand. Letting children explore their own interests and ideas is a great way to encourage their creativity because there are no bounds to what they might get up to. According to *Bringing Up Great Kids*, -From the age of two, children strive for more independence. From this age, you should encourage your child to make simple choices about their lives. Of course, the level of independence you can expect from children must be suitable for their age, ability and the given activity (you probably shouldn't expect your 3-year-old to start catching the bus!).

Creativity in children is really important to their development because it encourages them to try new things out, take pride in their achievements and think outside the box. The growth of children's minds is incredibly important and creativity is essential in achieving this!

References:

1. Christine Carter, Ph.D, *The New Adolescence: Raising Happy and Successful Teens in an Age of Anxiety and Distraction* (BenBella, 2020)
2. Christine Carter *The Sweet Spot: How to Accomplish More by Doing Less* (Ballantine Books, 2015)
3. Christine Carter *Raising Happiness: 10 Simple Steps for More Joyful Kids and Happier Parents* (Random House, 2010).



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA OT MAVZUSINI O'RGATISH DAVOMIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

*Jo'rayeva Gulzira Qo'ldoshevna
Navoiy viloyati Navbahor tuman
29-umumta'lim maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligidagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ayrimlari hali maktab hayotiga to'la jiddiy yondashmagan bo'ladi. Shuning uchun yangi mavzuni o'rgatishda ta'limiy o'yinlardan foydalanilganda, o'quvchining mavzini eslab qolishi yuqori bo'ladi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da o'yinga quyidagicha ta'rif berilgan.

1. Ko'ngil ochish, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot
2. Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma'lum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot
3. Ritmik harakatlar va mimikalar uyg'unligidan iborat san'at, raqs

Metodik asarlarda «o'yin» so'zining ikkinchi ma'nosi asosida tafakkur o'stirishni, ya'ni o'yinning ta'lim berish usuli, vositasi sifatida qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot ekanligini ko'rsatib o'tmoqchiman.

Psixologlarning uqtirishicha, o'yin shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy nematlar yaratishni nazrda tutmaydi, lekin jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. O'quvchi toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi.

O'yin – bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositasidir. Biroq, darsning asosiy qismini o'yin darsiga aylantirib qo'ymaslik kerak.

Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumi ustida ishlashda quyidagi ta'limiy o'yinlardan foydalanish mumkin:

«Bir so'zdan ikki ism o'yini». Sinf o'quvchilari uch guruhga ajratiladi va ularga gulning nomlari, mehnat qurollari hamda hayvonlarning nomlarini yozish va ularga atab qo'yilgan kishi ismlarini yozish topshiriladi. O'quvchilar yozadilar rayhon- Rayhon, chinigul- Chinigul

lola- Lola, nilufar- Nilufar

bolta- Boltaboy, tasha- Teshaboy

o'roq- O'roqboy, bo'ri- Bo'riboy,

qo'zi- Qo'ziboy, olmaxon- Olmaxon

Shu so'zlarni yozishda qaysi biri bosh harf bilan va qaysi biri kichik harf bilan yozilishiga e'tibor berib, uni to'g'ri yozgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruh g'olib bo'ladi.

O'qituvchi dars davomida «O'z shahringiz nomini sharhlay olasanmi?» o'yin- topshirig'idan foydalanib, atoqli otlar imlosi ustida ishlash mumkin. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga bu mavzuni oldin vazifa qilib beradi va ota-onasi, bobo- buvilaridan so'rab, shaharlari tarixi haqida bilib kelishlarini topshiradi.

«O'rmonda va uyda» o'yini. O'qituvchi o'yin haqida o'quvchilarga izoh beradi: O'rmonda yashaydigan yovvoyi hayvonlar va hovlida yashaydigan uy hayvonlari haqida o'ylang, hamda ularni ikki ustunga ajratib yozib chiqing, deyiladi.

O'rmonda Uyda

Bo'ri qo'y

Tulki ot

Sher sigir

Ayiq echki

Qaysi o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi belgilangan vaqtda ko'p hayvon nomini yozsa, shu o'quvchi yoki guruh o'yin g'olibi hisoblanadi.

«Kichraytirish yoki erkalash otlarini tez top» o'yini. O'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, birinchi



guruhga kichraytirish otlarini (mushukcha, kuchukcha, qizcha...) ikkinchi guruhga erkalash otlarini (mittivoy, bolaginam, ..) yozish, shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish, ularning maʼnosini tushuntirish kabi ijodiy va amaliy ishlar topshiriladi.

Taʼlimiy oʻyinlarga qoʻyiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Taʼlimiy oʻyinlar oʻquvchining yoshiga mos boʻlishi kerak.
2. Oʻyinlar oʻtilayotgan mavzu mazmun-mahiyatiga mos boʻlishi kerak
3. Taʼlimiy oʻyinlar oʻtkazish vaqti aniq belgilanishi kerak.
4. Taʼlimiy oʻyinlar ham taʼlimiy , ham tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlishi kerak.
5. Taʼlimiy oʻyinlarning oʻtkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, oʻyinlar yordamida oʻquvchilarning darsga qiziqishlarini orttirish va tafakkur doiralarini kengaytirish mumkin. Bu usulda oʻquvchilar mavzuni oson va yaxshi tushunadilar.

Oʻyin paytida oʻquvchilar har doim oʻzlariga tanish boʻlgan manbalarga asoslangan holda ish tutadilar, natijada bu materiallar ularning xotirasiga yana ham mustahkam oʻrnashib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2- jild . –M.: Russkiy yazik, 1981 –B 498
2. Karimova V. Psixologiya –T.; A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, B 76.



“THE LIGHTER SIDES OF TEACHING ENGLISH AS SECOND FOREIGN LANGUAGE FOR ELEMENTARY AND PRE-INTERMEDIATE LEVELS”

Kholikova Madina Salimovna
An English teacher of the school
№1 ,Kiziltepa District ,Navoi Region
97 558 83 38

Abdulloyeva Rushana Eshpulotovna
An English teacher of the school
№1 ,Kiziltepa District ,Navoi Region
91 991 29 27

Annotation : In this article several activities are created to reinforce vocabulary or give students practice in listening , thinking , speaking and writing ,but underlying goal of all activities is to produce a smile and an awareness that communicating in English has a lighter side and potential for fun .

Key words: word games, ,idioms,limericks,puzzle stories

The activities are short and self contained, and they may be good for starting off or ending a class hour. Because humour is something to be shared , the activities should be done in pairs or small groups and then discussed with the class as a whole . This article is a handbook for teachers. The activities in this article are chosen to reproduce individual pages for occasional use in classes or as group homework assignments .Now we focus on word games.Vocabulary can be reinforced by using a variety of game formats . Focus may be placed upon word building ,spelling ,meaning, sound/symbol correspondences, and words inferred from sentence context.

Teaching techniques .The full communicative potential of these games can be realized through good spirited team competition. Working in pairs or in small groups ,students try to be the first to correctly complete a task.

These games can be used at the end of the lesson or before introducing new material as a “Change of pace” activity. Teachers should allow sufficient time for class discussion after the game has been completed .

Add a letter

From each word below ,make two new words by adding a letter (1)at the end (2)at the beginning.

- | | |
|-----------------------|---------------------|
| 1. go ___ / ___go | answers
got/ago |
| 2. oil ___ / ___oil | oily/boil/soil/toil |
| 3. arm ___ / ___arm | army/farm/harm |
| 4. hear ___ / ___hear | heard/ shear |
| 5. hat ___ / ___hat | hate/that/what/chat |
| 6. not ___ / ___not | note/knot |

A T –Party :Put **T** before a word to form a new word.

Example: Add a T to **at this place**, and get **at that place**.Answer:here,there

2.Add T to **tear** and get a **journey**. Answer:rip ,trip

3Add T to of **great age** and get **narrated**.Answer: old ,told

4.Add T to a **mistake** and get **great fear**.Answer : error,terror

5.Add T to a **part of the head** and get to **pull apart** .Answer: ear,tear

Puzzle stories are “Thinking Games” that get students to think about what they are listening to or reading.In using puzzle stories for listening comprehension /speaking practice , teachers should direct their students to ask a series of yes/no questions as a means of discovering the solutions.

Teaching techniques .Record your puzzle story and play the tape so the students can hear it that is being used for that day`s class. Explain any vocabulary items that are new to the students. Play the story once more before getting them to ask their yes/no questions.

Examples:**Mr Jones**

In the middle of the night while Mr Jones was asleep in his hotel room,the telephone beside his bed rang .Mr Jones woke up ,picked up the phone ,and said “Hello.”then he put the phone down



and went back to sleep. Can you guess who had telephoned him?

Answer: the person who called him was the man in the room next door, and the reason the man phoned him was that Mr Jones had been scoring and so disturbing the man. As soon as Mr Jones said "Hello" the man next door realized that he was awake and that was all he wanted.

An Idiom is the expression that cannot be understood literally. Even when a person knows the meaning of all the words and understands the grammar, the overall meaning of the idiom may be unclear.

Teaching techniques. This activity can be done in pairs or as a whole class "mingling" activity. If the mingling format is used the teacher will give each student a piece of paper with a portion of the idiom written upon it. The student's task is to locate the classmate who has the portion of the sentences which completes the idiom.

Example: **Bird words**.

A. Match each word in the first column with its correct definition in the second column.

- | | |
|------------|---|
| 1. birdie | a. foolish, or inept person |
| 2. chicken | b. objectionable or worthless |
| 3. turkey | c. lower the head or body to avoid collision with an object |
| 4. cuckoo | d. repeat by rote |
| 5. duck | e. a golf score of one stroke less than par |
| 6. parrot | f. timid; cowardly |
| | g. silly, a little crazy |

B. Match each word or phrase in the first column with the word or phrase in the second column that produces a common saying or idiom

1. a bird in the hand	a. goose
2. birds of a feather	b. the chicken or the egg
3. Bird	c. is worth two in the bush
4. stool	d. pigeon
5. bird's eye	e. with one stone
6. to kill two birds	f. brain
7. silly	g. view
8. which came first	h. flock together

Limericks are light, nonsensical verses of five lines in which the first, second and fifth lines rhyme with each other and the third and fourth lines, shorter in form, make up a rhymed couplet. The rhyme scheme can be represented by the formula **aabba**.

Teaching techniques. Limericks like poems, can be used in a reader's theatre approach to give students the chance to playfully interpret a passage in a mock-dramatic oral recitation. In preparing your students to present the limericks included in this section, use the following guidelines suggested by John Barry in the January, 1977 issue of the form:

1. Speak so that every word is heard.
2. Vary the speed of the presentation
3. Vary the tone of voice to fit the meaning of the message.
4. Vary the volume of voice.
5. Decide what the emphatic words are and emphasize them.
6. Pause in appropriate places
7. Do not recite mechanically or exaggerate the rhythm of the poem
8. Don't pause automatically at the end of lines if the meaning does not require.

Example: a) There was a young lady named Bright

Whose speed was far faster than light.

She set out one day

In a relative way,

And returned home the previous night.

b) There was a young girl, sweet lamb,

Who smiled as she entered a tram.

After she had embarked,

The conductor remarked,

"Your fare." And she said, "Yes, I am"



INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Qodirova Mahfuza O'ktamovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
38- umumiy o'rta ta'lim maktab
Ingliz tili fani o'qituvchisi*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng chet tillarini o'rganishga qiziqish oshdi va yurtimiz yoshlari uchun ko'plab imkoniyat va sharoitlar yaratilib berildi. Har qanday chet tilini o'rganishdan maqsad o'sha tilde bimalol muloqot qila olishdir. Chet tillarini o'rganish va o'rgatish mukammal va juda uzoq davom etadigan jarayonlardan hisoblanadi. U o'quvchidan juda ko'p mehnat va sabr-toqatni talab etadi. O'gzaki nutq malakalarini o'stirish uchun chet tillarini o'qitish jarayonida har xil interfaol o'yinlardan qo'llash chet tilini o'rganishni qiziqarli va oson o'zlashtirishga yordam beradi. Interfaol o'yinlar tilni o'rganuvchilar o'zlarini erkin tutishlari va hatto uyatchan va kamgap o'quvchilarni ushbu o'yinda faol ishtirok etishga undaydi. Interfaol metodlarni grammatikani oson o'rganish va so'z boyligini o'stirish uchun foydalanish juda o'rinlidir. Darslarda pedagogik texnologiyalarni o'rinli qo'llash lozim. „Pedagogik texnologiya”- barkamol avlodni shakllantirish faoliyati demakdir. Bunda har bir bilim oluvchi o'zining ko'zlagan maqsadiga albatta tez va oson erishadi. Ushbu jarayonda o'quvchi mustaqil fikrashga va bilim olishga intilishi ortib boraveradi. Hozirgi kunda ko'pchilik olimlar ta'lim ob'yekti deb o'qish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadi. Darhaqiqat, o'qish, o'rganish ta'lim jarayonining ajralmas tamoyili

hisoblanadi. Ta'linga psixologik nuqtayi nazardan yondoshilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga also shubxa qolmaydi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning bilim salohiyati, aql-zakovati va turmush sharoitlari ham yetarlicha hisobga olinishi ko'zda tutish lozim. Bilim darajasi past va o'zlashtirishi qiyin o'quvchilar bilan ko'proq interfaol usullarni qo'llab dars tashkillansa, o'ylaymanki sinfda darsga qatnashmaydigan o'quvchilarning o'zi qolmaydi. Kamina ham ingliz tili fani o'qituvchisi sifatida darsda ko'proq interfaol usullardan foydalanib dars o'tishni afzal bilaman va albatta samarasi ijobiy ekanligiga o'quvchilarim darsda faol qatnashayotganligi buning isbotidir. Dars jarayoniga kirganimda dastlab doskaga „Sabr kosasi” interfaol metodini chizib qo'yaman. Bunda uch guruhga bo'lingan jadval yozib qo'yiladi va to'polon qilgan qator chizig'i intizomiga qarab chizib borilaveradi va dars oxiriga kelib, qaysi guruh chizig'i ko'p bo'yalgan bo'lsa to'plagan ballaridan ayirib yuboriladi va aksincha guruhi kam bo'yalgan yoki umuman bo'yalmagan qatorning balliga qo'shimcha ball qo'shib borilaveradi. Bu usul o'quvchilarimning darsda faol qatnashishi va intizomga qattiq rioya qilishga o'rgatib boradi va o'qituvchi darsni tinchlikda o'tishini ta'minlab beradi. Darsda qo'llaydigan keyingini interfaol usul- „The alphabet game”

Maqsadi: alifbo harflarini takrorlash.

O'yin uchun kerakli vositalar: alohida kartonlarga bosma harflarda yozilgan alifboning 26 harfi.

O'yinning olib borilishi : alifbo harflarini aralash holda o'quvchilarga ko'rsatish. „q, x va z” ni olib tashlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga tanlangan predmetlarga diqqatlarini qaratish aytiladi. Gullar, supermarket mahsulotlari, mebel jihozlari, sabzavotlar va kiyimlar va boshqalar. Ularning tanlovi ular o'rganayotgan predmetlariga bog'liq. O'yin o'quvchilar harfni ko'rsatishi bilan boshlanadi. Tanlangan predmet bo'yicha birinchi bo'lib aytgan o'quvchi harf kartochkasini oladi. O'yin so'nggida eng ko'p kartochka to'plagan o'quvchi g'olib sanaladi. Bu usul o'quvchilarni zehni o'stiradi va xotirasini mustahkamlab, darsga qiziqishini yanada oshiradi.

Keyingi usulimiz- „Zanjir o'yini”

Maqsadi: Xotirani tekshirish va oshirish.

O'yinda guruh bo'lib o'ynaladi va boshlanishida bitta mavzu tanlab olinadi. Masalan: „Animals”. Bunda birinchi o'quvchi „cow” deydi, boshqa o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan so'zga qo'shib „cow” va o'zining „hen” so'zini qo'shib aytib ketadi. O'yin davomida kimning qo'shib aytayotgan so'zi yodidan chiqib qolsa, o'sha o'quvchi o'yinni tark etadi. Guruhda o'nta yoki undan ko'proq o'quvchi ishtirok etsa, o'yinimiz qiziqarli chiqadi. Ushbu mashqimiz orqali xotirani



tekshirish va umi mustahkamlashimiz mumkin.

Keyingi usulimiz-„Guess my job”

Maqsadi: Tirli kasblarga tegishli bo‘lgan so‘zlarni mustahkamlash.

Kerakli vositalar: kasblar nomi yozilgan kartochkalar to‘plami. Har xil kasblar nomi yozilgan kartochkalar konvertga solinadi. Ko‘ngilli o‘quvchilardan biri chiqib, konvert ichidagi kasblarni o‘quvchilarga inglizcha so‘zlar orqali tushuntirib beradi. Ushbu jarayon galma-gal davom etib boraveradi. Eng ko‘p inglizcha so‘zlardan foydalangan o‘quvchi g‘olib sanaladi. Ushbu usulda o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshirilib boraveradi.

„Krossvord” usuli.

An’anaviy usullardan biri bu -, „Krossvord” o‘yini bo‘lib, belgilangan katakchalar soni va savoliga mos javob katakchalarga joylashtiriladi. Joylashtirish davomida boshqa so‘zlarning kalit harflari ham ochiladi, shu orqali krossvord savollariga javob topiladi. Krossvord savollari bir mavzuda yoki turli xil mavzuda bo‘lishi ham mumkin, muhimi ularning bir-biriga mos kelishi.

Keyingi yana biri interfaol usulimiz-„Rasm o‘yini”.

Rasmdagi farqni toping. Bu o‘yinimiz dars doirasida shakllantiriladi, chunki bu o‘yinning maqsadi bolalarni ziyrakligini oshirish va e’tiborini jamlashdir. O‘yin sharti: „A” va „B” rasmlardagi farqni toping deb nomlangan. Ushbu o‘yinimizni barcha o‘quvchilarimiz uchun foydasi juda ham katta. Yana bir interfaol usullardan biri- „Baliq skleti” texnologiyasidir. Ushbu usulimiz ham o‘quvchilarimiz uchun ahamiyatlidir. Bunda bitta mavzu tanlab olinadi va shu bo‘yicha baliqni barcha skletlariga o‘quvchi bilgan barcha ma’lumotlarini yozib chiqadi. Yana bir sharti shuki, ushbu o‘yinimizga 60 soniyagina vaqt beriladi xolos. Bu jarayonda o‘quvchilarning bilimi mustahkamlanadi, aqli charxlanadi va zehni o‘tkirlashadi. Muhimi vaqtdan ham unumli foydalanishni o‘rganadilar.

O‘qituvchining dars o‘tishidan maqsad: o‘quvchilarga qaysi usul bilan bo‘lsa ham sifatli ta’lim berish va ularni darsga qiziqtirib, bilimini mustahkamlashdir. Dars jarayonlarida qo‘llaydigan interfaol usullarimiz va o‘yinlarimiz o‘quvchilarni bilimini oshirsa va ularning kelajakda vatanimizga xizmat qiladigan barkamol avlod bo‘lib yetishishiga o‘z hissamizni qo‘shganimizda biz o‘qituvchilar faqat va faqat xursand bo‘lamiz va faxrlanamiz!



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Rajabova Nasiba,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15- umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotasiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim olishga qiziqtiradigan interfaol usullarning ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Beshinchisi ortiqcha", "Rolli o'yin", "Kichik guruhlarda ishlash".

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar



va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi.

«Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Xulosa qilib aytganda interfaol usullardan unumli foydalanish darsda sifat samaradorlikni ortishiga zamin yaratadi.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

*Tog'ayeva Gulnoza,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15- umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotasiya: Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalarning dars sifat samaradorligiga ijobiy ta'siri maqolada bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, metodika, o'yin topshiriqlari

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar: o'qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi va qo'llanilishi o'quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi.

Pedagogik yangilik - pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiiq qila olishi, ta'limning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida zamonaviy pedagogic texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Xususan, "Reklama" metodi, asosan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'z samarasini ko'rsatadi. Mazkur metoddan sinfdan tashqari o'qish darslari uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qilishda ham foydalanish mumkin. Bunda, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi, boshqa o'quvchilarga o'qish uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qiladi, tavsiya qilish jarayonida reklamaning turli ko'rinishlaridan foydalaniladi. "Reklama" metodining afzalligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- o'quvchilarning nutqi ravonlashadi, jamoa oldida nutq so'zlash, o'z fikrini erkin bildira olish ko'nikmalari shakllanadi;

- dars jarayonining mazmunli tashkil qilinishiga erishiladi, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshadi, ularda kitobga bo'lgan hurmat shakllanadi, badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayadi;

- o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, sog'lom raqobat muhiti paydo bo'ladi, o'z g'alar fikrini hurmat qilish, ularni diqqat bilan tinglash, o'z diqqatini jamlash va fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

"Juft barmoqchalar" metodi ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxs-narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtasida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki bosh piyoz" degan so'z



hosil bo‘ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.

“Kamalak jilosi” metodini boshlang‘ich sinflar uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o‘qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so‘zlarni turkumlarga ajratishda qo‘g‘irchoq, mashina, kuldi, yig‘ladi, sariq, katta, kichik, to‘qqiz kabi so‘zlarni turkumlarga ajratish va ot so‘z turkumiga doir so‘zlarni ko‘k rangli chiziqqa joylashtirish, sifat so‘z turkumidagi so‘zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo‘llash mumkin. Ya‘ni, kamalakning birinchi rangini bir xonali son deb oladigan bo‘lsak, ikkinchi qatordagi rangi ikki xonali songa misol bo‘la oladi.

“Kamalak jilosi” metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko‘nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o‘quvchi ranglar orqali so‘zlarning qaysi turkum doirasiga kirishini eslab qoladi;
- o‘quvchida tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlar paydo bo‘ladi, ularda atrof-muhit va tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash ko‘nikmalari shakllanadi;
- o‘quvchilarning dunyoqarashi va tasavvur doirasi kengayadi, diqqatni jamlash, fikrlash, zehnilik va topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi.
- “Krossvord” metodi avvaldan qo‘llanilib kelinayotgan metodlardan biri bo‘lib, uni har bir sinfning far bir darsligida uchratishimiz mumkin. Krasswordlarni tayyorlashda, asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositasi bo‘lgan kompyuterning Microsoft Word dasturidan foydalaniladi. Ammo, kompyuterning Microsoft Excell dasturi orqali tayyorlangan krasswordlar avvalgilariga qaraganda, samaraliroq natija berishini ko‘rish mumkin. To‘g‘ri, Microsoft Excell dasturi biroz murakkab hamda formulalar asosida ishga tushiriladi, biroq, o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doirasidagi bilimlarni egallagan bo‘lishlari davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.O.Ochilov, “O‘qituvchi odobi”. T.: “O‘qituvchi” 1997.-48 b.
2. A.Mavrulov “Ma‘naviy barkamol inson tarbiyasi” T.: “O‘zbekiston”, 2008. -72 b.
3. Ro‘ziyeva R. Jamiyatning ma‘naviy yangilanishi: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi .-T.: ” Ma‘naviyat”, 2011.-89 b.



INGLIZ TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SIFAT VA RAVISHLARNI TARJIMA QILISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR

*Turayeva Dilfuza Qobil qizi,
Buxoro viloyati Shofirkon tumani 55-IDUM
maktabi ingliz tili o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aslyatda foydalanilgan grammatik shakllarni tarjima tiliga ko‘r-ko‘rona emas, balki ular vositasida ifoda etilgan muqobil shakllar yordamida vazifaviy qayta tiklashni taqazo etadi. Jumladan, bugungi kunda sifat va ravishlarning ko‘p ma‘noliligi o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida bir qator nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Sifat va ravishlarni matndagi leksik va grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni o‘quvchiga yetkazish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni hisobga oladigan bo‘lsak bu mavzuni qanchalik muhimligi ko‘zga tashlanadi. Ko‘p ma‘nolilik kategoriyasini tahlil qilish murakkab tadqiqot bo‘lib, bu borada tarjimonning yutuq va kamchiliklarini, o‘quvchilarga muqobil variantlar asosida yetkazishdagi tarjimaning turl xil yo‘llari va tarjimada vujudga keladigan muammolarni qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: sifat so‘z turkumi, ravish so‘z turkumi, shakl tushunchasi, mazmun tushunchasi, kontekstual ma‘no, polisemantik so‘zlar, sinonim va antonim so‘zlar

Ingliz tilida sifat ravishlardagi ma‘noni asosiy shakllari va muammolarini tahlili. Til insonlar o‘rtasida aloqa o‘rnatuvchi vosita hisoblanadi. Shakl va ma‘no xususiyatdagi nazariy muammolar Aristotel, Platon kabi faylasuflar yashagan davrlardan to hozirgi kunga qadar tilshunoslar, faylasuflar va fan arboblarni diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ingliz tili ko‘p ma‘noli so‘zlarga boy til hisoblanadi.

Matnda ko‘p ma‘noli so‘zlarni ishlatilishi ularni qo‘llanilishini nazarda tutib qolmasdan, matnni ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Sifat – predmetning rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, psixik holati, o‘rin yoki vaqtga munosabati kabi belgilarni anglatadi. Masalan qizil, katta, shirin, baland, yomon, sho‘x, ertalabki kabilardir. Sifatlar anglatgan ma‘nosidan kelib chiqqan holda asliy va nisbiy sifatlariga ajratiladi. Sifatlar ko‘p ma‘noligiga ko‘ra bir qancha qiziqarli muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi va bunda asosan matndan kelib chiqadigan kontekstual ma‘noga e‘tibor qaratiladi. Millerning qayd etishicha “Sifatlar boshqa so‘z turkumlaridan farqli o‘laroq o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular sinonim va antonimlar bilan aloqaga kirishganda tilning lug‘at boyligini boyitishga xizmat qiladi”. So‘zlarda antonym va sinonimlar o‘rtasidagi aloqa bir vaqtni o‘zida vujudga keladi. Masalan “strong” sinonimlarning butun guruhini tashkil qiladi (sturdy, powerful, tough, etc) va u antonimik aloqasiga ko‘ra “weak” bilan o‘zaro aloqaga kirishib guruhlariga ajratiladi (puny or frail). Sifatlar ko‘plab ma‘nolarda qo‘llanilib, kontekstga bog‘langan va moslashuvchanlik xususiyatiga ega. Misol tariqasida “light” sifatida faqatgina ikkita ma‘no bog‘lami mavjud. 1. yengil 2. yorug‘. Ammo bu sifat bilan bogliq turlicha ma‘nolarni ifodalovchi guruhlariga ajratamiz: “a light rain” “her light voice” “a light blue shirt” “a light lunch” “the light breeze” “a light white wine” “a light sleep” “light injures” “light housework” “her light graceful step”

Antonim haqida fikr yuritishda, uni qanday vaziyatda ishlatilishiga qarab fikr yuritiladi. Masalan “light” sifati antonimi “dark” bo‘lib kelganda, uni “light”ning boshqa bir antonimi “heavy” dan ajratish kerak. Sifatlarni qanda tuzilganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi ya‘ni ularni otlar ishtiroki bilan tuzilishi asosiy tahlil vositasi hisoblanadi. Ushbu metodlar ko‘p ma‘noli sifatlariga oid ma‘nolarni turlarga ajratishni taqozo etgan “Cobuild Dictionary”ni yaratilishiga sabab bo‘lgan. Yana bir sifatlar o‘rtasidagi ma‘noni farqlash uni qanday gap bo‘lagi vazifasida kelishini bilishdir. Masalan: My old girlfriend (attributive) My girlfriend is old (predicative) Sifatlarda o‘xshash ma‘noni ajratish ham o‘ziga xos jarayon hisoblanadi. Bunda dastlab o‘sha ma‘noni tushunishga harakat qilinadi, shuni qayd etish joizki ba‘zi sifatlar ko‘p ma‘noli emasdek ko‘rinadi. Masalan “lax” yoki “leaden” ko‘p ma‘nolidek ko‘rinmasada, ammo ularning beshdan ortiq ma‘nolari bor. Misol uchun:

1)“lax” sifati quyidagi ma‘nolarga ega: 1.kuchsiz, zaif 2. nomukammal,talabga javob bermaydigan 3.bo‘shashgan 4.bo‘sh (idishga nisbatan) 5. qa‘tiyatsiz

2) “leaden” sifati esa quyidagi ma‘nolarga ega: 1. qo‘rg‘oshingga oid 2. og‘ir, qattiq 3. ko‘kimtir,



bo‘z 4. bo‘shashgan, lohas 5. sekin, qiyinchilik bilan bajarilgan.

Shuningdek, yana shunday ko‘p ma‘noli sifatlar borki, ularning , ma‘nolari oltitadan ortiq bo‘lib, ba‘zi ma‘nolari sifatga yaqin taxminiy ma‘nolar sifatida qayd etiladi va munozaraga sabab bo‘ladi. Shunday so‘zlar sirasiga apart, canonical, deep, floating, idle, marginal, particular, remote, stable, unbalanced kabilardir. Masalan, “deep” sifati juda murakkab tahlil vositasi hisoblanib, uni 20 dan ortiq bir-biridan farqlanuvchi ma‘no shakllarini lug‘atda kuzatamiz. Shu bilan birga u bir qancha so‘z birikmalari bilan birga o‘ziga xos ma‘no kasb etadi. Masalan “deep space” – tubsiz koinot, “deep design” – jalb qilingan loyiha “deep freezer”- uzoq saqlaydigan muzlatkich, “deep green”- tabiatga bog‘liq muammolarni hal etuvchi inson, “deep mourning” qattiq aza tutish, “deep structure” –murakkab tuzilish, “deep bodied”- baliqsimon tana, “deep discount” – og‘ir chegirma, “deep fryed”- yaxshi qovurilgan.

Bundan ko‘rinadiki, sifatlarni ma‘noga ajratish murakkab jarayon hisoblanadi. Ravishlar holatni turli shakllari va vazifalarini o‘z ichiga olgan so‘z turkumi sifatida tez-tez muhokamaga sabab bo‘ladi. Ravishlarda grammatik hamda ma‘no jihatdan sifatlar bilan bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu ikkalasini birgalikda qiyoslab o‘rganilishini taqozo etadi. Agar ravishlar gapda turli vazifada kelsa, ular ifodalaydigan ma‘no ham turlicha bo‘lishi mumkin:

1. Cow gives birth to a calf naturally.

2. Naturally, cow gives birth to a calf

Bu ikkita gapni birinchisida “naturally” ravishi “tabiiy ravishda” ikkinchi gapda esa “albatta” ma‘nosida ishlatilayapti. “quite” ravishini ma‘nosi ham albatta kontekst bilan uzviy bog‘liq. Ammo Amerika va Angliyada ishlatilishiga ko‘ra bu ravish ma‘no jihatdan farq qiladi. Amerikaliklar uni “juda” degan ma‘noni ifodalash uchun qo‘llasa, Angliyaliklar “ozgina” degan ma‘noda ishlatadi. Qo‘shimcha qilib aytganda, “quite few” (juda oz miqdorda) degan ma‘noni bildirsa, “quite a few” (juda katta miqdorda) degan ma‘noni bildiradi. Tarjimada mana shunday holatlarni ham e‘tiborga olish lozim. Shu bilan birga “still”, “hard”, “last”, “then”, “rarely” kabi ravishlarni ham bir nechta ma‘nolari mavjud. Xulosa. Sifat va ravishlarni ko‘p ma‘noliligini talqin qilishda grammatik birliklardagi ma‘no xususiyati bilan birga, jumla tarkibidagi so‘zlarni o‘zaro munosabatga kirishish va moslashish holatlarini puxta bilish zarur, aks holda tilning grammatik hamda mantiqiy me‘yorlari yo‘l qo‘ya olmaydigan ifodalar vujudga kelib qolishi mumkin. Chunki tarjimada aslyatda mujassamlasgan fikr tarjima tili vositalari yordamida qayta yaratiladi.

Xulosamiz so‘nggida shuni qayd etish joizki, tillardagi ko‘p ma‘nolilik tilni jozibasini sayqallash bilan birga, bir necha asrlardan beri qiziqarli tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T. O‘qituvchi. 1973. 138
2. Usmonov U. Ingliz tili nazariy grammatikasi maruzalar to‘plami. Samarqand. 2007
3. Atkins C.J. Describing Polysemy. Oxford. Oxford University Press. 2000. 125
4. Hanks Patrick. Definitions and explanations. Sinclair John. 1987 -136p
5. Каушанская.В.Л. Грамматика английского языка. Ленинград. 1973 -162с



ТА'ЛИМНИ YANGI SIFAT BOSQICHIGA KO'TARISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING O'RNI

Umedqulova Nasiba
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15 umumiy o'rta ta'lim maktabi
rus tili fani o'qituvchisi

Annotasiya: maqolada ta'lim tizimini sifat bosqichiga ko'tarishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, texnologiya, ta'lim, samaradorlik

Bugungi kunda ta'lim tizimiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Xususan, ta'lim tizimiga oid yuzga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishi bunga yorqin misoldir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga joriy qilishda uning o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni ko'rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan xolda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Yoxud pedagogik texnologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yigindisidir. Pedagogik texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyixalanish zarurati bilan metodikadan farq qiladi.

Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelingan. Faqat 1970 - yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T. Sakamoto tomonidan "o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar soxasi" ekanligi e'tirof etiladi.

Ob'ektiv borliqni o'rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga ham aniqlik kiritildi. Jumladan, rus olimasi N.F. Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiradi. Bundan tashqari u zamonaviy o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni aloxida fan sifatida qarash lozimligini o'qitiradi.

Pedagogik texnologiyani fan sifatida e'tirof etish K.K. Selevko tomonidan ham ma'qullanilib "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta'limda qo'llaniladigan usullar, prinsiplar va regulativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir" degan xulosaga keladi. Selevkoning fikricha "Pedagogik texnologiya" tushunchasi ta'lim amaliyotida uch ierarxik darajada qo'llanilishini asosladi:

1) Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ma'lum mintakada, o'quv yurtida, ma'lum o'qitish bosqichida yaxlit ta'lim jarayonini tavsiflaydi.

2) Xususiy metodik (predmetli) daraja: xusuiy predmetli pedagogik texnologiya "xususiy metodika" ma'nosida qo'llaniladi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yigindisi sifatida bir predmet, sinf, o'qituvchi doirasida qo'llaniladi (fanlarni o'qitish metodikasi, o'qituvchi, tarbiyachining ishlash metodikasi).

3) Lokal (modulli) daraja: lokal texnologiya o'zida o'quv - tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarini, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar enchimini uzida mujassamlashtiradi (aloxida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, aloxida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishlash texnologiyasi va boshqa).

Lernerning fikricha, pedagogik texnologiya - "o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi". Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilangan boshlangich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyixalash sifatida talqin etiladi. Bu bir jixatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa uning bir yoqlamaligi ko'zga yaqqol tashlanadi yoki bunday yondashuvlarda o'quvchi shaxsi inkor etilayapti.

Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V.P. Bepal'ko payqadi va o'zining yirik asarida "pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan xolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyixasidir"



degan ta'rif beradi. Bu ta'rif mazmunidan muhim ilmiy prinsiplarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- pedagogik texnologiya o'quvchilarda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalangani;
- loyixalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;
- yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu

mavzuning u yoki bu darajada echilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda pedagogik texnologiya o'quvchilarni bilim olishga motivasiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar . – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008 .
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'rbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009.
3. Tolipov W., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarnin' tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.



UMUMLASHTIRISH METODI

*Маматова Махбуба Абдурахимовна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
31- сонли умумий урта таълим
мактабининг математика фани уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada matematikani o'qitishdagi umumlashtirish metodi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: matematika, umumlashtirish, fikr, teorema, tushuncha, isbot

Umumlashtirish tushunchasi ham matematika o'qitishdagi ilmiy izlanish metodlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Umumlashtirish usulining ahamiyatini atoqli olim A.N. Kondakov quyidagicha ta'riflaydi. «Umumlashtirish shunday mantiqiy usulki, uning vositasi orqali birlik fikrlashlardan umumiy fikrlashlarga o'tiladi». Maktab matematika kursida umumlashtirish tushunchasi quyidagicha tatbiq qilinadi: 1) matematik tushunchalarni umumlashtirish; 2) teoremlarni isbotlashda umumlashtirish; 3) misol va masalalarni yechishda umumlashtirish.

Endi umumlashtirish tatbiqlari alohida-alohida ko'rib chiqiladi. Matematik obyektidagi narsalarning asosiy xossalarini aks ettirmchi tafakkur shakli matematik tushuncha deyiladi. Har bir matematik tushuncha o'zining ikki tomoni bilan xarakterlanadi: a) tushunchaning mazmuni; b) tushunchaning hajmi. Tushunchaning mazmuni deb, ana shu tushunchani ifodalovchi asosiy xossalarning to'plamiga aytiladi. Masalan, to'rtburchak tushunchasini olaylik. To'rtburchak tushunchasining mazmuni quyidagi asosiy xossalar to'plamidan iborat:

- 1) to'rtburchakning diagonali uni ikkita uchburchakka ajratadi.
- 2) ichki qarama-qarshi burchaklarning yig'indisi 180° ga teng.
- 3) diagonallari bir nuqtada kesishadi va shu nuqtada ikkita bo'lakka bo'linadi.

Tushunchaning hajmi deb ana shu tushunchaga kirgan barcha obyektlar to'plamiga aytiladi. Masalan, to'rtburchak tushunchasining hajmi to'rtburchak tushunchasiga kirgan barcha to'rtburchak turlaridan, ya'ni: parallelogramm, kvadrat, romb va trapetsiyadan iborat. Bundan ko'rinadiki, to'rtburchak tushunchasining hajmini tomonlari uzunliklarining miqdori turlicha bo'lgan barcha katta va kichik to'rtburchaklar tashkil qilar ekan. Hajm jihatidan keng, mazmun jihatidan esa tor bo'lgan tushunchani jins tushunchasi va aksincha hajmi tor, mazmuni esa keng bo'lgan tushunchani tur tushunchasi deb yuritiladi. Masalan, akslantirish tushunchasini olaylik. Bu tushunchadan qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalari keLib chiqadi. Bu yerda akslantirish tushunchasi qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalariga nisbatan jins tushunchasi, qaytuvchi hamda qaytmaydigan akslantirish tushunchalari akslantirish tushunchasiga nisbatan tur tushunchalari bo'ladi. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, jins tushunchasi tur tushunchalariga nisbatan umumiy bo'lgan tushuncha ekan. Shuning uchun ham tushunchani umumlashtirishga quyidagicha ta'rif berilgan: «Tur tushunchalaridan jins tushunchalariga o'tish tushunchani umumlashtirish deyiladi». Umumlashtirish jarayonida o'rganilayotgan tushunchalar orasida umumiy xarakterli mosliklar o'rnatilib, umumiy fikrlashlarga o'tiladi. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, umumlashtirish jarayonida umumlashtirilgan tushunchaning hajmi ortib, mazmuni torayar ekan. Misol. Qaytuvchi akslantirish tushunchasining hajmi B bo'lsin, uning mazmuni a bo'lsin. Akslantirish tushunchasining hajmi H uning mazmuni esa p bo'lsin. Tushunchani umumlashtirishga berilgan ta'rifga ko'ra quyidagi munosabat o'rinli bo'ladi: $(B \text{ c.H}) \Rightarrow \{a > P\}$. Bunda B — qaytaruvchi akslantirishning hajmiga obyektiv akslantirish kiradi. H — akslantirishning hajmiga esa barcha akslantirishlar kiradi. Shuning uchun qaytuvchi akslantirish tushunchasi akslantirish tushunchasining qismi bo'imoqda. Boshqacha aytganda, akslantirish tushunchasi qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalarining umumlashgan holi ekan.

Adabiyotlar:

1. Икрамов Дж.И. «Математическая культура школьника». Т., «O'qituvchi», 1981.
2. Икрамов Дж. И. Дж.И. va boshqalar «Математика, 5-6 sinflar uchun darslik», Т., «O'qituvchi», 1997.



О'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING BOSHQA O'QUV PREDMETLARI BILAN BOG'LIQLIGI

*Норматова Муаззамхон Махмуджоновна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим
мактабининг бошлангич синф уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilar nutqini o'stirishning o'quv predmetlari bilan bog'liqligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, boshlang'ich sinf, ta'lim, nutq, jarayon, matematika.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va m ehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Badiiy asarlarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. On a tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng

imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi. Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va talaffuz qilishishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olm osh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar. Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Matematika darslarida bolalar yangi tasavur va tushunchalar, juda ko'p so'z va atamalar bilan o'z nutqlarini boyitadilar, sodda va qo'shma gap tuzishga o'rganadilar: 5 soni 3 sonidan katta ($5 > 3$) yoki uch soni besh sonidan kichik ($3 < 5$); bitta o'nlikka ikkita o'nlik va 5 ta birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va 5 ta birlik hosil bo'ladi ($10 + 25 = 35$) va hokazo.

Masala echish jarayonida esa ular shu vaqtgacha o'z nutqlarida ishlatib kelgan bo'ladi, qoladi, hosil bo'ladi, teng kabi so'zlaming yangi ma'nosini bilib oladilar; ...bizga ma'lum, masalada so'rallyapti kabi so'z birikmalarini ishlatishga o'rganadilar. Matematika darslari o'quvchilaming bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Ular masalani yechishda savolga to'liq javob berishga, atamalarni to'g'ri ishlatib, qoidalarni o'z saviyalariga mos ravishda aniq shakllantirishga o'rgatiladi. Bular, o'z navbatida, o'quvchilar nutqini boyitish va faollashtirish vositasi hisoblanadi. Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala echish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala o'qib eshittirilgandan so'ng, o'quvchilar uning asosiy mazmunini eshitib idrok etishga, to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib berishga o'rgatiladi. Masala tuzishga o'rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida juda muhimdir.

Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir nom a'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab etiladi. O'quvchi rasm asosida „Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?“ masalasini tuzadi. Bu masalani echishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o'ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani echish uchun aniq izchillikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishga o'rganadilar. Shunday qilib,



matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap, bog'lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi. O'qituvchi matematika tili xususiyatlarini o'zlashtirishga ko'maklashish bilan bog'liq holda, o'quvchilar tafakkurini, nutqini o'stiradi. O'qituvchi matematik mazmunga emas, balki shu mazmunni o'quvchilar nutqida to'g'ri shakllantirishga ham e'tibor bersa, bu darslarda egallanadigan bilim haqiqiy va o'quvchilar nutqining o'sishi uchun samarali vosita bo'ladi. „Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani echish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida ishlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi». O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan narsalarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurni o'stiradi.

Adabiyotlar;

1. Q. Abdullayeva, K. Nazarov, Sh. Yo'ldosheva. Savod o'rgatish darslari. — T.: „O'qituvchi“, 1996.
2. Q. Abdullayeva va boshq. O'qish kitobi (2-sinf uchun darslik).— T.: „O'qituvchi“, 2007.



ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МАМАЛАКАТНИНГ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИ ВА ЁШЛАРНИНГ ТАЪЛИМ –ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ

П.ф.н. Раджабов Р.Ф.

Урганч давлат университети катта ўқитувчи

rashidurdu@mail.ru

телефон:+998939221871

Аннотация: Ушбу мақолада глобаллашув жараёнида фан ва таълимнинг иқтисодимиз ривожланишидаги ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинган. Таълим жараёнини инновацияларга асосланган иқтисодиёт билан боғлаш йўналишлари кўрсатиб берилган.

Таянч сўзлар: Глобаллашув, оммавий маданият, умумжаҳон даромади, интеллектуал салоҳият, фан, ахборот, технология, инновация, таълим.

Бугун у ўзининг таъсир кучи билан юқорида келтирилган хавфлардан кам бўлмаган глобаллашувнинг хавф –хатарларига дуч келмоқда. Асосий хавф шундан иборатки, у юксак ривожланган мамлакатларга энди тараққиёт йўлига кириб бораётган мамлакатлардаги миллатлар ва элатларни қарам қилиш, уларнинг моддий бойликларини қўлга киритишда қирғинбарот курул кучи билан эмас, балки ўзларида мавжуд бўлган фан ва техника, технология ютуқларини оммалаштириш, инвестициялар киритиш, иқтисодий интеграцияни жадаллаштириш каби омиллардан фойдаланиш воситасида уларнинг онги, қалби ва руҳиятини эгаллаш, охир-оқибатда улар устидан ҳукмронликни тўла ўрнатиш имкониятини кенгайтиришга хизмат қилмоқда. Кўринишдан, ҳар икки томон ҳам глобаллашув жараёнидан манфаат кўраётгандек бўлса-да, амалда асосий манфаатни катта интеллектуал салоҳият, фан-техника, технология ютуқлари ва оммавий коммуникацияларга эга бўлган мамлакатлар кўрмоқда, бунга эга бўлмаганлар эса ана шу тараққий этган мамлакатларга ўзлари охиригача англаб етмаган ҳолатда уларга боғланиб қолаётир. Глобаллашув реал жараён сифатида бир қатор омиллар билан бугун юксак тараққий қилган мамлакатларнинг устиворлигини таъминлашга, кам тараққий қилган ёки тараққиёт йўлига кираётган мамлакатлар ва уларда яшаётган халқларнинг онги, қалби ва дунёқарашига “боқимандалик” руҳиятини ривожлантирмоқда. Ушбу жараён қуйидагилар орқали юзага келмоқда: а) иқтисодиёт омили; б) фан-техника ва технология ютуқларини оммалаштириш; в) юксак тараққий қилган мамлакатларнинг қудратли иқтисодий, интеллектуал ва уддабуронлик салоҳияти устуворлиги асосида вужудга келган “оммавий маданият”ни жаҳон халқларнинг ўртасида кенг ёйиш ва улар онгига сингдириш борасида олиб борилаётган фаолиятлар орқали; г) кам тараққий қилган ёки энди тараққиёт йўлига кираётган мамлакатлар ва уларда яшаётган халқларнинг иқтисодий, интеллектуал салоҳиятлари глобаллашув жараёнларининг ривожланиш даражаларидан орқада қолаётганлиги кабиларда ўз ифодасини топмоқда. “Халқаро статистика маълумотларига қараганда, умумжаҳон даромади 20% қашшоқ мамлакатларнинг улуши 1960 йилдаги 2.3% дан 1990 йилда 1.4% га, 1994 йилда эса 1.1% гача камайган. Ер шарининг энг бой 20% аҳолиси билан энг қашшоқ 20% аҳолиси ўртасидаги тафовут 1960 йилда 30:1, 1991 йилда 61:1, 1994 йилда эса 78:1 ни ташкил этган. 1969 ва 1989 йиллар оралиғида 20% энг бой мамлакатларнинг жаҳон ялпи миллий маҳсулотлардаги ҳиссаси 70% дан 83% га ошган бўлса қашшоқ 20% мамлакатларнинг улуши 2.3 дан 1.4% га камайган”¹. Статистик маълумотлардан кўришиб турибдики, иқтисодий жиҳатдан ривожланган давлатлар тобора ривожланиб, қашшоқ давлатлар эса борган сари қашшоқлашиб бормоқда. Бугун етакчи трансмиллий корпорациялар кимнинг қўлида бўлса ўшаларнинг таъсир доираси кучли бўлмоқда. 1998 йилда 200 та энг катта трансмиллий корпорацияларнинг 74 таси АҚШ байроғи остида бўлган. Шунга ўхшаш корпорациялар барча товар айланмаларининг 36,5 фоизи улар ҳиссасига тўғри келган. Америкаликлар барча Трансмиллий корпорацияларни биргаликда олганда энг кўп даромад ишлаганлар” Улар 52,7 фоиз фойда кўрганлар. Дунёдаги энг катта 50 та компаниядан 33 тасининг штаб квартираси АҚШда жойлашган. Улар биржада барча катта қийматга эга бўлган акция-

¹ Худойберганова. Сиёсий глобаллашув: шаклланиш негизлари ва намоён бўлиш хусусиятлари.//Жамият ва бошқарув.2009, №4.34-бет



ларнинг 71,8 фоизига эгалик қиладилар. Дунёдаги мавжуд 201 та катта саноат ва молия компанияларининг 90 фоизи АҚШ. Буюк британия, Германия ва Франция каби катта беш мамлакат ҳиссасига тўғри келади¹. Юқоридагилардан хулоса қиладиган бўлсак Мустақил Ўзбекистонимизнинг жадал суръатлар билан ривожлани-шини таъминлаш ва етакчи демократик давлатлар қаторидан жой олиш ва дунё ҳамжамиятида муносиб ўрин эгалаши нақадар долзарблиги келиб чиқади. Бу эса ўз навбатида таълим-тарбия масалаларининг такомиллашти-рилишига бориб тақалади. Ривожланган давлатларнинг асосий даромади ва иқтисодий ўсишининг асосий сабаби бу уларнинг ишлаб чиқариш жараёнларининг узлуксиз жаҳон талаблари ва рақобат муҳити талаблари асосида модернизация қилиб боришларидадир. Қисқа қилиб айтадиган бўлсак билимга асосланган иқтисодиётдир. Билимга асосланган иқтисодиёт асосида фан ва таълим кўрсатилади. Фан ва таълимни инноватор олимлар, муҳандис техниклар ва профессор-ўқитувчилар яратади. Ўз навбатида бизнинг республикамиз олим ва муҳандисларини, профессор - ўқитувчиларини ҳам бугунги кун бозор талаби даражасида ишлашга ўрганиши ва ўргатилиши талаб қилинади. Бу жараённи иложи борича республика узлуксиз таълимнинг барча босқичларида зарурий шарт сифатида киритиш мақсадга мувофиқдир. Бунда жамиятни барқарор ривожланиши учун уни кенг компьютерлаштириш ва чуқур ахборотлаштириш керак. Шунда ҳамма жараёнларни ва ислохотларни сифатли, ўз вақтида илмий асосда бошқариш мумкин. Билим ва янги ахборот бу ажралмас бир нарса. Ахборотсиз билим олиш ва янги билим ишлаб чиқиб бўлмайди, инновациялар яратиб бўлмайди. Янги билим яратиб, уни экспорт қилиш ҳам бошқа иқтисодий фаолиятларга нисбатан жуда самарадорлиги баланд. Чунки янги билим яратиб уни ўқитишга ортиқча ҳаражатлар керак эмас. Масалан, ер, сув ва бошқа моддий ресурслар деярли керак эмас. Копьютерлаштириш натижасида электрон дарсликлар ва электрон кутубхоналар пайдо бўлиб қоғозга бўлган эҳтиёж кескин камайди.

Мамлакатимиз Биринчи Президенти И.А.Каримов “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” китобларида шундай тарихий сўзлар ёзилган: Фан самардорлигини сифат жиҳатдан оширишга куруқ даъватлар билан эришиш мумкин эмас. Илмий муносабатни ҳам тубдан ўзгартириш, уларнинг ижтимоий мақомини қатъиян ошириш, чуқур структура ўзгаришлари қилиш зарур. Ривожланган мамлакатларнинг тажрибаси фан учун ҳеч нарсани аямаётган мамлакат гуллаб –яшнаётганлигини ва бундай давлат ҳамма яхши нарсаларни –одамларнинг куч ғайратини ҳам , моддий техника ресурсларини ҳам ўзида жамлаётганлигини яққол кўрсатмоқда. Фанни малакали кадрлар билан таъминлаш, ходимларнинг профессионал билимдонлиги даражасини ошириш, уларнинг қобилиятларини рўёбга чиқариш учун барча шароитларни яратиш илмий жараённи жадаллашти-ришнинг асосий омилдир. Бу билимга асосланган иқтисодиёт моделидир”. Шундай экан бу масалалардаги ислохотларни янада чуқурлаштириш таълим-тарбия масалаларини янада такомиллаштириш йўналишида ишлар олиб борилиши лозим бўлади. Бу борада Президентимиз 2016 йил 30 декабрда мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намояндalари билан учрашувида айтган қуйидаги сўзлари яққол ифодалаб турибди. “Мамлакатимизда амалга оширилаётган тадқиқотларнинг ҳаммасини ҳам илм-фаннинг бугунги юқори ривожланиш даражасига тўла жавоб беради, деб бўлмайди. Юқори технологик илмий маҳсулотларни амалиётга жорий этиш учун янги замонавий тажриба –ишлаб чиқариш , конструкторлик технологик ташкилотлар ҳамда инновация марказларини ташкил этиш зарур. Маркетинг ва лицензиялаш хизматлари талаб даражасида эмас . Бу мамлакатимиз илмий-инновацион маҳсулотларини амалиётга кенг татбиқ этишда яққол сезилмоқда. ²

Ушбу йўналишда биринчини навбатда мавжуд саноат ва таълим соҳасидаги кадрларни ахборот билан таъминлаш ва шу аснода ишлаш йўналишига аста-секинлик билан ўтказиш бугунги куннинг долзарб масаласидир. Бу эса бу борада нафақат республикамиз олим ва муҳандисларини, проофессор – ўқитувчилари билан балким умумий ўрта таълим мактаби ўқувчилари, касб -хунар коллежлари ва академик лицей талабалари, олий таълим муассасалари талабалари билан иш олиб боришни талаб қилади. Айниқса олий таълим муассасалари талабалари билан ишлаш бу борада бизнинг фикримизча ўта муҳимдир. Ушбу

¹ Отамуратов С.Глобаллашув ва миллат (сиёсий-фалсафий таҳлил). –Т.:”Янги аср авлоди”,2008.43-б

² ХудойбергановаА. Сиёсий глобаллашув: шаклланиш негизлари ва намоён бўлиш хусусиятлари.//Жамият ва бошқарув.2009, №4.34-бет



йўналишда қилинадиган ишлардан “Интернет тармоғи” илмий-методик имкониятларидан тўлақонли фойдаланишни ўрганиш ишларини олиб бориш даркор.

Бугунги кунда “Интернет тармоғи” да кўпгина замонавий татқиқотлар натижалари тахлилларини топиш мумкин. Замондан орқада қолмаслик учун илм-фан йўналишидаҳар бир мамлакат бир қадам олдинда юришга ҳаракат қилмоқда. Бундай тарзда ишларни ташкил қилишда бизнинг фикримизча республикамиздаги илмий-техникавий ишларнинг ривожланишига тўсиқ бўлаётган омиллардан асосийси баъзи олимларимизнинг собиқ шўролар давридан сақланиб келаётган эскича қарашлару “изоляция муҳит”га ўрганиб қолганликларини кўрсатиш мумкин. Баъзи илмий мактабларимиз бугун ҳам эски қарашлар асосида илм қилишда давом этишмоқда. Жаҳондаги фанлардан фойдаланиш техникавий-технологик жиҳатдан замонавий шиша толали интернет тармоқлар, супер компьютерлар тизимларидан фойдаланишни талаб қилади. Бу компьютерларга дастурлар таъминоти ва мутахассислар зарур бўлади. Чет ривожланган мамлакатларда илмий-техник инновация тушунчасига бошқача қараш мавжуд. Бу давлатларда илмий-техник янгилик сотиб олинсагина инновация мақомига эга бўлади. Яратилган технология амалиётга татбиқ этилиши, яъни инвесторга сотилиши учун нархланиши керак. Интеллектуал мулк ҳам маҳсулот, унинг ўз қиймати бўлади. Бу борадаги ишларни жадал олиб боришда чет эл стандартлари талаблари асосида иш олиб борадиган, интеллектуал мулкни қийматини белгилайдиган ва бозорга олиб чиқадиган ташкилотлар тармоғи талаб қилинади. Бугун таълим-тарбия соҳасининг ҳар бир ходими бу борада маълумотга эга бўлиши ва ушбу йўналишда ўз устида иш олиб бориши даркор. Фақат инновацион технологияларга асосланган таълим тизимигина юқорида тилга олинган муаммолари ечишга қодир рақобатбардош мутахассисларни тайёрлашга ва мамлакатимизнинг ривожланишига олиб келади.

Адабиётлар

1.И.А.Каримов “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида”- Т.: “Ўзбекистон”, 2011й.

2.Шавкат Мирзиёев. Илм-фан ютуқлари –таракқиётнинг муҳим омили. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Янги йил арафасида 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намоёндалари билан учрашуви. . “Халқ сўзи” газетаси 2016 й. 31 декабрь №259

3. Отамуратов С.Глобаллашув ва миллат (сиёсий-фалсафий таҳлил). –Т.:”Янги аср авлоди”,2008.43-б.

4.ХудойбергановА. Сиёсий глобаллашув: шаклланиш негизлари ва намоён бўлиш хусусиятлари. –Т.: //Жамият ва бошқарув.2009, №4.34-бет

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
